

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI

*2025-yil “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili”
ga bag‘ishlanadi*

**“Janubiy va Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari:
Til, adabiyot va tarjima masalalari”
mavzusidagi iqtidorli talabalar
ilmiy-amaliy anjumani materiallari**

Toshkent 2025

Ushbu to‘plam Janubiy Osiyo tillari va adabiyoti oliy maktabi talabalarining yillik reja asosida tasdiqlangan talabalar ilmiy anjumni materiallari asosida tayyorlandi. To‘plam tarkibiga Uzoq va Yaqin Sharq mamlakatlari tili va adabiyoti, madaniyati, tarjima masalalari bilan bog‘liq iqtidorli talabalarning ilmiy izlanishlarining natijalari aks etgan. To‘plam sharq mamlakatlariga qiziquvchi hamda filologik yunalishdagi barcha o‘quvchilar uchun kerakli ma’lumotlar manbai bo‘lib xizmat qilishiga umid qilamiz.

To‘plovchi va nashrga tayyorlovchi:
Mahliyo Mamatkulova

Mas’ul muharrir va so‘zboshi muallifi:
PhD., dotsent Nilufar Xodjayeva

Taqrizchilar:

filologiya fanlari doktori, professor Ulpatxon Muhibova
filologiya fanlari doktori, dotsent Sirojiddin.Nurmatov

TDSHU Kengashining 2025 - yil 31.05 da bo‘lib o‘tgan 10 -sonli majlisida ko‘rib chiqilib nashrga tavsiya etilgan.

MUNDARIJA

Tilshunoslik

Durdiyeva Sultonposhsha Vyetnam va o'zbek tillarida turizm konsepti.....	6
Qurbonova Ozoda Hindiy tilidagi qishloq xo'jaligiga oid terminlarning struktur tahlili.....	12
Xayrullayeva Xumora Urdu tilida onomastik birliklarning tarixiy-etimologik tasnifi (Sa'diy sheroziyning "bo'ston" asari misolida).....	21
Turg'unaliyeva Gulrux Urdu va o'zbek tillarida son komponentli frazemalarning o'zbek tilidagi muqobillari xususida.....	30
Akbaraliyeva Muqaddas Urducha maqollarning lingvomadaniy qirralari.....	35
Muhamaddajonov Xasanxon «Urdu va arab tillaridagi fe'lga oid leksik parallellarning morfologik va struktur jihatlari».....	41
Atxamova Hadicha Hindiy zoonimlarining etimologik tadqiqi hayvonlar naslining terminalogik xususiyatlari.....	47
Raufova Shaxzoda Hindiy tilining rivojlanish bosqichlari: lingvistik tarixi tahlili.....	58
Patxullayeva Mahliyo Hindiy tilida iqtisodiy terminlarning tematik tasnifi.....	66
Abdumo'minova Ziyoda Xitoy tilidan malay tiliga o'zlashgan so'zlarning ma'no kengayishi va o'zgarishlari.....	80
Abdujabbarova Madina Malay tilida old qo'shimchalar tasnifi.....	86
Turonova Nilufar Malay tilida fe'l yasovchi qo'shimchalar tasnifi.....	90
Atabayeva Zumradxon Malay tili tarixi: mustaqillikgacha bo'lgan davrda malay tili.....	94
Toshmurodova Xumora Malay tilida sifat va uning darajalari.....	104

Nuritdinova Odinaxon Hind-oriy tillarida (hindi va urdu) tibbiyotga oid arab-fors o'zlashmalarining lingvistik xususiyatlari.....	109
O'Imasova Sevinch Hindi, o'zbek va ingliz tillarida kesimlik qo'shimchalari (होना, to be)ning ifodalanishi.....	115
Bayitova Setorabonu Hindi, ingliz va o'zbek tillarida kelishikni ifodalovchi vositalar	121
Salimova Shahinabonu Hindi tilidagi turkiy so'zlar va ularning mavzu guruhlari.....	128
Mamadaliyeva Laylo Hindi va o'zbek tillarida “-mi?” so'roq yuklamasining ifodalanish xususiyatlari.....	133
Ismoilova Omina Hindi tili va uning jahon tillari orasidagi o'rni	136

Adabiyotshunoslik

Shaydullayeva Ro'zinor Shahnnon ahmad asarlari malay jamiyati oynasi	146
Mamayusupova Ozoda Usmon avang she'riyatida jamiyat mavzusi.....	151
Kuchkarova Zuhra Upendranath ashkning “dachi” hikoyasi: ota mehrining fidoyiligi va ijtimoiy tengsizlikning achchiq haqiqatlari.....	158
Kenjayeva Faxriddin Hindiston adabiyotida vedantalarning tutgan o'rni va bugungi kundagi ahamiyati	163
Xasanboyeva Barno Hind bolalar folklori	168

Tarjimashunoslik va mamlakatshunoslik

Maxamadxo'jayeva Muslima Murakkab tugal sifatdoshlarning aniqlovchi, ravish holi va ot-kesim vazifalarida qo'llanishi (“Tohir va zuhra” asarining urducha tarjimasi asosida).....	181
Fayzullayeva Omina Tarjimada qo'llanilgan tugal zamon grammatik shakllarining morfologik jihatlari (“uch og'ayni botirlar” asarining urducha tarjimasi asosida).....	188
Oltinbayeva Muborak “Garri poter” asarining urdu tilidagi tarjimasida sifat arajalari.....	195
Usanova Muxlisa Biriyani – hind milliy taomi.....	203

Shapsanov Shoislom Mustaqilik davrida malayziya ta'lim sohasidagi muammolariga oid so'zlarning uslubiy o'ziga xosligi	209
Rahmonboyeva Nurjona Hindistonda gender tenglik	219
Ikromova Madinabonu Malay jamiyati rivojida pujangga baru (jadidlar) harakati.....	227
Muxammedov Abdurashid Yo'qolib borayotgan kalash xalqi va uning madaniyati xususida ba'zi mulohazalar.....	231
Bo'riyev Murodulo Imron xon davrida pokiston tashqi siyosatining asosiy yo'nalishlari	241
Kanalimova Asel Hindiston milliy liboslari.....	247
Ibodullayeva Diyora Malayziyadagi to'y marosimlarining o'ziga xosliklari.....	257
Pardayev To'rabek Mahatma Gandining Hindiston tillari siyosatidagi yondashuvi: til va birlik.....	266
Abdusattarova Sayyora Hindiston jamiyatida Mehndi (xina)ning o'rni.....	270

TILSHUNOSLIK

VYETNAM VA O‘ZBEK TILLARIDA TURIZM KONSEPTI



Durdiyeva Sultonposhsha

TDSHU 1-kurs lingvistika mutaxassisligi magistranti

Ilmiy rahbar: PhD, dots.v.b K.Rahmatjonova

Annotatsiya. Mazkur maqolada Vyetnam va O‘zbekistonda turizm konseptlari o‘rtasidagi umumiyliklar va farqlar tahlil etilgan. Turizmning globalizatsiya davridagi ahamiyati hamda tilshunoslik nuqtai nazaridan turizm atamalari chog‘ishtirma tahlil qilingan. Vyetnam va o‘zbek tillarida ishlatiladigan asosiy turizm terminlari jadvallarda aks ettirilgan.

Kalit so‘zlar: konsept, turizm, turist, sayohatchi, festival, mehmonxona.

Bugungi kunda globalizatsiya jarayonlari va xalqaro aloqalarning rivojlanishi tufayli turizm dunyo bo‘ylab eng muhim iqtisodiy va madaniy sohalardan biriga aylangan. O‘zbekistonda ham, Vyetnamda ham turizm sohasining rivojlanishiga davlat iqtisodiyotini yaxshilash, madaniyatlararo aloqalarni o‘rnatish va sayyohlar oqimini jalb qilish maqsadida alohida e‘tibor qaratilmoqda. Shu bois turizm kontseptini tanlangan ikki tilda, ya‘ni vyetnam va o‘zbek tillarida o‘rganilishi, o‘zaro o‘xshashliklar va farqlarni aniqlash ushbu sohani yanada chuqurroq tushunishga yordam beradi.

Ma‘lumki, konsept so‘zi keng ma‘noga ega bo‘lib, uni turli mavzularda ishlatish mumkin. Umuman olganda, “konsept” – biror narsaning umumiy tushunchasi, ya‘ni u yoki bu predmet-hodisaning

asosiy xususiyatlari, strukturasi ¹. Tilshunoslikda esa konsept til orqali ifodalangan fikr, tushuncha yoki obraz sifatida talqin etiladi.

Konsept tushunchasi turizm sohasida ham alohida o‘rin tutadi, chunki turizmning tarixi, rivojlanish jarayonlari va madaniy aloqalari har bir millat va jamiyatda alohida ifodalangan.

Ma’lumki, turizm bugungi kunda keng rivojlanib borayotgan soha bo‘lib, u nafaqat dam olish, balki o‘zini rivojlantirish va yangi narsalarni o‘rganishning ajoyib usuli hamdir. Turli mamlakatlarga sayohat qilish orqali boshqa xalqlarning urf-odatlarini, tabiati, tili, madaniyati va tarixiy yodgorliklari bilan tanishish mumkin. Bu o‘z o‘rnida millatlararo bog‘rikenglik va hurmat tuyg‘usini oshiradi. Hozirgi kunda mazkur sohaga davlat tomonidan katta e’tibor berilmoqda. Yangi mehmonxonalar, dam olish maskanlari qurilmoqda, turistlar uchun qulay sharoitlar yaratilmoqda. Bu esa o‘z navbatida, mamlakatning xalqaro obro‘sin oshirishga, iqtisodiyotni rivojlantirishga va aholining turmush darajasini yaxshilashga xizmat qiladi.

Sayohat qilish jarayonida til, madaniyat va o‘zaro muloqot almashish muhim ahamiyat kasb etadi. Tilshunoslik nuqtai nazaridan turizmning ahamiyati til o‘rganishga bo‘lgan qiziqishni oshirish, aholi o‘rtasida ko‘p tillilikni rivojlantirish, tilning ijtimoiy va madaniy funksiyalarini, til va madaniyat o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganish, til dasturlari va resurslarni yaratish kabilarni o‘zida mujassam etadi. Tilshunoslikda sayyohlik nutqi tadqiqotlari so‘nggi yillarda ayniqsa rivojlanib bormoqda. Shunday bo‘lsada, tilshunoslik uchun bu yangi soha hisoblanadi. Sayyohlik bilan bog‘liq atamalarda ochiq qolgan savollar ko‘p. Bulardan biri, sayyohlik nutqining tipologik tasnifidir. Hozirgi kun ilm-fanida sayyohlik nutqining tilshunoslik nuqtai nazardan xususiyatlarini o‘rganishga katta e’tibor berilmoqda.²

Turizm (fransuzcha, tour-sayohat, sayr), sayyohlik-sayohat (safar) qilish; faol dam olish turlaridan biridir. Turizm deganda jismoniy shaxsning doimiy istiqomat joyidan sog‘lomlashtirish, ma’rifiy, kasbiy, amaliy yoki boshqa maqsadlarda borilgan joyda haq to‘lanadigan faoliyat

¹ Vohidov A Tilshunoslikda konseptlar va ularning o‘rni.-Samarqand.:Samarqand University Press, 2018

² <http://ilmiyanjumanlar.uz/uploads/conferences/0028/1.5.pdf>

bilan shug‘ullanmagan holda uzog‘i bilan bir yil muddatga jo‘nab ketishi tushuniladi.³ Demak, turizm kishining doimiy yashab turgan joyidan boshqa joyga borishi va u yerda biron foydali mashg‘ulot bilan band bo‘lishi demakdir. Shunisi ahamiyatliki, turizm atamasi umumiy tushuncha bo‘lib, butun dunyo bo‘ylab tarqalgan sanoat tarmog‘i hisoblanadi. U turli madaniyat va davlatlarni bir-biriga bog‘laydi.

Vyetnam tilida turizmga doir terminlar ko‘proq du lịch (sayohat), dịch vụ du lịch (turistik xizmatlar) va khách du lịch (sayyohlar) kabi iboralarda namoyon bo‘ladi. O‘zbek tilida esa “turizm” tushunchasi ko‘plab turli atamalar va iboralar bilan ifodalanadi. Masalan, sayohat, sayyohlik, turistik xizmatlar kabi iboralar turizmning turli jihatlarini anglatuvchi atamalardir. Har ikki tilda ham turizmning asosiy maqsadi sayyohlarning ehtiyojlarini qondirish, yangi tajriba orttirish va madaniy almashinuvni ta’minlashdir.

1-jadval

Vyetnam tilida	O‘zbek tilida
du lịch	sayohat, sayyohlik
dịch vụ du lịch	turistik xizmatlar
khách du lịch	sayyohlar
công ty du lịch	sayohat yoki turistik kompaniya
tour du lịch	sayohat turi
bảo hiểm du lịch	sayohat sug‘urtasi

Vyetnam va o‘zbek tillarida turizm terminlari o‘rtasidagi umumiyliklarni aniqlash mumkin. Har ikkala tilda ham turizmni izohlovchi asosiy iboralar mavjud. Masalan, “sayohat” va “du lịch” so‘zlari, “sayyoh” va “khách du lịch” so‘zlari o‘zaro o‘xshashdir. Biroq har bir madaniyatning o‘ziga xosligi va tarixiy sharoitlari tufayli ba’zi terminologik farqlar ham mavjud. Masalan, Vyetnamda “di sản văn hóa” (madaniy meros) so‘zi ko‘proq ishlatiladi, bu esa Vyetnamning madaniyatga bo‘lgan chuqur e’tiborini aks ettiradi. O‘zbekistonda esa

³ O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi.-T.: Davlat ilmiy nashriyoti,-B.722.

“qadimiy yodgorliklar” yoki “tarixiy obidalar” kabi iboralar ko‘proq ishlatiladi.

2-jadval

Vyetnam tilida	So‘zma so‘z tarjimasi
du lịch lễ hội	festival turizmi
du lịch tâm linh	ruhiy turizmi
du lịch ba lô	ryukzakli sayohat (backpacking)
<i>du lịch biển và bãi biển</i>	plyaj va dengiz turizmi

Ko‘rinadiki, 2-jadvalda berilgan vyetnamcha turizmga oid terminlarning o‘zbekcha muqobili uchramaydi. Bu terminlar vyetnam madaniyatining o‘ziga xos jihatlarini aks ettiradi. Masalan, du lịch lễ hội, ya’ni festival turizmi. Bu turizm turi Vyetnamda juda rivojlangan va mamlakatning boy madaniy merosini aks ettiradi. Vyetnamda har yili turli festivallar o‘tkaziladi, masalan: **Tết Nguyên Đán, ya’ni yangi yil festivali, bu festival** bahorning boshlanishi va oilaviy birlikni nishonlash maqsadida o‘tkaziladi. **Lễ hội Chùa Hương, ya’ni Huong ibodatxonasi festivali, bu festil esa** ruhiy poklanish va ibodat qilish maqsadida o‘tkaziladi. Festivallar davomida odamlar milliy raqslar, an’anaviy taomlar va diniy marosimlarda ishtirok etadilar. Festival turizmi orqali sayyohlar Vyetnamning boy madaniyati va urf-odatlarini bilan yaqindan tanishadilar. Keyingi turizm turi du lịch tâm linh, ya’ni ruhiy turizm turi bo‘lib, Vyetnamda ruhiy turizm ko‘pincha ibodatxonalar, muqaddas joylar va tarixiy yodgorliklarga tashrif bilan bog‘liq. Bu turizm turi odamlarning ruhiy poklanishi, tinchlik topishi va ichki uyg‘unlikni his qilishi uchun amalga oshiriladi. O‘zbekistonda ham maqbara va ziyoratgohlarga tashrif buyurish keng tarqalgan, lekin buni alohida “ruhiy turizm” sifatida ko‘rish odatiy emas. Uchinchi turizm turi du lịch ba lô, ya’ni ryukzakli sayohat (backpacking) turi bo‘lib, bunday sayohat turi mustaqil sayohat qilishni, arzon xarajatlar bilan ko‘proq joylarni kashf etish kabilarni o‘z ichiga oladi va sayohatchilarga erkinlik va sarguzasht ruhini bag‘ishlaydi. Oxirgi turizm turi, *du lịch biển và bãi biển* ya’ni plyaj va dengiz turizmi bo‘lib, ma’lumki, Vyetnam o‘zining uzun sohillari va go‘zal plyajlari bilan mashhur va bu turizm turi sayyohlarga suzish, sho‘ng‘ish va quyoshda dam olish imkoniyatini beradi.

Xuddi shunday jadvalni asosan o‘zbek tilida ishlatiladigan atamalar bilan ham uchratish mumkin.

3-jadval

O‘zbek tilida	So‘zma so‘z tarjimasi
Ipak yo‘li turizmi	Du lịch Con đường tơ lụa
Baxshichilik va folklor turizmi	Bakhshiism và du lịch văn hóa dân gian
Hunarmandchilik va kulolchilik turizmi	Du lịch thủ công mỹ nghệ và gốm sứ
Cho‘l va yurt turizmi (Cho‘llarda yurtlarda yashash va an‘anaviy hayotni his qilish)	Du lịch sa mạc và Yurt

Ko‘rinadiki, 3-jadvalda berilgan o‘zbekcha turizmga oid terminlarning vyetnamcha muqobili uchramaydi. Bu terminlar o‘zbek madaniyatining o‘ziga xos jihatlari aks ettiradi. Masalan, Ipak yo‘li turizmi, bu O‘zbekistonning qadimiy shaharlari Samarqand, Buxoro va Xiva kabilar orqali o‘tuvchi qadimiy savdo-sotiq yo‘li hisoblanib, O‘zbekistonning boy tarixiy merosi va savdo-sotiqdagi muhim o‘rnini aks ettiradi. Baxshichilik va folklor turizmida esa o‘zbek xalqining og‘zaki ijodiyoti va urf-odatlarini namoyon etadi. Hunarmandchilik va kulolchilik turizmi milliy hunarmandchilik an‘analari va san‘atni asrab-avaylashga hissa qo‘shadi. Keyingi cho‘l va yurt turizmida esa asosan O‘zbekistondagi Qizil qum va Qora qum cho‘llarda, yurtlarda yashab, ko‘chmanchi hayotni his qilish, mahalliy milliy taomlar va xalq an‘analari bilan tanishish imkonini beradi.

Ko‘rimnadiki, turizm konsepti vyetnam va o‘zbek tillarida umumiy o‘xshashliklar va farqlarga ham ega bo‘lib, har ikki tilda ham turizmning asosiy tushunchalari aniq ifodalangan. Shuningdek, turizmning madaniy, iqtisodiy va tilshunoslikdagi o‘rni o‘zaro o‘xshash xususiyatlarga ega bo‘lsada, har bir millatning o‘ziga xosligi ham alohida e‘tibor talab etadi. Vyetnam va o‘zbek tillarida turizm terminini o‘rganish, bu sohaning global miqyosda qanday rivojlanayotganini va turizm kontseptining xalqaro ahamiyatini yanada yaxshiroq tushunishga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Nguyen T. H. Vietnamese tourism terminology: Analysis and Development. - Hanoi: Vietnam Publishing House: 2019
2. World Tourism Organization. Tourism Terminology: UNWTO
3. Vohidov A Tilshunoslikda konseptlar va ularning o‘rni – Samarqand: Samarqand University Press
4. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi - T.: Davlat ilmiy nashriyoti, -B.722.
5. <http://ilmiyanjumanlar.uz/uploads/conferences/0028/1.5.pdf>
6. Collins Vietnamese 3000 words and phrases, ISBN 978-0-00-839968-9.
7. O‘zbekiston Respublikasi Turizm va Madaniy meros vazirligi sayti: uzbektourism.uz

HINDIY TILIDAGI QISHLOQ XO‘JALIGIGA OID TERMINLARNING STRUKTUR TAHLILI



Qurbonova Ozoda

*TDSHU 2-kurs lingvistika mutaxassisligi magistranti
Ilmiy rahbar: f.f.d, dots.S.S.Nurmatov*

Annotatsiya: Mazkur maqolamiz hindiy tilidagi qishloq xo‘jaligiga oid leksemalarning struktur tasnifiga bag‘ishlanadi. Maqolada hindiy tilidagi qishloq xo‘jaligiga oid terminlar atroflicha o‘rganiladi. Shuningdek, hindiy tilidagi qishloq xo‘jaligiga oid leksemalarning yasashidagi o‘ziga xos xususiyatlari hamda so‘zlarning yasash usullari va yasash tiplari asnosida struktur jihatdan tasnif etiladi.

Kalit so‘zlar: struktur tahlil, qishloq xo‘jaligi, agglyutinatsiya, kalkalash, gibridlik, morfologik tahlil, sintaktik tahlil, suffiks, affiks .

Abstract: This article is devoted to the structural classification of agricultural lexemes in Hindi. The article studies agricultural terms in Hindi in detail. It also classifies agricultural lexemes in Hindi in terms of their specific features in the formation of agricultural lexemes, as well as the methods and types of word formation.

Keywords: structural analysis, agriculture, agglutination, calculus, hybridity, morphological analysis, syntactic analysis, suffix, affix.

So‘z yasaovchi qo‘shimcha bo‘lmagan so‘zlar **tub so‘zlar** deb ataladi⁴. Masalan:

फर्म – (m-r) ferma

फावड़ा – (m-r) ketmon

खाद – (m-r) og‘it

खेत – (m-r) yer

Negizga yasovchi qo‘shimcha qo‘shilishi bilan yasalgan sodda so‘zlar yasama so‘zlar deb ataladi⁵. Masalan:

खेती – (m-r) dehqonchilik

वनवासी – (m-r) o‘rmonchi

बागबान – (m-r) bog‘bon

Tildagi ma’lum usul va vositalar yordamida yangi so‘z hosil qilish so‘z yasalishi deyiladi. Tilshunoslikda so‘z yasalishi termini ikki ma’noda qo‘llaniladi. Bir tomondan, tilda yangi so‘z hosil qilish

⁴ Xolmonova Z. Tilshunoslikka kiring. – T., 2007. -B.110.

⁵ Xolmonova Z. Tilshunoslikka kiring. – T., 2007. -B.110.

jarayonining o'zini bildiradi, ikkinchi tomondan esa, tilshunoslikning so'z yasalishi sistemasini o'rganuvchi bo'limini bildiradi. So'z yasalishi tilda mavjud bo'lgan so'z yasalishi tarkibini va so'z yasalishi usullarini o'rganadi⁶.

Hindiy tilida so'zlar yangi so'zlar hamda so'z yasalishi orqali boyib boradi. Lug'at tarkibining boyishi, asosan, so'z yasalishi va boshqa tillardan yangi so'z, birikmalarni o'zlashtirish hisobiga ro'y bermoqda. Zamonaviy hindiy tilida so'z yasash quyidagi umumiy xususiyatlarga ega:

Agglyutinatsiya – so'z o'zakka o'zgarishsiz so'z yasovchi qo'shimchalarning ketma-ket qo'shilishi. Masalan:

मुर्गखाना – (m-r) tovuqxona . मुर्ग (tovuq) - खाना (xona)

चाहरदीवारी – (m-r) tomorqa. चाहर + दीवार + ई (forscha)

गावखाना – (m-r) og'ilxona. गाव (sigir, mol) - खाना (xona)

गल्लेबान – (m-r) cho'pon. गल्ला + बान (forscha)

चरागाह – (m-s) o'tloq चरा + गाह (forscha)

दोशाखा – (m-s) Panshaxa दो + शाखा (forscha)

Gibridlik – genetik jihatdan turli elementlardan yangi so'zlar yasash. Masalan:

पम्प(inglizcha) – घर (tatbhava) suv nasosi

मधु (sanskritcha) – मखी (tadbhava) asalari

बारहसिंगा (tadbhava) – पालक (sanskritcha) bug'u boquvchisi

मिट्टी (tadbhva) – विशेषज्ञ (sanskritcha) tuproqshunos

⁶ Azizov O. Tilshunoslikka kirish. -T.: O'qituvchi, 1996. -B 32.

Kalkalash – leksik-semantik va leksik-sintaktik modellarni o‘zlashtirish va ularni o‘sha til morfemalari bilan to‘ldirish.⁷ Masalan:

घरेलु पाशु – (m-r) Uy hayvonlari → ingliz tilidagi domestic animals

- Uy hayvonlari, so‘zidan olingan.

फूल गोभी – (m-r) Gulkaram → цветная капуста – Gulkaram (rus tilida)

गरम घर – (m-r) Issiqxona → a green house, a hot house (ingliz tilida)

Issiqxona

बागबानी साधन – (m-r) Tomorqa ish qurollari → gardening tools (ingliz tilida) Tomorqa ish qurollari

मिट्टी विशेषज्ञ – (m-r) Tuproqshunos → a soil scientist – Tuproqshunos (ingliz tilida)

Hindiy tilida so‘z yasashning besh xil usuli mavjud. Bular quyidagilar:

- 1.Morfologik;
- 2.Morfologo-sintaktik;
- 3.Sintaktik;
- 4.Leksiko-sintaktik;
- 5.Leksiko-semantik.

Hindiy tilida morfologik usul keng tarqalgan bo‘lib, olimlar uning 4 ta tipi mavjud deb talqin qiladilar. Ular:

1. Suffikslar bilan so‘z yasash tipi. (प्रत्यय) suffikslar so‘z oxirida qo‘shiluvchi, yangi ma‘nodagi so‘z yasovchi qo‘shimchalardir.

⁷ Дымщиц З.М. Грамматика языка хинди. Т II. -М.: Наука, 1986. -С.121.

मुर्गी Tovuq मुर्ग + आ (Sanskrit suffiksi)

मुर्गा Xo‘roz मुर्ग + ई (Sanskrit suffiksi)

अंगूरबानी (P) (Angur-ban-i) uzumchilik अंगूर + बान + ई (Sanskrit suffiksi)

2. So‘zning boshida qo‘shilib, yangi ma‘nodagi so‘z yasovchi qo‘shimchalar **prefikslar** (उपसर्ग) deyiladi.

उपजाना - Yetishtirish उप – (Sanskrit prefiksi) - जाना

3. Aralash tip- so‘zga ham **prefiks**, ham **suffiks** qo‘shish orqali yangi ma‘nodagi so‘z hosil qilish.

प्रजनक (S) – Chatishtiruvchi प्र (Sanskrit prefiksi) + जन (asos) + क (Sanskrit suffiksi)

प्राणी शास्त्री (S) – Zoolog प्राणी (Sanskrit prefiksi) + शास्त्र (asos) + ई (Sanskrit suffiksi)

4. Morfologik usulning to‘rtinchi tipi infiksatsiya, ya’ni ichki fleksiya bo‘lib, unda:

a) unlilarni qisqartirish:

b) unlilarni cho‘zish: उगना - उगाना o‘smoq – o‘stirmoq

चढ़ना – चढ़ाना ko‘tarmoq – yig‘moq

a) o‘rnini almashtirish yo‘llari bilan yangi so‘z yasaladi.

Ba‘zan undoshlarni almashtirish usuli bilan yasalgan yasama so‘zlar ham uchraydi. Ko‘pincha o‘timli fe‘llardan o‘timsiz fe‘llarni yasashda qo‘llaniladi. Hindiy tilidagi qishloq xo‘jaligiga oid terminlar orasida bunday so‘zlar aniqlanmadi.

Morfologik sintaktik usul bir qancha tiplarga (so‘zlarni **biriktirish, substansiya, addverbilizatsiya, allyiteratsiya, konversiya**) bo‘linadi. Hindiy tilidagi qishloq xo‘jaligiga oid terminlar orasida bu

tiplardan soʻzlarni biriktirish tipi uchradi. Ushbu tipda murakkab soʻzlarning boʻlaklari bir biri bilan obyektli yoki aniqlovchili munosabatda boʻladi. Masalan,

मिट्टी (tuproq) विशेषज्ञ (mutaxasis) – (m-r) Tuproqshunos

पशुपालन - Chorvachilik पशु (hayvon) - पालन (boqish)

Sintaktik usulda 2 ta mustaqil soʻz birikmasidan yangi soʻz yasaladi. Ularning oʻzagida oʻzgarish boʻlmaydi, ularning bir-biriga bogʻligligi ham boʻlmaydi. Qishloq xoʻjaligiga oid terminlar tahlil qilinganda quyidagi soʻzlar sintaktik usulda yasalgan yasama soʻzlarga taalluqli deb topildi:

शकरकंद (P+S) – Batat

कृष्णा फल (S) – Marakuyya

तेजपात - Lavr bargi

Leksiko sintaktik usulda turli xil soʻz turkumlariga oid soʻzlarni biriktirish orqali yangi maʼnolarni anglatuvchi soʻzlar hosil qilinadi.

दोशाखा – (m-s) Panshaxa दो (son) + शाखा (ot) (forscha)

मधु (sanskritcha) (sifat) – मखी (tadbhava) (ot) - asalari

लान (ot) मौवेर (feʼldan yasalgan ot) (E) - Maysa / chim oʻruvchi mashina

सिंचाई (harakat nomi) – मास्टर (ot) (H+E) - Suvchi

Leksiko-semantic usul- eski soʻzlarni yangi maʼno bilan tahlil qilinish usulidir. Turli soʻz turkumlaridan yasalgan ravish maʼnosida kelgan soʻzlar leksik-semantic usulda yasalgan hisoblanadi. Hindiy tilidagi qishloq xoʻjaligiga oid terminlar orasida bu usulga oid yasama soʻzlar aniqlanmadi.

Hindiy tilidagi qishloq xo‘jaligiga oid misollar struktur jihatdan ham tahlil qilinib, ularga mos misollar ham ko‘rsatib o‘tildi. Unga ko‘ra so‘zlar, avvalambor, tub va yasama so‘zlarga bo‘linib tahlil qilindi. Yasama so‘zlar esa o‘z ichida yana ikkiga bo‘linib tahlil etildi. Affiksatsiya, ya’ni so‘zga qo‘shimcha qo‘shish bilan so‘z yasashga doir hamda gibridlik, ya’ni genetik jihatdan turli elementlardan yangi so‘zlar yasash orqali yasalgan so‘zlar misollar yordamida tahlilga tortildi.

Hindiy tilida so‘z yasashning besh xil usuli mavjud. Bular quyidagilar: Morfologik; Morfologo-sintaktik; Sintaktik; Leksiko-sintaktik; Leksiko-semantik jihatdan ham tahlilga tortildi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Azizov O. Tilshunoslikka kirish. -T., O‘qituvchi, 1996. – 175 b.
2. Баранников А.П. Краткий грамматический очерк хинди. Прил. К «Хинди-русский словарь». -М.: Изд-во лит. на иностр. яз., 1959. -С.1123-1167.
3. Бархударов А.С. Словообразование в хинди. –М.: Просвещение, 1963.
4. Гуру К. Грамматика хинди. Часть I. Пер. с хинди Г.А. и Р.И.Баранниковых. Под ред. И с предисл. Проф. Б.А.Ларина. -М.: Изд-во иностранной лит-ры, 1957.
5. Дымщиц З.М. Грамматика языка хинди. Т I-II. -М.: Наука.

Lug‘atlar:

1. Хинди - русский словарь. Сост. В.М.Бескровный. Под ред. акад. А.П.Баранникова. -М.: ГИС, 1959.

2. Русско - хинди словарь. Под ред. В.М.Бескровного. -М.: ГИС, 1957.
3. Бескровного. В.М. Т I. -М.: Советская Энциклопедия, 1972.
4. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Tom-V. -Т.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. –В.
5. Хинди-русский словарь. Составители А.С.Бархударов, В.М.Бескровный, Г.А.Зограф, В.М.Липеровский. Под ред. В.М.Бескровного. Т I-II. -М.: Советская Энциклопедия, 1972.
6. www.shabdkosh.com
7. www.collinsdictionary.com
8. www.dict.hindikhoj.com
9. www.rekhtadictionary.com
10. www.educalingo.com

**URDU TILIDA ONOMASTIK BIRLIKLARNING TARIXIY-
ETIMOLOGIK TASNIFI (SA'DIY SHEROZIYNING “BO‘STON” ASARI
MISOLIDA)**



Xayrullayeva Xumora

TDSHU 2-kurs lingvistika mutaxassisligi magistranti

Ilmiy rahbar: f.f.n.,prof.M.N.Abdurahmonova

Annotatsiya. Maqolada Sa'diy Sheroziyning “Bo‘ston” asari misolida onomastik birliklarning tarixiy-etimologik tasnifi tahlil qilinadi.

Unda asardagi antroponim va toponimlarning kelib chiqishi, semantik xususiyatlari va ularning tarixiy asoslari o‘rganiladi.

Kalit so‘zlar: onomastika, global onomastika, areal onomastika, mintaqaviy onomastika, antroponimika, toponimika.

Mazkur maqolani yozishdan maqsad “Bo‘ston” asaridagi onomastik birliklarni tarixiy-etimologik jihatdan tahlilga tortib tasniflashdir.

Tilshunoslikda nomlar, terminlarni o‘rganuvchi maxsus bo‘lim mavjud bo‘lib, u onomastika deb ataladi.

Onomastika (yunoncha onomastikós – nomlashga oid, ónoma – ism, nom) – tilshunoslikning o‘ziga xos nomlarni, ularning kelib chiqishi va tilda uzoq muddat qo‘llanishi yoki boshqa tillarga o‘tishi natijasida yuzaga kelgan o‘zgarishlarni o‘rganuvchi bo‘limi hisoblanadi.

Onomastika termini ikki ma’noga ega. Birinchidan, bu termin o‘ziga xos nomlar, ya’ni atoqli otlar haqidagi majmuaviy fanni anglatadi. Ikkinchidan, u mazkur nomlarning o‘zini bildiradi; bu ma’noda “onimiya” termini ham qo‘llaniladi. Atoqli otlar masalalarini umumiy tilshunoslikdan alohida ajratib o‘rganish, nomlarning til tizimidagi o‘rnini hisobga olgan holda asoslanadi.

Onomastika o‘ziga xos nomlarning tarixi, rivojlanishi va faoliyat yuritishining asosiy qonuniyatlarini o‘rganadi. O‘z materiallari va tadqiqot metodikasiga ega bo‘lgan onomastika mustaqil fan bo‘lishi tabiiydir. U “fanlar chorrahasi(kesishuvi)”da paydo bo‘lgani sababli, tadqiqot obyekti nihoyatda murakkab va keng qamrovli hisoblanadi.

Onomastik tadqiqotlar sinxroniya va diaxroniya nuqtai nazaridan, struktur va qiyosiy-tarixiy metodlar asosida amalga oshirilishi mumkin. Onomastik tadqiqotlar global, areal va mintaqaviy darajada olib borilishi ham mumkin. Global onomastika turli davlatlar va xalqlarning atoqli nomlari o‘rtasidagi tipologik o‘xshashliklarni aniqlash, nomlarga xos umumiy qonuniyatlarni o‘rnatish, ularning tilga bog‘liq bo‘lmagan holdagi xususiyatlarini o‘rganish hamda onomastik universalialarni chiqarish bilan shug‘ullanadi. Ushbu universalialar umumiy lingvistik universalialar bilan muayyan parallelizmga ega bo‘lsa-da, tadqiqot

obyekti o'ziga xos bo'lgani sababli ular bilan to'liq mos kelmaydi. Global onomastik tadqiqotlar natijalari faqat tipologiya bilan shug'ullanuvchi tilshunoslar uchun emas, balki tarixchilar va etnograflar uchun ham katta ahamiyatga ega. Areal onomastika muayyan onomastik hodisalarning tarqalish areallarini aniqlaydi. Ushbu areallar, odatda, dialektologik areallar bilan mos kelmaydi, balki zamonaviy til holatidan oldingi til manzarasini aks ettiradi. Onomastik tadqiqotlar natijasida aniqlangan areallar substrat masalasini, shuningdek, avvalgi davrlarda xalqlarning ko'chib o'tishi jarayonlarini aniqlashga yordam beradi.

Mintaqaviy onomastika esa ma'lum hududlarga tegishli bo'lgan nomlarni birlashtiruvchi onomastik tizimlarni aniqlaydi. Ushbu tizim mavjud nomlarni idrok etishga va yangi nomlar yaratishga muayyan darajada ta'sir ko'rsatadi. Har bir tarixiy davrda tizim ichki muvozanat va o'z tarkibiy qismlarining o'zaro bog'liq "qadriyatiga" ega bo'ladi. Shu bilan birga, tizim doimiy ravishda o'zgarib va qayta shakllanib boradi. Ayniqsa, aholi etnik va lingvistik tarkibi almashganda, mafkuraviy va siyosiy ta'sir o'zgarganda bu jarayonlar yanada kuchayadi.

Onomastika atoqli nomlarni olgan obyektlarning toifalariga muvofiq quyidagi bo'limlarga bo'linadi: antroponimika, toponimika, zoonimika, fitonimika, kosmonimika, teonimika va b.

Antroponimika (yun. antropos – odam, onima – nom) kishilarning ismi, ularning kelib chiqishi, tarqalishi, jamiyatda qo'llanishini, bundan tashqari, antroponimik tizimlar tuzilishi va rivojlanishini o'rganuvchi bo'lim hisoblanadi. Antroponimika 1960-1970-yillarda onomastikadan ajralib chiqqan, ungacha "antroponimika" termini o'rniga "onomastika" termini qo'llanilgan. Antroponimika tarkibiga quyidagi mikroko'lamlar kiradi:

ismlar – inson dunyoga kelganida beriladigan nom.

laqab – shaxsga uning atrofida gilar tomonidan beriladigan, kishining xarakterli belgi va xususiyatini ifoda qiluvchi, asosan, shaxs ismi bilan birga qo'llaniluvchi nom.

familiya – shaxsning ma'lum oila yoki avlodga mansubligini ko'rsatadigan, avloddan-avlodga meros bo'lib o'tadigan rasmiy nom.

otatism –

shaxsning otasi yoki bobosi ismiga “o‘g‘li”, “qizi” so‘zlarini qo‘shish yoki -ovich (-ovna), -evich (-evna) qo‘shimchalari orqali yasaladigan atoqli ot.

patronim – shaxsni uning avlod-ajdodlari nomi bilan atash usuli.

matronim – ona (ayol)ning ismi yoki laqabidan yasalgan ism yoki familiya.

eponim – mashhur shaxs(lar) nomiga nisbat berilgan atoqli ot.

taxallus – ijodiy yoki ijtimoiy faoliyat jarayonida shaxs o‘zi tanlagan, asosiy ismi bilan birgalikda yoki uning o‘rnida qo‘llaniladigan to‘qima atoqli ot.

genonim – urug‘, avlod-ajdod yoki ularning tarmoqlarining atoqli oti.

Toponimika (yun.topos – joy, onima – nom) onomastikaning jug‘rofiy nomlarning paydo bo‘lishi, rivojlanishi, o‘zgarishi, tarixiy-etimologik manbalarini o‘rganuvchi bo‘limi. Toponimika geografiya, tarix, etnografiya bilan chambarchas aloqada rivojlanadi.

Muayyan bir hududdagi joy nomlari majmui – toponimiya, alohida olingan joy nomi esa toponim deb ataladi. Toponimika tarkibiga kiruvchi mikroko‘lamlar: oykonim – aholi yashaydigan turarjoy, maskanlar nomi. komonim – qishloq, ovul tipidagi joylarning atoqli nomi. urbanonim – shahar hududida joylashgan har qanday topografik obyektga berilgan nom.

agroonim – vodiylar, dalalar, adirlar, yer uchastkalarining nomi.. nekronim – qabristonlar, mozorlar va shu tipdagi muqaddas qadamjolar nomi.

terronim – dunyo okeanlariga qarama-qarshi ravishda qirg‘oq hududidagi geografik obyektlarning nomi.

regionim – o‘zaro chegaradosh bo‘lgan yirik hududlar (viloyat, tuman, mamlakat va b.)ning nomi.

dromonim – harakatlanish imkonini beradigan har qanday yo‘l (yer osti, yer usti, suv osti, suv usti)ga berilgan atoqli nom.

xoronim – har qanday hududning, jumladan, viloyat, tuman, ma’muriy-hududiy birliklar, tabiiy joylarning nomi.

arimonim – o‘rmon, bog‘ va o‘rmon massivlarining nomi. insulonim – har qanday orolga qo‘yilgan

nom. glyatsionim – muzliklarga berilgan nom.

Yuqorida tilgan olingan antroponim va toponimlarni Hazrat Shayx Muslihiddin Sa'diy Sheroziyning "Bo'ston" asari misolida ko'rib chiqamiz.

نوشیروان بادشاہ نے مرتے وقت اپنے بیٹے کو وصیت کی کہ اے بیٹا! صرف اپنے ہی آرام کا خیال نہ رکھنا غریب کی دل جوئی کی فکر بھی کرنا کیونکہ اگر تو اپنے ہی آرام کی فکر میں رہا تو پھر تیرے ملک میں کوئی بھی آرام سے نہ رہ سکے گا۔

Shoh Anushervon vafoti chog'ida o'g'liga vasiyat qildi: "Ey o'g'lim! Faqat o'z rohating haqida qayg'urma, kambag'allarni ham o'yla, chunki agar o'z rohatingni o'ylab yashasang, yurtingda hech kim emin-erkin yashay olmaydi". Ushbu gapda "Anushervon (نوشیروان)" antroponim hisoblanadi.

Anushervon – to'liq ismi Xusrav I Anushervon 531-579-yillar mobaynida Sosoniylar hukmdori bo'lgan.

"Kalila va Dimna" hind eposi aynan Anushervon topshirig'i bilan pahlaviy tiliga tarjima qilingan⁸.

"Этимологический словарь иранских языков" ga ko'ra, *ruān*, *ruuān*, *run*, *urān* – [ruh,jon] qadimgi fors tilidagi sakral termin hisoblanadi. Bu shaklning bundan-da qadimiyroq ko'rinishi noma'lum bo'lib "*ruūan*" sifatdoshining navbatdagi shakli bo'lib, "ravon, oqayotgan, ketayotgan" kabi ma'nolarni anglatadi. O'rta fors tiliga kelib, *ruvan* ko'rinishini olgan. Klassik fors tiliga kelib, *ravān* shaklini olgan. Hozirgi fors tilida *rāvān* – [ruh; ruhiyat ; tiriklik] ma'nolarini bildiradi⁹. "The Encyclopaedia of Islam" ("Islom ensiklopediyasi") ning A harfli so'zlar yoritilgan I jildida: ANŌSHARWĀN pahlaviy tilida "*anoshak-ruwan*" - [o'lmas ruh] ma'nosini bildiradi va fors tiliga kelib *Nushirawan* shakliga kelgan¹⁰. MacKenziyning "A Concise Pahlavi Dictionary" lug'atida bu so'z quyidagicha berilgan:

⁸ Pahlaviy - o'rta fors tili bo'lib, III-VII asrlarda hukm surgan Sosoniylar davlati tili.

⁹ Расторгуева В.С., Эдельман Д.И. Этимологический словарь иранских языков (Том 1, а-я). - Москва: Восточная литература, 2000. - С.463.

¹⁰ Houtsman M.Th., Arnold T.W., Basset R., Hartmann R. The Encyclopaedia of Islam. - Leyden: Late E.J.Brill, 1913. - P.357.

anosag – [o‘lmas] ; ~-*ruwan* – [vafot etgan] ¹¹.

Demak, ANŌSHARWĀN (نویشرواں)

antroponimi “o‘lmas ruh” ma’nosini bildiradi.

دارا (ایران کا بادشاہ جو سکندر سے جنگ کرتا ہوا مارا گیا) ایک دفعہ شکار کو نکلا تو لشکر سے جدا ہو گیا، تھک ہار کر ایک درخت کے سائے تلے بیٹھا ساتھیوں کی انتظار کرنے لگا کہ ایک آدمی دور سے آتا ہوا اس کو دکھائی دیا۔

Doro (Iskandar bilan jangda halok bo‘lgan Eron shohi) bir kuni ovga chiqib, qo‘shindan ajralib, charchab, daraxt soyasida o‘tirib, hamrohlarini kutayotganida, uzoqdan bir odam ko‘rindi.

Yuqoridagi gapda “Doro (دارا)” antroponimi mavjud.

Doro – taxminan mil.avv. 522-486-yillar oralig‘ida hukmronlik qilgan Ahamoniylar imperiyasi shohidir.

“Этимологический словарь иранских языков” ga ko‘ra, *dar*, *dār*, *dr* – [tutmoq, mahkam ushlamoq] so‘zlari oriylar tilidagi *dhar*, *dhār*, *dhr* so‘zlaridan qadimgi fors tiliga o‘tgan. O‘rta hind tillarida bu so‘z *dhar* – [tutmoq, ushlamoq, mustahkamlamoq, olib yurmoq] shaklida uchraydi¹².

“The Encyclopaedia of Islam” (“Islom ensiklopediyasi”) ning D harfli so‘zlar yoritilgan I jildida: DĀRĀ so‘zi *Dārayavauš*, *Darius* so‘zlarining arabcha shakli ekanligi qayd etilgan¹³.

MacKenziening “A Concise Pahlavi Dictionary” lug‘atida *dār* – [saqllovchi, qo‘riqllovchi], *vauš* – [yaxshilik, ezgulik] ¹⁴ ma’nosini bildiradi.

Demak,

¹¹ MacKenzie D.N. A Concise Pahlavi Dictionary. - London: Oxford University Press, 1971. - P.10.

¹² Расторгуева В.С., Эдельман Д.И. Этимологический словарь иранских языков (Том 1, а-ä). - Москва: Восточная литература, 2000. - С.463.

¹³ Houtsman M.Th., Arnold T.W., Basset R., Hartmann R. The Encyclopaedia of Islam. - Leyden: Late E.J.Brill, 1913. - P.966.

¹⁴ MacKenzie D.N. A Concise Pahlavi Dictionary. - London: Oxford University Press, 1971. - P.24.

DĀRĀ (دارا) antroponimi “ezgulikni saqlovchi, ezgulik egasi” ma’nolarini bildiradi.

بہرام بادشاہ کو جب گھوڑے نے زمین پر گرا دیا تو اس نے کیا خوب کہا! گھوڑا ایسا ہونا چاہیے جو سرکشی کرے تو سنبھالا تو جاسکے۔ چشمہ شروع ہو رہا ہو تو اس کا منہ مٹی سے بند کیا جا سکتا ہے اور جب بھر جائے گا تو ہاتھی سے بھی بند کرنا مشکل ہو جائے گا۔

Shoh Bahromni ot yerga yiqitib yuborganida, u naqadar ajoyib gapni aytdi: “Ot shunday bo’lishi kerak – u sarkashlik qilsa, suvoriy o’zini o’nglay olsin. Buloq endi yorib chiqqanida, uning ko’zini tuproq suvab yopish mumkin. Ammo to’lib oqsa, fil bilan ham yopish dushvor bo’ladi”.

Mazkur gapda “Bahrom (بہرام)”

antroponimga misol bo’ladi.

Sosoniylar

hukmronligi davrida beshala hukmdorning ismi Bahrom bo’lgan. Ulardan birinchisi Bahrom I 273-276-yillar oralig’ida davlatni idora qilgan.

“The Encyclopaedia of Islam” (“Islom ensiklopediyasi”) ning B harfli so’zlar yoritilgan I jildida:

BAHRĀM (“Avesto”ga ko’ra, *verethraghna* – g’alaba dahosining nomi) fors tilida Mars sayyorasi hamda har oyning yigirmanchi kunining nomi ekanligi keltirilgan ¹⁵.

MacKenziening “A Concise Pahlavi Dictionary” lug’atida *wahrām (bahrām)* – urush xudosining nomi; g’alaba ma’nolarida keladi¹⁶.

غور کا بادشاہ غریب دیہاتیوں کے گدہوں پر قبضہ کر لیتا اور ان پر اتنا بوجھ ڈالتا کہ بے چارے دو دنوں میں مر جاتے کیونکہ چارہ بھی نہ ڈالتا تھا۔

¹⁵ Houtsman M.Th., Arnold T.W., Basset R., Hartmann R. The Encyclopaedia of Islam. - Leyden: Late E.J.Brill, 1913. - P.585.

¹⁶ MacKenzie D.N. A Concise Pahlavi Dictionary. - London: Oxford University Press, 1971. - P.86.

G'ur podshohi kambag'al qishloq aholisining eshaklarini tortib olib, ularga shu qadar og'ir yuk yuklardiki, bechoralar yem-xashak ham berilmagani sababli ikki kun ichida jon taslim qilardilar.

Ushbu gapda "G'ur (غور)" toponim hisoblanadi.

G'ur Afg'onistonning 34 ta provinsiyasidan birining nomi bo'lib, u mamlakat g'arbida joylashgan. Pushtu tilida *gur* – [tog'] ning arabiylashgan shakli, sababi bu hududda bir nechta baland tog'lar joylashgan.

"The Encyclopaedia of Islam" ("Islom ensiklopediyasi") ning G harfli so'zlar yoritilgan II jildida:

GHŌR

hozirda Afg'oniston tarkibiga kirgan tog'li hudud bo'lib, Helmend vodiysi va Hirot o'rtasidagi oraliqni egallagan; hozirgi Hazoriston bilan tutash joy nomi ekanligi qayd qilingan¹⁷.

MacKenziening "A Concise Pahlavi Dictionary" lug'atida *gar* – [tog'] ma'nosida keladi¹⁸.

ایک رات بغداد شہر میں آگ لگ گئی اور آدھا بغداد جل گیا۔

Bir kuni tunda Bag'dod shahriga o't ketib shaharning yarmi yonib ketdi.

Ushbu gapda "Bag'dod (بغداد)" toponim hisoblanadi.

Bag'dod Iroqning poytaxti, Dajla daryosining har ikki sohilida; Markaziy va Janubiy Osiyo hamda O'rta dengiz mamlakatlarini birlashtirib turuvchi yo'llar chorrahasida joylashgan shahar.

"The Encyclopaedia of Islam" ("Islom ensiklopediyasi") ning B harfli so'zlar yoritilgan I jildida:

BAGHDAD Iroqdagi eng katta shahar ekanligi qayd qilingan¹⁹.

"Этимологический словарь иранских языков" ga ko'ra,

¹⁷ Houtsman M.Th., Arnold T.W., Basset R., Hartmann R. The Encyclopaedia of Islam. - Leyden: Late E.J.Brill, 1913. - P.122.

¹⁸ MacKenzie D.N. A Concise Pahlavi Dictionary. - London: Oxford University Press, 1971. - P.35.

¹⁹ Houtsman M.Th., Arnold T.W., Basset R., Hartmann R. The Encyclopaedia of Islam. - Leyden: Late E.J.Brill, 1913. - P.563.

bag, бага oriya tilidagi *bhaga* soʻzidan kelib chiqqan boʻlib, [1) baxt; 2) Xudo, xudolik] maʼnolarini anglatadi²⁰.

MacKenziening “A Concise Pahlavi Dictionary” lugʻatida *dadān, dah* – [bermoq, yaratmoq] maʼnosida keladi²¹.

Shunga koʻra, BAGHDAD (بغداد) toponimi “*Xudo tomonidan inʼom qilingan(berilgan)*” maʼnosini bildiradi.

Demak, onomastik birliklar til, madaniyat, tarix, xalq urf-odatları va dunyoqarashi bilan chambarchas bogʻliq boʻlib, ularni tarixiy-etimologik tahlil qilish orqali maʼlum bir nomning kelib chiqishi, maʼnosi va rivojlanish bosqichlari aniqlanadi.

Adabiyotlar roʻyxati

1.M.Th.Houtsman, T.W.Arnold, R.Basset, R.Hartmann. The Encyclopaedia of Islam. – Leyden: Late E.J.Brill, 1913. – P.1227.

2.D.N.MacKenzie D.N. A Concise Pahlavi Dictionary. – London: Oxford University Press, 1971. – P.259.

3.В.С.Расторгуева, Д.И. Эдельман. Этимологический словарь иранских языков (Том 1, а–ā). – Москва: Восточная литература, 2000. – С.463.

4.Подолская Н. В. Словар русской ономастической терминологии. Москва: Наука, 1988. – С.96.

5.Вопросы ономастики. Сборник научных статей. Выпуск II. – Самарканд: издание СамГУ, 1971. – 150 с.

6.Суперанская А.В. теория и методика ономастических исследований. – Москва: Наука, 1986. – С.9.

²⁰ Расторгуева В.С, Эдельман Д.И. Этимологический словарь иранских языков (Том 1, а–ā). – Москва: Восточная литература, 2000. – С.49.

²¹ MacKenzie D.N. A Concise Pahlavi Dictionary. – London: Oxford University Press, 1971. – P.45.

7. Бегматов Е., Улуқов Н. Ўзбек ономастикаси терминларининг изоҳли луғати. – Наманган, 2006. – Б.104.

8.Ҳожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2002. – Б. 136.

9.Бегматов Э., Авлокулов Й. Ономастик кўлам тушунчаси // Ўзбек тили ва адабиёти. 2007. № 3. – Б.20.

10.Матвеев А. Ономастика ва ономатология: терминологик этюд // Вопросы ономастики. – Екатеринбург, 2005. – №2. – С. 5-12.

URDU VA O'ZBEK TILLARIDA SON KOMPONENTLI FRAZEMALARNING O'ZBEK TILIDAGI MUQOBILLARI XUSUSIDA



Turg'unaliyeva Gulruh

*TDSHU 3-kurs, Filologiya va tillarni o'qitish,
urdu-ingliz guruhi talabasi
Ilmiy rahbar: U.Zakirova*

Annotatsiya: Ushbu maqolada urdu tilida son qatnashgan frazeologik iboralar va ularning o'zbek tilidagi muqobillari tahlil qilindi. Frazeologik iboralarning semantik va strukturaviy jihatlari ko'rib chiqilib, tarjima qilindi. Tadqiqot davomida frazeologik iboralar uch asosiy guruhga ajratildi. Bular to'g'ridan to'g'ri, qisman va umuman ekvivalentga ega bo'lmagan iboralaridir. Ushbu maqolada har bir guruh bo'yicha misollar berilib, ularning tarjima xususiyatlari ochib berilgan.

Kalit so'zlar: *urdu tili, o'zbek tili, frazeologik iboralar, son qatnashgan iboralar, ekvivalent, semantik xususiyatlar, strukturaviy o'ziga xosliklar, tarjima, tahlil.*

Frazeologik iboralar – tilning muhim tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, ular milliy madaniyat va mentalitetni aks ettiradi. Har bir xalq o'zining tarixiy va madaniy tajribalariga asoslangan frazeologik iboralarga ega. Tilshunoslikda frazeologik iboralar tarjimasi muhim masalalardan biri hisoblanadi, chunki har bir tilning frazeologik boyligi o'ziga xosliklariga ega bo'lib ularni bevosita boshqa tilga tarjima qilish oson emas. Urdu tilda son qatnashgan frazeologik iboralar va ularning o'zbek tilidagi muqobillarini o'rganish va ularning tarjima jarayonida o'xshashlik va farqlarini ochib berish dolzarb masalalardan biridir.

Bu borada ko'plab tilshunos olimlarning fikrlarini ta'kidlash joiz. Masalan, frazeologik birliklar bo'yicha olimlar fikridan N. G'ulomov frazeologizmlarning xalqning tarixiy, madaniy va ijtimoiy hayoti bilan

bog‘liqligini ta’kidlaydi.²² Frazeologik birliklarning o‘rganilishi nafaqat o‘zbek tilshunosligida, balki dunyoning boshqa tillarida ham muhim ilmiy mavzu hisoblanadi. Quyida turli mamlakatlarning tilshunos olimlari tomonidan frazeologiya bo‘yicha bildirilgan fikrlari keltiriladi. Hind olimlaridan Tivariy Bholanathning ta’kidlashicha, “Hind tilidagi frazeologik birliklar sanskrit manbalariga asoslangan”²³ -deydi va ularning diniy kontekstini tahlil qiladi.

Shuningdek, urdu tilshunos olimlaridan S.Baqir urdu frazeologiyasining arab va fors tillari bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi.²⁴ Yana bir olim R. Ahmed esa urdu frazeologizmlarining zamonaviy adabiyot va ommaviy axborot vositalaridagi o‘rnini tadqiq qiladi.²⁵ Rus tilshunosligida ham frazeologik iboralar o‘ld ko‘plab ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Bulardan V. Vinogradov o‘zining asarlarida frazeologik birliklarning tarkibiy qismlarini mustaqil tahlil qilish muhimligini ta’kidlaydi.²⁶ Shu bilan birga ingliz tilshunos olimi R. Moonning frazeologiyaning ingliz tilidagi uslubiy xususiyatlarini ko‘rsatib berganini alohida ta’kidlash joiz.²⁷

Yuqoridagi ilmiy fikrlarga asoslangan holda urdu tilidagi son qatnashgan frazeologik iboralar ham ma’lum manbalardan yig‘ilib, tahlil qilindi. Bunda Pokistonlik Dr. Khushnuda Niloferning ‘Urdu Muhawaray’²⁸ va Dr. Ishrat Jahan Hashmining ‘Urdu muhawaray ka tehzibi mutalaa’²⁹ kabi lug‘atlari asosiy manba bo‘lib xizmat qildi.

Quyida urdu tilidagi son qatnashgan frazeologik iboralar uch guruhga ajratildi:

1. To‘g‘ri ekvivalentga ega bo‘lgan iboralar

Bu guruhga kiruvchi iboralar har ikki tilda ham bir xil ma’noni anglatuvchi va so‘zma-so‘z tarjima qilinganida ham ma’no buzilmaydigan frazemalardan iborat. Masalan,

original	So‘zma-so‘z tarjima	ekvivalent
دو چار باتیں کرنا	ikki-to‘rtta gap	bir-ikki og‘iz gap

²² G‘ulomov N. "O‘zbek tilining frazeologizmlari", Toshkent, 2001.

²³ Tivariy Bholanath "Hindiy Muhavarakosha" Hindiston, 1991

²⁴ Baqir S. "Urdu Frazelogiyasi", Karachi, 2016.

²⁵ R. Ahmed "An Analytical Study of Idiomatic Expressions in Contemporary Urdu Media, 2014

²⁶ V. Vinogradov "Русская фразеология. Вопросы теории" 1947

²⁷ R. Moon "Fixed Expressions and Idioms in English" 1998

²⁸ Dr.Khushnuda Nilofer "Urdu Muhawaray" India, 2015.

²⁹ Dr. Ishrat Jahan Hashmi محاورات اُردو مطالعہ تہذیبی کا

	aytmoq	aytmoq
--	--------	--------

- دو چار باتیں کرنا so'zma so'z tarjimada "ikki - to'rtta gap aytmoq" va uning o'zbek tilidagi ekvivalenti "bir-ikki og'iz gap aytmoq" iborasiga mos keladi. Bu yerda qo'llanilgan frozeologik ibora son bilan ifodalangan va o'zbek tilida o'zining to'g'ridan - to'g'ri ekvivalentga ega. Lekin ba'zi o'ziga xosligi ham mavjud. Urdu tilida "2-4 ta gap" deyilsa, o'zbek tilida "1-2 og'iz gap" deyiladi.

Yana bir iborada esa:

original	Sozma-soz tarjima	ekvivalent
ایک تیر سے دو شکار	Bitta o'q bilan ikki ov	bir o'q bilan ikki quyon

so'zma-so'z tarjimada "bitta o'q bilan ikki ov" bo'ladi. Uning o'zbek tilidagi ekvivalenti esa "bir o'q bilan ikki quyon" iborasiga mos tushadi. Bu misoldagi frozeologik ibora son bilan ifodalanib, o'zbek tilidagi o'z ekvivalentiga ega bo'lsa-da, urdu tilidagi "شکار - ov" so'zi o'zbek tilidagi "quyon" so'zi bilan ishlatilgan. Shunday bo'lsada, bu kabi frazeologik iboralarni 1-guruhga kiritish mumkin.

2. Qisman ekvivalentga ega bo'lgan iboralar

1)

original	So'zma-so'z tarjima	ekvivalent
دس ہاتھوں سے مدد کرنا	o'n qo'l bilan yordam berish	qo'ldan kelgancha yordam berish

Bu guruhdagi iboralar urdu va o'zbek tillarida ma'no jihatdan bir-biriga yaqin bo'lib, ba'zan so'zlarning o'rniga yoki tuzilishiga ozgina o'zgartirish kiritiladi. Misol uchun: - دس ہاتھوں سے مدد کرنا iborasi "o'n qo'l bilan yordam berish" deb tarjima qilinsa, uning o'zbek tilidagi ekvivalenti "qo'ldan kelgancha yordam berish" iborasiga mos tushib, bu yerda ibora urdu tilidagi 10 soni bilan qo'llanilgan bo'lsada, o'zbek tilida "qo'ldan kelgancha" bilan o'z ifodasini topgan.

2)

original	So'zma-so'z tarjima	ekvivalent
کام سے انگلیوں دس کرنا	o'n barmoq bilan ishlash	jon-jahdi bilan ishlash

- "o'n barmoq bilan ishlash" deb tarjima qilinsada, o'zbek tilidagi ekvivalentida bu "jon-jahdi bilan ishlash" iborasi bilan tavsiflanib, bu ibora ham 2- guruhga kiritiladi.

3. Umuman ekvivalentga ega bo'lmagan iboralar.

original	So'zma-so'z tarjima	ekvivalent
ہونا گیارہ دو نو	9, 2, 11 bo'lish.	juftakni rostlash

Bu guruhdagi iboralar urdu tilida mavjud bo'lib, o'zbek tilida to'g'ridan to'g'ri ekvivalenti yo'q. Bunday iboralar tarjima qilinayotganda, ularning ma'nosi boshqa iboralar orqali ifodalash lozim bo'ladi. Masalan, گیارہ دو نو -ہونا tarjimada "9, 2, 11 bo'lish" O'zbek tilida to'g'ridan-to'g'ri ekvivalentga ega bo'lmasada, "juftakni rostlash" iborasiga mos tushadi.

Xulosa qilganda, urdu tilida son komponenti ishtirokidagi frazeologik iboralar sarmahsul bo'lib, kundalik hayotda keng qo'llaniladi. Lekin kuzatuv natijasiga ko'ra, bunday frazeologik iboralar o'zbek tilida har doim ham o'z ekvivalentga ega emas. Masalan, urdu tilida biron frazeologik ibora son bilan berilsa, o'zbek tilida bu ma'noni anglatish uchun biror boshqa so'z turkumidan foydalaniladi. Shuningdek, bir-biriga teng yoki qisman to'g'ri keladigan frazeologik iboralar ham uchraydi. Bu yerda yig'ilgan 56 ta son komponentli frazeologik iboralarning 23 tasi 1-guruhga, 30 tasi 2-guruhga va 3 tasi 3- guruhga mansubligi aniqlandi. Bundan ko'rinib turibdiki, 2-guruhga tegishli frazeologik iboralar sarmahsul bo'lib, o'zbek tilida o'zining qisman ekvivalentiga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- Abduraxmonova M., Murtazaxodjayeva, M., Zokirova U., Shorahmedova M., "Urdu tili", Toshkent 2018.
- Dr. Ishrat Jahan Hashmi محاورات اردو مطالعہ تہذیبی کا
- Dr.Khushnuda Nilofer " Urdu Muhawaray" Pakistan, 2015.
- Hasanov I., "Frazeologiyaniy milliy xususiyatlari", Samarqand, 2019.
- Karimov A., "Til va frazeologik birliklar tarjimasi", Toshkent, 2020.
- Matchonov. A "O'zbek tili statistikasi", Toshkent 1981
- Rahmonov. X "Tarjimashunoslik asoslari." Toshkent, 2018
- Siddiqov. M "Frazeologik birliklarning tarjima nazariyasi." Buxoro, 2021.

- Xolmirzayev T. “Urducha- o‘zbekcha lug‘at, Islomobod, Pokiston 2003
- Yo‘ldoshev I., Sharipova O., “Tilshunoslik asoslari”, Toshkent, 2006

URDUCHA MAQOLLARNING LINGVOMADANIY QIRRALARI



Akbaraliyeva Muqaddas

TDSHU 4-kurs, Filologiya va tillarni o'qitish,
urdu-ingliz guruhi talabasi
Ilmiy rahbar: U.Zokirova

Annotatsiya: Mazkur ma'ruzada urducha va o'zbekcha maqollarga xos lingvomadaniy jihatlarni ochib berish asnosida ikki xalqning o'ziga xos xususiyatlari va farqlovchi jihatlarni ochib berish maqsad qilingan. Ba'zi maqollarning tarkibida hind xalqining hayoti, madaniyati, tarixi, urf-odatlar bilan bog'liq bo'lgan, boshqa xalqlarda aniq ekvivalenti bo'lmagan so'z yoki tushunchani anglatuvchi realialar tahlilga tortildi.

Kalit so'zlar: maqol, realiyalar, paremiologik fon, madaniyat, urf-odat. Maqollar – “millat tarjimai holi”, “madaniyat ko'zgusidir”.

O'zbek olimlari Sh. Shomaqsudov va Sh. Shorahmedov tomonidan yozilgan “Hikmatnoma”³⁰ asarida “dono fikrni, o'tkir haqiqatni, teran mazmunni, so'z xazinasining duru javohirlarini o'zida mujassam etgan rang-barang maqollar nutqimizning ekspressiv (ya'ni, ta'sir etuvchi, his-hayajon uyg'otuvchi) vositalari orasida eng ta'sirchan, eng esda qoluvchi, kishini o'ylashga, fikr-mulohaza yuritishga beixtiyor majbur qiluvchi kuchga egadur” deb ifodalangan.

Urdu tilida maqol tushunchasi uchun “]كهاوتkaha:vat], “ضرب المثال]zarbulmasa:l], “]ممثلmasal] atamallari qo'llaniladi³¹.

پانڈے جی پچھتائیں گے، وہی چنے کی کھائیں گے۔

³⁰ Sh. Shomaqsudov, Sh. Shorahmedov. Hikmatnoma. T.: 1990 – B. 523

³¹ شریف احمد قریشی، "اردو کہاوتیں"، بک کارنر ۲۰۱۶ء، ص ۲۵۴

So‘zma- so‘z tarjimasi: Pandey ji pushaymon bo‘lar, no‘xotni yeyar.

Biror shaxs bir necha bor tushuntirib, ta‘kidlab aytilgandan keyin ham o‘jarlik qilib qaytarilgan ishni sodir etsa, mazkur maqol aytiladi. Bu maqolning ortida quyidagi voqea yotadi:

Bir qishloqda bir barahman yashar edi. U no‘xot unidan qilingan nonni mutlaqo xush ko‘rmas edi. Kunlardan bir kuni uning uyida non yopish uchun no‘xotdan boshqa hech vaqo qolmaganida, uning rafiqasi no‘xotdan non yopdi. Panditji taomga qo‘l cho‘zganida ko‘rdi-ki, no‘xot unidan non pishirilgan. Buni ko‘rib, ko‘zlari soqqasidan chiqqudek bo‘lib tashqariga otlandi. Ayoli unga obdon tushuntirdi: uyda non yopishga no‘xotdan boshqa hech narsa yo‘q, keling, shu bugun shuni yeyaqoling. Ammo Panditji qo‘l siltab ketib qoldi. Biroz vaqt o‘tgach, ochlikdan qorni tatalay boshladi. Vaqt o‘tgani sayin uning ahvoli tang bo‘la bordi. U bardoshi tugab, indamay uyiga kirib bordi. Ayoli bu holatni ko‘rib, uning ro‘parasiga o‘sha no‘xot unidan pishgan nonni qo‘ydi. Panditji uni lom-lum demay yeb oldi. Taomni tanavvul qilgandan so‘ng ayoli Panditjiga qah-qah urib kulib dedi: Panditji afsuslansa ham o‘sha no‘xotni yeydi³².

Shundan so‘ng bu maqol xalq orasida ommalashib ketdi. Biz bu maqolga o‘zbekcha ekvivalent qilib **“Gapirgandan gapirmagan yaxshiroq, gapiruvdim tegdi boshimga tayoq”** maqolini olsak bo‘ladi. Ushbu maqolda ham qilmaydigan ishni gapirib qo‘yib, keyin uni qilishga majbur bo‘lishlik ma‘nosi yotadi³³.

مرتے کو ماریں شاہ مدار

So‘zma- so‘z tarjimasi: O‘liklarni o‘ldiring Shoh Madar.

Ushbu maqol biror kishi musibatga giriftor bo‘lib qolsa va unga yana yangi aziyat yetkazilsa, yoki unga zulm qilinsa, esga olinadi. Biror kishi musibat ortidan boshiga musibat kelsa, yoki birin-ketin kulfat yog‘ilsa, odamlar: "O‘liklarni o‘ldiring shoh Madar" deb aytadi.

Ammo buning ma‘no-mazmuni juda kam odam biladi:

Mashhur-ki, Kanpur shahridagi Makonpur shaharchasida joylashgan Hazrati Badiuddin Zinda Shoh Madarda shunday kuch bor edi- u shu qishloqdagi ilmli va ziyoli kishilarni shu qishloqdan quvib chiqaradi³⁴. Bunga **“Yomg‘irdan qochib, do‘lga tutildi”** maqoli muqobil

یونس اگاسکر، "اردو کہاوٹیں اور ان کے سماجی و لسانی پہلو"، کالگ، ۱۹۸۸ء، ص ۳۵۵

³³ O. Madayev, T. Sobitova. O‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodi. T.: “Sharq” 2010 – B. 208

یونس اگاسکر، "اردو کہاوٹیں اور ان کے سماجی و لسانی پہلو"، کالگ، ۱۹۸۸ء، ص ۳۵۵

keladi. Ushbu maqolda ham qiyinchilik ortidan qayta qiyinchilikka uchrashlik nazarda tutiladi³⁵.

گنگا کو آنا تھا، بہا گیرتہ کے سر جس ہوا۔

So‘zma-so‘z tarjimasi: Ganga kelishi kerak edi, Bhagirtha boshiga baxt qo‘ndi.

Bu maqol biron ishni kimdir qilib, ammo uning samarasi va muvaffaqiyati haqida gap ketganda, butunlay boshqa odam tilga olinadi.

Bu maqol kimdurning shon-shuhrati va obro‘si bo‘lishi kerak bo‘lgan narsa tufayli yodga olinadi. Bu maqol bilan bog‘liq ushbu hikoya mashhur:

Sigarning oltmish ming o‘g‘li Kapilning yomon duosi tufayli kuyib kul bo‘lganida, najot topish uchun Sigarlar sulolasi rojalari Ganga daryosini jannatdan yerga tushurish uchun harakat qilishdi, ammo ularning harakatlari zoye ketdi. Panditlar Sigar sulolasining rojalariga, agar ular Gangani yoqib, pand (boshqalar uchun ishlatiladigan qog‘oz yostig‘i) taklif qilsalar, ularning avlodlari najot topib, jannatga borishlari mumkinligini aytishdi. Jannatni yerga olib kelish harakati chog‘ida ba‘zi rojalar yerga olib kelishga urinishda muvaffaqiyatsizlikka uchradi, shunda nihoyat Bhagirtha Gangani yerga olib kelishga va‘da berib, tinimsiz ibodat qilishni boshladi. Uning ibodati qabul bo‘ldi va Vishnu mamnun bo‘lib, uni murodiga yetkazdi. Qachonki Ganga jannatdan yerga tushmoqchi bo‘lganida yer Ganganing tez oqimi unga tushsa, u vayron bo‘lishidan qo‘rqib titray boshladi. U Shivaga yolgirdi. Shunda Shiva daryoning shiddatli oqimiga rahmi keldi va dedi: Men uning kuchli shiddatini olib, bir tomchi Jinani kundalga, Kachkulga qo‘ydim va Bhagiratga berdim”. Buni eshitib Bhagirtha “biroz vaqtdan keyin men Gangani shon- shuhrat va dabdaba bilan olaman” deb o‘ylab, uyiga ketdi. U ketganidan ozroq vaqt o‘tib, bir cho‘pon o‘zining Ganga laqabli sigirini chaqirib keldi. Buni Ganga daryosi eshitib, meni Bhagirtha chaqiryapti, deb o‘ylab oqib chiqdi. Birozdan so‘ng Bhagirtha yetib keldi va buni ko‘rib, u g‘amga botdi, shunda Ganganing ovozi keldi: “Mening suvlarim oqsa, sening ishing ham bitadi, xavotir olma”³⁶.

³⁵ O. Madayev, T. Sobitova. O‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodi. T.: “Sharq” 2010 – B. 205

³⁶ یونس اگاسکر، "اردو کہاوئیں اور ان کے سماجی و لسانی پہلو"، کالگ، ۱۹۸۸ء، ص ۳۵۵

Biz bunga mos qilib “O‘zi o‘lgan qo‘y qurbonlikka kirmas” , ya’ni mehnatni boshqa odam qiladiyu, lekin shuhrat boshqa odam haqqiga hal bo‘lishi nazarda tutiladi³⁷.

وہ پانی ملتان گیا۔

So‘zma- so‘z tarjimasi: U suv endi Mo‘ltonga ketdi .

Bu kaltabinlik va manmanlik tufayli oltin imkoniyatni qo‘ldan boy bergan paytda ushbu maqol ishlatiladi.

Bu maqolga oid bir hikoya bor:

Bir munajjim qaysidir mashhur darvesh huzuriga keldi va maqsadini bayon qildi va unga yodbordi. Darveshning unga rahmi keldi va u o‘zining kosasida suv ichish uchun munajjimga berdi. Munajjim manmanligi va jirkanganligi sabab u suvni ichishdan bosh tortdi. Darvesh shu atrofda yurgan qizga ishora qildi va qiz suvni ho‘plab ichib oldi, shu sabab u suv qizga ta’sir qildi. Munajjim buni o‘z ko‘zlari bilan ko‘rganda, darveshga qayta yodbordi-suv ichishini va murodiga yetish istagini bildirdi. Darvesh suv berish o‘rniga dedi:” gap bunday, birinchi tilaging bajarildi, tilak endi Mo‘ltonga borib ishingni bitirasan,sababi Mo‘lton suvi ortga qaytmaydi, bu suv Mo‘ltonga ketdi”deb aytdi.

Mavloni Muhammad Husayn Ozod o‘z asarida yozishicha,Lahor yaqinidan oqib o‘tuvchi Ravi daryosi Mo‘lton tomondan oqib o‘tib, Panjobning boshqa daryolari bilan Shor daryosiga qo‘shiladi.Shubhasiz, u o‘z yo‘lida oldinga oqib davom etadi.Maqoldan murod berilgan imkoniyat ikkinchisi bor qo‘lga kirmasligidir.Bu o‘sha imkoniyat daryo oqimi kabi o‘tib ketganini bildiradi³⁸.

Bu maqolga o‘zbekcha ekvivalenti qilib “Uchgan qushni qaytarib bo‘lmas” maqolini olsak bo‘ladi³⁹.

ہزار بار جو یوسف بکے، غلام نہیں۔

So‘zma- so‘z tarjimasi: Ming marta sotilsa ham, Yusuf qul bo‘lmas.

Solih,sabrli va halol odam o‘z hamiyatidan vos kechmaydi. Insonda halollik,rostgo‘ylik, sabr-toqat,qanoat ,shukur va iymon mustahkamligi kabi xislatlar bo‘lsa,u hech qachon qul bo‘lib qolmaydi. Hazrat Yusuf alayhissalomning hayotiy voqealari bilan bog‘liqdir⁴⁰.

³⁷ O. Madayev, T. Sobitova. O‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodi. T.: “Sharq” 2010 - B. 207

³⁸ شریف احمد قریشی، "اردو کہاوٹیں"، بک کارنر ۲۰۱۶ء ص ۲۵۴

³⁹ O. Madayev, T. Sobitova. O‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodi. T.: “Sharq” 2010 - B. 209

⁴⁰ یونس اگاسکر، "اردو کہاوٹیں اور ان کے سماجی و لسانی پہلو"، کالگ، ۱۹۸۸ء ص ۳۵۵

Ushbu maqolga, “**Oqqan daryo oqmay qolmas**” ekvivalenti to‘g‘ri keladi⁴¹.

چودہ برس بن باس بھوگا، تب رام کا نام امر ہوا۔

So‘zma-so‘z tarjimasi: 14 yil azob chekdi, keyin Ramning ismi umrbod qoldi.

Bu maqolning kelib chiqishi Ramayan dostoni bilan bog‘liq ya‘ni Ramning 14 yilga o‘rmonga surgun qilinishi va qayta taxtni egallashi bilan bog‘liq⁴², bu maqolning o‘zbekcha muqobili “ **Qahramon o‘lar, nomi qolar**” dir⁴³.

Ma‘lumki, har bir xalqning paremiologik fondida eng ko‘p uchraydigan maqollar kishilararo munosabatlarni o‘zida aks ettiradi. Tahlil jarayonida kishilararo munosabatlarni anglatuvchi maqollar ikki xalqning o‘ziga xos farqli va o‘xshash jihatlarini ochib berishda muhim ahamiyat kasb etdi. Urdu va o‘zbek maqollari turli xil leksemalardan tarkib topsa-da, asosan bir-biriga muqobil kelib, bir xil vaziyatlarni o‘zida aks ettiradi. Maqollar tarkibida kelgan leksemalar deyarli bir xil ma‘noni anglatishi tahlil jarayonida aniqlandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR/ REFERENCES

1.O. Madayev, T, Sobitova. O‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodi. T.: “Sharq” 2010 – B. 208

2.Sh. Shomaqsudov, Sh. Shorahmedov. Hikmatnoma. T.: 1990 – B. 523

3.Даль В.И. Пословицы русского народа. -Т.1. М.: «Русская книга», 1984. – 300 с.

4.Дандис А. О структуре пословицы// Паремиологический сборник. Пословица. Загадка. М.: 1978. – 23 с.

⁴¹ O. Madayev, T, Sobitova. O‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodi. T.: “Sharq” 2010 - B. 210

⁴² شریف احمد قریشی، "اردو کہاوتیں"، بک کارنر ۲۰۱۶ء ص ۲۵۴

⁴³ O. Madayev, T, Sobitova. O‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodi. T.: “Sharq” 2010 - B. 212

5.Потебня А.Ф. “Басня, пословица, поговорка”. Харьков. Гос. Изд-во Украины,1930. – 255 с.

6.Розенталь Д.Э., Теленкова М.А. Словарь-справочник лингвистических терминов. М.: Просвещение.1985.- 680 с.

7.Чернощекова. В.О. Линговокультурный аспект пословиц//Ж. Язык и культура. – 2009 УДК 811 (6). – 80-85 сс.

یونس اگاسکر ، "اردو کہاوٹیں اور ان کے سماجی و لسانی پہلو" ، کالگ ، ۱۹۸۸ء ص

8 ۳۵۵

شریف احمد قریشی ، "اردو کہاوٹیں" ، بک کارنر ۲۰۱۶ء ص ۲۵۴

«URDU VA ARAB TILLARIDAGI FE'LGA OID LEKSIK PARALLELLARNING MORFOLOGIK VA STRUKTUR JIHATLARI»



Muhammadjonov Xasanxon

*TDSHU 2-kurs, Filologiya va tillarni o'qitish,
urdu-ingliz guruhi talabasi
Ilmiy rahbar: U.Zakirova*

Annotatsiya: Ushbu tadqiqotda arab tilidan urdu tiliga fe'l va fe'l yasash komponenti bo'lib o'zlashgan so'zlarning leksik-semantik xususiyatlari o'rganildi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, bu fe'llar faqat lug'at tarkibini boyitish bilan cheklanmay, balki urdu tilining grammatik tuzilishiga ham ta'sir ko'rsatgani aniqlandi. Shuningdek, ularning ma'no o'zgarishi va moslashuvi kuzatildi. Tadqiqot mavzuni yanada chuqur o'rganish va zamonaviy urdu tilida ushbu fe'llarning grammatik shakllanish jarayonlarini tahlil qilish istiqbolli ekanligini ko'rsatdi.

Kalit so'zlar: o'zlashma fe'llar, leksik-semantik xususiyatlar, arab tili, urdu tili, lingvistik aloqa, grammatik moslashuv, semantik o'zgarish, ot, sifat, ravish, fe'l, lug'at.

Til har bir millatning madaniyati, tarixi va tafakkuri bilan bog'liq eng muhim vositalardan biridir. Vaqt o'tishi bilan har qanday til boshqa tillar bilan o'zaro ta'sirlashib, undan yangi so'zlarni o'zlashtiradi. O'zlashma so'zlar til rivojlanishining ajralmas qismi bo'lib, ularning kirib kelishi turli tarixiy, ijtimoiy va boshqa omillar bilan bog'liq. Chet tillardan o'zlashgan so'zlarning o'zlashish jarayoni, ahamiyati, foydali va zararli jihatlari haqida quyida so'z yuritamiz.

Tillar o'zining uzoq yillik rivojlanish jarayonida nafaqat ichki omil, balki tashqi omil ta'sirida ham lug'at boyligi ko'payib, takomillashib boradi. Ichki omil deganimizda mavjud bo'lgan so'zlarga negizlar qo'shish orqali yangi so'zlar hosil qilinadi yoki so'zning ma'no qirralari kengaytiriladi. Shuningdek, turli davrlarda ehtiyojga ko'ra xalq shevalaridan ham so'zlar qabul qilinadi. Ichki omilning o'zi lug'at

boyishiga kifoya qilmasligi hammamizga ma'lum. Tilning tashqi omil vositasida boyishi bu til rivojlanishining ajralmas qismi hisoblanadi. Internet nashrlarda yozilishicha, ingliz tiliga 80% so'z boshqa tillardan o'zlashgan ekan. Umuman har qanday til sof holda yashay olmaydi. Tillarning turli tarixiy sharoitlarda o'zaro ma'lum munosabatda bo'lishi tabiiy holdir. Bunday munosabat o'zaro aloqada bo'lgan tillar rivojida, ayniqsa, uning lug'at tarkibida ma'lum izlarni qoldirishi mumkin. "Shu sababli, dunyodagi barcha tillarning lug'at tarkibida ikkita umumiy qonuniyat kuzatiladi: 1) eskini yangi bilan almashtirish; 2) boshqa tillardan so'z qabul qilish. Demak, har qanday tilning lug'at tarkibi o'z taraqqiyotida ikki manbaga tayanadi: ichki manba va tashqi manba.

"Tilshunoslikda xorijiy so'zlarni uch guruhga bo'lish qabul qilingan: 1) o'zlashma so'z; 2) ekzotizm; 3) xorijiy tilning unsurlarini kirib kelishi. O'z navbatida, o'zlashma so'zlar quyidagi so'z guruhlariga ajratiladi: a) tuzilishi jihatidan xorijiy prototiplarga mos keladigan so'zlar, ya'ni hech qanday strukturaviy "qo'shimchalar"siz o'zlashma tilning tegishli fonematik vositalari bilan ifodalangan va yozilishi o'zgargan so'zlar; b) o'zlashma til yordamida morfologik jihatdan yasalgan so'zlar; c) qisman morfologik o'zgargan so'zlar [11, 95]. Shunday qilib, o'zlashma so'zlar murakkab va tuzilishi jihatdan turli bo'lgan guruh hisoblanadi; biroq ushbu guruhga kiruvchi so'zlar tilining boshqa lug'atidan ajratib turadigan ba'zi umumiy xususiyatlarga ega".

So'zlarning bir tildan boshqa bir tilga kirishi va singishi, shunchaki oddiy jarayon emas, balki murakkab lingvistik va ijtimoiy-tarixiy sharoitlar bilan bog'liq qonuniyatdir. Tildan tilga so'z o'zlashishi uchun avvalo real sharoit lozim. Bunday sharoit tillarning o'zaro hamkorligi, ya'ni tillar orasidagi aloqalardir. Tarixda buning yaqqol misolini davlatlarning o'zaro savdo-sotiq ishlarida ko'rishimiz mumkin.

Tadqiqotlar natijasiga ko'ra urdu tili chet tillari bilan ta'sirlashuvi ko'lami ancha katta. Urdu tili shakllanish tarixiga nazar solinsa, til hindiy, forsiy, arabiy va so'ngi asrlarda ingliz tili bilan bevosita aloqada bo'lib, ko'plab so'zlarni qabul qilganini guvohi bo'lamiz. Urdu tilida ingliz o'zlashmalari hatto forsiy va arabiy o'zlashmalarini o'rnini egallab, asosiy so'zga aylanib olgan holatlari ham bor. Misol uchun: "بازار" (bozor) so'zi forsiy o'zlashma bo'lib, XXI asrgacha keng qo'llanilgan bo'lsa, hozir esa "مارکت" (market) so'zining iste'moli ko'p uchraydi.

Ma'lumki, urdu tili Hindiston yarim orolida shakllangan bo'lib, uning leksik tarkibida arab va fors tillarining ta'siri sezilarli darajada namoyon

bo'ladi. Bu bevosita davlatlarning o'zaro aloqalari bilan bog'liq. Ayniqsa, arab tilidan kirgan fe'llar urdu tilining boyishiga katta hissa qo'shgan. Ushbu tadqiqotning maqsadi urdu tiliga arab tilidan kirgan fe'llarning leksik-semantik xususiyatlarini tahlil qilish, ularning ma'no o'zgarishlarini va urdu tilidagi qo'llanilishini o'rganishdan iborat.

Urdu tilida shunday ko'plab fe'llar borki, ular ot, sifat va sifatdash (aslida fors va arab tilidan kirgan, lekin urdu tilida ot va sifatga aylangan), olmosh va ravishlardan yasaladi. Arab tilidan kirgan ot, sifat, olmoshga "نا" (na) suffiksini qo'shish orqali urdu tilida fe'l yasaladi. Misol uchun:

"بدلنا" fe'lida "بدل" arab tilidan kirgan fe'l bo'lib, ma'nosi "almashish, alishish".

Agar murakkab fe'lning ot qismi arab tilidan o'zlashgan ot, sifat, fe'ldan bo'lsa, uning ikkinchi qismi urdu tilidagi yordamchi fe'llardan biriga qo'shilib urducha fe'l yasaladi. Quyidagi tadqiqot aynan shu mavzuda bo'lib, ularning ba'zilarining tahlili shunday:

a) Murakkab fe'lning ot qismi arab tilidan kirgan ot so'z turkumiga oid so'zlar bilan yasalgan urducha fe'llar:

(سے) اجازت لینا

Ruxsat olmoq إجازة

Ruxsat berish, ijozat berish

Attestat, diplom

Otpuska (haq to'lanadigan)

Ot

Ot

کرنّا استعمال (کا)

Foydalanmoq, iste'mol qilmoq إستعمال

Iste'mol qilish, foydalanish
amaliyot

Ot

Ot

Shuningdek, yuqoridagi misollarda shuni ham ta'kidlash o'tish joizki, arab tilidan o'zlashgan ushbu so'zlar ot so'z turkumiga mansub bo'lib,

urdu tilida faqatgina u soʻzlarning bir maʼnosi qabul qilingan, yaʼni maʼnosi torayib kirgan yoki aksincha ham boʻlishi mumkin.

b) Quyidagi ajratilgan arab tilidan oʻzlashgan soʻzlar urdu tiliga maʼnosi kengayib qabul qilingan.

کرنا تبدیل

Oʻzgartirmoq

almashtirmoq تبدیل

Almashtirish, alishtirish

Ot

Ot

کرنا ترجمانی (کی)

Birovning vakili sifatida ish koʻrmoq

Ifodalamoq, aks ettirmoq ترجمان

Tarjimon, tilmoq

Ot

Ot

Murakkab feʼlning ot qismi arab tilidan kirgan ravish soʻz turkumiga oid soʻzlar bilan yasalgan urducha feʼl:

ہونا حیران

Hayron boʻlmoq, ajablanmoq حیران

Hayratda qolgan, sarosimaga tushgan

Ot

Ravish

III. Murakkab feʼlning ot qismi arab tilidan kirgan sifat soʻz turkumiga oid soʻzlar bilan yasalgan urducha feʼllarga misol:

کرنا ماخذ (سے)

Olmoq, koʻchirmoq مأخوذ

Olingan

Ot

Sifat

ہونا متاثر (سے)

Taʼsirlanmoq

Ziyon koʻrmoq متاثر

Taassurotda qolgan

Qiynalayotgan

Ot Sifat

Urdu tiliga arab tilidan kirgan sifatlarni aksari “mimlik masdar” bilan yasalgan sifatlar bo‘lib, ular urdu tiliga o‘z holida qabul qilingan. Ushbu jadvalda keltirilgan "ماخوذ", "متأثر" fe'llari kabi tarkibida “ء”(hamza)si bo‘lgan so‘zlar urdu tilida tushib qoladi va talaffuzda ham o‘z ta’sirini yo‘qotadi.

ہونا متفق (سے)

Rozi bo‘lmoq, qo‘shilmoq متفق

Bitim tuzilgan narsa, muvofiqlashtirilgan

Ot

Sifat

ہونا متوجہ (پر)

E’tibor qilmoq

متوجہ

Yuzlangan Ot Sifat

Yuqorida aytib o‘tganimizdek, urdu tiliga qabul qilingan so‘zlar doim ham o‘z ma’nosi bilan ko‘chib o‘tmaydi, balki unga yangi ma’no yuklanadi yoki ma’nosi kengayib-torayadi. Yuqoridagi ikki misolda esa ma’nosi o‘zgargan holda qabul qilingan sifatdoshlarni ko‘rishimiz mumkin.

Xulosa

Til taraqqiyoti jarayonida o‘zlashma so‘zlarning o‘rni beqiyos bo‘lib, ular lug‘at tarkibini boyitishda muhim omil hisoblanadi. Ushbu tadqiqot doirasida arab tilidan urdu tiliga kirgan fe’llarning leksik-semantik xususiyatlari o‘rganildi. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, ushbu o‘zlashmalar nafaqat lug‘at tarkibida o‘z o‘rniga ega, balki urdu tilining grammatik tuzilishiga ham ta’sir ko‘rsatadi.

Tadqiqot davomida Toshmirza Xolmirzayevning “Urducha-O‘zbekcha lug‘at” kitobi asos sifatida tanlab olindi. Umumiy 271ta o‘zlashma o‘rganilib, urducha-arabcha-o‘zbekcha lug‘at jadval asosida tuzildi. Har bir komponent qaysi so‘z turkumiga oid ekanligi jadvalda aks ettirildi. Jadval so‘ngida harflar kesimida o‘rganilgan so‘zlarning foiz nisbati diagramma shaklida ko‘rsatildi. O‘zlashma so‘zlarning turli tasniflari, ularning urdu tiliga qanday moslashgani va yangi semantik ma’nolar bilan boyiganligi aniqlandi. Shuningdek, ba’zi fe’llarning ma’nosi o‘zgarishi yoki kengayishi kuzatildi.

Xulosa qilib aytganda, arab tilidan urdu tiliga kirgan fe'llar ikki til o'rtasidagi lingvistik aloqalar mahsuli bo'lib, ular bugungi kunda ham faol ishlatilmoqda. Ushbu mavzuni yanada chuqurroq o'rganish, ayniqsa, fe'llarning zamonaviy urdu tilidagi o'rni va grammatik shakllanish jarayonlarini tahlil qilish kelajakda ilmiy izlanishlar uchun muvaffaqiyatli yo'nalish bo'lishiga ishonchim komil.

Foydalanilgan adabiyotlar:

Abduraxmonova M., Murtazaxodjayeva M., Zokirova U., Shorahmedova M., "Urdu tili", Toshkent, 2018, 326-377.

Masica, C.P. "The Indo-Aryan Languages", Cambridge University Press. 1991, 539 p.

Nurmonov A. "Qiyosiy tilshunoslik asoslari", Toshkent, 1999, 260 b.

Schmidt R. "Urdu: An Essential Grammar", London: Routledge, 1999, 320 p.

Xolmirzayev T. "Urducha-o'zbekcha lug'at", Islomobod, Pokiston 2003.

Zakirova U. "Urdu tili ingliz o'zlashmalarida ko'plik soni grammemalarining ifodalanish vositalari" maqolasi

"An Naim-O'zbekcha lug'at"

HINDIY ZONIMLARINING ETIMOLOGIK TADQIQI HAYVONLAR NASLINING TERMINALOGIK XUSUSIYATLARI



Atxamova Xadicha

*TDSHU 3-kurs Filologiya va tillarni o'qitish,
hindiyingliz guruhi talabasi
Ilmiy rahbar: katta o'qituvchi A.Yunusova*

Anotatsiya. Mazkur maqolada hindiy zoonimlarning etimologik jihatdan tahlili, xususan tatsama, tadbhava, deshi va videshi so'zlar orqali shakllangan nomlar hamda hayvonlar nasliga oid terminologik xususiyatlar o'rganiladi. Hind tilida hayvonlarning nomlanishi qadimiy ildizlarga ega bo'lib, ularning shakllanishi, ma'noviy o'zgarishi hamda mintaqaviy farqlari tadqiq qilinadi.

Tayanch soz va iboralar: Etimologiya, tatsama, tatbhava, deshya, videshi, for,ingliz,arab tillari, gibrid so'zlar, sanskrit, hayvonlar nasli.

Zoonimika – hayvonlarning nomlanishini o'rganuvchi fan sifatida tilshunoslikning muhim tarmoqlaridan biridir. Har bir til o'zining madaniy va tarixiy xususiyatlariga ko'ra hayvonlarning nomlanishini shakllantiradi. Hind tilida zoonimlar uzoq tarixga ega bo'lib, ularning shakllanishida sanskrit, prakrit va boshqa qadimiy tillarning ta'siri sezilarli darajada kuzatiladi.

Hind tilidagi hayvonot dunyosi bilan bog'liq terminlar ham o'ziga xos xususiyatlarga ega. Ular hayvonlarning jinsi, yosh xususiyatlari, ijtimoiy mavqei va boshqa lingvistik jihatlar bilan farqlanadi. Ushbu maqolada zoonimlarning kelib chiqishi, ularning tatsama, tadbhava, deshi va videshi kategoriyalaridagi semantik o'zgarishlari hamda hayvonlarning bolalarini

nomlash usullari keng yoritiladi. Tadqiqot davomida tarixiy manbalar, zamonaviy lugʻatlar hamda lingvistik tahlillar asosida hind tilidagi zoonimlarning oʻziga xosligi aniqlanadi.

Hindiy zoonimlarining etimologik tadqiqi

Soʻzlarning "biografiyasi"ni, kelib chiqish tarixini oʻrganuvchi soha etimologiya (grekcha etymon haqiqiy, logos taʼlimot) deb ataladi. Etimologiya tilshunoslikning juda qadimiy sohasi boʻlib, eramizdan avvalgi filosoflar va filologlar ham soʻzlarning dastlabki kelib chiqish tarixi bilan shugʻullanganlar. "Etimologiya" atamasi qadimgi Rim olimlari Xrizipp va Varron nomlari bilan bogʻliq deb taxmin qilinadi. Soʻzlarning haqiqiy va birinchi asl maʼnolari hamda shakllari til tarixi, boshqa tillar va dialektlardagi shu soʻz toʻgʻri kelgan oʻzakka ega boʻlgan soʻzlar bilan qiyoslash orqali aniqlanadi.

Tilshunoslik boʻlimi hisoblangan etimologiyaning asosiy vazifasi qadimiy manbalarni hamda til lugʻat tarkibining shakllanish jarayonini va uning dastlabki, qadimiy holatini tiklashdan iborat. Har bir til leksikasida muayyan miqdordagi soʻzlar borki, ularning shakli bilan maʼnosi oʻrtasidagi bogʻliqlik shu til egalari uchun tushunarsiz boʻlib qolgan, chunki soʻzning tarixan oʻzgara borishi uning dastlabki shakl va maʼnosini xiralashtirib qoʻyadi, bunday soʻz strukturasini tildagi mavjud yasaliş qoliplari orqali izohlab boʻlmaydi. Etimologik tahlilning maqsadi muayyan soʻzning qachon, qaysi tilda, qanday yasaliş qolipi boʻyicha, qaysi til materiali asosida qanday shakl va maʼnoda paydo boʻlganini aniqlashdir.

Tilning leksikasi tildagi barcha soʻzlarni oʻz ichiga oladi. Tilda mavjud barcha soʻzlar uning lugʻat tarkibini tashkil etadi. Tilda bor boʻlgan soʻzlarning hisobi aniq emas. Har bir til oʻzining lugʻat tarkibiga ega boʻlib, yuz minglab soʻzlarni oʻz ichiga olgan. Eng mukammal tuzilgan lugʻat ham barcha soʻzlarni qamrab ololmaydi. Chunki, tilning asta-sekin rivojlanish jarayonida uning lugʻat tarkibi ham takomillashib boradi. Barcha yangi soʻzlar yoki eski soʻzlar lugʻatdan oʻrin olmagan boʻlishi mumkin.

Soʻzlarning kelib chiqishini, yaʼni etimologiyasini oʻrganish quyidagilarda ahamiyatli:

1. Soʻzlarning lugʻaviy maʼno koʻlamini yoritishda;

2. So'z o'zagini aniqlashda;
3. Tilning tarixiy taraqqiyoti davomidagi o'zgarishlarni tahlil qilishda.

Hindiy tili lug'at tarkibi kelib chiqishi jihatdan ikkita katta guruhga bo'linadi:

1. Meros sifatida olingan so'zlar;
2. Chet tilidan kirib kelgan o'zlashma so'zlar.

Meros sifatida olingan so'zlar, o'z navbatida, yana ikki guruhga bo'linadi:

1. Hind-oriy;
2. Substial, ya'ni tag qatlamli so'zlar.

Hindiy tili adabiy shakliga mansub hind tub so'zlari tarixiy jihatdan quyidagi turlarga: tatsama, tadbhava, deshi hamda videshi kabi turlarga bo'linadi. Biz ham to'plagan misollarimizni yuqoridagi an'anaviy etimologik tahlilga muvofiq guruhlariga ajratib chiqdik. Quyida hindiy tilidagi zoonimlarning etimologik tahliliga doir misollar keltirilgan:

1. Tatsama. Sanskrit tilidan bevosita adabiy yo'l orqali o'zlashtirilgan va tub so'z sifatida qadimgi imloviy shaklni saqlab qolgan so'zlar bu guruhga kiradi. Bunday so'zlardan foydalanish so'z yasalishi ehtiyojlari o'sgan sari turli hind-oriy tillarida har xil miqdorda kuzatiladi. Ularning ba'zilarida esa bunday so'zlar keng ko'lamda ishlatiladi. Shu jarayonda tatsama ya'ni "xuddi o'sha sanskritdagidek" so'zlari ko'p hollarda sanskrit tili fonetik va ba'zan grammatik qoidalariga bo'ysunadi.

Ushbu qoidaga asoslangan holda misollarimizni tahlil qilib chiqqanimizda, hindiy tilidagi zoonimlarning tatsama guruhiga oid misollar biz to'plagan misollarimizning katta qismini egallashi ma'lum bo'ldi. Quyida hindiy tilidagi zoonimlarning tatsama guruhiga oid misollar berilgan:

No.	O'zbek	Hindi	Sanskrit
1	Chumoli (m.s)	चीटी	उपदीका, पिपीलक, वम्र
2	Ayiq (m.r)	भालू	भल्लूकः
3	Buyvol (m.s)	भैंस	महिषः

- 4 Buqa (m.r) साँड़ वृषभः
- 5 Tuya (m.r) साँड़ वृषभः
- 6 Mushuk (m.s) (m.r) बिल्ली बिडालः
- 7 Sigir (m.s) गाय धेनुः, गौः
- 8 Tumsoh (m.r) (m.s) मगरमच्छ मकर, मकरी
- 9 Kuchuk,it (m.r) कुत्ता सारमेयः, श्वानः, कुक्कुरः
- 10 Fil (m.r) हाथी गजः
- 11 Maymun (m.r) बन्दर वानरः, कपि, मर्कटः
- 12 Sichqon,kalamush (m.r) चूहा मूषकः, मूषिक
- 13 Ilon (m.r) सर्प, साँप सर्पः
- 14 Toshbaqa (m.r) कछुआ कच्छपः, कच्छपी (m.s), डुलि, भृथ

Hindiy tilida jins kategoriyasi mavjud bo'lganligi sababli tahlil qilingan ko'pgina misollarning muzakkar va muannas shakllari mavjudligi kuzatildi. Jumladan, मकर, मकरी-tumsoh, कच्छपः, कच्छपी-toshbaqa. Ta'kidlash joizki, aksariyat muzakkar jinsga oid misollar yopiq bo'g'inga tugasa, muannas jinsga xos zooninga oid leksik birliklarning ochiq bo'g'inga tugashi bilan farqlanadi. Shuningdek, muzakkar va muannas jinsga oid zoonimlar bir xil o'zakka ega ekanligi kuzatildi. Tahlil natijalariga ko'ra tatsama guruhiga oid zoonimlarning eng katta qismi yovvoyi hayvonlar, undan so'ng esa uy hayvonlari va hasharotlar ekanligi aniqlandi.

2.Tadbhava. Bu turdagi so'zlar uzoq davom etgan tarixiy jarayonda prakrit va apabharansha bosqichlaridan o'tib kelgan va tovush o'zgarishlariga duch kelgan so'zlar bo'lib, ular hindiy tili so'z boyligining asosiy qismini tashkil etadi. Hind-oriy tillari sanskritdan kelib chiqqan deb tan olinishiga ko'ra, tatbhava "undan kelib chiqqan" degan ma'noni anglatadi.

1.इल्ली - 2.कीली - (m.s) ari टुटरू - (m.r) kabutar

कुकड़ी - (m.s) tovuq तोतारटत - (m.s) gapiradigan to'ti

कटिया - (m.s) mushuk धौर - (m.r) oq kabutar

उल्लू - (m.r) boyqush बाघ - (m.r) yo'lbars

नेवला - (m.r) mangusta तुरी - (m.s) o'smir urg'ochi ot(1-4)yosh

धौर - (m.r) oq kabutar तिलचटा - (m.r) tarakan

तेँदा - (m.r) qoplon

Yuqoridagi nazariyadan kelib chiqqan holda, misollarimizni birma-bir tahlil qilib chiqish jarayonida hindiy tilidagi zoonimlarga oid leksik birliklarning tatbhava guruhi biz to'plagan misollarning 30%ini egallashi kuzatildi. Ularni tahlil qilish jarayonida, tatsama guruhiga mansub leksik birliklar kabi variantlilik xususiyati ega ekanligi (कजों, जोंकी-zuluk), sinonomiya hodisasining kuzatilishi (झाँझा,इल्ली-g'oz, कीली, ततैया, इंकौरी-ari,qovog'ari),omonimlik xususiyatlarining namoyon bo'lishi(नाहर-1.sher;2.yo'lbars) aniqlandi.

3.Deshya. ("mahalliy", "yerli"). Bular asosan sanskrit bilan taqqoslanganda, bu til tizimiga yot bo'lib, ba'zilar dravid va munda sarchashmalari, qolganlari esa kelib chiqishi noma'lum bo'lgan so'zlardir. Miqdoran deshyalar, mahalliy so'zlar lug'atda juda ham kamchilikni tashkil etadi.

Muzakkar (पुल्लिंग) so'zlar:

गधा (gadhā) – Eshak

कुत्ता (kuttā) – It

सूअर (sūar) – Cho'chqa

भैंसा (bhainsā) – Erkak buyvol

मेंढक (mendhak) – Qurbaqa

चूहा (chūhā) – Erkak sichqon

लोमड़ (lomṛ) – Erkak tulki

पिल्ला (pilla) – Hayvon bolasi (erkak) Muannas (स्त्रीलिंग) so'zlar:

गधी (gadhī) – Urg‘ochi eshak

कुतिया (kutiyā) – Urg‘ochi it

बिल्ली (billī) – Mushuk

भैंस (bhains) – Urg‘ochi buyvol

बकरी (bakrī) – Echki

चुहिया (chūhiyā) – Urg‘ochi sichqon

लोमड़ी (lomrī) – Urg‘ochi tulki

पिल्ली (pilli) – Hayvon bolasi (urg‘ochi)

4. Videshi so'zlari bular chet tillaridan o'zlashgan so'zlardir. Yuqorida aytilganidek, hindiy tili lug'ati chet tillaridan kirib kelgan so'zlar vositasida ham boyib kelgan. Buni zoonimlar orasida ham juda ko'plab misollar orqali ko'rishimiz mumkin. Hindiy tili zoonimlari orasida arab, fors, ingliz va boshqa tillardan o'zlashgan so'zlarga guvoh bo'ldik.

Izlanishlar natijasida, topilgan so'zlarning bir qancha qismi "videshi" guruhiga mansub ekanligi hamda gibrid so'zlardan iborat ekanligi aniqlandi. Biz to'plagan misollarda sof "videshi" o'zlashmalar 20%ni, gibrid so'zlar esa 7%ni tashkil etishi aniqlandi. Quyida hindiy tilidagi zoonimlarning "videshi" guruhiga oid misollar berilgan.

Quyida hindiy tiliga fors tilidan kirib kelgan zoonimlarga oid misollar berilgan:

Fors tilidan o'zlashgan zoonimlar:

आहू-(P. ahu) Ohu

दीमक-(P.dimak) Oqchumoli

तूती (P.tuti,m.s.) 1. kichkina to'tiqush 2. Hindiston kanareykasi

करगस (P.kargas,m.r) – Kalxat

कुलंग (P.kulang,m.r) – Xo'roz

खरगोश (P.xargosh,m.r) – Quyon

गाव (P.gav,m.r,m.s) – Xo‘kiz, sigir गुर्ग (P.gurg,m.r) – Bo‘ri

गुलदम (P.guldum,m.s) – Bulbul

गोरखर (P.gorxar,m.r) – Yovvoyi eshak

चुगद (P.chugad,m.r) – Ukki

चूजा (P.chuza,m.r) – Jo‘ja

कबूतर (P.kabutar,m.r) – Kabutar

फील (P.fil,m.r) – Fil

Videshi guruhiga mansub zoonimlar orasida fors tilidan kirgan atamalar birinchi o'rinni egallab, biz to'plagan misollarning 12%ini tashkil etadi.

Ingliz tilidan kirgan zoonimlar:

टर्की (m.r.m.s.E.turkey) – kurka, urg‘ochi kurka

ओरांगउटानग (m.r.E.orang-outang) – odamsimon maymun, Orangutang

कैंगारू (m.r.E.kangaroo) – kenguru

जेलीफिश (m.r.E.jelly-fish) – meduza

जेब्रा (m.r.E.zebra) – zebra

बीवर (m.r.E.beaver) – suv qunduzi

मम्मथ (m.r.E.mammoth) – mamont

Ushbu guruhda olib borilgan tahlil natijalariga ko‘ra ko‘pgina e’tiborga molik jihatlar ham kuzatildi. Tatsama guruhiga oid zoonimlarga xos leksikalarida muzakkar jinsga oid so‘zlar yopiq bo‘g‘in hamda muannas jinsga oid so‘zlar ochiq bo‘g‘inga tugagan bo‘lsa, videshi guruhidagi ingliz tilidan o‘zlashgan zoonimlarda bitta leksema ikkala jinsga xosligi kuzatiladi: टर्की (m.r.m.s.E.turkey) – kurka, urg‘ochi kurka.

Arab tilidan kirgan zoonimlar:

कुमरी (A.qumri.m.s) – Musicha

जुरा (A.jurra.m.r) – Lochin

ताउस (A.ta'us.m.r) – Tovus

फखिता (A.faxita.m.s) – Yovvoyi kabutar

बकर (A.baqar.m.r;m.s) – 1. Xo'kiz; 2. Sigir

हैदर (A.haidar.m.r) – Sher

सरातान (A.saratan.m.r) – Dengiz qisqichbaqasi

Tahlil natijasi shuni ko'rsatdiki, arab tilidan o'zlashgan zoonimlarga oid leksik birliklarning aksariyat qismi qush nomlari bilan bog'liq ekan. Ta'kidlash joizki, ushbu guruhda ham fonetik o'zgarishga uchragan leksemalar kuzatildi. Masalan: फखिता (A.faxita, m.s) – yovvoyi kabutar. Shuningdek, xuddi tatsama guruhida bo'lgani kabi muzakkar va muannas jinsga oid zoonimlar bir xil o'zakka ega ekanligi kuzatildi. Masalan: बकर (A.baqar, m.r; m.s) – 1. Xo'kiz; 2. Sigir.

Gibrid so'zi lotin tilidan olingan bo'lib, "chatishma" degan ma'noni anglatadi. Gibrid leksemalar ikki yoki undan ortiq tillarning qo'shilishidan hosil bo'lgan yangi atamalardir. Biz to'plagan zoonimlarga oid leksik birliklar orasida ham gibrid so'zlar uchraydi. Zoonimlar orasida sanskrit va hindiy, fors va hindiy, arab va hindiy tillaridan olingan gibrid so'zlar borligi aniqlandi.

Sanskrit va hindiy tilidan olingan gibrid so'zlar:

चंदनगोह (S+H. m.s) – Kichkina kaltakesak

नील-गाय (S+H. m.s) – Antilopa

Hindiy va sanskrit tilidan olingan gibrid so'zlar:

पाट-कृमि (H+S. m.r) – Ipak qurti

रात-राजा (H+S. m.r) – Boyo'g'li, yappaloqqush

Hindiy, fors va hindiy tilidan olingan gibrid soʻzlar:

बड़दुमा (H+P.+H.m.r) – Uzun xartumli fil

Fors va hindiy tilidan olingan gibrid soʻzlar:

कबूतरी (P.+H. m.s) – Urgʻochi kabutar

मशक-बिलाई (P.+H. m.s) – Ondatra

मुरगी (P.+H. m.s) – Tovuq

Zoonimlarga oid leksik birliklarni etimologik tahlil natijasiga koʻra, biz toʻplagan misollarning 40%i tatsama, 30%i tatbahava, 15%i videshi, gibrid soʻzlar (10%) hamda deshi (5%) ekanligi aniqlandi.

Hayvonlar naslining terminalogik xususiyatlari

Hayvonlarning bolalarini nomlash har bir til madaniyatida muhim oʻrin egallaydi. Hind tilida bu jarayon aniq tizimga asoslangan boʻlib, hayvonlarning turi, jinsi va yoshiga qarab turli terminlar qoʻllaniladi. Ushbu boʻlimda hayvonlarning bolalarini ifodalovchi terminologik xususiyatlar tahlil qilinadi.

जानवर उनके बच्चे जानवर उनके बच्चे

Sigir (गाय) Buzoq (बछड़ा) Eshak (गधा) Eshak bolasi (गधे का बच्चा)

Kuchuk (कुत्ता) Kuchukcha (पिल्ला) Oʻrdak (बत्तख) Oʻrdakcha (बत्तख का बच्चा)

Sher (शेर) Sher bolasi (शावक) Qoʻy (भेड़) Qoʻzichoq (मेमना)

Mushuk (बिल्ली) Mushukcha (बिलौटा, बिल्ली का बच्चा) Boʻri (भेड़िया) Boʻri bolasi (शावक)

Echki (बकरी) Echki bolasi(मेमना) Fil (हाथी) Fil bolasi (बछड़ा)

Tovuq (मुर्गी) Joʻja (चूजा) Ot (घोड़ा) Toychoq, ot bolasi (घोड़े का बच्चा)

Quyion (खरगोश) Quyioncha (करगोश) Maymun (बंदर) Maymun bolasi (बंदर का बच्चा)

Bug'u (हीरण) Bug'u bolasi (हिरण का बच्चा) Tulki (लोमड़ी) Tulki bolasi (लोमड़ी का बच्चा)

Hindiy tilida ba'zi hayvonlarning bolalariga nisbatan ishlatiladigan so'zlar boshqalardan farq qiladi. Ba'zi hayvonlar uchun aniq nomlar mavjud, boshqalari esa faqat umumiy "bachcha" (बच्चा) yoki "shishu" (शिशु) kabi so'zlar bilan ataladi. Bu farqlar biologik, madaniy va leksik jihatdan ajratilgan.

Bu kabi terminlar hind madaniyatida hayvonlarning bolalarini nomlashda aniq tizimga ega bo'lib, ularning yoshiga va jinsiga bog'liq holda turlicha bo'lishi mumkin.

Xulosa Hind tilidagi zoonimlar nafaqat lingvistik, balki madaniy va tarixiy ahamiyatga ham ega. Ularning shakllanishi jarayonida sanskrit va prakrit tillari katta rol o'ynagan. Tatsama, tadbhava, deshī va videshī so'zlar orqali zoonimlar xilma-xil shakllarga ega bo'lib, bu ularning rivojlanish yo'nalishlarini tushunishda muhim ahamiyat kasb etadi. Hayvonlar naslining terminologik xususiyatlari esa bolalarining nomlanish tizimiga bog'liq holda shakllangan. Ushbu tadqiqot zoonimlarning etimologik kelib chiqishini tahlil qilish orqali hind tilidagi hayvonlar bilan bog'liq atamalarning rang-barangligini ochib beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

В.М. Бескровный. Хинди-русский словарь.-Москва. 1953.В.М.

Бескровный. Хинди-русский словарь (в двух томах). Москва. 1972.

Будаков Р.А. Проблема развития языка. -М., 1965.

Butayev Sh. Inglizcha-o'zbekcha lug'at.-Toshkent: Tafakkur bo'stoni, 2009.

Xolmonova Z. Tilshunoslikka kirish. -T., 2007.

Shamatov O.N. Janubiy Osiyo tillariga kirish. -T.: Tosh DSHI nashriyoti, 2003

<https://www.rajasthangyan.com/list?nid=8>

<https://www.gyankibook.com/2021/10/young-ones-of-animals-in-hindi.html?m=1>

<https://mycoaching.in/animals-name-in-hindi-sanskrit-english>

HINDIY TILINING RIVOJLANISH BOSQICHLARI: LINGVISTIK TARIXI TAHLILI



Raufova Shahzoda

*TDSHU 3-kurs Filologiya va tillarni o'qitish,
hindiyingliz guruhi talabasi
Ilmiy rahbar: katta o'qituvchi A.Yunusova*

Annotatsiya: Ushbu maqolada hindiyl tilining kelib chiqishi, rivojlanish bosqichlari, leksikasining boyish sabablari va manbalari haqida ma'lumotlar beriladi. Ma'lumotlar davomida misollar ham keltiriladi.

Kalit so'zlar: Sindh, sanskrit, Shauraseni Prakrit, Shauraseni Apabhhransha, rehta, khari boli, tatsam, ardhatatsam, tadbhav, deshaj, videshi.

Hindiyl tili dunyo bo'yicha eng ko'p so'zlashiluvchi tillardan bo'lib, mandarin, ispan va ingliz tillaridan keyingi to'rtinchi o'rinda turadi. Hozirgi kunda hindiyl tilida 500 milliondan ortiq odamlar ona tili va chet tili sifatida so'zlashadi. Hindiyl Hindistonning ro'yxatga olingan 22 ta rasmiyl tillardan asosiysi bo'lib, Hindistonning davlat tili hisoblanadi. Hindiyl tili boy leksik tarixga ega bo'lib, Hindiston madaniyl merosining muhim qismi hisoblanadi. Uttar-Pradesh, Madhya-Pradesh, Hariyana, Bihar, Rajasthan, Himachal-Pradesh shtatlarida hamda Dehli ittifoqdosh hududida keng tarqalgan bo'lib, unda 350 mln.ga yaqin kishi so'zlashadi. Hindiyl tili dunyoning bir qancha mamlakatlarida, jumladan Nepal, Mavrikiyl, Fiji, Surinam, Trinidad va Tobago kabi davlatlarda keng ko'lamda so'zlashuvchilarning tez o'sayotgan tildir.

Hindiyl tili lahjalari struktura jihatidan farqlanuvchi 2 guruhga ajraladi: khari bo'li, hariyani, braj, kanao'ji, bundeli lahjalari g'arbiyl guruhni tashkil qiladi; avadhi, bagheli, chhattisgarhi lahjalari sharqiyl guruhni tashkil

qiladi. Hindiy tilida sanskrit tilining lugʻaviy va soʻz yasovchi vositalari keng qoʻllaniladi.

"Hind" soʻzining kelib chiqishi

"Hind" soʻzi sanskritcha "sindhu" – Hindistonning shimoli-gʻarbidagi daryo nomining forsiy tildagi talaffuzidan kelib chiqqan. Keyinchalik daryo nomini anglatuvchi "hind" soʻzi Hind-Gang pasttekisligida yashovchi aholi, ularning tili va butun boshli mintaqa tushunchasini ifodalovchi soʻzga aylandi. Oʻtmishda "hindi" bilan bir qatorda ushbu maʼnoni beruvchi "hindui" va "hindaviy" soʻzlari ham foydalanilgan. Amir Xusravning sheʼriyatida "hindui" va "hindaviy" soʻzlari qoʻllanilganini bilishimiz mumkin.

Hindiy tilining paydo boʻlishi va rivoji

Hindiy tili oʻzining kelib chiqishi jihatidan hind-yevropa tillari oilasiga mansub boʻlib, u asosan Hindiston va atrof hududlarda shakllangan. Uning tarixi uch asosiy bosqichga boʻlinadi:

1. Qadimgi Hind-Aryan bosqichi (miloddan avvalgi 1500–500-yillar):

Bu davr Vedik sanskrit tili hukmron boʻlgan bosqichdir. Rigveda, Upanishadlar kabi muhim diniy matnlar aynan shu tilda yozilgan. Sanskrit tili hind-aryan tillarining dastlabki shakli boʻlib, bugungi hindiy tilining ildizlari aynan shu davrga borib taqaladi.

2. Oʻrta Hind-Aryan bosqichi (miloddan avvalgi 500 – milodiy 1000-yillar):

Bu davrda sanskrit asta-sekin xalq orasida oʻzgarib, Prakrit tillari shakllandi. Prakritning bir turi boʻlgan Shauraseni tili hindiy tilining bevosita ajdodi hisoblanadi. Shuningdek, buddaviy va jayn matnlarida ishlatilgan Pali tili ham oʻrta hind aryan tillariga kiradi.

3. Yangi Hind-Aryan bosqichi (milodiy 1000-yildan hozirgacha):

Bu bosqichda prakrit tillaridan rivojlangan Apabhramsha tili asta-sekin oddiy xalq orasida keng tarqaldi va asta-sekin zamonaviy hindiy tiliga aylandi.

Quyidagi namunalar oʻrta hind-oriy tilidan hindiy tiliga oʻtgan soʻzlarning tovush oʻzgarish jarayonini tavsiflaydi:

- Yonma-yon undoshlardan birining tushib qolishi undan avvalgi unli tovushlarning choʻziq tus olishi: Skt. *hasta* "qoʻl" > Pkt. *hattha* > Hnd. *hāth*. (हाथ) bilan

- Soʻz oxiridagi barcha unli tovushlarning tushib qolishi: Skt. *rātri* “tun” > Pkt. *rattī* > Hnd. *rāt*. (रात)
- Burunli undoshlarning choʻziq burun tovushli unlilarga aylanishi: *bandha* “bogʻlanish” > *bāndh* (बांध)
- Urgʻusiz qisqa unli tovushlarning tushib ketishi: *susthira* “barqaror” > *sutthira* > *suthrā*. (सुथरा)
- Yondosh unli tovushlarning birlashishi: *apara* “boshqa” > *avara* > *aur*. (और)
- Soʻz oxiridagi -m tovushining -ṽ ga oʻtishi: *grāma* “qishloq” > *gāma* > *gāṽ*. (गांव)
- Tanglay undoshlari boʻlgan -ḍ- ning -ṛ- yoki -l- ga aylanishi: *taḍāga* “hovuz” > *talāv* > *tālāb* (तालाब); *naḍa* “qamish” > *nal* (नाल).
- v tovushining b ga aylanishi: *vivāha* “nikoh” > *byāh*. (विवाह; ब्याह)

Oʻrta asrlarda hindiy tili

Oʻrta asrlarda Shimoliy Hindiston, Sharqiy Pokiston, Janubiy Nepal va Bangladesh hududlarini birlashtirgan Dehli sultonligi davrida hindu va musulmon madaniyatlarining aloqasiga sabab boʻlgan, asosi sanskrit va prakrit boʻlgan qadimgi hindiy tili fors tilidan olingan soʻzlar bilan boyib, hindiy tilining hozirgi shakliga aylana boshladi. U davrlarda til nomi "hindaviy", "rehta", "khari boli" nomlari bilan atalib keladi. Tilning "braj" va "avadhi" lahjalari ham boʻlib, ular maʼlum vaqt badiiy adabiyot tili ham boʻlgan. Rexta (oʻsha vaqtdagi til nomi) Hindistonda Shoh Jahon hukmronligi davrida hukmdor saroyining rasmiy tiliga aylanganidan keyin mashhurlikka erishdi. Hukmdor Avrangzebning shu tilda gapirgani qayd etilgan. Jumladan ushbu jadvalda arab-fors soʻzlaridan olingan soʻzlar keltirilgan:

Fors-arab soʻzlari	Hindiyda	Ma'nosi
وقت vaqt	वक्त	vaqt
قميص qameez	कमीज़	koʻylak
كتاب kitab	किताब	kitob
نصيب naseeb	नसीब	taqdir

کرسی kursee	कुर्सी	stul
حساب hisaab	हिसाब	hisob
قانون qanoon	क्रानून	qonun
خبر khabar	खबर	xabar
دنيا dunyaa	दुनिया	dunyo, olam

Mustamlakachilik, mustaqillik va undan keyingi davrlardagi hindiy tili

Ingliz mustamlakachiligi davrida va undan keyin ham ingliz tili va u bilan birga kirib kelgan soʻzlar bilan til lugʻati boyiydi va boyimoqda. Ular tilda chuqur ildiz otadi va tilning ajralmas boʻlagiga aylanadi. Bularning bari hozirgi norasmiy Hinglishning asosi boʻladi. Ushbu jadvalda ingliz, portugal va ular orqali boshqa tillardan kirib, hindiy tiliga singib ketgan soʻzlar keltiriladi:

Ingliz, portugal, boshqa tildan kirgan soʻzlar	Hindiyda	Maʼnosi
school	स्कूल	maktab
theatre	थिएटर	teatr
glass	गिलास	stakan
stadium	स्टेडियम	oʻyin maydoni
film	फिल्म	kino, film
phone	फोन	telefon
television	टेलीविजन	televizor
armario	अलमारी	shkaf

Mustaqillik uchun kurash davrlarida, ya'ni XIX va XX asrlardan til "hindiy" nomini olib, Mahatma Gandhi qo'llab-quvvatlagan xalqni birlashtiruvchi umummilliy til (राष्ट्रभाषा) maqomiga ega bo'ladi va Hindiston mustaqillikka erishgach hindiy tili mamlakatning birinchi rasmiy tiliga (ingliz tili -ikkinchi rasmiy til) aylanadi. Bu hindiy tilining Hindistondagi ahamiyatini belgilab beradi.

1960-yillardan rasmiy til sifatida hindiy tili sanskritlashtiriladi, undan fors-arab so'zlari siqib chiqarilib, standartlashtirilgan zamonaviy hindiy shakllantiriladi. Hozirgi kunda tilning ushbu shakli publitsistikada keng qo'llanilib kelmoqda. Fors-arab so'zlarini o'zida jamlagan shakli aholi orasida so'zlashuv tili va asarlar hamda ijodiy ishlar yaratishda badiiy til bo'lib qolmoqda.

Hindiy tilining lug'at tarkibi

Hindiy tilidagi barcha mavjud so'zlar ularning etimologiyasiga qarab, beshta toifaga bo'linadi:

1. **Tatsam** (तत्सम - "xuddi o'sha") so'zlari: Bular sanskrit tilidagi shaklini deyarli o'zgartirmasdan saqlab qolgan hindiycha so'zlar. Bunday so'zlar prakrit orqali sanskritdan o'tgan va o'zgarishsiz saqlangan bo'ladi. मित्र , वृक्ष, विज्ञान , श्रोता। Misol uchun: hindiyda "नाम" (nām) sanskritcha "नामः" (nāmah) पहला - प्रथम दो – द्वितीय
2. **Ardhatatsam** (अर्धतत्सम - " yarim tatsam") so'zlar - bu sanskrit tilidan olingan, lekin vaqt o'tishi bilan tovush o'zgarishlariga uchragan so'zlardir. Masalan, सूरज (sūraj, "quyosh") hindiy tilida सूर्य (sūrya) sanskritcha so'zidan kelib chiqqan bo'lib, talaffuz va yozilishda o'zgarishlarga uchragan.
3. **Tadbhav** (तद्भव - "undan bo'lgan"): Bu so'zlar sanskrit tilidan kelib chiqqan bo'lsa-da, vaqt o'tishi bilan fonetik o'zgarishlarga uchrab, hind tiliga moslashgan. Tadbhav so'zlar sanskritcha so'zlarning prakrit va apabhramsha tillari orqali rivojlangan shaklidir. Misol uchun: Sanskrit: कर्म (karma, "amal") → Shauraseni Prakrit: कम्म (kamma) → Hindi: काम (kām, "ish").
4. **Deshaj** (देशज - "mamlakatga xos"): Bu so'zlar mahalliy hind tillaridan olingan, lekin sanskrit yoki boshqa hind-yevropa tillaridan kelib

chiqmagan soʻzlardir. Koʻpincha onomatopoeitik (tovushga taqlid qiluvchi) yoki hind-yevropa boʻlmagan mahalliy tillardan olingan soʻzlar ushbu turkumga kiradi. Misol uchun: टपकना) ṭapaknā , "tomchilamoq"), छपछप) chapchap , "shapillash ovozi") खिचड़ी, खिड़की, कटोरा, लोटा

5. **Videshī** (विदेशी - "chet elga oid"): Bu toifa hind tiliga chet tillardan kirib kelgan soʻzlarni oʻz ichiga oladi. Eng koʻp soʻz olingan tillar: fors, arab, ingliz, portugal. Misol uchun:
Forscha: क़िला (qila, "qal'a")

Inglizcha: कमेटी (committee, "komitet")

Portugalcha: अलमारी (armario, "shkaf")

Turkiy: कैची, कुर्ता

Bulardan tashqari **Sankar shabd** (संकर शब्द - aralash tillardan hosil boʻlgan soʻzlar) toifasi ham bor : टिकटघर, डाकखाना, रेलगाड़ी Bu toifalarning barchasi hindiy tilining lugʻaviy boyligini tashkil etishda muhim rol oʻynaydi.

Tatsama तत्सम sanskrit tilidan hindiy tiliga oʻzgarishsiz kirgan soʻzlar	Tadbhava तद्भव hindiy tiliga xos boʻlgan soʻzlar	Deshya देश्य hind oriy tillariga mansub boʻlmagan soʻzlar	Fors tili	Arab tili	Turk tili	Portugal tili
दूध अग्नि हाथ पुष्प	आग काम खेत दही	कटोरी थाली थैला डिबिया	आ बाद आरा म	अमीर असर इजाज़ त	कैची कुर्ता	अलमारी

पृथ्वी मृत्यु	क्षेत्र वृक्ष ग्राम	धरम घर घी मोर हाथ सौ	लोटा डोसा इटली	ज़मी न किना रा नमक	कुर्सी तक्रदीर	तोप कुली	तोपची	गिरजा पादरी
------------------	---------------------------	----------------------------------	----------------------	--------------------------------	-------------------	-------------	-------	----------------

Xulosa o‘rnida ta’kidlash mumkinki, hindiy tili Vedik sanskritdan prakritga, so‘ngra apabhramsha orqali rivojlanib, hozirgi zamonaviy hindiy tiliga aylangan. Bugungi hindiy tili asosan XVII-XVIII asrlarda barqaror shakllangan va hozirda Hindistonning rasmiy tillaridan biri hisoblanadi. Bu hindiy tilining kelib chiqish tarixi uzoqligini ko‘rsatadi. Bugungi kunda ham hindiy tili ko‘p so‘zlashiluvchi tillardan bo‘lib, o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Hindiy tili tilshunoslikning o‘rganilish markazida bo‘lib, ko‘plab soha izlanuvchilarini ilmiy izlanishlar olib borishiga turtki bermoqda. Shunday qilib ushbu maqolada hindiy tilining dastlabki kelib chiqish davri, o‘rta, yangi va eng yangi asrlardagi holati qisqacha umumiy o‘rganildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- S.S. Narula. Scientific History of the Hindi language. – New Delhi.: "Navin Press", 1955.
- R.L. Turner. A Comparative Dictionary of the Indo-Aryan Languages. –Great Britain.: "Oxford University Press", 1966
- В.М. Бескровный. Хинди-Русский Словарь. –Москва.: "Государственное издательство иностранных и национальных словарей", 1959.
- М.Н Abdurahmonova, А.А. Yunusova. Hind filologiyasiga kirish. – Toshkent.: "Toshkent Davlat Sharqshunoslik universiteti", 2023.
- T.G‘. G‘iyosov. Hindiston tarixi. –Toshkent.: Toshkent Davlat Sharqshunoslik instituti, 2015.

- O.N. Shamatov, B.R. Rahmatov. Hindiy tili leksikologiyasi. – Toshkent.: "Toshkent Davlat Sharqshunoslik instituti", 2009.

HINDIY TILIDA IQTISODIY TERMINLARNING TEMATIK TASNIFI



Patxullayeva Mahliyo

*TDSHU 3-kurs Filologiya va tillarni o'qitish,
hindiyingliz guruhi talabasi
Ilmiy rahbar: f.f.d., dots.S.S.Nurmatov*

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqola hindiy tilidagi iqtisodiy terminlarning tematik tahliliga bag'ishlangan. Maqolada hindiy tilidagi iqtisodiy terminlar to'rt asosiy guruhga ajratilgan: buxgalteriya, moliya, savdo-sotiq va bank sohaslariga oid terminlar. Har bir guruhda mavjud bo'lgan atamalar tahlil qilinib, ularning ma'nosi, qo'llanilishi va iqtisodiy jarayonlardagi roli keltirilgan. Maqola hindiy tilidagi iqtisodiy terminologiyani o'rganishga qiziqqanlar, shuningdek, iqtisodiy va moliyaviy sohalarda faoliyat yurituvchi mutaxassislar uchun foydali bo'ladi. Shuningdek, maqola terminologiyaning aniq va tushunarli bo'lishi, iqtisodiy faoliyatning samarali boshqarilishini ta'minlashdagi ahamiyatini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: hindiy til, iqtisodiy terminlar, buxgalteriya, moliya, iqtisod, savdo-sotiq, bank sohasiga oid terminlar, tematik tahlil, iqtisodiy jarayonlar, terminologiya, moliyaviy boshqaruv, inflyatsiya, kapital, kredit, iqtisodiy blokada.

Hindiy tili, dunyoning eng ko'p so'zlashiladigan tillaridan biri bo'lib, o'zining boy lug'ati va keng qamrovli sintaksis tizimi bilan ajralib turadi. Hindiy tilining iqtisodiy terminlarining tematik tasnifi ilmiy tadqiqotlar uchun dolzarb ahamiyatga ega bo'lib, u nafaqat Hindiston, balki butun janubiy Osiyo mintaqasidagi iqtisodiy tizimlarning o'ziga xos xususiyatlarini yoritishda muhim rol o'ynaydi. Iqtisodiyotning har bir sohasiga alohida e'tibor qaratib, turli terminlar tizimining rivojlanishi va bu terminlarning turli iqtisodiy jarayonlar bilan bog'liq o'zgarishlarini o'rganish ushbu ilmiy ishning asosiy maqsadidir. Iqtisodiyot har bir jamiyatda muhim rol o'ynaydi. U milliy farovonlikni oshirish, resurslarni samarali taqsimlash va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda alohida ahamiyatga ega. Iqtisodiy jarayonlarni tushunish va ularga ta'sir ko'rsatish uchun aniq va izchil terminologiyaning mavjudligi zarur. Har bir tilda o'ziga xos iqtisodiy terminlar va tushunchalar mavjud bo'lib, ular milliy iqtisodiyotni o'ziga xos tarzda ifodalaydi. Hind tili ham iqtisodiyotning turli sohaslarini ifodalovchi o'ziga xos terminologiya tizimiga ega. Ushbu maqolada hindiy tilidagi iqtisodiy terminlar tahlil qilinib, ular o'zining tematik guruhlariga ajratilgan. Hindiy tilidagi iqtisodiy terminlarning o'rganilishi nafaqat til o'rganish jarayonida, balki iqtisodiy faoliyatni amalga oshirayotgan mutaxassislar uchun ham muhimdir. Iqtisodiy tushunchalar va atamalarni to'g'ri tushunish va qo'llash, iqtisodiy

jarayonlarni samarali boshqarish va tahlil qilish imkoniyatini yaratadi. Shuningdek, iqtisodiy jarayonlarning murakkabligi va ularning bir-biri bilan bog'liqligi, iqtisodiy terminlarning aniq va qat'iy qo'llanilishini talab qiladi. Bu esa nafaqat iqtisodiy bilimlarni chuqurlashtiradi, balki iqtisodiyotga oid qarorlar qabul qilishda ham samarali yordam beradi. Hindiy tilida iqtisodiy terminlar juda keng tarqalgan va xilma-xildir. Ular iqtisodiyotning turli jabhalarini – buxgalteriya, moliya, savdo-sotiq, bank tizimi va umumiy iqtisodiyot sohaslarini ifodalaydi. Iqtisodiy terminlarning har biri o'zining ma'nosi, qo'llanish doirasi va iqtisodiy jarayondagi ahamiyati bilan ajralib turadi. Masalan, buxgalteriya sohasida ishlatiladigan atamalar kompaniyaning moliyaviy holatini baholash va soliq hisob-kitoblarini to'g'ri amalga oshirishga yordam beradi. Moliyaviy terminlar esa resurslarni boshqarish, investitsiya qilish va iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Savdo-sotiq va bank tizimi bilan bog'liq terminlar esa bozor iqtisodiyotining to'g'ri ishlashini ta'minlashda yordam beradi. Hindiy tilida ishlatiladigan iqtisodiy terminlarning ko'pligi va xilma-xilligi, ularning tematik guruhlar bo'yicha tahlilini o'rganishni talab qiladi. Bunday tahlil nafaqat tilshunoslik nuqtai nazaridan, balki iqtisodiy tahlil, moliyaviy boshqaruv va biznes sohasidagi mutaxassislar uchun ham muhimdir. Maqolada keltirilgan tahlil, iqtisodiy terminologiyani o'rganishni istaganlarga aniq va chuqur tushunchalar beradi, shuningdek, hindiy tilida iqtisodiy atamalarni to'g'ri qo'llashni o'rgatadi. Iqtisodiy atamalar har bir jamiyatda o'zining tarixiy va madaniy kontekstida shakllanadi. Hindistonning iqtisodiy tizimi va moliyaviy bozorlarining rivojlanishi, shu bilan birga, xalqaro savdo aloqalari, iqtisodiy siyosat va texnologik yutuqlar hindiy tilidagi iqtisodiy terminlarning shakllanishiga ta'sir ko'rsatgan. Ushbu maqolada hindiy tilidagi iqtisodiy terminlarning tematik tahlili, ularning mohiyatini tushunishga yordam beradi va iqtisodiy terminologiyaning xalqaro miqyosda o'rganilishi, o'zgarishi va rivojlanishini ko'rsatadi. Maqolaning asosiy maqsadi hindiy tilidagi iqtisodiy terminlarning tematik guruhlariga ajratilgan tahlilini taqdim etishdir. Bu tahlil, iqtisodiy jarayonlarni tushunishga, iqtisodiy va moliyaviy sohalarda ishlashga qiziqqanlar uchun muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, bu tadqiqot iqtisodiy atamalarni o'rganish, ularni to'g'ri va samarali qo'llashda yordam berishi mumkin. Maqola shuningdek, hindiy

tilidagi iqtisodiy terminlarning xalqaro iqtisodiy muhitda o'z o'rnini qanday topishini ham yoritib beradi.

Hindiy tilidagi iqtisodiy terminlarni o'rganish, tilshunoslar, iqtisodchilar, moliya mutaxassislari va boshqa soha vakillari uchun juda foydali bo'lib, xalqaro miqyosda savdo, investitsiya, moliya va iqtisodiy siyosat bilan bog'liq har qanday jarayonni tushunishga yordam beradi. Maqolada keltirilgan tahlil, shu bilan birga, hind tilining o'ziga xos iqtisodiy terminologiyasini o'rganishda qo'llanma sifatida xizmat qiladi.

Hindiy tilidagi iqtisodiy terminlarning tematik tasnifi

Hind tilidagi iqtisodiy terminlarni tahlil qilganimizda ularni biz 4 guruhga ajratdik:

- 1) Moliyaga oid terminlar (वित्तीय शब्दावली)
- 2) Bank sohasiga oid terminlar (बैंक शब्दावली)
- 3) Buxgalteriyaga oid terminlar (लेखांकन शब्दावली)
- 4) Savdo-sotiqqa oid terminlar (व्यापार शब्दावली)

Moliyaga oid terminlar. Ushbu terminlar, ayniqsa, iqtisodiyot va moliya sohalarida keng qo'llaniladi, bu guruh moliyaviy faoliyat, kapital harakati va iqtisodiy tizim, kapital aylanishi va pul siyosatiga oid terminlardan iboratdir. Quyida ba'zi muhim moliya sohasiga oid terminlarni keltiramiz:

t/r	HINDIY TILIDA	O'ZBEK TILIDA
1	पक्का चिह्न	to'g'ri tuzilgan balans
2	पुनर्मूल्यन	revolvatsiya

3	वित्तीय पूंजी	iqtisodiy kapital
4	पूंजी परिचालन	kapital harakati
5	पृष्ठांकत	indosirovat(vekselni imzo bilan jo‘natish)
6	पृष्ठांकन	indossament
7	मंग देयता	birinchi talabdan to‘lash majburiyati
8	मुद्रा अवमूल्यन	devolvatsiya
9	राशि	fond
10	रोकड़ बाक़ी	balans
11	अधिमूल्य	minemalkadan yuqori narx
12	अवमूल्य	1) narx, 2) minemalkadan past narx
13	पूंजी निर्गमन	emissiya
14	प्राधिकार पूंजी	chiqarishga ruxsat berilgan kapital
15	बट्टा	hisob-kitob
16	बोनस	tetyema(pylimdan tashqari mukofot puli)
17	अनिहित	konsal ding qilinmagan
18	अर्थ दान	moliyaviy yordam
19	अर्थ परामर्शक	moliyaviy maslahatchi
20	अर्थ पुस्तिका	moliyaviy ma'lumot beruvchi
21	अपस्फीति	deflyatsiya
22	आदेय	faol
23	आदेशिती	trassat(harakat qaratilgan yuz)
24	अप्रतिदेय ऋण	davlat qarzi
25	निधिक ऋण	qisqa mudatli qarzni uzoq muddatlisiga almashtirish
26	ऋण रूपांतरण	qarzning konversiyasi

27	ऋण स्थगन	moratoriy
28	ओवरेड्राफ्ट	overdraft(mijozning hisobidagi puldan yuqori taklif qilingan kredit)
29	अधिकृत पूंजी	ustav kapitali
30	अचल पूंजी	asosiy kapital
31	कार्यशील पूंजी	aylanma
32	चुकती पूंजी	to‘langan kapital
33	मुद्रा प्रसारक	inflyatsiya
34	मुद्रा विस्फीति	defilyatsiya
35	मुद्रा स्फीति	inflyatsiya
36	आर्थिक उपरोध	iqtisodiy blokada
37	निर्गमित पूंजी	chiqarilgan kapita
38	पट बंधक	ipoteka
39	मुद्रा सुधार	pul reformasi
40	भू चुंगी	shaxsiy yer uchun
41	मांग देयता	birinchi talabdan to‘lash majburiyati

Masalan:

1. अब मौद्रिक पूंजी वित्तीय पूंजी में रूपांतरित हो गई और उसने और ज्यादा प्रभावशाली स्थिति हासिल कर ली।

Endi pul shaklidagi kapital iqtisodiy kapitalga aylantirildi va u yanada ta’sirchan mavqega ega bo‘ldi.

2. पूँजीपति के उपभोग में जाने वाली राशि और पूँजी में तब्दील की जाने वाली राशि यानी पूँजीकृत बेशी मूल्य में विभाजित किया जाता है।

Kapitalist tomonidan iste'mol qilinadigan fond va kapitalga aylantiriladigan mablag‘ ya’ni kapitallashtirilgan ortiqcha qiymat ikki qismga bo‘linadi.

Bank sohasiga oid terminlar. Hindiy tilidagi bank sohasiga oid terminlari asosan moliya, kreditlar, hisob-kitoblar, valyuta ayirboshlash va bank tizimiga tegishli tushunchalarni qamrab oladi. Quyida ba'zi muhim bank sohasiga oid terminlarni keltiramiz:

t/r	HINDIY TILIDA	O‘ZBEK TILIDA
1	पगार	oylik
2	पूंजी	pul,kapital
3	बंधक बैंक	ipoteka bank
4	बचत लेखा	jamg‘arma hisob
5	बजट	byudjet
6	बचत प्रणाली	byudjet sistemasi
7	प्राइवेट बैंक	shaxsiy bank
8	मिश्रित पूंजीवाला बैंक	aksionerlik banki
9	व्यापारिक बैंक	savdo-sotiq banki
10	बैंक ऋण	bank ssudasi
11	बैंक व्यवस्था	bank sistemasi
12	अंतर्राष्ट्रीय मुद्रा कोष	Xalqaro valyuta fondi
13	ऋणशोधनाश्रम	banknot
14	मुद्रा कोष	valyuta fondi
15	जमा	omonat qo‘yish
16	ब्याज	foiz
17	ग्राहक	mijoz
18	अंतर्राष्ट्रीय मुद्रा कोष	Xalqaro valyuta fondi
19	वेतन	haq oylik
20	ऋण सीमा	kredit limiti

21	गिरवी	garov
22	बीमा	sug'urta

Masalan:

1.भारत में समान वेतन का सिद्धांत स्वतंत्रता-पूर्व अवधि के दौरान श्रम अधिकारों के व्यापक ढांचे के भीतर विकसित हुआ।

Hindistonda teng ish oylik tamoyili mustaqillikdan avvalgi davrda mehnat huquqlari bo'yicha keng qamrovli tizim doirasida shakllangan.

2.अंतर्राष्ट्रीय मुद्रा कोष में सुधार की आवश्यकता निम्नलिखित तथ्यों से स्पष्ट होती है।

Xalqaro valyuta fondi isloh qilish zarurati quyidagi faktlardan yaqqol ko'rinib turibdi.

Buxgalteriyaga oid terminlar.Hisob-kitob,moliyaviy tahlil va reviziya faoliyatiga oid terminlardan iborat.Quyida ba'zi muhim buxgalteriyaga oid terminlarni keltiramiz:

t/r	HINDIY TILIDA	O'ZBEK TILIDA
1	पड़ताल	reviziya,tekshiruv,soliq pulidagi o'zgarishlar
2	प्रपंजी	grosbux(asosiy kitob,bosh kitob)
3	आकलन	foyda kirishi
4	आकलन पक्ष	buxgalteriya kitobining o'ng tomoni pul va moddiy narsalarning kirim chizmasi
5	आकलित	ro'yxatdan chiqarilgan,hisobdan chiqarilgan
6	आमदनी	kirim,daromad

7	उचित खाता	1)pullar hisobi 2) qarzga olingan pullar yoki kreditga olingan tovarlar ro'yxati
8	आमदनी	kirm,daromad
9	आकलन	foyda kirishi
10	नफ़ा	foyda
11	नुकसान	zarar
12	लेखा	hisob
13	लेखांकन	buxgalteriya hisobi
14	चालू संपत्ति	joriy aktivlar
15	देयताएं	to'lanadigan majburiyatlar
16	बही खाता	buxgalteriya daftar
17	वित्तीय विवरण	moliyaviy hisobot
18	बैलेंस शीट	balans varaqasi
19	हिसाब	hisob-kitob
20	आय	daromad

Masalan:

1.शोएब लिखते हैं" ,कितने लोगों की आमदनी को सरकार ने 7 लाख रुपये छोड़ा है"?

Shoeb yozadi: "Hukumat qancha odamning daromadi 7 million rupiyni qoldirdi?"

2.वैश्विक अर्थव्यवस्था दुर्बल कर देने वाली मंदी के खतरे से बच गई है और अंतरराष्ट्रीय मुद्रा कोष ने पिछले सप्ताह 2024 में दुनिया भर में कुल वृद्धि दर के अनुमान को अक्टूबर में अपने अनुमानित आकलन 2.9 फीसदी से बढ़ाकर 3.2 फीसदी कर दिया है।

Jahon iqtisodiyoti zaiflashtiruvchi inqiroz xavfidan qutulib qoldi va Xalqaro Valyuta Jamg'armasi o'tgan hafta 2024 yilda butun dunyo bo'yicha umumiy o'sish sur'atlari prognozini oktyabr oyidagi daromad kirishi 2,9 foizlik taxminidan 3,2 foizga oshirdi.

Savdo-sotiqqa oid terminlar. Savdo aloqalari,bozor munosabatlari va tovar ayirboshlashga oid terminlardan iborat.Quyida ba'zi muhim savdo-sotiqqa oid terminlarni keltiramiz:

t/r	HINDIY TILIDA	O'ZBEK TILIDA
1	फ़ज़िल	balans
2	फ़ज़िल बाक़ी	faol balans
3	फ़ात	dvident bo'linishi
4	अढतिया	makler (savdo yoki birjada o'rtadagi odam)
5	यभा मूल्य	kirayotgan yoki chiqayotgan tovarlarda olinadigan foiz solig'i
6	आदेश देय	talabga qarab to'lov
7	मुद्रा बाज़ार	pul bozori
8	निवेश	investitsiya
9	निर्यात	eksport
10	आयात	import
11	माल	mahsulot,tovar
12	नकद भुगतान	naqd to'lov
13	छूट	chegirma
14	उधार	nasiya
15	व्यापारिक समझौता	savdo shartnomasi
16	मांग	talab
17	आदेश	buyurtma

Masalan:

1.निवेश एक ऐसा टूल है जिसमें एसेट खरीदना और भविष्य में उनसे ज़्यादा रिटर्न की उम्मीद करना शामिल है।

Investitsiya — bu shunday vositaki, unda aktivlar xarid qilinadi va kelajakda ulardan ko‘proq daromad olinishiga umid qilinadi.

2.भारत में एक विशाल कृषि और विनिर्माण क्षेत्र है, और इस क्षेत्र में उद्योगों के विकास के लिए निर्यात में वृद्धि अपरिहार्य है।

Hindistonda ulkan qishloq xo‘jaligi va ishlab chiqarish sohasi mavjud bo‘lib, ushbu sohada sanoatlarning rivojlanishi uchun eksportning oshishi muqarrardir.

Yuqoridagi misollardan ko‘rinadiki, hindiy tilidagi iqtisodiy terminlar tematik jihatdan tahlil qilinganda eng katta miqdorni quyidagila tashkil etadi : Moliyaga oid so‘zlar soni 41 ta ,ya'ni 41% ni tashkil etadi. Jumladan, वित्तीय पूंजी -iqtisodiy kapital, पूंजी परिचालन-kapital harakati, पृष्ठांकित - indosirovat(vekselni imzo bilan jo‘natish)

Keyingi o‘rinda bank sohasiga oid so‘zlar soni 22 ta,ya'ni 20% ni tashkil etadi. Masalan,Bank sohasiga oid terminlar पगार - oylik, पूंजी - pul,kapitali,बजट -byudjet,बचत प्रणाली- byudjet sistemasi,प्राइवेट बैंक-shaxsiy bank, मिश्रित पूंजीवाला बैंक-aksionerlik banki, मुद्रा कोष- valyuta fondi.

Buxgalteriyaga oid so‘zlar,ularning soni 20 ta ya'ni 20% ni tashkil etadi.प्रांजी- grosbux)asosiy kitob,bosh kitob(,आकलन- foyda kirishi,आकलन पक्ष-buxgalteriya kitobining o ‘ng tomoni pul va moddiy narsalarning kirim chizmasi,आकलित-ro‘yxatdan chiqarilgan, hisobdan chiqarilgan,आमदनी-kirim,daromad ,उचित खाता-1(pullar hisobi 2) qarzga olingan pullar yoki kreditga olingan tovarlar ro‘yxati.

Oxirgi o‘rinda savdo-sotiqqa tegishli bo‘lgan so‘zlar 17 ta ,ya'ni 17% ni tashkil etadi. Bularga quyidagilarni misol qila olamiz,Savdo-sotiqqa oid bo‘lgan terminlar फ़ज़िल - balans, फ़ज़िल बाक़ी-faol balans, अदतिया-makler)savdo yoki birjada o‘rtadagi odam) , यभा मूल्य-kirayotgan yoki chiqayotgan tovarlarda olinadigan foiz solig‘i ,आदेश देय-talabga qarab to‘lov , मुद्रा बाज़ार-pul bozor.

Hindiy tilidagi iqtisodiy terminlar tematik jihatdan tahlil qilinganda eng katta miqdorni moliyaga oid so'zlar tashkil etishi aniqlandi;Keyingi o'rinda bank sohasiga, buxgalteriyaga oid so'zlar yetakchi o'rinni egalladi. Tahlil qilingan misollar orasida eng kam miqdorda savdo-sotiqqa tegishli bo'lgan so'zlar turishi aniqlandi.

*Moliyaga oid terminlar soni umumiy terminlar miqdorining 41 tasini yoki jami terminlarning 41% ni tashkil etdi;

*Bank sohasiga oid terminlar umumiy terminlar miqdorining 22 tasini yoki jami terminlarning 22% ni tashkil etdi;

*Buxgalteriya sohasiga oid terminlar umumiy terminlar miqdorining 20 tasini yoki jami terminlarning 20% ni tashkil etdi;

*Savdo-sotiqqa oid terminlar esa umumiy terminlarning 17 tasini yoki jami terminlar miqdorining 17% ni tashkil etdi.

Yuqoridagi ko'rsatkichlarga tayanadigan bo'lsak, hindiy tili iqtisodiy terminlari orasida miqdor jihatdan moliya va bank sohasiga oid terminlar tashkil etayotgan bo'lsa, buxgalteriya va savdo-sotiq sohasiga oid terminlar undan keyingi pog'onalarni egallashini ko'rsatmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Irisqulov M.T. Tilshunoslikka kirish.-T.,2009.

2.O'zbek tili terminologiyasi va uning taraqqiyoti prespektivlari.I Respublika terminologiya konferensiyasi materiallari.-T.,1996.

3.Абдуллаева Ч.С. Русско-узбекские параллели в современной экономической терминологии: Автореф.дис... канд. филол. наук.-Т., 2000.

4.Даниленко В.П. Русская терминология. Опыт лингвистического описания.- М., 1977.

5.Хинди-русский словарь. Составители А.С.Бархударов, В.М.Вескровный, Г.А. Зограф, В.М.Липеровский. Под ред. В.М.Бескровного. Т1. -М.: Советская Энциклопедия, 1972.

6. Хинди-русский и русско-хинди общеэкономический и внешнеторговый словарь. Составители О.Г.Ульциферов и Б.И.Шуршалин. Под ред. А.И.Медового. -М.: Советская Энциклопедия, 1974.

7.Бутаев З. Англо-узбекский, узбекско-английский словарь. -Т., 2008.

8. Энциклопедический словарь. – М., 1983.

9.Хожиев А. Тильшунослик терминларининг сохли лугати. -Т.: Фань, 2002.

10.Русско- хинди словарь. Под ред. В.М.Бескровного. -М.: ГИС, 1957.

Internet saytlari

1. publications.cpiml.net

2.<https://ww.mazdoorbigul.net>

3.<https://restthecase.com>

4.<https://www.chronicleindia.in>

5.<https://www.bbc.com>

6.<https://ww.thehindu.com>

XITOIY TILIDAN MALAY TILIGA O‘ZLASHGAN SO‘ZLARNING MA’NO KENGAYISHI VA O‘ZGARISHLARI



Abdumo'minova Ziyoda

*TDSHU 2-kurs Filologiya va tillarni o'qitish,
malay-ingliz guruhi talabasi*

Ilmiy rahbar : M.Mamatkulova

Annotatsiya: *Ushbu maqolada xitoy tilidan o'zlashgan so'zlar, ularning hozirgi vaqtda ishlatilishi, ma'nolari undan tashqari hozirgi kunga kelib, ayrim xitoy tilidan o'zlashgan so'zlarning malay tilida o'z manosida emas balki, boshqa ma'noda qo'llanishi, qanday ma'no anglatishi tushuntirilgan.*

Tayanch so'z va iboralar: *Abdullah Hassan, Xokkien lahjasi, ot aravasi, o'zlashgan so'zlar, til o'zgarishi, malay arxipelagi.*

Malay tili jadal rivojlanib kelayotgan tillardan biridir. U moslashuvchan bo'lganligi sababli, chet tillarining ta'sirini osonlik bilan qabul qiladi. Tarixiy yozuvlar shuni ko'rsatadiki, malay tiliga sanskrit tili, keyin XI asrda arab tili va oxirgi paytlarda ingliz tili ta'sir ko'rsatgan⁴⁴. Bundan tashqari, o'zga tillar ham o'z ta'sirini o'tqazgan, xususan, xitoy, tamil, golland, portugaliya, fors, java va boshqalar. Boshqa tillardan so'z boyligi va tovush tizimi kabi elementlarni qabul qilish malay tilining tuzilishini yanada mustahkamlab, uning rivojlanishiga yordam bergan. Misol uchun, malay tiliga qadimdan xitoy tilidan kirib kelgan *beca, cawan, loceng, sampan, teko, tong, kuih, angpau, cat, kucai, duit* va *bihun* kabi so'zlar. Ushbu

1. Abdullah Hassan, 1974; S. Nathesan, 2008.

soʻzlarning oʻzlashtirilishi malay tilida ushbu narsalarni ifodalash uchun soʻz boʻlmaganligini bildiradi. Boshqacha qilib aytganda, ushbu soʻzlar malay tilida nomlanmagan. Bugungi kungacha bu soʻzlar malay tilida ishlatilib kelinmoqda va hatto lugʻatlarga kiritilgan. Shunday qilib, ikki yoki undan ortiq til egalari oʻrtasidagi soʻz almashinuvi ushbu tillardan birining mustahkamlanishiga xizmat qiladi. Til oʻzlashuvi sodir boʻlganda, til oʻzgarishi ham yuz beradi. Til oʻzgarishi – bu tashqi taʼsir yoki ichki jarayonlar natijasida tilda oʻzgarish yoki oʻrin almashish sodir boʻlish jarayonidir⁴⁵. Abdullah Hassan⁴⁶ taʼkidlaganidek, “biror soʻz Malay tiliga oʻzlashtirilganida, u Malay tilining boshqa soʻzlari bilan uygʻunlashadi va asta-sekin ushbu tilga singib ketadi.”

XV asrdan boshlab xitoylik savdogarlar Malay arxipelagiga, ayniqsa Malakka boʻgʻoziga xalqaro savdo bilan shugʻullanish uchun yoʻl olishgan. Oʻsha davrda Malakka gullab-yashnagan va arab, golland, portugaliyalik, britaniyalik hamda hindistonlik savdogarlar bilan faol savdo aloqalarini olib borgan. Shu davrda malay tili savdogarlar oʻrtasidagi asosiy aloqa til sifatida xizmat qilgan. Oʻzaro muloqot qilish uchun barcha savdogarlar mahalliy aholidan malay tilini oʻrganishgan. Natijada til oʻzlashuvi yuzaga kelgan. Shunday qilib, malay tiliga xitoy, arab, golland, portugaliya, ingliz, tamil va boshqa tillardan soʻzlar kirib kelgan.

Malay tilidagi xitoycha soʻzlarini oʻrgangan xitoy tilshunoslari

*Mashudi va Yeong*⁴⁷ hamda *Kong*⁴⁸ malay tiliga kirib kelgan xitoycha soʻzlarning soni va tasnifini tadqiq qilganlar. Kong maʼlumotlariga koʻra, malay tilida jami 1046 ta xitoycha soʻz mavjud boʻlib, shundan 952 tasi *Xokkien* lahjasidan⁴⁹ kelib chiqqan. Uning fikricha, buning sababi Fujian viloyatidan Janubi-Sharqiy Osiyo va Malay yarim oroliga kelgan xitoylik muhojirlar soni boshqa viloyatlardan kelganlarga nisbatan koʻproq boʻlganidadir. Bundan tashqari, Fujianliklar XX asrning oʻrtalariga qadar

2. Kamus Linguistik, 1997

3. Malayziyalik taniqli tilshunos, tadqiqotchi va adabiyotshunos. U Malay tili va lingvistika sohasida muhim hissalar qoʻshgan olimlardan biri hisoblanadi.

⁴⁷ 1989-yilda malay tilidagi xitoycha soʻzlarni oʻrganib chiqqan ikki tadqiqotchi.

⁴⁸ **Kong Yuan Zhi**- xitoylik tilshunos va tarjimon.

⁴⁹ **Xokkien lahjasi** – xitoy tilining Min Nan guruhiga mansub lahjalaridan biri boʻlib, asosan Fujian viloyati, Tayvan, Singapur, Malayziya va Indoneziya kabi joylarda keng tarqalgan.

iqtisodiy va madaniy jihatdan kuchli mavqega ega bo'lganlari sababli, Xokkien lahjasi xitoy tilining boshqa lahjalariga qaraganda malay tiliga ko'proq ta'sir ko'rsatgan. Mashudi va Yeongning tadqiqotiga ko'ra, faqat 341 ta xitoycha so'z malay tiliga o'zlashgan. Bu so'zlardan faqat 90 tasi hozirda faol ishlatilmoqda va qolgan 251 ta so'z esa eskirgan yoki hozir foydalanilmaydi.

Soo (2014)⁵⁰ esa xitoycha so'zlarning morfologiyasini o'rganib, so'z birikmasi jarayonining eng samarali morfologik jarayon ekanligini, shu bilan birga, qo'shimchalar va so'z takrorlanish jarayonlarini tahlil qilgan.

S. Nathesan (2008)⁵¹ asosan, xitoy tilidan o'zlashgan so'zlarning malay tilida qo'llanilishi va semantikasi bo'yicha tadqiqotlar olib borgan.

Tilshunoslarning tadqiqotiga kora, xitoy tilidan olingan so'zlar malay tiliga o'zlashgan va hozirda shu tilga xos bo'lgan so'zlarga aylangan. O'zlashgan so'zlar – bu lug'atda mavjud bo'lib, tashqi tildan olingan va shu tilning bir qismiga aylangan so'zlar hisoblanadi.

Xitoy tilidagi ma'nosini saqlagan holda, malay tilida umumiy yoki kengroq ma'noga ega so'zlarga misol sifatida 'cat' (bo'yoq), 'cawan' (piyola), 'pisau' (pichoq) va 'sampan' (qayiq) kabilarni keltirish mumkin:

cat	Xokkien lahjasidagi "cat" so'zi aslida devor, temir va yog'och yuzalarini bezash va himoya qilish uchun ishlatiladigan rangli suyuqlikni anglatadi.	Malay tilida bu so'zning asl ma'nosi saqlanib qolgan bo'lsa-da, undan tashqari boshqa turdagi bo'yoqlarni ham ifodalash uchun ishlatiladi.
cawan	Xitoy tilida "cawan" so'zi faqat choy ichish uchun mo'ljallangan kichik, yumaloq	Malay tiliga o'tgach, uning ma'nosi kengayib, nafaqat choy, balki qahva va

⁵⁰ Soo Yew Phong- Malayziyaning MARA universitetining tadqiqotchisi

⁵¹ Tilshunos, Munsyi Dewan unvon sohibi

	idishni anglatadi.	boshqa ichimliklar uchun ham ishlatiladigan idishga nisbatan ishlatiladigan bo'ldi.
pisau	"Pisau" so'zi xitoy tilidagi "bǐshǒu" dan olingan bo'lib, u qisqa va o'tkir uchi bo'lgan, asosan sanchish uchun ishlatiladigan temir qurolni anglatgan.	Malay tilida esa bu so'z pichoq degan umumiy ma'noda ishlatiladi va kundalik hayotda keng qo'llaniladi.
sampan	Xitoy tilida bu so'z oddiy, kichik qayiqni anglatgan.	Malay tilida u yanada keng ma'noda qo'llanila boshlagan: masalan, 'sampan kolek' (yelkanisiz qayiq), 'sampan kotak' (bo'linmalarga ega qayiq), kabi birikmalarda ishlatiladi.

Ba'zi xitoycha so'zlarning kengroq va umumiy ma'noga ega ekanligi bo'lgani kabi ma'nosi to'liq o'zgarishi holatlari ham mavjud. Ma'lum holatlarda hozirgi ma'no asl ma'no bilan bog'liq bo'lishi ham mumkin. Masalan, "**banci**" (bǎnji) so'zi xitoy tilida "shaxs yoki uning oilasi haqida ma'lumot yozilgan qog'oz yoki taxta" ma'nosida ishlatilgan. Lekin bu so'z malay tiliga o'tganida, uning ma'nosi butunlay o'zgarib, "aholini,

transportni va boshqalarni hisoblash” degan ma’noni anglatadigan soʻzga aylangan.

Shu bilan birga, **“kongsi”** soʻzi xitoy tilida dastlab “qadimda qalayi konlarida ishlagan xitoylik ishchilar yigʻiladigan uy” ma’nosida ishlatilgan. Ammo malay tilida bu soʻz quyidagi ma’nolarga ega boʻlgan:

1. Ikki yoki undan ortiq kishi birgalikda ishlaydigan ittifoq.
2. Savdogarlar uyushmasi yoki shirkat.

Bundan tashqari, **“beca”** soʻzi *Xokkien* lahjasidan “ot aravasi” degan ma’noda ishlatilgan. Ammo malay tilida bu soʻz “uch gʻildirakli, bir yoki ikki yoʻlovchini tashiydigan va odam tomonidan harakatlantiriladigan transport vositasi” degan ma’noga ega boʻlgan.

Bunday ma’no oʻzgarishlari tilda tez-tez uchraydi. Sababi shiddat bilan rivojlanib borayotgan davrda hamma narsa birdek rivojlanadi, oʻzgaradi, shuningdek til ma’nolari ham.

Foydalanilgan adabiyotlar royxati:

1. Abdullah Hassan. (1974). Pertembungan bahasa dan kesannya terhadap bahasa Melayu. *Jurnal Dewan Bahasa*, 5, 216-236.
2. Chia, C.E. (2003). *Kata pinjaman bahasa Melayu dalam bahasa Cina di Malaysia*. Tesis, Universiti Malaya.
3. Choi, K.Y. & Chong, S.L. (2008). Campur aduk bahasa Melayu dan bahasa Cina. *Jurnal Bahasa Modern*, 18, 55-66.
4. Hugh Brennan. (1992). Peminjaman leksikal dalam bahasa Melayu. *Jurnal Dewan Bahasa*, 6, 552-565.
5. *Kamus linguistik*. (1997). Kuala Lumpur: Dewan Bahasa dan Pustaka.
6. Keok, C.L. (2000). *Kata pinjaman bahasa Cina dalam bahasa Melayu: Satu kajian semantik*. Tesis, Universiti Malaya.

7. Kong, Y.Z. (1993a). Kata pinjaman bahasa Cina dalam bahasa Melayu (bahagian pertama). *Jurnal Dewan Bahasa*, 8, 676-702.
8. Kong, Y.Z. (1993b). Kata pinjaman bahasa Cina dalam bahasa Melayu (bahagian kedua). *Jurnal Dewan Bahasa*, 9, 772-795.

MALAY TILIDA OLD QO'SHIMCHALAR TASNIFI



Abdujabborova Madina

*TDSHU 2-kurs Filologiya va tillarni o'qitish,
malay-ingliz guruhi talabasi
Ilmiy rahbar : M.Mamatkulova*

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada Malay tilidagi qo'shimchalar o'zbek tilida qanday bo'lishi, ularning qo'llanilish o'rni va farqlari haqida tushuntirishga harakat qilaman. Shuningdek, qay jihatdan malay tili o'xshash yoki o'xshash emasligi va bunga sabablari haqida ko'rsatib beraman.*

***Tayanch so'zlar:** Avstroindonez tillar oilasi, old qo'shimchalar, birlashgan qo'shimchalar, oraliq qo'shimchalar*

Malay tili (Bahasa Melayu) Janubiy-Sharqiy Osiyo mintaqasidagi til hisoblanib Avstroindonez tillar oilasiga manub. Malay tiliga asosan Sanskrit va arab tillari shuningdek, tamil, ingliz, xitoy, portugal, yapon tillarining ta'siri katta. Tarixga yuzlanadigan bo'lsak bu tillarning ta'sir sabablarini yaqqol ko'rishimiz mumkin. Malay tilida qo'shimchalar keng qo'llaniladi, lekin ular ko'proq so'zning ma'nosini kengaytirish hamda ba'zi fe'l va sifatlarni shakllantirish uchun ishlatiladi. Malay tilidagi qo'shimchalar turli kategoriyalarga bo'linadi. Xususan, ular old qo'shimchalar (Awan) , oraliq qo'shimchalar (Apitan), birlashgan qo'shimchalar (Sebatian) va oxirgi qo'shimchalar (Akhiran).

Old qo'shimchalar ya'ni-awalan :

Bu qo'shimchalar so'zning boshida qo'llaniladi. Ular ko'pincha fe'llar, sifatlar va otlarni yaratadi.

Ber berjalan,berkata

Ber -	berjalan,berkata bersolat berjaya	Yurish,so‘zlamog Ibodot qilmoq erishmoq
Ter-	Tertidur teratas terjatuh	Uxlash yuqori tushmoq
Se-	Sejati sepanjang	Rost Davomida
MeN-	Membaca mencuci	O‘qish Yuvish
PeN-	Pemimpin pemandu	Yetakchi haydovchi
Ke-	Ketupat	Romb

O‘zbek tilida old qo‘shimchalar nisbatan kamchilikni tashkil qiladi. Ular asosan shaklan har xil bo‘lib, bir xil ma’noli so‘zlarni yasovchi sinonim qo‘shimchalar va bir-biriga zid ma’nolarni ifodalovchi antonim qo‘shimchalar bor. Sinonim qo‘shimchalar: -ser, -ba: serunum, sersuv, sershovqin, badavlat, baquvvat, bahaybat, Antonim qo‘shimchalar: -no, -be: noinsof, bebaxt, beodob, besabr. Undan tashqari forstilidan kirib kelgan qo‘shimchalar ham bor. Bunda otlarga qo‘shilib, shu ot ifodalagan ma’noga egalikni unga ergashganlikni bildiruvchi sifat yoki ravish hosil qiladi. –Bar-barvaqt, barkamol, barhayot, barqaror.

Oraliq qo‘shimchalar ya’ni- Apitan

Bu qo‘shimchalar so‘zning o‘rtasida joylashadi va ko‘p hollarda sifat yoki harakatni bildiradi.

-el: sifatni bildiradi – kecil- kichik

-em: sifat yoki harakatni bildiradi – gemuk- semiz

-er: shaxsni yoki faoliyatni bildiradi –penceramah – ma’ruzachi

O‘zbek tilida oraliq qo‘shimchalar mavjud. Ammo ular juda kam desak to‘g‘ri bo‘ladi.

Chunki o‘zbek tilida qo‘shimchalar eng ko‘p oxiriga qo‘shiladi. –gi: III egalik affikslari bilan birgalikda kelmoq fe‘liga qo‘shilganda xohish ma’nosini bildirish uchun xizmat qiladi. Xuddi shu –gi+m qo‘shimchalar bor va yo‘q so‘zlari boshqarganda ham ishlatiladi.

Ko‘r+gi+m keldi

1. So‘ra+gi+m bor

O‘qi+gi+m keldi

2. Uxla+gi+m yo‘q

Birlashgan qo‘shimchalar ya’ni – Sebatian. Bu qo‘shimchalar old qo‘shimcha va oxirgi qo‘shimchalarni birlashtiradi.

Ke-... -An-Holat yoki joyni bildiradi.

Kegiatan- faoliyat, keindahan- go‘zallik, kesalahan- xatolik, kebolehan- qobilyat, kesedihan- hafagarchilik, kemenangan- g‘alaba, kelaukan- xulq, kewajiban- majburiyat, kesibukan- gavjumlik, kejahaan- chempionat, kebenaran- haqiqat.

Pe -... - An- Bunda asosan shaxs oti yasaladi, ish faoliyat va natijani bildiradi.

Pengurus-menedjer, pemandu- haydovchi, pelabuhan- port, pelayan-ofitsant, pentadbiran- adminstratsiya, pemandangan- ko‘rinish.

Ter – Malay tilida –ter- qo‘shimchasi sifat va fe‘llarga qo‘shiladi. Sifatga qo‘shilganda orttirma darajani ifodalaydi.

Contoh: tinggi-tertinggi.

Vazifalari:

To‘satdan bajarilgan ish harakat- fe‘l so‘z turkumiga qo‘shilgandagi ma’nolarni bildiradi: Pintu terbuka, buku terjatuh.

Imkoniyat ma’nosini bildiradi: termakan- yeya oladi, terbaca- o‘qiy oladi.

Natijasiz- bunda –ter- ish harakatning natijasizligini ifodalaydi va bunday holatda fe‘l ikkilantirladi.

Contoh: Saya ternanti- nanti tapi Ziyoda tidak datang.

Ter- qo‘shimchasi qo‘shilgan fe‘llarda ish-harakat bajarib bo‘linganligini ifodalaydi. Hamda sudah so‘zi bilan qo‘llaniladi. Contoh: nasi sudah tersedia.

Contoh: Istisno holatlar:

Termenung-o‘ychan Terdapat-bor

Terpaksa- majbur bo‘lmoq Terletak-joylashgan

Terhadap- qarshi bo‘lmoq Terkejid-qo‘rqmoq

Terutama- asosan Terperanjat-hayron qolish

Terkenal- taniqli Tertawa- kulmoq
Terbangun- uyg'onmoq Termasuk- shu jumladan
Tertinggi- baland Tersenyum- tabassum qilmoq

O'zbek tilida ham so'z boshida ham so'z oxirida qo'shiladigan qo'shimchalar mavjud emas. O'zbek tilida shaxs oti yasash uchun. So'z oxiriga –kash, -gar, -kor, -kar, -gor, -chi, -soz, -shunos, -dosh, -paz, -bon, -do'z, -dak, -furush, -boz, -xon, -xo'r, -vchi, -uvchi, -vachcha kabi qo'shimchalar qo'shiladi. 4. Oxirgi yoki orqa qo'shimchalar ya'ni -Akhiran. Bu qo'shimchalar so'zlarning oxiriga qo'shib so'zning turini, ma'nosini yoki uning sintaktik ro'lini o'zgartiradi.

An- asosan ot yasovchi qo'shimcha hisoblanadi.

Makanan-ovqat, urusan-ish, kasihan-bechora, tayangan-namoyish, ujian-imtihan.

Malay tilida akhiran qo'shimchalari so'zning turiga va uning ma'nosiga qarab turlicha funksiyalarni bajaradi. Ular nafaqat tilni boyitadi, balki gapning sintaktik strukturasi va ma'nosini aniqroq qilishda ham yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar royxati:

1. Abdul Hamid Mahmood., Pengajaran Tatabahasa Malaysia: Satu Tinjauan terhadap Buku Teks Tingkatan 4 & 5 (Bahagian I-III). Dewan Bahasa, 1980
2. Abdul Hamid Mahmood., Kesalahan Frasa dan Ayat. Dewan Bahasa, 1983.
3. Abdul Hamid Mahmood., Guru dan Bahasa Melayu. Kuala Lumpur: Media Printext (M) Sdn. Bhd, 1997.
4. Abdullah bin Hassan., The Morphology of Malay. Kuala Lumpur: Dewan Bahasa dan Pustaka, 1974.
5. Adam, J.P. dari Tassilo. Butler, Tatabahasa Bahasa Melayu. New York: Hafner Publishing Co, 1948. , A. kepada F. Heny., Pengenalan kepada Prinsip Sintaks
6. Transformasi Akmajian. Cambridge, Mass, MIT Press, 1975.

MALAY TILIDA FE'L YASOVCHI QO'SHIMCHALAR TASNIFI



Turanova Nilufar

TDSHU 2-kurs Filologiya va tillarni o'qitish,

malay-ingliz guruhi talabasi

Ilmiy rahbar : M. Mamatkulova

Annotatsiya: *Ushbu maqolada malay tilidagi yasama fe'llar o'rganiladi. Yasama fe'llarning qanday usullar bilan hosil bo'lishi va qaysi affikslar orqali shakllanishi tahlil qilinadi. Shuningdek, ularning ma'nosi va qo'llanilishi haqida ma'lumot beriladi. Tadqiqot natijalari Malay tilshunosligida yasama fe'llarning ahamiyatini yaxshiroq tushunishga yordam beradi. tushuntirilgan.*

Tayanch so'z va iboralar: *meN- old qo'shimchasining, yasama fe'llar, so'z oxiriga qo'shiladigan qo'shimchalar, fe'l so'z turkumi, ichki qo'shimchalar.*

Harakat bildiruvchi so'zlar va ushbu turkumga oid so'zlar fe'l deyiladi. Fe'l asosiga qo'shimcha qo'shilishi natijasida esa yasama fe'llar hosil qilinadi. Malay tilida yasama fe'llarni hosil qilish jarayonida ishtirok etadigan to'rt turdagi qo'shimchalar mavjud, ya'ni old qo'shimchala (awalan), so'z oxiriga qo'shiladigan qo'shimchalar (akhiran), so'z oldi va oxiriga qo'shiluvchi qo'shimchalar (apitan) hamda so'zning ichki qismiga qo'shiluvchi qo'shimchalar (sisipan).

Awalan kata kerja - old qo'shimchalarning malay tilida quyidagi ko'rinishlari mavjud: meN- , beR - , teR - , di - , mempeR - , dipeR.

meN- old qo'shimchasining ko'rinishlari. meN – qo'shimchasi ko'p ishlatiladigan qo'shimcha bo'lib, ham o'timsiz ham o'timli fe'llar hosil qiladi va so'z asosining birinchi harfiga qarab quyidagi quyidagicha ishlatiladi: meN- qo'shimchasi m,n,ny,r,l,w va y harflari bilan boshlanuvchi

so‘zlarga me - shaklida qo‘shiladi. Masalan: masak – memasa, nanti – menanti, rayu – merayu, lawan – melawan, wangi - mewangi

So‘z asosi p,t,k,d harflari bilan boshlanuvchi ba’zi so‘zlar ham me- bilan yasaladi. Bunday hollarda so‘zlarning birinchi harfi o‘zining turgan talaffuz o‘rniga, mos tovushga o‘zgaradi, ya’ni p harfi m ga, th n ga, k harfi ng ga va s harfi ny ga o‘zgaradi. Quyidagilar bunga misol bo‘ladi: pesan – memesan, tari – menari, karang – mengarang, salin - mentality

B,f,p va v harflari bilan boshlanuvchi fe’llarga meN- qo‘shimchasi mem-shaklida qo‘shiladi. Masalan: beri – member, fitnah - memfitnah - mempamerkan, veto – memveto. Ko‘p hollarda qo‘shimcha qo‘shilishi natijasida p harifi tushib qoladi. Masalan: potong - memotong

D,c,j,sy va z harflari hamda t va s bilan boshlanuvchi o‘zlashma so‘zlarga meN – qo‘shimchasi men ko‘rinishida qo‘shiladi. Masalan: deru – menderu, cari – mencari, jaja – menjaja, syukur - menyukur

Qo‘shimcha qo‘shilishi natijasida t harifi tushib qoladi. Misol: tulis – menulis Lekin, istisno holatlari ham mavjud. Misol uchun: ternak va tertawa fe’llari tarkibida t harifi qotib qolgan.

meN- qo‘shimchasi g, gh, kh va q undoshlariga va barcha unlilarga meng-shaklida qo‘shiladi. Ba’zi hollarda esa k harfi bilan boshlanuvchi so‘zlarga ham qo‘shiladi. Masalan: galiung – mengaliung, gharib-mengharibkan, ambil- mengambil

meN- qo‘shimchasi bilan ishlatiladigan boshqa so‘z toifalari. Sifat: putih – memutih, tinggi – meninggi. Fe’llarning takrorlanishi harakatning uzoq vaqt davom etgani yoki natijasizlikni bildiradi. Masalan: membaca – baca, bergaul – gaul. ter- qo‘shimchasi malay tilidagi nafaol fe’l yasovchi qo‘shimcha hisoblanadi. ter - odatda o‘z-o‘zidan yuz bergan ish-harakatni ifodalaydi. Masalan: terjatuh, terbuka, terbakar... ber- qo‘shimchasi fe’l va boshqa so‘zlar bilan birikib murakkab fe’llarni hosil qiladi. Masalan: berjalan kaki. Dia berjalan kaki ke sekolah. di- har doim fe’l boshida kelib, majhul nisbatni ifodalaydi. Masalan: membaca – dibaca

di- ot yoki sifat asosli fe’llar bilan ham ishlatiladi.

Masalan: *guna - berguna – digunakan, nama - bernama - dinamakan*

Akhiran kata kerja. Malay tilida fe'l oxiriga qo'shiladigan ikki turdagi qo'shimchalar mavjud.

a)- kan

b)- I

Barcha so'z turkumlari, ya'ni ot, sifat, fe'l va ba'zi yordamchi so'zlar -kan qo'shimchasi bilan birgalikda fe'l yasashi mumkin.

Masalan: Ot:*buka* – *bukakan*, *sekolah* - *sekolahkan*

O'timli fe'llar: *cari-carikan*, *irim-irimkan*

O'timsiz fe'llar: *lahi* –*lahirkan*, *tidur-tidurkan*

Sifat: *panjang* – *panjangkan*, *biru* - *birukan*

-kan qo'shimchasi meN- va di- old qo'shimchasini olgan fe'lfan o'timli fe'l hosil qiladi. Buyruq gaplar va tarkibida ma'lum bir yordamchi so'zlar ishtirok etgan gaplarda -kan hech qanday qo'shimchasiz keladi. -kan gap tarkibida meN-...-kan, bek-...-kan, mempeR-...-kan, di-...-kan va dipeR-...-kan ko'rinishida boshqa qo'shimchlari bilan kelishi mumkin. Masalan: *menjadikan*, *berbantalkan*, *memperhatikan*, *bersulamkan*.

- **i qo'shimchasi** ham -kan kabi bitta ko'rinishga ega.- i qo'shimchasi gap tarkibida meN- ...-i, mempeR-...-i, di-...-i, va dipeR-...-i kabi ko'rinishlarda bitta so'z tarkibida kabi. Masalan: *mendekati*, *memperkavani*, *diperkawani*. - i ham o'timli fe'l hosil qiladi. Qo'shimchani ishlatilishida ikkita asosiy ma'no bo'lishi mumkin:

1) Sabab yoki sabab bo'lish ma'nosi. *hambai*- *berhambai*, *sudah* -*sudahi*

2) Joy bilan bog'liq ma'noni ham beradi. *bas* - *naik ke atas bas*

Apitan-so'z boshiga va oxiriga qo'shiluvchi qo'shimchalar. Malay tilida quyidagicha ko'rinishlari mavjud: meN -...-kan, beR-...-kan, ber-...-an, di-...-kan, meN-...-I, di-...I, *memper*-...-kan/-I, *ke*-...-an, *diper*-...-kan/-i

Sisipan-ichki qo'shimchalar. Malay tilida fe'l yasaydigan ichki qo'shimcha yo'q. Biroq **-el-** qo'shimchasi ot va sifatga qo'shib fe'l yasashi mumkun. Masalan: *geletar* - *menggeletar*

Malay tilida qōshimchalarning turlari kōp . Fe'l yasalishida esa yuqorida kōrsatilgan qōshimchlar ishtirok etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

Abdul Hamid Mahmood, 1980. "Pengajaran Tatabahasa Malaysia: Satu Tinjauan terhadap Buku Teks Tingkatan 4 & 5 (Bahagian I-III)", Dewan Bahasa, 24:1-3.

Abdul Hamid Mahmood, 1983a. "Pengajaran Tatabahasa Malaysia", Jurnal Persatuan Linguistik Malaysia, 1:1.

Abdul Hamid Mahmood, 1983b. "Kesalahan Frasa dan Ayat", Dewan Bahasa, 27:4.

Abdul Hamid Mahmood, 1997. Guru dan Bahasa Melayu. Kuala Lumpur: Media Printext (M) Sdn. Bhd.

Abdullah bin Hassan, 1974. The Morphology of Malay. Kuala Lumpur: Dewan Bahasa dan Pustaka.

Adam, J.P. dari Tassilo. Butler, 1948. Tatabahasa Bahasa Melayu. New York: Hafner Publishing Co.

MALAY TILI TARIXI: MUSTAQILLIKGACHA BO'LGAN DAVRDA MALAY TILI



Atabayeva Zumradxon

TDSHU 2-kurs, Gid hamrohligi va tarjimonlik faoliyati:

Malay-ingliz guruhi talabasi

Ilmiy rahbar: Toshpo'latova Zarnigor

Annotatsiya: Ushbu maqolada malay tili Janubi-Sharqiy Osiyoda keng tarqalganligi va tarixan muhim til hisoblanganligi va mustamlaka davrida uning maqomi o'zgarib, mustaqillikdan so'ng rasmiy til sifatida mustahkamlanganligi ochib beriladi. Malay tili mustamlakachilik va mustaqillik davrlarida muhim rol o'ynagan bo'lib, uning rivojlanishi millatchilik harakati bilan chambarchas bog'liq. Maqolada Malay tilining nafaqat lingvistik, balki siyosiy jarayonlar ta'sirida milliy til sifatida qaror topgani ko'rsatib beriladi.

Mamlakat taraqqiyotining tarixiy eskizida malay tili butun Janubi-Sharqiy Osiyo arxipelagida xalqaro tilga aylandi. Uning qo'llanilishi yuzlab yillar davomida davom etdi.

Malay tilini milliy til sifatida qaror toptirish uchun kurash malay tilining jahonda buyuk, mashhur, suveren va hukmron til sifatida qudratini oshirish jarayonini anglatadi. O'zining bilim mazmuni, intellektualligi, qo'llanilishining kengligi, iqtisodiy qiymati va o'qilishi jihatidan katta ahamiyatga ega. Bu kurashni oddiy qabul qilib bo'lmaydi, chunki bu kurash mustaqillikdan oldin malaylar o'rtasida millatchilik usullarini ko'tarishda muhim hodisa sifatida qaraladi. Yangi millat qurishni rejalashtirishda biz millatning o'ziga xosligini saqlab qolishdan qochib qutula olmaymiz. Til millatning o'ziga xosligi ramzi sifatida muhim vositalardan biri bo'lib, u

hatto yangi suveren davlat qurish yo'lidagi qadriyatlarni ham rivojlantirishi mumkin.

Malay tilini milliy til sifatida suveren qilish uchun kurash.

Mustaqillik oldidan millatchilik ruhining uyg'onishiga hissa qo'shgan. Ushbu tadqiqot mustaqillikka erishgunga qadar (1930-yillar) boshlanadi, chunki bu vaqtda mustamlakachi hukumatlar tomonidan Milliy til to'g'risidagi qonun loyihasi e'lon qilingandan keyin 1967 yilgacha malay tilini o'qitish vositasi sifatida joriy etishga harakatlar bo'lgan. Ushbu tadqiqot malayziya tilini malaylar orasida milliy tilga aylantirish uchun kurashni va bu mustaqillikdan oldin malay milliy ruhining tiklanishiga qay darajada hissa qo'shganini o'z ichiga oladi. Shuning uchun biz uchun malay tilining mustamlakachilik davridagi mavqeini, ayniqsa Britaniya mustamlakachiligi davridagi mavqeini ko'rish muhim,, chunki malay tilining kuchini uning buyukligi tarixi orqali tarjima qilish va arxipelagdagi tilning barqarorligiga qarab, jamoatchilikka ifoda etish lozim. Milliy tilni qaror toptirish uchun kurash milliy ma'naviyatning tiklanishida muhim hodisa bo'lib, bu yurtning mustaqillik talabi darajasida til millatchiligi tushunchasi sifatida qaraladi.

Mamlakatimizdagi millatchilik masalasini muhokama qilar ekanman, men "Kemana Nasionalisme Melayu" nomli asarga murojaat qilaman, unda Malaya tilidagi millatchilik muammosi muhokama qilinadi, bu esa keyinchalik biz Malayya, keyin esa Malayziya deb bilgan davlatni dunyoga keltirgan bir qator siyosiy faoliyatdir. Unda ta'kidlanishicha, millatchilik harakati 1930-yillarda, mustamlakachilar juda barqaror darajada bo'lgan va malayalik bo'lmagan aholi o'zlarini vaqtinchalik muhojir deb hisoblay boshlagan paytda ijtimoiy muhitda ildiz otgan. 1930-yillardagi vaziyat malaylar o'rtasida bir qancha siyosiy tashkilotlar va faoliyatlarning vujudga kelishiga sabab bo'ldi. Bu yozuvning qiziq tomoni shundaki, malay millatchiligi tushunchasi, ijtimoiy hodisa hisoblangan lingvistik millatchilik malay adabiy faoliyati kurashiga qaratilgan tarzda muhokama qilinadi. Ushbu tadqiqotda malaylarning yuksalishi va ijtimoiy tashkil topish jarayonini yarim asrdan ko'proq avval ushbu organlarning ta'siri, va ijtimoiy-siyosiy rollarini o'rganish orqali kengroq ko'rilgan. Til o'ziga xos tarzda, til millatchiligi deb ataladigan malay millatchiligining kuchayishi fenomenida bevosita, siyosiy rol o'ynaydi va mafkuraviy elementlarni qo'llab-quvvatlaydi shuning uchun bizni Malay kurashi kontekstida ushbu

elementning mavjudligi va uning zamonaviy Malay jamiyati rivojlanishi bilan aloqasi bilan tanishishga olib keladi.

Mustaqillikka erishishni rejalashtirishda malay tili inglizlar tomonidan Malayalarning saqlanishi kerak bo'lgan huquqlarining bir qismi sifatida tan olingan. Shuningdek, Britaniya hukumatining turli sohalarda malay tilini kamsitish va shu tariqa mamlakatga hozirgacha ta'sir ko'rsatayotgan siyosatini ko'rish mumkin. Umuman, mustamlaka qilingan xalqlarga nazar tashlaydigan bo'lsak, mustamlakachi xalqning tili mustamlaka xalq hayotida juda muhim o'rin tutadi. Malayadagi ingliz tili ham xuddi shunday. Shuning uchun Malayziya mustaqil bo'lganiga qaramay, mustamlaka tili bilan murosa qilishi uchun Britaniya hukmronligi davrida malay tilining mavqei qanday bo'lganini ko'rish mumkin.

Mustaqillikdan oldingi Malay tili pramerdeka Malay tili deb ataladi. Pramerdeka davri — bu Malay tilining milliy til sifatida maqomi yoki statusini himoya qilishga qaratilgan davrdir. Pramerdeka Malay tili davri ASAS 50 tashkil topganidan (1950-yil 6-avgust) boshlanib, 1957-yildagi mustaqillikka qadar davom etadi. Ushbu jamiyat, Angkatan Sasterawan 50 yoki qisqacha ASAS 50 nomi bilan tanilgan yozuvchilardan tashkil topgan bo'lib, Singapurda tashkil etilgan. Ushbu jamiyatni Singapurdagi ba'zi Malay yozuvchilari tashkil etgan bo'lib, ularning aksariyati Malayziya yeridan Singapurga ko'chib o'tgan yozuvchi va mualliflar hisoblanadi, chunki ingliz mustamlakachilari ularning siyosiy faoliyatlari va ijodiy ishlariga bosim o'tkazgan.

ASAS 50 ning muhim shaxslaridan ba'zilar Kamaluddin Muhammad yoki Kris Mas, Usman Awang yoki Tongkat Waran, Masuri S.N., Mohd. Arif Ahmad yoki MAS, Abdul Wahab Muhammad yoki Awamil.

Sarkam, Asraf va Hamzah tomonidan tashkil etilgan ASAS 50 ning maqsadi umumiy ravishda quyidagilardan iborat edi:

- (a) Malayziya adabiyotining sifatini oshirish va kengaytirish;
- (b) Yozuvchilar va adiblarning huquqlarini va manfaatlarini himoya qilish;
- (c) Adabiyotga yangiliklarni kiritish;

Ushbu jamiyat o'z maqsadlarini erkinlik, ijtimoiy adolat va fikr taraqqiyotiga erishish yo'lida Malayziya tili va adabiyotini rivojlantirishni ko'zlab amalga oshirdi. Ularning asosiysi, "San'at Jamiyat Uchun" yoki

"San'at Xalq Uchun" g'oyalariga tayangan holda, ASAS 50 qisqa hikoyalar va she'rlar yozish sohasida o'zgarishlar kiritdi. Umuman olganda, ASAS 50 ning hikoyalari va she'rlari jamiyatni tanqid qilishga qaratilgan. Shuning uchun, ko'plab hikoyalar va she'rlar yuqori tabaqalar qarshisida turib, ishchilar, dehqonlar va baliqchilarning manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan edi.

Boshqa ayrim kamchiliklarga qaramay, ASAS 50 o'z davrining adabiyotiga katta ta'sir ko'rsatdi. ASAS 50 ikkinchi jahon urushidan keyin Malayziya adabiyotining zamonaviylashuvi yo'lida yangi qadamlar qo'ydi.

Ushbu davrda, ASAS 50 ning asosiy maqsadi Malayziya tilini rivojlantirish va uni davlat tili sifatida mustahkamlash uchun siyosiy kanal orqali ishlash edi. Bu tilning mavjudligi asosan siyosiy kuch orqali mamlakatning davlat tili sifatida tanitilishi uchun kurashga qaratilgan edi. Tilning rivojlanishi hali tizimli ravishda rejalashtirilmagan edi. Grammatik jihatdan, til Za'ba grammatikasidan ta'sirlangan va ishlatilgan yozuv tizimi Za'ba yozuvi va Kongress yozuvi (1956-1957) edi. ASAS 50 ning g'oyalari o'sha davrda kurashga qaratilgan edi. ASAS 50 yozuvchilari "San'at Jamiyat Uchun" va "San'at Xalq Uchun" g'oyalarini himoya qilgan bo'lsada, "San'at Jamiyat Uchun" g'oyasi ko'proq namoyon bo'ldi, chunki ASAS 50 ning ko'plab a'zolari jurnalistlar bo'lib, "Utusan Melayu", "Berita Harian" va boshqa jurnallarda ishlaganlar. Ularning kurashi gazetalarda va boshqa matbuot vositalarida chiqqan hikoya, she'rlar va boshqa san'at asarlari orqali namoyon bo'ldi. Bu jamiyatga katta hissa qo'shdi, chunki ularni to'g'ri hikoya qilish orqali oddiy odamlarning mavqeyini yuksaltirdi. O'sha davrda kurash til va adabiyot orqali mustaqillikni talab qilishga qaratilgan edi.

ASAS 50 ning Malay tilini targ'ib qilish uchun tashkil etilishi, 1951-yilda Malayziya o'qituvchilari tomonidan tashkil etilgan "Lembaga Bahasa Melayu" (LBM) deb nomlangan bir tashkilotga turtki berdi. 1950-yil 1-oktabrda Singapurdagi Kota Raja Klubi-da Malayziya o'qituvchilari yig'ilib, Malay tilini rivojlantirishga qaratilgan bir tashkilot tuzish maqsadida uchrashuv o'tkazdilar. Ushbu uchrashuv Cikgu Mahmud Ahmad tomonidan tashkil etilib, Singapur Malay O'qituvchilari Uyushmasi (KGMS) bilan hamkorlikda amalga oshirildi. Tashkilot 1951-yil 26-aprelda hukumat tomonidan ro'yxatga olingan va tasdiqlangan. LBM nizomining 2-bobiga

ko'ra, tashkilotning maqsadlari quyidagicha edi (Malayziya Madaniyat Ensiklopediyasi, 1269-bet):

- (i) Malay tilini boshqarish, takomillashtirish, kengaytirish, boyitish, sifatini oshirish va uni jonli tilga aylantirish;
- (ii) Malay tilidagi muammolarni muhokama qilish va Lembaga tomonidan ma'qul deb topilgan fikrlarni ommaga tarqatish;
- (iii) Zamonga mos ravishda Malay tilining foydalanish uslubini moslashtirish;
- (iv) Risolalar, kitoblar, jurnallar va shunga o'xshash nashrlarni chiqarish;
- (v) Lembaga bilan bir xil maqsadga ega bo'lgan tashkilotlar bilan hamkorlik qilish.

LBM ning tashkil etilishi, aslida, Malay tilining holatini himoya qilish yo'lida yanada mustahkamlashga xizmat qildi. Lembaga yangiliklarni faqat a'zolariga tarqatgan va "Berita Lembaga" nomli nashrni chiqarib, faqat to'rt marta nashr etdi. LBM, yangi yo'nalishni olib kelmagan yoki Malay tili va adabiyotining modernizatsiyasi sohasida birinchi o'rinni egallamagan bo'lsa ham, Malay tilining rivojlanishi uchun 1950-yillarda grammatik kitoblar va darsliklar chiqarilishi kengaygan edi. 1956-yilda Malay tilini o'rganish uchun ishlatilgan kitoblar, Malayziya Tarjimonlik Byurosi tomonidan va Sultan Idris Pedagogika Akademiyasi tomonidan nashr etilgan kitoblar edi. Shulardan biri, Za'ba tomonidan yozilgan "Ilmu Mengarang Melayu" va "Pelita Bahasa Melayu" kitoblari.

Birinchi Malayziya Tili va Adabiyoti Kongresi 1952-yili 12 va 13-aprelda Singapurdagi Sea View mehmonxonasida o'tkazilib, uning asosiy kurash maqsadi Malay tilini davlat tili qilish edi. Kongressning tamoyillari quyidagicha edi (Malayziya Madaniyat Ensiklopediyasi, 1260-bet):

- Til kongressi davom ettirilishi kerak bo'lib, uning maqsadi Malayziya Federatsiyasi, Singapur va Shimoliy Borneo hududlaridagi Malay adabiyoti tashkilotlarining barcha harakatlarini muvofiqlashtirishdir. Kongressda til va adabiyotning rivojlanishi bilan bog'liq barcha masalalarda yakuniy qaror qabul qilinadi va Malay yozuvchilari, adiblar va tilshunoslarning huquqlari himoya qilinadi;

- Keyingi kongresslar zaruratga ko'ra, bir yoki bir nechta adabiyot tashkilotlari tomonidan tashkil etilishi mumkin bo'lib va kongressni taklif qilgan tashkilot o'z-o'zidan Kongress Komiteti bo'lib, kongress o'tkazish uchun joy tayyorlaydi va boshqa tashkilotlarni kongressga chaqiradi;
- Kongressga qatnashuvchi tashkilotlar kongressning yakuniy qarorlariga rioya qilishga majburdir. Kongress qarorlari amalga oshirilishini ta'minlash uchun barcha tashkilotlar ishlashi kerak;
- Kongressning barcha qarorlari qonuniy hisoblanadi va qarorlar ovoz berish orqali qabul qilinadi, har bir tashkilot faqat bitta ovozga ega bo'ladi.

Kongressda shuningdek, Rumi va Jawi yozuvlarining Malay adabiyotida ishlatilishi kerakligi qaror qilindi va boshqa qarorlar qabul qilinmaguncha, bu yozuvlar amalda bo'lishi davom etdi.

Ikkinchi Malay Tili va Adabiyoti Kongresi 1954-yil 1-2-yanvar kunlari Seremban shahridagi King George maktabida bo'lib o'tdi. Bu kongress Malayziya va Indoneziya yozuvchilari o'rtasida yaqin aloqalar o'rnatish, Malay tilining barcha majlislar va idoralarda teng darajada ishlatilishini ta'minlash, har yili eng yaxshi yozilgan asarlar uchun mukofotlar taqdim etish, to'liq Rumi yozuvidagi lug'at tuzish, radio radiokorlarining Malay tilini yaxshi bilishlarini ta'minlash, shuningdek, Malay adabiyoti kongresining vakillarini Filmni Tekshirish Komissiyasiga tayinlashni taklif qildi.

1954-yil mart oyida, ASAS 50 Malay tili uchun Rumi yozuvi haqida hukumatga memorandum taqdim etdi. ASAS 50 ning Malay tilini himoya qilishdagi kurashi 1954-yil 15-dekabrda Konstitutsiya Komissiyasiga taqdim etilgan memorandum bilan davom etdi, unda Malay tilining umumiy o'qitish tili va boshlang'ich maktablardan to universitetgacha bo'lgan bosqichlarda o'qitish tili sifatidagi mavqeyini muhokama qilishdi.

1956-yil 16-21-sentabrda Johor Bahru va Singapurda o'tkazilgan Uchinchi Malay Tili va Adabiyoti Kongresi 59 ta Malay tili va adabiyoti tashkilotlaridan taxminan 500 nafar vakil va kuzatuvchilarni jalb qildi (Malayziya Madaniyat Ensiklopediyasi, 1261-bet). Ushbu kongressda Dewan Bahasa dan Pustaka (DBP) tashkil etilishi zarur deb qaror qilindi, u Malay tilining asl manbasini saqlash va Malayziya xalqining madaniyati

rivojiga hissa qo'shish uchun markaz sifatida faoliyat yuritishi kerak edi. DBP Malay adabiyotining qadimgi davrlaridan hozirgi kungacha bo'lgan barcha asarlarini o'rganib, qayta tiklash va chuqur tahlil qilishni maqsad qilgan.

Kongressda shuningdek, milliy tilini maktablar va ta'lim tizimi orqali rivojlantirish yo'llari muhokama qilindi.

1956-yil 22-iyunda, Vatan mustaqilligi yo'lida kurash va ruhiy uyg'onish avj olgan paytda, Dewan Bahasa dan Pustaka (DBP) tashkil etildi va Johor Bahru, Bukit Timbalan, Johordagi Hukumat Binosida joylashdi (Balai Pustaka Tashkiloti, 2008). Shu yerda Dewan Bahasa dan Pustaka o'zining birinchi qadamini tashladi – Malay tilini milliy til va mustaqil davlatning rasmiy tili sifatida rivojlantirish bo'ldi.

Bir yil o'tib, Malayziya Federatsiyasi mustaqillikka erishganidan so'ng, va yangi konstitutsiyada Malay tili milliy va rasmiy til sifatida e'lon qilinganidan so'ng, Dewan Bahasa dan Pustaka Kuala Lumpurni ko'chirib o'tkizildi, eski Tangling Hospitali Binosida joylashdi. Keyinchalik Dewan Bahasa dan Pustaka hukumati tomonidan 1959-yilgi parlament qonuni bilan mustaqil idoraga aylantirildi va til va adabiyotning yanada rivojlanishini ta'minlash uchun o'z siyosatlarini mustaqil ravishda ishlab chiqish imkoniyatiga ega bo'ldi.

Dewan Bahasa dan Pustaka maqsadlaridan ba'zilar quyidagilardan iborat edi:

- Milliy tildan foydalanishni rivojlantirish va boyitish;
- Asosan milliy tilda adabiyot iste'dodlarini rivojlantirish;
- Kitoblar, risolalar va boshqa matbuot shakllarini milliy tilida va boshqa tillarda nashr etish yoki nashr qilishga yordam berish;
- Milliy tilda imlo va talaffuzni standartlashtirish va tegishli atamalarni ishlab chiqish.

1962-yil 31-yanvarda Dewan Bahasa dan Pustaka o'zining binosiga, ya'ni Jalan Wisma Putrada joylashgan binoga ko'chib o'tdi. (Dewan Bahasa dan Pustaka Malayziya davlatida malay tilida ilm-fan rivojlanishini rag'batlantirishda muhim tashkilotlardan biridir).

Malay tili ta'lim tizimiga kirib kelishi, 1819-yilda Malay maktablari Penang Free School tashkilotining bir qismi bo'lganda ro'y berdi. Gelugurdagi Malay maktabi Malayziyadagi eng qadimgi maktab hisoblanadi. 1956-yilgacha malay tilining ta'lim tizimidagi o'rni unchalik ustuvor bo'lmagan. XIX asrga qadar malay xalqi uchun ta'lim asosan diniy yo'nalishda bo'lgan. Bolalarga faqat Islom dini asoslari va Qur'on o'qish o'rgatilgan. Maktablarda malay tilini o'qitish g'oyasi 1956-yilgi Razak hisobotida ilgari surilgan. 1956-yil sentabr oyida Malayya Federatsiyasiga o'zini o'zi boshqarish maqomi berilganda, 1956-yilgi Ta'lim qo'mitasi bayonoti yoki Razak bayonoti sifatida tanilgan hujjat mustaqillikdan oldin malay tilini davlat tili sifatida rasman tasdiqlagan muhim burilish nuqtasi bo'ldi.

Razak Bayonoti 1955-yil sentabr oyida tashkil etilgan va Malayziya Ta'lim vaziri Datuk Abdul Razak bin Husseyn raisligida ishlagan Ta'lim qo'mitasi tomonidan o'rganilgan natijalarning mahsulidir. 1956-yil 14-aprelda bu qo'mita o'z ishlarini yakunlab, **1956-yilgi Ta'lim qo'mitasi bayonoti** nomi ostida o'z hisobotini taqdim etdi (**1956-yilgi Ta'lim qo'mitasi bayonoti**).

1956-yilgi **Razak hisobotida** milliy ta'lim tizimini yaratish istagi ifodalangan bo'lib, uning maqsadi barcha millatlarning o'quvchilarini yagona ta'lim tizimi asosida birlashtirish va milliy tilni ta'lim tili sifatida joriy etishdan iborat edi. **Razak hisobotida quyidagi masalalar ilgari surilgan:**

- Malay tili barcha maktablarda o'qitilishi shart va hukumat tomonidan beriladigan yordamning asosiy sharti sifatida belgilanishi kerak;
- Malay tili milliy ta'lim tizimida boshlang'ich va milliy ta'lim sertifikatlarini olish uchun muhim fan sifatida belgilanishi lozim;
- Malay tili va ingliz tili milliy turdagi o'rta maktablarda majburiy fan sifatida o'qitilishi kerak.

Razak hisobotiga oid muhokamalar "**Ta'lim tizimida Malay tilining o'rni**" nomli kichik mavzuda batafsil bayon qilinadi.

Milliy til	1930-yil	Maqsadi: Malay tilini milliy til sifatida suveren qilish uchun kurash.
------------	----------	--

ASAS	1950-yil 6-avgust	Maqsadi: Malay tilining Malayziyadagi ta'lim tizimidagi o'rni.
LBM	1951-yil 26-aprel	Maqsadi: Malay tilini boshqarish, takomillashtirish, kengaytirish.
Birinchi Malayziya Tili va Adabiyoti Kongresi	1952-yili 12 va 13-aprel	Maqsadi: Malay tilini davlat tili qilish edi.
Razak Bayonoti	1955-yil sentabr oyi	Maqsadi: Malay tili barcha maktablarda o'qitilishi shart

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, malay tilining rivojlanishi va mustahkamlanishi uzoq yillar davomida olib borilgan kurash va sa'y-harakatlarning natijasidir. Mustamlaka davridagi bosimlarga qaramay, Malay yozuvchilari va ziyolilari tilni himoya qilish hamda uni ilmiy va rasmiy til darajasiga ko'tarish yo'lida tinimsiz harakat qildilar. ASAS 50 harakati, Malay tili va adabiyoti kongresslari hamda Dewan Bahasa dan Pustaka (DBP) kabi muassasalarning tashkil etilishi, bu tilning davlat tili sifatida mustahkam o'rin egallashiga katta hissa qo'shdi.

Malay tili nafaqat milliy o'zlik va madaniyatning ifodasi, balki xalqning ilm-fan va ta'lim sohalarida taraqqiy etishi uchun ham muhim omil hisoblanadi. Mustaqillikka erishish arafasida til masalasi siyosiy darajaga ko'tarildi va nihoyat, Malay tili konstitutsiyada milliy til sifatida e'tirof etildi.

Bugungi kunda ham Malay tilining mavqeyini mustahkamlash va uni global miqyosda obro'-e'tiborli tilga aylantirish dolzarb masala bo'lib qolmoqda. Menimcha, til nafaqat rasmiy hujjatlarda, balki ilmiy tadqiqotlar, texnologiya va xalqaro muloqotda ham yetakchi o'rinni egallashi lozim. Malay tilining ravnaqi va uning xalqaro nufuzini oshirish uchun ta'lim tizimi, adabiyot va ommaviy axborot vositalari orqali uni yanada keng rivojlantirish zarur. Bu esa millatning madaniy va ilmiy taraqqiyotiga beqiyos hissa qo'shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdul Samad Idris, *25 Tahun Merdeka*, Pustaka Budiman, Kuala Lumpur, 1982.
2. Asmah Hj Omar, *Language Planning for Unity dan Efficiency*. Penerbit Universiti Malaya, Kuala Lumpur, 1976.
3. Asraf Abdul wahab, Awang sariyan, Farid Omar dan Firdaus Abdullah, “*Penyatuan Bahasa Melayu Senusantara*” dalam Abdullah Hassan (penyusun) *Kongres Bahasa dan Persuratan I-IV(1952-2003)*, Kuala Lumpur, Persatuan Penterjemahan Malaysia, 2007.
4. Awang Sariyan, *Keranda 152, Bahasa Kita Air Mata dan Maruah Kita*, Persatuan Linguistik Malaysia, Kuala Lumpur, 2002.
5. Ibrahim Mahmood, *Sejarah Perjuangan Bangsa Melayu*, Pustaka Antara, Kuala lumpur, 1981.
6. K. Ramanathan, *Politik Pendidikan Bahasa 1930-1971*, Penerbit Fajar Bakti Sdn. Bhd., Petaling Jaya, 1985

MALAY TILIDA SIFAT VA UNING DARAJALARI



Toshmurodova Xumora

*TDSHU 2-kurs Xalqaro jurnalistika,
malay-ingliz guruhi talabasi
Ilmiy rahbar : M. Mamatkulova*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Malay tilida sifat va uning darajalari tizimli tahlil qilinadi. Malay tili grammatikasida sifatarning yasalishi, ularning gapda tutgan o‘rni va darajalanish usullari o‘rganiladi. Tadqiqot davomida sifatarning Malay tilidagi sintaktik va semantik xususiyatlari tahlil qilinib, ularning boshqa tillar, xususan, o‘zbek tili bilan qiyosiy jihatlari ham ko‘rib chiqiladi. Maqolada sifatarning darajalari — oddiy, taqqoslovchi va orttirma daraja — qanday ifodalanishi haqida batafsil ma’lumot beriladi.*

Kalit so‘zlar: *Malay tili, sifat, sifat darajalari, oddiy daraja, qiyosiy daraja, orttirma daraja, grammatik tahlil, tilshunoslik.*

Malay tili grammatikasi Janubi-Sharqiy Osiyodagi boshqa tillar bilan qiyoslaganda o‘ziga xos tuzilishga ega. Malay tilida sifat nomlarning xususiyatlarini ifodalovchi so‘z turkumi hisoblanadi. U nafaqat narsalarning rang, hajm va holatini bildiradi, balki hissiyot va boshqa abstrakt tushunchalarni ham ifodalaydi.

Nega malay tilida sifatlarni o‘rganish muhim? Sifatlar xuddi ziravorlarga o‘xshaydi. Ular gaplaringizga mazmun va rang-baranglik qo‘shadi. Ularsiz gaplaringiz oddiy va zerikarli bo‘lib qolishi mumkin. Malay sifatleri ham bundan mustasno emas. Sifatlar odamlar, joylar va narsalarni aniq va qiziqarli tarzda tasvirlash uchun juda muhim. Keling, bitta misol keltiramiz. Tasavvur qiling, do‘stingizga sevimli taomingizni tasvirlab berishga harakat qilyapsiz va "Men bu ovqatni yoqtiraman" deyapsiz. Bu umuman olganda to‘g‘ri, lekin do‘stingiz sizning qanday

taomlarni yoqtirishingiz haqida aniqroq tasavvurga ega bo'la olmaydi. Endi malay tilida pedas (achchiq) sifatini qo'shamiz: "Saya suka makanan pedas ini" (Men bu achchiq taomni yoqtiraman). Endi gap ancha tushunarli va aniq bo'ldi, to'g'rimi? Bitta oddiy sifat yordamida do'stingizga siz aynan qanday taomlarni yoqtirishingizni yaqqolroq tushuntirib berdingiz – achchiq taomlar.

Malay tilida sifatlar kata sifat yoki adjektif deb ataladi.

- Kata sifat – kata (so'z) + sifat (xususiyat/harakteristika) so'zlaridan hosil bo'lgan.
- Adjektif – Ingliz tilidagi adjective so'zidan olingan va Malay tilida ham ishlatiladi.

Malay tilida sifatlar har doim o'zlari ta'riflayotgan otlardan keyin keladi. Buni grammatikada postpozitsiya deb atashadi.

Misollar:

- **Rumah besar** – Katta uy (rumah – uy, besar – katta)
- **Orang kaya** – Boy odam (orang – odam, kaya – boy)

istisno! Ba'zi hollarda, sifatlar otlardan oldin kelishi mumkin, lekin bu juda kam uchraydigan holat bo'lib, odatda she'riyat, qo'shiq matnlari yoki adabiy uslubda ishlatiladi. Bu gapga ta'sirchanlik va emotsional urg'u berish uchun amalga oshiriladi.

Masalan:

Indah sungguh pemandangan di sini. (Bu yerning manzarasi haqiqatan ham go'zal.)

Bu yerda indah (go'zal) sifati pemandangan (manzara) otidan oldin kelgan. *Gelap malam ini seperti kalamnya hatiku.* (Bugungi tunning qorong'iligi yuragimning g'amginligi kabi.)

Bu gapda **gelap** (qorong'i) sifati **malam** (tun) otidan oldin qo'yilgan.

Bu uslub badiiy asarlarda, she'rlarda, va qo'shiqlarda ko'proq qo'llaniladi. Kundalik nutqda esa Malay tilida sifat doimo otning orqasidan keladi. Quyida Malay tilida ko'p qo'llaniladigan sifatlar va ularning gaplardagi ishlatilishini ko'rib chiqamiz.

Besar (katta), kecil (kichik), panjang (uzun), cantik (go'zal), baharu (yangi)

Rumah itu sangat besar.
Kucing ini kecil dan comel.
Dini menulis karangan yang
panjang.
Pemandangan itu cantik
sekali. Nasir membeli telefon
baharu.

Bu uy juda katta.
Bu mushuk kichik va yoqimli.
Dini uzun insho yozmoqda.
U manzara juda go'zal.
Nasir yangi ko'ylak sotib oldi.

Bu misollardan shuni tushunish mumkinki, malay tilida sifatlar siz aytmoqchi bo'lgan fikrni yanada aniqroq va ta'sirchanroq ifodalashga yordam beradi. Ular jumlagi ko'proq mazmun qo'shadi.

Malay tilida sifatarning quyidagi turlari mavjud:

Kata adjektif keadaan (holat sifatleri) – bu sifatlar otning holatini tavsiflaydi.

Misollar: **Bagus** (yaxshi), **bijak** (aqlli), **berani** (jasur), **lemah** (zaif), **kemas** (ozoda).

Kata adjektif warna (rang sifatleri) – bu sifatlar otning rangini tavsiflaydi.

Misollar: **Biru laut** (okean ko'k), **merah jambu** (pushti), **hijau** (yashil).

Kata adjektif ukuran (o'lcham sifatleri) – bu sifatlar otning o'lchamini ifodalaydi.

Misollar: **Panjang** (uzun), **tebal** (qalin), **nipis** (ingichka), **besar** (katta).

Kata adjektif waktu (vaqt sifatleri) – bu sifatlar vaqt bilan bog'liq jihatlarni tavsiflaydi.

Misollar: **Laju** (tez), **perlahan** (sekin), **lama** (uzoq).

Kata adjektif jarak (masofa sifatleri) – bu sifatlar ob'ektlar orasidagi masofani ifodalaydi.

Misollar: **Hampir** (deyarli), **dekat** (yaqin), **jauh** (uzoqligi).

Kata adjektif cara (tez-tez sodir bo'lish sifatleri) – bu sifatlar biror narsaning qanchalik tez-tez sodir bo'lishini ifodalaydi.

Misollar: **Selalu** (har doim), **jarang** (kamdan-kam), **kadang-kadang** (ba'zan).

Kata adjektif pancaindera (sezgilar bilan bog'liq sifatlar) – bu sifatlar ta'm, hid, ko'rish, eshitish va teginish orqali idrok qilinadigan xususiyatlarni tasvirlaydi.

Misollar:

- Ta'm: **Sedap** (mazali), **manis** (shirin), **pahit** (achchiq).

- Ko‘rinish: Cantik (chiroyli), hodoh (xunuk).
- Tovush: Bising (shovqinli), senyap (jimjit).
- Hid: Busuk (badbo‘y), wangi (xushbo‘y).
- Teginish: Halus (yumshoq), licin (sirg‘anchiq), kasar (dag‘al).

Malay tilida sifat darajalari :

Malay tilida sifatning daraja shakllari (darjah perbandingan) uch guruhga ajratiladi:

1. Darjah Biasa (Oddiy daraja) - sifat hech qanday taqqoslashsiz, oddiy holda ishlatiladi. Bu darajada sifatni boshqa narsa yoki shaxs bilan taqqoslash yo‘q, shunchaki xususiyatni bildiradi.

Masalan:

Budak gemuk — Bolakay semiz.

Rumah itu tinggi — Uyingiz baland.

Kucing itu comel — Mushuk yoqimli.

Malam itu indah — O‘sha kecha go‘zal.

2. Darjah Bandingan/Setara (Taqqoslovchi daraja) ikki turga bo‘linadi:

1. Bandingan yang serupa (Bir xil taqqoslash)
sama ... dengan yoki se ... kabi ko‘rinishlar orqali bir xil yoki tenglik darajasini bildiradi.

Masalan:

- Rumah ini sama tinggi dengan rumah itu — Bu uy o‘sha uy bilan bir xil balandlikka ega.
- Rumah ini setinggi rumah itu — Bu uy o‘sha uydek baland.
- Dia tidak sebaik Adi — U Adi kabi yaxshi emas.

2. Bandingan yang berbeda (Turlicha taqqoslash)
lebih ... daripada (ko‘ra ...roq) shaklida sifatni yuqori yoki kurang... dari past darajada taqqoslash ifodalanadi.

Masalan:

- Rumah ini lebih besar daripada rumah itu — Bu uy o‘sha uyga qaraganda kattaroq.
- Gunung ini kurang tinggi (dari gunung itu). — Bu tog’ u tog’dan pastroq.

3. Darjah Penghabisan (Orttirma daraja) - bu daraja sifatning eng yuqori darajasini bildiradi. Malay tilida buni ifodalash uchun ikkita asosiy usul mavjud:

Birinchi usul – paling – har qanday sifat uchun ishlatilishi mumkin.

Misollar:

Gunung Kinabalu ialah gunung paling tinggi di Malaysia. (Kinabalu tog'i Malayziyadagi eng baland tog'dir.)

Dialah pelajar paling rajin di kelas. (U sinfdagi eng tirishqoq o'quvchidir.)

Ikkinchi usul –ter-prefiksi – ko'proq rasmiy va badiiy matnlarda mutlaq yoki tabiiy xususiyatlarni ta'kidlash uchun.

Misollar:

Dia adalah anak terpandai di sekolah. (U maktabdagi eng aqlli boladir.)

Bunga raya ialah bunga tercantik di taman. (Hibiscus bog'dagi eng chiroyli guldir.)

Malay tilida sifatlarning darajalari aniq tizimga ega bo'lib, taqqoslovchi va orttirma darajalar maxsus so'zlar va prefikslar orqali ifodalanadi. Ushbu maqolada sifatlarning tuzilishi, ularning gapdagi o'rni va Malay tilidagi darajalari haqida batafsil ma'lumot berildi. Malay tili va o'zbek tili orasidagi qiyosiy tahlil ularning grammatik jihatdan farqli va o'xshash tomonlarini aniqlashga yordam beradi. Ushbu tadqiqot Malay tilini o'rganayotgan talabalar va tilshunoslar uchun foydali bo'lishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Учебник малайского(малайзийского) языка, Академия гуманитарных исследований, Москва 2006
2. Ling-app.com
3. Tatabahasamelayumudah.blogspot.com
4. Abdul Hamid Mahmood, 1997. Guru dan Bahasa Melayu. Kuala Lumpur: Media Printext (M) Sdn. Bhd.
5. Abdullah bin Hassan, 1974. The Morphology of Malay. Kuala Lumpur: Dewan Bahasa dan Pustaka.
6. Adam, J.P. dari Tassilo. Butler, 1948. Tatabahasa Bahasa Melayu. New York: Hafner Publishing Co.

HIND-ORIY TILLARIDA (HINDIY VA URDU) TIBBIYOTGA OID ARAB-FORS O‘ZLASHMALARINING LINGVISTIK XUSUSIYATLARI



Nuritdinova Odinaxon

*TDSHU 2-kurs, Filologiya va tillarni o‘qitish,
hind-ingliz guruhi talabasi
Ilmiy rahbar: M.Murtazaxodjayeva*

Annotatsiya. Mazkur maqolada hindiy va urdu tillarida tibbiyot sohasiga oid arab-fors o‘zlashmalarining kirib kelish tarixi, ularning fonetik, morfologik va semantik o‘zgarishlari tahlil qilinadi. Bundan tashqari, o‘zlashmalarning statistik tahlili va gibrid so‘zlarning shakllanishi ham yoritiladi.

Kalit so‘zlar: *arab-fors o‘zlashmalari, tibbiyot, hindiy, urdu, leksik o‘zgarish, fonetik moslashuv, semantik kengayish, gibrid so‘zlar, Al-Qonun fit-Tib*

Hindiston va Arabiston o‘rtasidagi qadimiy madaniy, ilmiy va iqtisodiy aloqalar til va madaniyatlararo o‘zaro ta’sirni kuchaytirgan. Ayniqsa, 7–8-asrlarda boshlangan bu aloqalar keyinchalik islom dini tarqalishi, Boburiylar sulolasining vujudga kelishi bilan yanada rivoj topdi. Arab-fors tillaridan ko‘plab ilmiy, adabiy va tibbiy atamalar hindiy va urdu tillariga

o‘zlashdi. Tibbiyot sohasi bu borada alohida o‘rganishga loyiq bo‘lib, o‘zlashmalarning ko‘lami, sabablari va natijalari tilshunoslik nuqtai nazaridan chuqur tahlil etilishi kerak.

Ko‘pgina tilshunos olimlar hindiy tilidagi arab-fors elementlarining shakllanishiga oid ma’lumotlarni o‘z tadqiqotlarida umumiy tarzda qayd etib o‘tganlar. Jumladan, K.Guru⁵², Z.M.Dimshis⁵³, T.Ye.Katenina⁵⁴, V.M.Beskrovniy⁵⁵, A.P.Barannikov⁵⁶ kabi olimlar hindiy tilidagi arab-fors o‘zlashmalarining ifodalanish jihatlariga e’tibor berganlar.

Arab-fors tillaridan hindiy va urdu tillariga so‘zlarning o‘zlashish sabablari turlicha bo‘lib, ularga diniy ta’sirlar, savdo-iqtisodiy aloqalar, ilmiy merosning uzviyligi, va siyosiy omillar sabab bo‘lgan. Islom dini tarqalishi natijasida arab tili diniy, fors tili esa ma'muriy va madaniy tilga aylangan. Boburiylar imperiyasi arab-fors ilm-fani va madaniyatiga tayanib, o‘z davlatchiligini yuritgan. Bu davrda medraslarda, tibbiy maktablarda va darsliklarda arab-fors atamalari keng tarqalgan. Shu sababli, tibbiyot sohasidagi ko‘plab arabcha va forsha atamalar hindiy va urdu tillarida mustahkam o‘rnashgan.

⁵² Гуру К. Грамматика хинди. Часть II. Пер. с хинди Г.А. и Р.И.Баранниковых. Под ред. И с предисл. Проф. Б.А.Ларина. -М.: Изд-во иностранной лит-ры, 1962.

⁵³ Дымщиц З.М. Грамматика языка хинди. Т II. -М.: Наука, 1986.

⁵⁴ Катенина Т.Е. Очерк грамматики языка хинди. Прил. к «Русско - хинди словарю». -М.: Изд-во лит-ры на иностр. яз., 1957.

⁵⁵ Бескровный В.М. Морфологическое гибридное словообразование в хинди // Хинди и урду. Вопросы лексикологии и словообразования. –М., 1960.

⁵⁶ Баранников А.П. Хиндустани (хинди и урду). - М.:Изд-во лит-ры на иностр. яз., 1956.

Ibn Sino tomonidan yozilgan "Al-Qonun fit-Tib" asari qadimgi tibbiyot fanining eng yirik yodgorliklaridan biridir. Asar asosan arab tilida yozilgan bo'lib, o'rta asrlarda butun islom olamida, xususan Hindistonda darslik sifatida keng foydalanilgan. Asarda turli kasalliklar, davo usullari, dorivor o'simliklar, gigiyena va fiziologiyaga oid ko'plab terminlar mavjud bo'lib, ular urdu va hindiy tillariga ham o'zlashgan. Masalan, "ilaj", "davo", "tib", "tabib", "jarroh", "bemor", "shifo" singari so'zlar asarda ko'p uchraydi va hozirda ham hindiy va urdu tillarida faol ishlatiladi. Bu asar o'zlashmalarni mustahkamlash va ularni kengaytirishda asosiy ilmiy manba sifatida xizmat qilgan.

Hindiy va urdu tillari hind-oriy tillar oilasiga mansub bo'lib, ularning leksikasi o'zlashtirilgan so'zlar bilan boyib borgan. Hindiy tilida so'zlar kelib chiqishiga ko'ra to'rt guruhga bo'linadi: totsama (sanskritdan to'g'ridan-to'g'ri olingan), totbhava (sanskrit negizida shakllangan), deshiy (mahalliy tillardan olingan), videshi (xorijiy tillardan o'zlashgan). Tibbiyotga oid arab-fors so'zlari videshi turkumiga kiradi. Statistik tahlillarga ko'ra, hindiy va urdu tillaridagi tibbiyot terminlarining 40–55 foizini arab-fors o'zlashmalari tashkil qiladi. Bu so'zlar zamonaviy tibbiyotda ham, xalq tabobatida ham faol ishlatiladi.

O'zlashgan so'zlar ko'pincha qabul qiluvchi til fonetik tizimiga moslashadi. Arab tilida mavjud ba'zi tovushlar hindiy va urdu tillarida mavjud emasligi sababli ularning talaffuzida fonetik soddalashtirish yuz beradi. Masalan, arab tilidagi 'ع', 'ط', 'ق', 'ص', 'ظ' kabi tovushlar hindiy tilida mavjud emas va ular talaffuzda yo'qoladi yoki eng yaqin tovush bilan almashtiriladi. Shuningdek, morfologik jihatdan arab-fors so'zlari urdu va

hindiyl morfologik strukturasi bilan uyg'unlashadi. Masalan, "ilaj" so'ziga urducha qo'shimcha qo'shilib "ilaj karna" (davolash) shaklida ishlatiladi. Bu esa o'zlashmalar morfologik jihatdan integratsiyalashganini ko'rsatadi.

O'zlashmalar semantik jihatdan ham o'zgaradi. Bunday o'zgarishlar ikki shaklda bo'ladi: ma'no kengayishi va torayishi. Masalan, arab tilidagi "bimar" so'zi ruhiy va jismoniy holatni anglatgan bo'lsa, hindiyl va urdu tillarida u faqat jismoniy kasallikka nisbatan ishlatiladi — bu ma'no torayishi. Boshqa tomondan, "sihat" so'zi arab tilida faqat sog'liq ma'nosida ishlatilsa, hindiyl va urdu tillarida u alternativ tibbiyot, hatto hayot tarzi bilan bog'liq tushunchalarni ham qamrab oladi — bu semantik kengayish.

Gibrid so'zlar — bu ikki yoki undan ortiq til elementlarining qo'shilishidan hosil bo'lgan birliklardir. Tibbiyotga oid arab-fors ildizlari urdu va hindiyl affikslar bilan birikib yangi semantik birliklar hosil qiladi. Masalan:

बेदर्द (bedard):	بے (fors)	+ درد (arab) =	<i>dardsiz</i>
सेहतमंद (sehatmand)	صحة (arab)	+ مند (fors) =	<i>sog'lom</i>
इलाज करना (ilaj karna)	علاج (arab)	+ کرنا (urdu) =	<i>davolash</i>
दवाईघर (davaighar)	دواء (arab)	+ घर (hindiyl) =	<i>dorixona</i>

Bu gibridlar o'zlashmalarining faol ishlatilishini va tillararo integratsiyani yaqqol ko'rsatadi.

Tadqiqot davomida 73 ta tibbiyotga oid arab-fors o'zlashmalari tahlil qilindi. Ularning 25% fors tilidan, 23% arab tilidan, 11% gibrid shaklda,

qolganlari boshqa manbalardan kelib chiqqani aniqlangan. Statistik tahlillar quyidagicha:

Arabcha soʻzlar	علاج، دواء، مرض	17 ta	23%
Forscha soʻzlar	د در، بیمار، جگر	19 ta	25%
Gibrid soʻzlar	بے درد، صحت مند	8 ta	11%

Bu statistik maʼlumotdan anglashiladiki, arab-fors tillarining tibbiy leksikaga kuchli taʼsir koʻrsatganini isbotlaydi. Arab-fors tillaridan hindiy va urdu tillariga kirib kelgan tibbiyotga oid oʻzlashmalar oʻziga xos leksik boylikdir. Ular tarixiy, diniy, ilmiy va madaniy aloqalarning mahsuli sifatida shakllangan. Fonetik, morfologik va semantik moslashuvlar ularning yangi tizimga muvaffaqiyatli singib ketganini koʻrsatadi. Gibrid soʻzlarning shakllanishi esa tillararo almashinuv va integratsiyaning muhim koʻrinishidir. Bugungi kunda ham bu oʻzlashmalar zamonaviy tibbiy matnlarda, bemor va shifokor oʻrtasidagi muloqotda keng qoʻllanilmoqda. Ushbu oʻzlashmalarni ilmiy tahlil qilish kelajakda til oʻzgarishlari va til siyosati boʻyicha tadqiqotlar uchun muhim asos boʻla oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Azizov O. Tilshunoslikka kirish. - T.: Oʻqituvchi, 1996.
2. Faruqi, Shamsur Rahman. Urdu Ka Ibtidai Zamana. New Delhi: Oxford University Press, 2001.
3. Ibn Sino. Al-Qonun fit-Tibb. Beyrut: Dar al-Kutub, 1996.
4. Masica, C.P. The Indo-Aryan Languages. Cambridge University Press, 1991.
5. Platts, John T. A Dictionary of Urdu, Classical Hindi, and English. London: W. H. Allen & Co., 1884.

6. Sharma, Dev Raj. A Descriptive Grammar of Hindi and Urdu. Delhi: Vani Prakashan, 2002.
7. Singh, Rajendra. Language Change in South Asia. Berlin: Mouton de Gruyter, 2004.
8. Бескровный В.М. Морфологическое гибридное словообразование в хинди // Хинди и урду. Вопросы лексикологии и словообразования. — М., 1960.

**HINDIY, O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA KESIMLIK
QO‘SHIMCHALARI (होना, TO BE)NING IFODALANISHI**



O'Imasova Sevinch

*TDSHU 1-kurs, Turizm va mehmondo'stlik yo'nalishi,
hindiyingliz guruhi talabasi*
Ilmiy rahbar: dots.v.b., PhD K.Raxmatjonova

Davlat rahbarining ta'limga qaratayotgan e'tibori, til sohasida amalga oshirayotgan islohatlari xorijiy tillarni o'rganishning dolzarbligidan darak beradi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev xorijiy tillarni o'rganish masalasiga katta e'tibor qaratib, bu borada bir qator muhim fikrlarni bildirgan. Masalan, 2021-yil 6-may kuni chet tillarini o'qitish tizimini takomillashtirishga bag'ishlangan yig'ilishda u shunday dedi: "Biz raqobatdosh davlat qurishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'ygan ekanmiz, bundan buyon maktab, litsey, kollej va oliygoh bitiruvchilari kamida ikkita chet tilini mukammal bilishlari shart. Bu qat'iy talab har bir ta'lim muassasasi rahbari faoliyatining asosiy mezoniga aylanishi lozim⁵⁷.

Hozirgi kunda turli chet tillarini bilish, insoniyatning turmush tarzini osonlashtirishga yordam bermoqda. Muayyan xorijiy tilni o'z ona tili bilan solishtirib, taqqoslab o'rganish tanlangan tilni tez va oson o'rganishga yordam beradi.

Bundan tashqari xorijiy tillarni o'rganishning quyidagi ahamiyatlari mavjud:

1. Globalizatsiya va ko'p tillilik – ingliz tili dunyoning asosiy xalqaro tili, o'zbek va hindi tillari esa mintaqaviy jihatdan muhimdir. Ularning taqqoslanishi til o'rganish metodologiyasini yaxshilashga yordam beradi.

⁵⁷ <https://president.uz>

2. Tilshunoslik va tarjima ishlari uchun foydali – uchta tilni taqqoslab oʻrganish tarjimonlar va tilshunoslar uchun yangi yondashuvlarni kashf qilishi mumkin.

3. Turizm va xalqaro aloqalar – Hindiston va Oʻzbekistonning tarixiy, madaniy va iqtisodiy aloqalari kuchaymoqda. Qolaversa, Hindiston mamlakatida ingliz tilining roli ham muhim. Shuning uchun bu tillarni oʻrganish tajribasi xalqaro hamkorlikni rivojlantirishga hissa qoʻshishi mumkin.

Yuqoridagi fikrlarga asoslanib, til oʻrganish foydali, uni boshqa tillar bilan solishtirib, oson va tez shaklda oʻrganish esa har bir til ixlosmandlari uchun manfaatli boʻladi. Mazkur ilmiy ishning maqsadi hindiy, ingliz va oʻzbek tillari genetik hamda tipologik jihatdan bir guruhga mansub boʻlmasa ham, bu tillarning grammatik qatlamida oʻxshash va farqli jihatlarni aniqlash va tahlil qilishdan iborat.

J.Boʻronovning nazariyasiga asosan qiyosiy tipologiya umumiy lingvistik tipologiyaning bir qismidir. U ikki va undan ortiq aniq tillar tizimlarini, tillardagi maʼlum kategoriyalarni deduktiv ravishda alohida oʻrganadi. Tillar tizimlaridagi lingvistik hodisalarni bir-biri bilan taqqoslab, umumiy tipologik qoida va qonunlarni yaratadi. Har bir qatlam birligining oʻziga xos xususiyati. boshqa qatlamdagi birliklarning oʻzaro aloqalari hisobga olinadi.⁵⁸

Tadqiqot natijasida tanlangan uch til genetik jihatdan boshqa-boshqa til guruhlariga mansubligi aniqlandi. Masalan, hindiy tili hind-oriy tillar oilasiga mansub. Soʻzlashuvchilari butun shimoliy va janubiy Hindistonning gʻarbiy qismida yashaydi. 1961-yil maʼlumotlariga koʻra, Hindistonda 574 til va dialektik hind-oriy tillariha tegishlidir. Bu esa butun aholining 73,3 % ini tashkil etadi⁵⁹. Ingliz tili esa hind-yevropa tillari oilasining german guruhiga kiruvchi tildir⁶⁰. Oʻzbek tili esa turkiy tillar oilasiga kiradi⁶¹. Bu uch tilning tipologik xususiyati: oʻzbek tili agglyutinatив, hindiy va ingliz tillari esa analitik tillar toifasiga misol boʻlishini koʻrish mumkin.

⁵⁸ Boʻronov J. Ingliz va oʻzbek tillari qiyosiy grammatikasi, Toshkent, 1973, 76-b.

⁵⁹ Begizova X.B. Oʻrganilayotgan til vaziyati, Toshkent, 2009, 20-21-b.

⁶⁰ Irisqulov M.T. Tilshunoslikka kirish, Toshkent, 2009, 185-b.

⁶¹ <http://linguists>

Ma'lumki, har bir til strukturasida grammatik qatlam asosiy va muhim hisoblanadi. Jumaladan, kesimlik qo'shimchasini ifodalash har bir tilda mavjud.

Mazkur tadqiqot asosi bo'lgan kesimlik qo'shimchalari bu - gapda harakat holatni ifodalamaydigan so'z turkumlariga qo'shilib, bu so'zlarni gapda kesim bo'lishiga yordam beradigan va uning shaxs-sonini bildiradigan qo'shimchalardir⁶².

Hindiy tilida होना bo'lmoq ma'nosini anglatuvchi fe'ldir. U ham boshqa tillar singari uch shaxsda, birlik va ko'plikda tuslanadi. Uning tanlangan ikki tildan farqi hindiy tilida 2-shaxs birlik va ko'plikda kishilik olmoshlarining semantik jihatdan turlicha ifodalanishidadir.

पुरुष	एकवचन		बहुवचन	
I	मैं	हूँ	हम	हैं
II	तू	है	आप	हैं
			तुम	हो
III	यह	है	ये	हैं
	वह	है	वे	हैं

Hindiy tilida होना fe'lining gaplarda ifodalanishiga misollar:

मैं विद्यार्थी हूँ | (men talabaman)

हम विद्यार्थी हैं | (biz talabamiz)

तू विद्यार्थी है | (sen talabasan)

आप विद्यार्थी हैं (Siz talabasiz)

⁶² Yo'ldoshev M. O'zbek tili praktumi, Toshkent, 2006, 34-b.

तुम विद्यार्थी हो (siz talabasiz)

यह विद्यार्थी है | (bu talaba)

ये विद्यार्थी हैं (bular talabalar)

वह विद्यार्थी है | (u talaba)

वे विद्यार्थी हैं (ular talabalar)

Demak, hindiy tilida quyidagi kesimlik ma'nosini ifodalovchi belgilar bor: ikkinchi shaxs birlik va ko'plikda tuslanishi va uchinchi shaxsdagi kishilik olmoshlarining farqlanishiga ko'ra, taqqoslanayotgan tillardan ajralib turadi. Bundan tashqari होना fe'lining birlikda faqatgina birinchi shaxsda, ko'plikda birinchi va ikkinchi shaxsda o'zgarganini kuzatish mumkin.

Ingliz tilida mazkur ma'no "to be" fe'li orqali ifodalanadi. To be fe'li ham bo'lmoq ma'nosini anglatib, asosiy yordamchi fe'llardan biri sanaladi.

No	Singular		Plural	
I	I	am	We	are
II	You	are	You	are
III	He	is	They	are
	She			
	It			

Masalan,

I am clever girl.

We are clever girls.

You are a teacher.

You are teachers.

She is a nurse.

They are doctors.

He is a dentist.

It is a hospital.

Demak, ingliz tilida kesimlik ma'nosini ifodalovchi yordamchi fe'llar taqqoslanayotgan tillardagi kabi uch shaxs, birlik va ko'plikda tuslanadi. Uning ko'plikda barcha olmoshlarga bir xil shaklga egaligi, uchinchi shaxs birlikda jins kategoriyasining mavjudligini, asosiysi esa ikkinchi shaxs

birlik va ko‘plik shakllarida olmosh ham kesimlikni ifodalovchi fe’l ham bir xilligidir. Ular gapda matn mazmunidan birlik yoki ko‘plikda ekanligi artikllar va ko‘pliklikni anglatuvchi qo‘shimchalar yordamida ajratiladi.

O‘zbek tilida ham yuqoridagi ikki til kabi kesimlik qo‘shimchalari shaxs-sonda tuslanib, quyidagicha ifodalanadi.

No	BIRLIK		KO‘PLIK	
I	Men	-man	Biz	-miz
II	Sen	-san	Siz	-siz
III	U	-dir	Ular	-dir(lar)

Kesimlik qo‘shimchalarining gaplarda ifodalanishi:

Men talabaman

Biz talabamiz

Sen haydovchisan

Siz haydovchisiz

U sotuvchidir

Ular sotuvchidirlar.

Demak, o‘zbek tilidagi kesimlik qo‘shimchalari ishlatilishi jihatdan uchinchi shaxsning hamma jinsdagi shaxslar va jonsiz narsalar uchun ham bitta shaklni olishi va gapda uchinchi shaxsdagi kesimlik qo‘shimchalari ishlatilmasa ham kesimlik qo‘shimchalari mantiqiy nazarda tutilishini kuzatish mumkin.

Mazkur uch tildagi kesimlik qo‘shimchalari struktur, funksional hamda semantik jihatdan tahlil qilindi. Struktur jihatdan bu tillar bir-biriga o‘xshash. Masalan, hindiy tilida qo‘shimchalar xuddi ingliz tilidek so‘zlarga qo‘shib emas, balki ulardan ajratib yozilmoqda. Lekin tuzilishi va gapning oxirida kelishi o‘zbek tiliga aynan mos tushadi. Funksional, ya’ni qanday vazifa bajarishiga ko‘ra esa, uchala tilda ham bir xil bo‘lib, yordamchi fe’llar orqali sodda gaplar yasalyapti. Semantik jihatdan esa tanlangan barcha tillardagi kesimlik qo‘shimchasini ifodalovchi vositalar turli xil bo‘lishiga qaramay, bir xil ma’noni ifodalayapti.

Demak, tanlangan bu tillar bir til oilasiga va bir guruhga mansub boʻlmasa ham, ular orasida umumiylik mavjud.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Begizova X.B.Oʻrganilayotgan til vaziyati, Toshkent, 2009
2. Boʻronov J. Ingliz va oʻzbek tillari qiyosiy grammatikasi, Toshkent, 1973
3. Yoʻldoshev M. Oʻzbek tili praktumi, Toshkent, 2006
4. Irisqulov M.T. Tilshunoslikka kirish, Toshkent, 2009

Internet saytlari :

1. <https://president.uz>
2. <http://linguists>

HINDIY, INGLIZ VA OʻZBEK TILLARIDA KELISHIKNI IFODALOVCHI VOSITALAR



Bayitova Setorabonu
TDSHU 1-kurs, Turizm va mehmondo'stlik yo'nalishi,
hindiyl-ingliz guruhi talabasi
Ilmiy rahbar: dots.v.b., PhD K.Raxmatjonova

Bugungi zamonaviy hayotni xorijiy tillarsiz tasavvur etish qiyin. Ular nafaqat davlatlar iqtisodiyotiga katta daromad olib kirmoqda, balki insonlarga sayohat qilishda haqiqiy hamroh bo'lmoqda. Odatda boshqa bir xorijiy tilni o'rganayotgan vaqtda uni ona tiliga taqqoslab, o'xshash va farqli tomonlarga ajratib o'rganish mahsuldor hisoblanadi. Sababi bu holat inson ongida oson o'zlashtiriladi. Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi xorijiy davlatlar bilan hamkorlik o'rnatib, ular bilan ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy, ilmiy va boshqa ko'pgina sohalarda aloqalarni yo'lga qo'yimoqda. Bu esa o'z navbatida xorijiy til biluvchi mutaxassis kadrlarga bo'lgan talabni oshiradi,

Qadimgi davrlardan beri Hindiston va O'zbekiston o'rtasida mustahkam madaniy, siyosiy aloqalar o'rnatilib kelingan va bu holat hozir ham davom etmoqda. O'zbekistonda boshqa ko'pgina tillar qatori hindiyl tiliga ham yaqin yillarda e'tibor kuchayib, sohalar bo'yicha kadrlar tayyorlash yo'lga qo'yilgan. Hindistonning ham yurtimizda o'qish uchun kelayotgan yoshlari soni yildan-yilga ko'payib, ikki davlat o'rtasidagi ta'lim sohasini kuchaytirmoqda. Hind yoshlari o'zbek tilini, O'zbekistonlik talabalar esa hind tillarini qunt bilan o'rganmoqdalar. Hindlarning buyuk marifatparvari, hind xalqining yetakchi namoyondasi Mahadma Gandi aytganidek, tilni bilish madaniyatni bilish demakdir. Birinchi bo'lib o'z tilingizni hurmat qiling, keyin boshqa tillarga ochiq bo'ling. Bundan shuni tushunish mumkinki, Gandi o'z tilini yuqori baholagan, ammo boshqa tillarga ham hurmat bilan qarash kerak ekanligini ta'kidlagan.

Mazkur maqolada hindiyl, ingliz va o'zbek tillarining bir-biriga o'xshash va farqli tomonlarini kelishik qo'shimchalari yasashda xizmat qiluvchi vositalar orqali ko'rib chiqiladi. Hindiyl va ingliz tili hind-yevropa

tillar oilasiga mansub bo‘lib, ingliz tili g‘arbiy germantik tillar guruhiga kiradi⁶³. O‘zbek tili esa turkiy tillar oilasiga kiradi⁶⁴.

Tilshunoslikda kelishik tilning strukturaviy xususiyatlaridan biri bo‘lib, bu so‘zlarning boshqa so‘zlar bilan munosabatini bildiradi. Kelishiklar ko‘pincha so‘zning sintaktik rolini aniqlashda va jumlaning grammatik tuzilishini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Har bir tilning o‘ziga xos kelishik tizimi mavjud bo‘lib, bu tilning sintaksis va morfologiya bo‘limlarida o‘z ifodasini topadi. Ushbu maqolada hindiy, ingliz va o‘zbek tillaridagi kelishikni ifodalovchi vositalar haqida so‘z boradi.

Mazkur tadqiqotni olib borishdan maqsad hindiy, ingliz va o‘zbek tillaridagi kelishiklarga xos grammatik vositalarni bir-biri bilan taqqoslagan holatda ushbu tillardagi umumiy o‘xshashlik va xususiyligini aniqlashdan iborat.

Hindiy tili eng qadimgi tillardan biri bo‘lib, u o‘z rivojlanish tarixiga ega til hisoblanadi. Hindiy tilida o‘zbek tilidan farqli ravishda maxsus kelishik qo‘shimchalari mavjud emas. Ushbu tilda otlarning uchta kelishik shakli mavjud: murojaat, vositali va vositasiz.

1-jadval

T/R	Poslelog	
1.	का -	1. Ot va o‘rin ravishi bilan kelsa tegishlilik, mansublilikni ifodalaydi: यहां का नमक - bu yerning tuzi 2. Payt ravishi bilan kelsa vaqtga aloqadorlikni bildiradi: आज का समाचार - bugungi xabar 3. Infinitiv bilan kelsa, buyumning vazifasini bildiradi: पीने का पानी-ichimlik suvi
2.	को	1. O‘zbek tilidagi tushum va jo‘nalish kelishigi

⁶³ Yo‘ldosheva D.B. Ingliz tilining paydo bo‘lish tarixi, So‘ngi ilmiy tadqiqotlar nazariyasi respublikasi ilmiy-uslubiy jurnali, 2023

⁶⁴ Yusupova B. O‘zbek tili tarixi, Toshkent, 2023

		shakllariga to‘g‘ri keladi. बच्चे को देखो-bolaga qara पुस्तक को पढ़ो-kitobni o‘qi 2. Ish-harakatning yo‘nalishini bildiradi. विद्यार्थि को पुस्तक दीजिये-talabaga kitob bering 3. hafta kunlari, sanalarni bildiruvchi otlar bilan kelsa payt ravishini yasaydi: दिन को- kunduzi
3.	में	1. Ichida, orasida ma’nolarida ishlatiladi: बेग में- sumkada 2. Ish-harakatni biror narsa ichiga yo‘nalishini anglatadi: नगर में जाना - shaharga bormoq 3. Ana jamna fe‘llaridan keyin tushurilib qoldiriladi, ammo bor deb tushuniladi: नगर जाता 4. Fasllar bilan kelganda payt ravishini hosil qiladi: वसंत में- bahorda
4.	पर	-da, ustida degan ma‘noni anglatadi: पुस्तक पर, मेज पर
5.	से	1. Bilan, yordamida, vositasida degan ma’nolarda: पानी से- suv bilan 2. Ish-harakatning boshlanish o‘rni yoki paytini bildiradi: वहां से u yerda 3. Ish-harakatning boshlanish manbaini ko‘rsatadi: विद्यार्थि से -talabadan 4. Mavhum otlar bilan holat ravishini yasaydi: शान्ति से - tinchlik bilan
6.	तक	Masofa, vaqtning biror chegarasini yoki so‘ngi nuqtasini anglatadi: आज तक - bugungacha
7.	ने	Tugal zamonlarning ayrim shakllarida ega bilan birga ishlatiladi.

Yuqorida aytib o‘tilganidek, hindiy tilidagi ayrim so‘zlar posleloglardan oldin kelsa, oxirgi harfini o‘zgartiradi. Masalan, muzakkar jinsda birlikda आ bilan tugagan otlarda poslelogdan so‘ng आ harfi ए ga o‘zgaradi: बेटा - o‘g‘il – बेटे का -o‘g‘ilning.

Ammo sanskrit tilidan o‘zlashgan so‘zlar bundan mustasno hisoblanadi: पिता ota – पिता का otaning.

Muzakkar jinsda आं bilan tugagan otlardan so‘ng poslelog kelsa, आं ऐ ga o‘zgaradi.

Har ikkala jinsdagi qolgan barcha otlar birlikda o‘zgarishsiz qoladi.

Har ikkala jinsda आ, इ, ई harflari bilan tugagan otlardan tashqari har qanday undosh yoki unli bilan tugagan har qanday otlar ko‘plikda poslelogdan avval ओं qo‘shimchasini qabul qiladi: पुस्तकों पर kitoblar ustida, बेगों में sumkalarda

Agar ot ऊ tugasa ऊ उ ga aylanadi: भालू - ayiq भालूओं को ayiqlarni, ayiqlarga.

आ bilan tugagan otlar ko‘plikda ort ko‘makchidan avval आ harfini yo‘qotib, ओं qo‘shimchasini qabul qiladi. इ va ई harflari bilan tugagan otlar ko‘plikda यों qo‘shimchasini qabul qiladi va इ o‘zgarishsiz, ई esa इ ga o‘zgaradi. गिनती - sanoqli गिनतियों को - sanoqlarni

का poslelogining ham uch xil shakli bor. Qaysi shaklidan foydalanish undan keyin kelayotgan otning jinsi va soniga bog‘liq bog‘liq.

Ingliz tilida kelishik qo‘shimchalari ikkita bo‘lib, ular bosh kelishik (Common Case) o‘zbek tilidagi bosh kelishik va hindiy tilidagi vositasiz kelishikka to‘g‘ri keladi. Ikkinchi shakli qaratqich kelishigi (Possessive Case) ‘s qo‘shimchasi yoki of predlogi yordamida yasaladi. Ingliz tilida predloglar mavjud bo‘lib, ular gapda kelishiklar bajargan vazifalarni bajara oladi. Predloglar posleloglar kabi so‘zdan ajratib yoziladi, ulardan farqi

predloglar o‘zidan oldin kelayotgan so‘zning shaklini o‘zgartirmaydi. Predlog bu so‘zlar orasidagi bog‘liqlikni bildiruvchi grammatik vosita bo‘lib, otning gapdagi boshqa so‘zlarga munosabatini ko‘rsatadi⁶⁵.

Of - ning the leg of table - stolning oyog‘i

On - da, ustida- on the table - stol ustida

In - da, ichida -in the box - quti ichida

From – dan - I will take all information from my teacher – men barcha ma’lumotlarni ustozimdan oldim.

O‘zbek tilida esa otlarning oltida kelishik shakli bor.

2-jadval

Tr	Kelishiklar	Qo‘shimchalari
1.	Bosh kelishik	-
2.	Qaratqich kelishik	-ning
3.	Tushum kelishik	-ni
4.	Jo‘nalish kelishik	-ga
5.	O‘rin-payt kelishik	-da
6.	Chiqish kelishik	-dan

⁶⁵ G‘offorov M., Qosimova R. Ingliz tili grammatikasi, Toshkent, 2019

Ushbu jadvaldan ma'lumki, o'zbek tilida kelishiklar maxsus qo'shimchalar orqali yasaladi. Mazkur qo'shimchalar gapda so'zlarning bog'lanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Demak, kelishiklar tanlangan uchala tilda so'zlar o'rtasidagi ma'no va munosabatlarni ifodalovchi asosiy vositadir. Har bir til o'ziga xos strukturaga ega bo'lib, bu tillarda ifodalanadigan ma'no va munosabatlarning o'ziga xosligini yaratadi. Kelishikni ifodalovchi vositalar hindiy va ingliz tillarida poslelog hamda predloglar yordamida ifodalansa, O'zbek tilida esa ular maxsus qo'shimchalar shaklida keladi. Ammo funksional jihatdan har uchala tilda ham bir xil vazifani bajaradi. Shuningdek, har bir tilda kelishik shakllarining to'g'ri ishlatilishi til o'rganishning muhim bosqichlaridan biri bo'lib, tillararo farqlarni tushunish, o'rganish va foydalanuvchiga aniq ifoda etishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Aulova R.A., Rahmatov B.R., Sodiqova M.Q. Hindiy tili darsligi, Toshkent, 2008
2. G'offorov M., Qosimova R. Ingliz tili grammatikasi, Toshkent, 2019
3. Yo'ldosheva D.B. Ingliz tilining paydo bo'lish tarixi, So'ngi ilmiy tadqiqotlar nazariyasi respublikasi ilmiy-uslubiy jurnali, 2023
4. Yusupova B. O'zbek tili tarixi, Toshkent, 2023
5. <https://uz.wikipedia.org>

HINDIY TILIDAGI TURKIY SO‘ZLAR VA ULARNING MAVZU GURUHLARI



Salimova Shahinabonu

*TDSHU 1-kurs, Turizm va mehmondo‘stlik yo‘nalishi,
hindiyl-ingliz guruhi talabasi*

Ilmiy rahbar: dots.v.b., PhD K.Raxmatjonov

Annotatsiya. Mazkuz maqolada qadim tarixga ega bo‘lgan hindiyl tili leksikasi hamda unda kam sonli bo‘lsa-da, faol ishlatiladigan turkiyl o‘zlashmalar haqida so‘z boradi. Jumladan, mazkur o‘zlashmalarning kirib kelish sabablari, ularning mavzuviyl guruhleri hamda mazkur hududda ishlatiladigan boshqa so‘zlar bilan faol aloqasi jarayonida so‘z strukturasi va semantikasining o‘zgarishi haqida keltiriladi. Maqolaga manba sifatida A.S. Barxudarov, V.M. Beskrovniyl, G.A.Zograf, V.P.Lipervskiylar tahriri

ostida nashr qilingan ikki tomlik “हिंदी-रूसी शब्दकोश” (Hindcha-ruscha lug‘at) dan foydalanildi

Kalit so‘z va iboralar. Sankrit, brahman, Rigveda, G‘aznaviylar, Hind-oriy tillari.

Zamon o‘tishi, texnologiyalarning rivojlanishi va globalashuv jarayonlari natijasida ko‘plab qadimiy tillar va madaniyatlar an‘ana va xususiyatlarini kamdan-kam ishlatiladigan holga keltirmoqda. Biroq hindiy tili hali ham o‘zining tarixiy va madaniy ahamiyatini saqlab, boqiyligini yo‘qotmagan tillardan biri sifatida mavjudligini davom ettirmoqda. Bu til Janubiy Osiyo hududining lingvistik va madaniy xazinasini ifodalash bilan bir qatorda butun dunyo bo‘ylab ming yillik tarixga ega bo‘lgan eng qadimiy tillardan biri sifatida saqlanib qolmoqda.

Dunyoning barcha tillari kabi hindiy tili ham rivojlanish bosqichida boshqa tillarning ta‘siriga uchragan, bunung natijasida hindiy tili lingvistikasi boyib borgan. Turli xil davrlar jarayonida boshqa madaniyatlar va siyosiy aloqalar ta‘sirida o‘zgargan va rivojlangan. Zamonaviy hindiy tili lug‘ati tarkibida sanskrit⁶⁶, fors, arab, ingliz so‘zlari, shu bilan birga turkiy so‘zlar ham uchraydi.

Maqolani yoritishda A.S. Barxudarov, V.M. Beskrovniy, G.A.Zograf, V.P.Liperovskiylar tahriri ostida nashr qilingan ikki tomlik “हिंदी-रूसी शब्दकोश” (Hindcha-ruscha lug‘at) dan manba sifatida foydalanildi. Bu ilk izlanish bo‘lganligi sababli 1-tomdangina foydalanildi.

Turkiy so‘zlarning hindiy tiliga kirib kelishi sabablari haqida turli tahminlar mavjud. Jumladan, Janubiy Osiyo tillariga turkiy so‘zlarning kirib kelishi XI-XIII asrlarga borib taqaladi va ilk katta bosqichlardan biri G‘aznaviylar davlatining Hindistonga qilgan harbiy yurishlari bilan bog‘liq. Mahmud G‘aznaviy Hindistonning shimoliy hududlariga qilgan harbiy yurishlari

⁶⁶Sanskrit so‘zi “muqaddaslangan” yoki “oqlangan” degan ma‘noni anglatadi. Sanskrit tilidagi dastlabki mashhur asar Rigveda bo‘lib ,Brahmanik matnlar kolleksiyasidir.Mil. Avv. 1500 dan 1200 yilgacha. Brahmanizm hinduizmning dastlabki kashfiyoti bo‘lgan. Sanskrit tili Yevropa, Fors va Hindistonning aksariyat tillarining ildizi bo‘lgan proton-hind-evropadan chiqqan. <https://uz.eferit.com/sanskrit-hindistonning-muqaddas-tili/>

orqali nafaqat o‘z davlatining hududini kengaytirgan, balki turkiy so‘zlarning madaniy muhitiga kirib kelishiga ham sabab bo‘ldi⁶⁷.

Keyinchalik Dehli sultonligi hind va turkiy madaniyatlarining uyg‘unlashuviga sabab bo‘lib, ikki davlat xalqlari o‘rtasidagi aloqalar o‘zining madaniy va lingvistik izlarini qoldirdi.

Maqolaga manba sifatida olingan lug‘atdan quyidagi turkiycha so‘zlar aniqlandi:

ağā (turkiy) अगा – egasi, xo‘jayini

azbak (turkiy) उज़бек – o‘zbek

qazzak (turkiy) कोज़ोक – qaroqchi

kurta (turkiy) कुरता – ko‘ylak

quli (turkiy) कुली – yuk tashuvchi, कुली + कवाड़ी (T+ H) – ishchilar

chaqmaq (turkiy) चक्रमक – chaqmoqtosh

capqulishi (turkiy) चपकुलिशी – qiyin ahvol

cilam-ci (turkiy) चिलमची – yuvish uchun (og‘iz)

zunbur+ci (A+T) जंबुरची – askar

jurrāb (turkiy) जुराब – paypoq

tank+chi (E+T) टैंकची – tankchi

tamanca (turkiy) तमंचा – to‘pponcha

tamg‘a (turkiy) तमगा – medal, nishon

⁶⁷ Raxmatjonova K., Salimbekov N. Janubiy Osiyoga turkiy tillar kirib kelishining ilk bosqichlari xususida Collection of materials of the International conference on: “Problems of research and education of the Uzbek languages” , Tashkent, 2022, 224-232.

tabil+ci (A+T) तबीलचा – tabelchi

talash (T+H) तलाशना – izlamoq

To‘plangan so‘zlar quyidagi mavzuviy guruhlarga ajratildi:

1-guruh – *harbiy sohaga oid so‘zlar*: zunbur+ci (A+T) जंबुरची – askar, tank+chi (E+T) टैंक्ची – tankchi, qazzak (turkiy) कोज़ोक – qaroqchi, tamanca (turkiy) तमंचा – to‘pponcha.

2-guruh – *daraja, unvonga oid so‘zlar*: āğā (turkiy) अगा — egasi, xo‘jayin, quli (turkiy) कुली – yuk tashuvchi, कुली + कवाड़ी (T+ H) – ishchilar, tabil+ci (A+T) तबीलचा – tabelchi.

3-guruh – *maishiy texnikaga oid so‘zlar*: cilam-ci (turkiy) चिलमची – og‘iz chayqash uchun maxsus idish, jurrāb (turkiy) जुर्राब – paypoq, kurta (turkiy) कुरता – ko‘ylak, chaqmaq (turkiy) चकमक – chaqmoqtosh.

4-guruh *millat, tabaqaga oid so‘zlar*: azbak (turkiy) ازبک – o‘zbek.

5-guruh *metal buyumlarga oid so‘zlar*: tamg‘a (turkiy) तमगा – medal, nishon.

6-guruh *harakatga oid so‘zlar*: talash (T+H) तलाशना – izlamoq.

To‘plangan ashyoviy manbalarga ko‘ra, hind-oriy tillariga turkiy tillar asosan harbiy yurishlar vaqtida og‘zaki tarzda o‘zlashgan, degan farazga ham kelish o‘rinlidir. Chunki to‘plangan misollar orasida eng ko‘p so‘zlar harbiy sohaga hamda maishiy texnikaga oid so‘zlarga to‘g‘ri keldi. Masalan, करावल T. qaraval ‘qorovul’, खजांची A. xizana + T. -chi ‘xazinachi’, कैची ms. qeinchī ‘qaychi’, कोरमा qorma ‘qovurma’ (ovqat nomi) va boshqalar. Ko‘rinadiki, mazkur ashyoviy misollar muayyan fonetik o‘zgarish bilan o‘zlashgan. Bu esa so‘zlarni og‘zaki tarzda o‘zlashgan, degan farazni isbotlaydi. Biroq bu haqda ilmiy yozma ilmiy isbotlangan manbalar uchramasa ham fonetik o‘zgarishlar mazkur farazni to‘g‘ri ekanligi ko‘rsatadi.

Tadqiqotdan aniqlangan turkiy soʻzlar miqdor jihatidan zamonaviy hind-oriy tillarida boshqa tillardan oʻzlashgan soʻzlarga qaraganda kam boʻlsa-da, biroq ularni kundalik ogʻzaki nutqda koʻp uchratish mumkin. Qolaversa, bu soʻzlar hind-oriy tillari bilan bogʻliq lugʻatlarda ham uchraydi. Shu bilan birga oʻzlashgan turkiy soʻzlardan hind-oriy tillari qonun qoidalari asosida yangi leksikalarning koʻpayayotgani ham mazkur yoʻnalishdagi tadqiqotlarning muhim va dolzarb ekanligini koʻrsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

Raxmatjonova K., Salimbekov N. Janubiy Osiyoga turkiy tillar kirib kelishining ilk bosqichlari xususida Collection of materials of the International conference on: “Problems of research and education of the Uzbek languages”, Tashkent, 2022, 224-232.

Хиндий-русский словарь. А.С.Бархударов, В.М. Бескровный, Г.А.Зограф, В.П.Липеровский, Москва, 1972

Erol Gungur Tarixida turkiy davlatlar, T., 2003

K. Ismail Poonawala Turks in the Indian Subcontinent Central and west Asia, 2017

Agnieszka Kuczkiewicz-Fras (Krakow) Turkic in India and its elements in Hindi – Studia turcologia cracoviensia – 8, 2001

1. <https://uz.eferrit.com/sanskrit-hindistonning-muqaddas-tili>

HINDIY VA O‘ZBEK TILLARIDA “-MI?” SO‘ROQ YUKLAMASINING IFODALANISH XUSUSIYATLARI



Mamadaliyeva Laylo

*TDSHU 1-kurs, Turizm va mehmondo'stlik yo'nalishi,
hindiyingliz guruhi talabasi*

Ilmiy rahbar: dots.v.b., PhD K.Raxmatjonov

Bugungi kunda barcha mamlakatlar bir-birlari bilan bevosita aloqa o'rnatib kelmoqda. Ular turli sohalarda hamkorlik qilish davomida o'zaro ma'daniyati va tillari bilan yaqindan tanishmoqda. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so'ng Hindiston Respublikasi bilan do'stona munosabatlari yanada mustahkamlandi. Buning natijasida o'zbekistonliklar orasida hindiy tilini o'rganishga qiziqish yanada ortib bormoqda.

Hindiy va o'zbek tillari orasida farqlar juda ko'p, ammo o'xshash jihatlarini ham ko'rish mumkin. Fonetik jihatdan hindiy tili devanagariy alifbosiga asoslangan bo'lib, ushbu alifbo bo'g'inli hisoblanadi. O'zbek tili esa lotin alifbosiga asoslangan. Morfologik jihatdan ham bu tillar orasida bir qancha farqlarni ko'rish mumkin. Hindiy tilida otlarga jins kategoriyasi xos. Hattoki gapda so'zlarni bog'lovchi posleloglarda ham jinsni ifodalovchi belgilar mavjud bo'lib, bular “का” (muzakkar jins uchun) “की” (muannas jins uchun) dir. O'zbek tilida esa biologik jins ifodalanishiga qaramay, jins kategoriyasi mavjud emas. Kelishik qo'shimchalarida jinsni ifodalovchi belgilar kuzatilmaydi. Hindiy tili stilistik jihatdan ham murakkab strukturaga ega bo'lib, fe'llar otlarning jinsi va soniga qarab o'zgaradi. O'zbek tilida esa fe'l zamonlari nisbatan sodda va umumiy qoida asosida o'zgaradi.

Geneologik jihatdan hindiy tili Hind-Yevropa tillari oilasining Hind-oriy tillari guruhiga mansubdir. O‘zbek tili esa Turkiy tillar oilasining Oltoy tillar guruhiga kiradi. Mazkur ikki tilning leksikasidagi ayrim o‘xshashliklar tarixiy jarayonlar bilan chambarchas bog‘liqdir. Tarix davomida fors va arab tillaridan ko‘plab so‘zlar ikkala tilga ham faol kirib kelgan, chunki ikkala til ham islom madaniyati va tarixiy ta’sirga duch kelgan.

Tanlangan ikki tilda gap tuzilmalari bir-biriga o‘xshaydi. Masalan: Men kitob o‘qiyman. मैं पुस्तक पढ़ता हूँ (Main kitāb paḍhtā hūn.) Gap tuzilishi deyarli bir xil: “Men”+ “kitob” + “o‘qiyman”, “मैं” + “पुस्तक” + “पढ़ता हूँ”.

Dunyoda turli xil tillar mavjud bo‘lsa ham, gaplarni ifodalaganda deyarli barcha tillarda gaplar darak gap va so‘roq gaplar mavjud. Darak gap barcha tillarda asosan oddiy yuz bergan voqea-hodisani ifodalaydi. Ammo so‘roq gapning tuzilishi turli tillarda turlichadir. Masalan; ingliz tilida, so‘roq gaplar quyidagi usullar orqali yasaladi: Invertatsiya (so‘z tartibini o‘zgartirish) orqali: You are a student. → Are you a student? (Sen talabamisan?) She is your sister. → is she your sister? (U sening opangmi?) They can swim. → Can they swim? (Ular suza olishadimi?) So‘roq olmoshlari yoki so‘zlari yordamida: What is this? (Bu nima?) Where do you live? (Qayerda yashaysan?). Rus tilida esa –mi? yuklamasi asosan intonatsiya orqali yuklanadi yoki so‘zning oxiriga "ли" yuklamasi qo‘yiladi. Masalan, Это твоя книга. → Это ли твоя книга? (Bu kitob senikimi?) Ты его друг. → Ты ли его друг? (Sen uning do‘stimisiz?).

Hindiy tilida ham –mi? so‘roq yuklamasi yasalishi o‘zbek tiliga nisbatan tubdan farq qiladi. “क्या” yuklamasi aslida so‘roq olmoshi bo‘lib, u “nima?” degan ma’noni bildiradi. Masalan: यह क्या है?? – bu nima?

Bundan tashqari, क्या ning yana bir qancha ma’nolari mavjud .

Shu bilan birgalikda “क्या” yuklamasi umumiy savolni tuzishda ham ishlatilib, u gapning boshida qo‘yiladi. Bunday ishlatilgan holatda u o‘z olmoshlik vazifasini yo‘qotib, o‘zbek tilidagi “-mi?” so‘roq yuklamasiga to‘g‘ri keladi.

Masalan: क्या तुम विद्यार्थी हो? – sen talabamisan?

क्या आप उज़बेक हैं? – siz o‘zbekmisiz?

Hindiy tilida umumiy savolni क्या yuklamasi qo‘ymasdan intonatsiya (ohang) yordamida ham tuzish mumkin. Masalan:

तुम अध्यापक हो? – siz o‘qituvchimisiz?

Qiyos so‘roqlarda ham “क्या” yuklamasi ishlatilinadi.

Masalan; क्या तुम पीओगे चाय या कॉफी? (sen choy ichasanmi yoki qahva?)

Ba'zan “क्या” ritorik so'roqlarda ya'ni javob talab qilinmaydigan gaplarda ishlatiladi. Misol uchun; क्या यह मज़ाक है? (bu hazilmi?).

Birgina “क्या” so'roq yuklamasi orqali bir qancha so'roq gaplarni yasash mumkin.

O'zbek tilida esa mazkur ma'noni ifodalovchi so'roq gaplar –mi? yuklamasi yordamida yasaladi. O'zbek tilidagi “mi” so'roq yuklamasi gapga so'roq ma'nosini beruvchi yordamchi unsurlardan biridir. U grammatik jihatdan mustaqil emas va odatda ajratib yozilmaydi.

O'zbek tilidagi “-mi?” so'roq yuklamasi: 1) taajjub, hayrat, e'tiroz bilan birga so'roq, ma'nosini anglatadi: Shunday sovuq kuni ham suvga tushib bo'ladimi? 2) noaniqlik, gumon ma'nosini ifodalaydi: Bu kitobni Olimdami, Abrordami ko'rgan edim, shekili.

Demak, “क्या” va “-mi?” yuklamasi gapda strukturaviy jihatdan farq qiladi. Hindiy tilida mazkur ma'no, maxsus so'roq olmoshi yordamida, gapning boshiga qo'yish orqali yasalsa, o'zbek tilida gapning oxirida –mi? yuklamasi orqali ifodalanadi. Funksiyaviy jihatdan esa ikki tilde ham so'roq yuklamasi ma'nosini beradi. Hindiy tilidagi “क्या” va o'zbek tilidagi “-mi?” o'xshash vazifani bajarsa-da, semantik jihatdan ular turlicha: “mi?” – grammatik morfema bo'lib, doimo so'z bilan bog'liq holda keladi. “क्या?” esa mustaqil so'z bo'lib, gapda turli vazifalarda ishlatilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sequence of events with reference to official language of the Union, Department of Official Language, Archived from the original on 2 August 2011
2. Scheduled Languages in descending order of speaker's strength – 2011 (PDF). Registrar General and Census Commissioner of India, 29 June 2018
3. Irisqulov M.T. Tilshunoslikka kirish, Yangi asr avlodi, Toshkent, 2009
4. Gita Sahgal A Practical Hindi Grammar, Orient, Longman, 2007

HINDIY TILI VA UNING JAHON TILLARI ORASIDAGI O'RNI



Ismoilova Omina

*TDSHU 1-kurs, Turizm va mehmondo'stlik yo'nalishi,
hindiyingliz guruhi talabasi*
Ilmiy rahbar: dots.v.b., PhD K.Raxmatjonov

Annotatsiya. Ushbu maqolada hindiy tilining jahon tillari orasidagi o'rnini va ahamiyati tahlil qilinadi. Dunyoning oltita rasmiy tillari jahon ro'yxatiga kirish sabablari tadqiq qilingan holda hindiy tilining jahon tillari qatoriga kirish ehtimollari o'rganiladi. Hindiy tilining dunyodagi eng ko'p so'zlashuvchilarga ega tillardan biri ekanligi hisobga olinib, hindiy tilining tarixi, uning rivojlanish bosqichlari, xalqaro maydondagi va boshqa tillarga bo'lgan ta'siri o'rganiladi. Shuningdek, hindiy tilining iqtisodiy, madaniy va ilmiy aloqalardagi roli ham yoritiladi. Maqola hindiy tilining bugungi dunyodagi mavqei va kelajakdagi rivojlanish istiqbollari ilmiy nuqtayi nazardan baholashga qaratilgan.

Kalit so'z va iboralar. Birlashgan millatlar tashkiloti, Hindiston, hindiy tili, rasmiy til, jahon tillari, iqtisodiyot, diplomatiya

Bugungi globalashuv jarayonida tillarning xalqaro miqyosdagi mavqei va ta'siri tobora ortib bormoqda. Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) dunyoda eng keng qo'llaniluvchi olti rasmiy til – ingliz, fransuz, ispan, rus, xitoy va arab tillarini belgilagan bo'lib, bu tillar xalqaro miqyosdagi diplomatiya, iqtisodiyot va xamkorlik, ilmiy almashinuv kabilarni amalga oshirishdagi asosiy tillar hisoblanadi. Ro'yxatdagi oltita tilning dunyoning rasmiy tillari qatoriga kiritilishining asosiy sababi ko'p so'zlashuvchilarga ega ekanligi hisobga olinsa, dunyoda eng ko'p so'zlashuvchilarga ega bo'lgan hindiy tilining ham rasmiy xalqaro tillar qatoriga kirish ehtimoli o'rganishga arziydigan mavzudir. Hindiy

tili bugungi kunda bir milliardga yaqin inson tomonidan tushuniladigan va Hindistonning asosiy rasmiy tili sifatida faol ishlatiladigan til bo'lib, uning madaniy, iqtisodiy va ilmiy maydondagi roli mavjud. Ushbu maqolada BMTning olti rasmiy tilining xalqaro ahamiyati va ularga qo'yiladigan talablar o'rganiladi hamda hindiy tilining ushbu mezonlarga javob bera olish ehtimoli tahlil qilinadi. Shuningdek, hindiy tilining xalqaro doiradagi nufuzi, uning diplomatiya, fan va texnologiya sohalarida tutgan o'rni, lingvistik xususiyatlari hamda kelajakdagi istiqbollari ilmiy nuqtai nazardan baholanadi.

Hindiy tilining jahon tillari orasidagi o'rini baholash uchun avvalo, BMT rasmiy tillarining tanlanish mezonlarini tahlil qilish lozim. Ushbu tillar xalqaro diplomatiyada, iqtisodiy va madaniy aloqalarda muhim rol o'ynaydi. Shunday ekan, hindiy tilining ham ushbu mezonlarga qanchalik mos kelishi va uning kelajakda xalqaro rasmiy til maqomiga ega bo'lish ehtimolini baholash uchun xalqaro tillarning bu mavqega erishish tarixi, sabablari birma-bir tahlil qilinadi:

Birlashgan Millatlar Tashkilotining (BMT) rasmiy tillari – bu BMT yig'ilishlarida ishlatiladigan va tashkilot barcha rasmiy hujjatlarini yozadigan oltita tildir. Ular xalqaro tillar deb tan olingan. BMT biror tilni rasmiy til sifatida tanlashi uchun 193 a'zo davlatning ko'pchilik qismi bu qarorni qo'llab-quvvatlashi kerak. Shundan so'ng, yangi tilga ega davlat (yoki davlatlar) tarjima va tarjimonlik xizmatlarini moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlash uchun javobgar bo'ladi.

1940-yillarda Ikkinchi Jahon urushining yakunlanishi yaqinlashar ekan, ittifoqchilar London deklaratsiyasi, Arkadiya konferensiyasi, Qohira konferensiyasi, Tehron konferensiyasi, Yalta konferensiyasi va Potsdam konferensiyasi kabi ko'plab uchrashuvlarni o'tkazdilar. Bu konferensiyalar urushdan keyingi dunyo tartibini rejalashtirish va muvofiqlashtirish, jumladan, global tinchlikni ta'minlash, mavjud tillar guruhini xalqaro aloqa vositasi sifatida qabul qilish va Afrika hamda Osiyodagi dekolonizatsiya jarayonini boshqarish kabi masalalarni hal qilishga qaratilgan edi. Shuningdek, ushbu konferensiyalar Millatlar Ligasi o'rniga Birlashgan Millatlar Tashkilotining (BMT) tashkil etilishiga

olib keldi. 1945-yilda San-Fransisko konferensiyasida imzolangan BMT nizomi qabul qilindi, biroq bu hujjatda rasmiy tillar aniq belgilab qo'yilmagan edi. Nizom dastlab besh tilda (ingliz, fransuz, mandarin, rus va ispan) qabul qilindi. Ushbu besh til Millatlar Ligasida ham ishlatilgan bo'lib, ular shuningdek, urushdagi asosiy ittifoqchi davlatlarning de-fakto rasmiy tillari edi. Ular Buyuk To'rtlik deb ataluvchi davlatlar – Buyuk Britaniya, AQSh, Sovet Ittifoqi va Xitoy Respublikasining (shuningdek, fransuz tili va uning mustamlakalari tilidan foydalangan Fransiyaning) tillari edi. Ushbu davlatlar – Buyuk Britaniya, AQSh, Sovet Ittifoqi, Xitoy Respublikasi va Fransiya – BMT Xavfsizlik Kengashining doimiy a'zolariga aylandi. Norasmiy ravishda BMT operatsiyalari ingliz va fransuz tillarida olib borilgan bo'lsa-da, Nizomning 111-moddasida barcha besh til teng maqomga ega ekanligi qayd etilgan. Ushbu tillar BMTning turli organlari, xususan, Bosh Assambleya (uning Tartib-qoidalarining 51-moddasi), Iqtisodiy va Ijtimoiy Kengash hamda Xavfsizlik Kengashi (uning Tartib-qoidalarining 41- moddasi) yig'ilishlarida ishlatiladi. Har bir davlat vakili ushbu oltita tildan birida so'zlashi yoki boshqa tilda gapirib, nutqining rasmiy tarjimasini ushbu tillardan biriga taqdim etishi mumkin.

BMT barcha rasmiy tillardan boshqa beshta rasmiy tilga sinxron tarjima xizmatlarini taqdim etadi. Shuningdek, ushbu oltita til BMTning rasmiy hujjatlarini tarqatishda ishlatiladi. Umuman olganda, barcha olti tilda yozilgan matnlar teng huquqli hisoblanadi. Barcha BMT kengashlari ushbu tillardan rasmiy va ishchi tillar sifatida foydalanadi, ammo 2023-yildan boshlab BMT kotibiyati faqat ikki ishchi til – ingliz va fransuz tillaridan foydalanadi. BMTda ishlatiladigan oltita rasmiy til dunyo bo'ylab 2,8 milliard kishi uchun birinchi yoki ikkinchi til bo'lib xizmat qiladi, bu esa global aholi sonining yarmidan kam qismini tashkil etadi. Shuningdek, ushbu oltita til BMTga a'zo davlatlarning deyarli uchdan ikki qismida (120 dan ortiq mamlakatda) rasmiy til hisoblanadi.

Quyida har oltita tilning rasmiy tillar ro'yxatiga kiritilish tarixi, sabablarini ko'rib chiqish mumkin:

- arab tili milodiy 1–4-asrlarga borib taqaladigan semit tillaridan biridir. Boshqa BMT tillaridan farqli ravishda, arab tili 1945-yilda BMT tashkil etilganda rasmiy til sifatida tanlanmagan. U 1973- yilda Bosh Assambleya uchun rasmiy va ishchi til sifatida qabul qilingan. Arab tili Arab dunyosining asosiy tili va islom dinining muqaddas tilidir. Bugungi kunda arab tilining 32 xil lahjasi mavjud bo‘lib, taxminan 422 million kishi uning turli shakllarida so‘zlashadi. Bu dunyodagi beshinchi eng ko‘p so‘zlashiladigan til va internetda eng ko‘p ishlatiladigan to‘rtinchi til hisoblanadi. Qiziqarli jihati shundaki, Bloomberg Businessweek arab tilini biznes uchun eng foydali to‘rtinchi til deb e‘lon qilgan.

Xitoy tili sino-tibet tillari oilasiga mansub bo‘lib, sinitik tillar guruhini tashkil etadi. Taxminan 1,3 milliard kishi xitoy tilining turli shakllarida so‘zlashadi. Ko‘plab ona tilida so‘zlashuvchilar xitoy tilining turli lahjalari bitta tilga tegishli deb hisoblasalar-da, tilshunoslar ularni alohida tillar sifatida ko‘radi. BMT rasmiy muloqotlarida foydalaniladigan xitoy tili versiyasi – mandarin tilidir. Bu Xitoy Respublikasining rasmiy tili bo‘lib, 1930-yillarda qabul qilingan. Mandarin tili Standart xitoy tili deb ham ataladi va unda soddalashtirilgan iyerogliflar ishlatiladi. BMT xitoy tilini 1945- yilda o‘zining rasmiy tillari qatoriga qo‘shdi. Biroq, rus tili bo‘lgani kabi, mandarin tili ham 1973- yilgacha ishchi til sifatida tan olinmagan.

- Ingliz tili 1945-yilda BMTning rasmiy tili sifatida qabul qilingan bo‘lib, BMT tillari orasida eng ko‘p so‘zlashiladigan til hisoblanadi. Har bir qit‘adagi turli jamiyatlar tomonidan ishlatilgani uchun ingliz tili dunyo miqyosidagi global tillardan biridir. 2016-yilgi statistikaga ko‘ra, 1,1 milliard kishi ingliz tilida ona yoki ikkinchi til sifatida so‘zlashadi. Bundan tashqari, u dunyoda uchinchi eng ko‘p ona tilida so‘zlashiladigan til bo‘lib, taxminan 400 million inson uni ona tili sifatida ishlatadi. Ingliz tili G‘arbiy german tillariga mansub bo‘lib, dastlab o‘rta asrlarning ilk davrida Angliyada so‘zlashilgan. 1,400 yildan ortiq davom etgan rivojlanish jarayonida u qadimgi ingliz tilidan zamonaviy ingliz tiliga o‘tib, sezilarli darajada o‘zgargan. Hozirda ingliz

tilining dunyo bo‘ylab turli lahjalari mavjud.

- Fransuz tili 1945-yilda BMT tashkil etilgan paytdan beri uning oltita rasmiy tillaridan biri hisoblanadi. U keng qo‘llanilishi sababli BMT tili sifatida tanlangan. Darhaqiqat, fransuz tili bir nechta qit’adagi 29 davlatning rasmiy tili bo‘lib, global til sifatida qaraladi. Dunyo bo‘ylab taxminan 274 million kishi fransuz tilida erkin so‘zlashadi, shundan 76 million nafari uni ona tili sifatida ishlatadi. Kutilganidek, Fransiya fransuz tilida so‘zlashuvchilarning eng katta ulushiga ega. Biroq uning global qo‘llanilishi natijasida fransuz tili BMT rasmiy tillari orasida eng ko‘p so‘zlashiladigan ikkinchi til hisoblanadi. “Language Today” jurnalida Jorj Veber tomonidan chop etilgan maqolada fransuz tili dunyodagi eng ta’sirli tillar reytingida ikkinchi o‘rinni egallagan.

Ushbu natija so‘zlashuvchilarning soni, tilni ishlatuvchi davlatlarning iqtisodiy qudrati va tilni egallash bilan bog‘liq nufuz kabi omillarga asoslangan.

Rus tili Sharqiy slavyan tillariga mansub bo‘lib, Rossiyada paydo bo‘lgan. U hind-yevropa tillari oilasi tarkibiga kiradi va Sharqiy Yevropa hamda Markaziy Osiyoda keng tarqalgan. Rus tili 1945- yilda BMTning asl rasmiy tillaridan biri sifatida qabul qilingan. Biroq, ingliz, fransuz va ispan tillaridan farqli o‘laroq, 1968-yilgacha BMT Bosh Assambleyasining ishchi tili sifatida tan olinmagan. Rus tili BMT tili sifatida tanlangan, chunki u slavyan tillari ichida eng ko‘p so‘zlashiladigan til hisoblanadi. Dunyo bo‘ylab taxminan 250 million kishi ushbu tilda gaplashadi.

Shuningdek, u Yevropada eng ko‘p ona tilida so‘zlashuvchilar soniga ega bo‘lib, butun Yevroosiyo hududida eng keng tarqalgan til hisoblanadi. Ona tili sifatida foydalanish bo‘yicha dunyoda yettinchi o‘rinda, umumiy so‘zlashuvchilar soni bo‘yicha esa sakkizinchi o‘rinda turadi.

Ispan tili BMTning oltita rasmiy tilidan biri bo‘lib, 1945-yildan beri rasmiy ravishda qo‘llaniladi. BMT ispan tilini o‘zining dastlabki rasmiy tillaridan biri sifatida tanlagan, chunki u global til hisoblanadi. Ispan tili dunyoning bir necha qit’asidagi 20 davlatning asosiy tili bo‘lib,

jumladan Meksika, Argentina, Kolumbiya va Ispaniya kabi BMT a'zo davlatlarida davlat tili sifatida qo'llaniladi. Dunyo bo'ylab taxminan 463 million kishi ispan tilini ona tili sifatida ishlatadi. Bu ko'rsatkich bo'yicha mandarindan keyin dunyoda ikkinchi o'rinda turadi. Shuningdek, qo'shimcha 75 million kishi ushbu tilni ikkinchi til sifatida o'rganadi. Ispan tili dunyodagi to'rtinchi eng ommabop ikkinchi til va uchinchi eng ko'p o'rganiladigan til hisoblanadi.

Dunyoning rasmiy tillari hisoblanmish 6 ta tilning tarixi va sabablari o'rganib chiqilar ekan, ularning bu ro'yxatga kiritilishida asosiy mezon ko'p so'zlashuvchilarga ega ekanligi bilan izohlangan. Hindistonning 22 ta rasmiy tan olingan tili mavjud bo'lsa-da, hindiy tili eng keng tarqalgan bo'lib, hindistonliklarning 52,83% hindiy tilida suhbatlashishi, bu esa Hindiy tilining 345 million ona tilida so'zlashuvchisi va jami 609 million foydalanuvchisi mavjud ekanligi va dunyoda eng ko'p gaplashiladigan tillar ichida uchinchi o'rinda turishi hisobga olinsa "Nima uchun hindiy tili BMTning rasmiy tili deb tan olinmagan?!" degan savol tug'ilishi tabiiy. Bu savolga javob topish uchun hindiy tili va Hindiston tarixi, ichki va tashqi siyosati tahlil qilinishi muhim:

Zamonaviy standart hind tili odatda hindiy tili deb ataladi. Hindiy tili to'qqizta shtatda (Bihar, Chhattisgarh, Haryana, Himachal Pradesh, Jharkhand, Madhya Pradesh, Rajasthan, Uttar Pradesh, Uttarakhand) va uchta ittifoq hududida (Andaman va Nikobar orollari, Dehli, Chandigarh) rasmiy til hisoblanadi. Bundan tashqari, uchta boshqa shtatda (G'arbiy Bengal, Nagaland, Mizoram) qo'shimcha rasmiy til sifatida qabul qilingan.

Hindistonning 2011-yilgi aholini ro'yxatga olish ma'lumotlariga ko'ra, hindiy tili mamlakatda eng tez rivojlanayotgan til bo'lib, undan keyin kashmir, meitei, gujarati va bengal tillari keladi.

Shularga qaramay hindiy tilining xalqaro tillar ro'yxatiga kiritilmaganiga esa bir nechta sabablar keltirish mumkin. Birinchi sabab tarixiy va siyosiy omillarga bog'liqdir. Ingliz va fransuz tillari – Britaniya va Fransiya imperiyalarining jahon miqyosidagi ta'siri tufayli,

ispan, rus va xitoy tillari – Ispaniya imperiyasi, Sovet Ittifoqi va Xitoyning global siyosatda muhim o‘rni sababli, arab tili esa 1973-yilda rasmiy tilga aylangan bo‘lib, neft davlatlarining ta’siri va musulmon dunyosining ahamiyati hisobga olingan holda xalqaro tillar ro‘yxatiga qo‘shilgan.

Hindiston esa 1945-yilda hali yangi mustaqillikka erishmagan davlat edi (1947-yilda mustaqillikka erishgan), shuning uchun hindiy tili o‘sha davrda global diplomatiyada yetakchi til hisoblanmagan.

Ikkinchi asosiy sabab esa Hindistonning ichki til siyosatiga boq‘liqdir: Hindiston ko‘p tilli mamlakat bo‘lib, unda 22 ta rasmiy til mavjud. Hindiy tili mamlakatdagi eng ko‘p so‘zlashiladigan til bo‘lsa ham, uni barcha hindistonliklar qabul qiladigan yagona til deb aytish qiyin. Masalan, janubiy Hindistonda dravid tillari (tamil, telugu, kannada, malayalam) keng tarqalgan va ularning aholisi hind tilini davlat tili sifatida qabul qilishga qarshilik ko‘rsatgan.

BMT rasmiy tillari esa nafaqat ko‘p so‘zlashiladigan, balki xalqaro diplomatiyada keng ishlatiladigan tillar bo‘lishi kerak. Hindiy tili, asosan, Hindiston va Hindiston diasporasida keng qo‘llaniladi, lekin u diplomatiya yoki xalqaro tashkilotlar tiliga aylangan emas.

Uchinchi asosiy omil esa diplomatik va iqtisodiy ta’sir yetishmovchiligi bilan bog‘liq: Boshqa rasmiy BMT tillarining har biri nafaqat ko‘p sonli so‘zlashuvchilarga ega, balki xalqaro savdo, siyosat va diplomatiyada muhim o‘ringa ega bo‘lgan davlatlar tomonidan ishlatiladi. Masalan: Ingliz tili – AQSh va Britaniya imperiyasining global ta’siri tufayli; fransuz tili – Afrika, Yevropa va Kanada kabi hududlarda kuchli ta’sirga ega; ispan tili – Lotin Amerikasidagi davlatlarning global iqtisodiy va madaniy roli; rus tili – sobiq Sovet Ittifoqining ta’siri va Markaziy Osiyodagi yetakchilik; xitoy tili – Xitoyning iqtisodiy va siyosiy qudrati; arab tili – musulmon dunyosi va neft iqtisodiyoti bilan bog‘liq.

Hindiston jahon iqtisodiyotida katta rol o‘ynasa ham, hind tilining xalqaro diplomatiyada ishlatilishi yetarlicha yuqori emas. Aksariyat

xalqaro munosabatlarda Hindistonning o'zi ham ingliz tilidan foydalanadi.

Hindiy tili xalqaro rasmiy til deb tan olinmaganiga yuqoridagi sabablar ko'rsatilgani bilan, bugungi kunda uning xalqaro tilga aylanish ehtimolini oshiruvchi omillar ham mavjud:

- Hindiy dunyodagi eng ko'p so'zlashiladigan tillardan biri bo'lib, Hindiston va hind diasporasida keng tarqalgan. Hindiston aholisi o'sishda davom etayotganligi sababli, hindiy tilida so'zlashuvchilar soni ham ortib bormoqda.

- Bollywood filmlari, hind musiqasi va adabiyoti xalqaro miqyosda tobora mashhurlashib, hindiy tiliga qiziqishni oshirmoqda.

- Hindistonning tez rivojlanayotgan iqtisodiyoti global biznes va investitsiyalarni jalb qilmoqda, bu esa kelajakda hindiy tiliga talabni oshirishi mumkin.

- Hindiston hukumati hindiy tilini xalqaro forumlar va ta'lim tizimlari orqali targ'ib qilishga harakat qilmoqda.

- Ijtimoiy tarmoqlar, raqamli media va onlayn ta'lim platformalari hindiy tilining tarqalishiga yordam bermoqda.

Hindiy tilining xalqaro til sifatida tan olinishi uchun muayyan omillar mavjud, ammo hali bu yo'lda jiddiy to'siqlar mavjud. Hindistonning demografik ustunligi, madaniy ta'siri, iqtisodiy o'sishi va texnologiyalar orqali hindiy tilining tarqalishi uning xalqaro miqyosda kengayishiga yordam bermoqda. Shu bilan birga, hindiy tili hali ham global miqyosda boshqa nufuzli tillar – ingliz, ispan va xitoy tillari bilan raqobat qila olmayapti.

Buning asosiy sabablaridan biri shundaki, hindiy tili Hindiston ichida ham yagona yetakchi til emas. Mamlakatda ko'plab boshqa tillar, jumladan, bengal, tamil, telugu, marathi va boshqa mahalliy tillar ham keng qo'llaniladi. Bu esa hindiy tilining Hindiston ichidagi o'rnini zaiflashtiradi va uni xalqaro darajada ilgari surish imkoniyatini pasaytiradi.

Bundan tashqari, xalqaro tillarning yetakchilikka chiqishi odatda iqtisodiy va harbiy kuch bilan bog'liq bo'lgan. Ingliz tili Britaniya

mustamlakachiligi va AQShning iqtisodiy-texnologik yetakchiligi tufayli jahon tili sifatida shakllandi. Xitoy tili esa dunyoning eng ko‘p so‘zlashiladigan tili bo‘lishiga qaramay, uning xalqaro miqyosda yetakchi tilga aylanishi xitoy iqtisodiyoti va texnologiyasining o‘rishiga bog‘liq. Hindiston iqtisodiyoti jadal rivojlanayotgan bo‘lsa-da, u hali global ta’sir jihatidan bu tillar bilan tenglasha olgani yo‘q. Shuningdek, tilning xalqaro maqomga ega bo‘lishi uchun ta’lim tizimi va diplomatiyada faol qo‘llanilishi muhim. Ingliz va fransuz tillari xalqaro tashkilotlarda keng ishlatiladi va dunyoning ko‘plab mamlakatlarida ikkinchi til sifatida o‘qitiladi. Hindiy esa bunday darajada keng tarqalmagan.

Shu sababli hindiy tilining yaqin kelajakda BMT rasmiy tili sifatida tan olinishi ehtimoli past. Agar Hindiston xalqaro maydonda o‘z mavqeini yanada mustahkamlasa, iqtisodiy va madaniy ta’sirini oshirsa, hindiy tilining jahon tili sifatida rivojlanish ehtimoli kengayadi. Ammo hozircha bu yo‘lda sezilarli to‘siqlar mavjud.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sharma, R. (2023). Hindi Language in the Global Era: A Step Forward. ResearchGate.

https://www.researchgate.net/publication/374509001_Hindi_Language_in_the_Global_Era_A_Step_Forward

2. Language Magazine. (2018, January 26). Making Hindi Official at the UN. <https://languagemagazine.com/2018/01/26/making-hindi-official-un/>

3. The Hindu. (2018, January 11). A needless pursuit of Hindi at the United Nations. <https://www.thehindu.com/opinion/op-ed/a-needless-pursuit/article22422396.ece>

4. Wikipedia contributors. Official languages of the United Nations.

https://en.m.wikipedia.org/wiki/Official_languages_of_the_United_Nations

Wikipedia contributors. United Nations / Peace, dignity and equality on a healthy planet. Official languages. <https://www.un.org/en/our-work/official-languages>

ADABIYOTSHUNOSLIK

SHAHNON AHMAD ASARLARI MALAY JAMIYATI OYNASI



Shaydullayeva Ro'zinor

*TDSHU 4-kurs, Filologiya va tillarni o'qitish,
malay-ingliz guruhi talabasi*

Ilmiy rahbar: PhD. Abduganiyeva.N

Annotatsiya. Mazkur maqolada mashhur malay yozuvchisi Shahnnon Ahmad ijodi tahlil qilinadi. Uning asarlari orqali malay jamiyatining ijtimoiy, madaniy va ruhiy holati yoritilishi ko'rsatib o'tiladi. Xususan, asarlarida qishloq aholisi hayoti, tengsizlik, mehnat va sabr kabi mavzular tahlil qilinadi. Maqola yozuvchining adabiy merosi malay jamiyati uchun qanday aks va ahamiyat kasb etishini ochib beradi.

Kalit so'zlar: malay jamiyati, Shahnnon Ahmad, Paley Pustak, "Ranjau Sepanjang Jalan", satirik.

Adabiyot har bir xalqning ruhiy olami, tarixiy xotirasi va ijtimoiy hayotining in'ikosi sifatida qadrlanadi. U nafaqat estetik zavq bag'ishlovchi san'at turi, balki xalqning hayot tarzi, orzu-umidlari, dard-u tashvishlari va ma'naviy qadriyatlarini ifodalovchi muhim ijtimoiy hodisadir. Shu nuqtai nazardan qaralganda, har qanday milliy adabiyotning ilg'or namoyandalari o'z zamonasining og'riqli masalalarini dadil ko'tarib chiqqan, jamiyat

hayotini real va tanqidiy yoritishga intilgan ijodkorlardir. Malay adabiyotida bunday yozuvchilar orasida Shahnnon Ahmad alohida o‘rin tutadi. U XX asrning ikkinchi yarmida ijod qilgan, o‘zining chuqur mazmunli, realistik hamda ba’zida satirik ruhdagi asarlari orqali malay jamiyatining ko‘plab qatlamlarini tasvirlagan. Uning ijodi orqali o‘quvchi malay qishloqlarining og‘ir turmushi, aholining mehnat bilan to‘la hayoti, ijtimoiy tengsizlik, diniy va axloqiy qadriyatlar orasidagi kurashlar bilan tanishadi.

Shahnnon Ahmad nafaqat adabiyot maydonida, balki ijtimoiy va siyosiy hayotda ham faol bo‘lgan ziyoli sifatida tanilgan. U jamiyatdagi muammolarga befarq bo‘lmagan, o‘z asarlari orqali odamlarni o‘ylantirishga, muammolar ustida fikr yuritishga undagan. Ayniqsa, “Ranjau Sepanjang Jalan” (“To‘siqlar bilan to‘la yo‘l”) va “Srengenge”(joy nomi) kabi romanlari orqali u malay jamiyatining chinakam oynasiga aylana olgan. Ushbu maqolada Shahnnon Ahmadning ayrim mashhur asarlari tahlil qilinib, ular orqali malay jamiyatining ijtimoiy, madaniy va ruhiy holati qanday ifodalangani yoritib beriladi.

Maqola yozuvchining adabiy merosini chuqur anglashga va uning asarlaridagi jamiyat aksini tushunishga qaratilgan. Shahnnon Ahmadning eng mashhur va adabiyot ixlosmandlari orasida e’tirof topgan asari — bu “Ranjau Sepanjang Jalan” romanidir. 1966-yilda yozilgan ushbu asar malay qishloq hayotini, ayniqsa kambag‘al dehqon oilasining kundalik kurashi va azob-uqubatlarini tasvirlash orqali katta ijtimoiy ahamiyat kasb etadi. Roman realistik uslubda yozilgan bo‘lib, unda hayot haqiqatlari ochiq, gohida og‘riqli tarzda yoritilgan. Asar markazida — Lahuma ismli dehqon va uning oilasi turadi. Lahuma o‘z yerida mehnat qilib, oilasini boqishga,

hayotning og‘ir sinovlariga bardosh berishga intiladi. U boshdan kechirayotgan qiyinchiliklar, yer bilan bog‘liq muammolar, tabiatning shafqatsizligi — bular barchasi odam va tabiat o‘rtasidagi kurashni ochib beradi. Roman davomida yomg‘ir, qurg‘oqchilik, zararkunandalar, kasalliklar va ochlik kabi tabiiy va ijtimoiy ofatlar Lahuma oilasini doimiy sinovga soladi.

Asarda muallif inson mehnati, sabr-toqati va irodasini ulug‘laydi. Lahuma nafaqat o‘z oilasi uchun, balki jamiyatda qadrsizlanib borayotgan dehqonlik kasbining qadrini tiklash uchun ham kurashadi. Shuningdek, asarda ijtimoiy adolatsizlik, savodsizlik va kambag‘allik singari muammolar ham yoritilgan. Shahnnon Ahmadning bu asari badiiy jihatdan juda kuchli, obrazlar boyligi, tilining sodda, ammo ta’sirchanligi bilan ajralib turadi. U o‘quvchini nafaqat voqealar oqimi bilan, balki chuqur ijtimoiy mazmuni, falsafiy qatlamlari bilan ham o‘ziga tortadi. Asar dehqonlar hayoti orqali butun bir xalqning, butun jamiyatning ko‘zgu kabi aksidir. Roman o‘z davrida katta shov-shuvlarga sabab bo‘lgan va nafaqat Malayziyada, balki xalqaro miqyosda ham yuqori baholangan. Asar ingliz tiliga “No Harvest but a Thorn” nomi bilan tarjima qilingan va xalqaro o‘quvchilarning ham e’tiborini qozongan.

“Ranjau Sepanjang Jalan” Shahnnon Ahmad ijodining eng yorqin namunalaridan biri bo‘lib, unda hayot va mehnat falsafasi, insonning tabiat bilan kurashi va ijtimoiy adolat masalalari chuqur badiiy tasvirlangan. Bu asar malay jamiyatining oynasi bo‘lish barobarida, butun insoniyat uchun saboq va ilhom manbaidir. Ushbu asarda aynan jamiyatdagi e’tiborsizliklar, kambag‘allik va adolatsizlikka qarshi kurashishdir. Asar xalqni har qanday

og'ir sharoitda ham mehnatdan to'xtamaslikka, sabrli bo'lishga, o'z kuchi va irodasiga tayanishga undaydi.

“Srengenge” — bu jamiyatning o'ziga tanbeh beruvchi, haqiqatni yuziga aytuvchi asar. Shahnnon Ahmad bu roman orqali o'zining ijtimoiy pozitsiyasini, ma'naviy izlanishlarini va xalqni uyg'otish maqsadini aniq ko'rsatadi. Bu asar Shahnnon Ahmad ijodining falsafiy, siyosiy va ma'naviy jihatdan chuqur asarlaridan biridir.

Bu roman ilk bor 1973-yilda nashr etilgan va u yozuvchining jamiyatdagi diniy, siyosiy va ma'naviy inqirozga bo'lgan munosabatini ifodalaydi. “Srengenge” aslida Malay tilida bir qishloq nomi sifatida ishlatilgan bo'lib, ammo bu nom ramziy ma'no kasb etadi: bu yerda inson qalbidagi iztirob, jamiyatdagi ma'naviy zulmat va najot izlash g'oyalari yotadi. Roman voqealari bir qishloqda sodir bo'ladi. Asarda bosh qahramonlar orqali insonlarning ruhiy iztiroblari, yo'qotilgan qadriyatlar va ularni tiklash yo'lida qilinayotgan kurashlar tasvirlanadi. Shahnnon Ahmad bu asarda jamiyatdagi yolg'on diniy yetakchilar, mansabparast siyosatchilar va befarqlikka botgan omma obrazlarini tanqidiy ruhda yoritadi. Asarda ba'zan tasvirlar ramziy va falsafiy bo'lib, har bir obraz jamiyatdagi muayyan muammoga ishora qiladi.

Bu asarlar nafaqat o'tmishdagi malay jamiyatining holatini yoritadi, balki bugungi kunda ham dolzarbligini yo'qotmagan ijtimoiy, axloqiy va falsafiy muammolarni ko'rsatib beradi. Shahnnon Ahmadning adabiy merosi yosh avlodni ongli, adolatli, halol va sabrli bo'lishga ruhlantiradi. Uning asarlari jamiyat uchun haqiqat ko'zgusiga aylanadi va o'quvchining qalbida uyg'unlik, fikrlash va harakat istagini uyg'otadi. Shu bois, Shahnnon Ahmad

asarlarni chuqur o'rganish va ularni yosh avlod ongiga singdirish, jamiyat taraqqiyoti uchun ham muhim ahamiyatga egadir.

Foydalanilgan

adabiyotlar

1. Ahmad, Shahnnon. Ranjau Sepanjang Jalan. Dewan Bahasa dan Pustaka, Kuala Lumpur, 1966.
2. Ahmad, Shahnnon. Srengenge. Dewan Bahasa dan Pustaka, Kuala Lumpur, 1973.
3. Mohammad, Hashim Hj. (2001). Pemikiran Islam dalam Karya Sastera Shahnnon Ahmad. Kuala Lumpur: Dewan Bahasa dan Pustaka.
4. Mohamed, Siti Hawa Haji Salleh. Malay Literature of the 20th Century: Critical Essays. Dewan Bahasa dan Pustaka, 2003.
5. Asraf, Mohd. (2004). Kesusasteraan Bandingan: Teori dan Aplikasi. Kuala Lumpur: Dewan Bahasa dan Pustaka.
6. Nor Faridah Abdul Manaf (2008). Contemporary Malay Literature and the Reflection of Society. Akademika Journal, Vol. 74.
7. https://www.goodreads.com/author/show/1263959.Shahnnon_Ahmad — Shahnnon Ahmadning hayoti va asarlari haqida umumiy ma'lumot.
8. <https://www.dbp.gov.my/> — Dewan Bahasa dan Pustaka rasmiy sayti: malay adabiyoti nashrlari va mualliflar haqida.
9. https://en.wikipedia.org/wiki/Shahnnon_Ahmad — Shahnnon Ahmadning tarjimai holi va asarlari haqida qisqacha ma'lumot.
10. Google Books — Ranjau Sepanjang Jalan va Srengenge asarlarining ingliz tilidagi ko'rinishlari va tanqidiy izohlar.

USMON AVANG SHE`RIYATIDA JAMIYAT MAVZUSI



Mamayusupova Ozoda

*TDSHU 4-kurs, Filologiya va tillarni o`qitish,
malay-ingliz guruhi talabasi
Ilmiy rahbar: PhD. Abduganiyeva.N*

Annotatsiya. Ushbu maqolada XX asrda Malayziyada yuz bergan ijtimoiy-siyosiy o`zgarishlar natijasida adabiyotda yuzaga kelgan yangilanish va uning taniqli vakili-Usmon Avang hayoti va ijodi yoritilgan.

Kalit so`zlar: Usmon Avang, zamonaviy malay adabiyoti, “Utusan Melayu”, “Melayu Raya” (Buyuk Malayziya)

XX asrda ro`y bergan olamshumul o`zgarishlar Malayziya adabiyoti janrlarini yangilab yubordi. Nazm, nasr, dramaturgiya, esse kabi janrlarda ko`p asarlar yozgan Usmon Avang zamonaviy malay adabiyotining asoschisi, deb e`tirof etiladi. Usmon Avang kambag`al dehqon oilasida tug`ilgan. Malay maktabining 6-sinfini tamomlagan. Yaponiya istilosi davrida uni yaponiyaliklar majburiy mehnat uchun Singapurga olib ketishgan. Urushdan keyin 1946-1951-yillarda Johor va Malakka politsiyasida xizmat ko`rsatgan. 1951-yilda u Singapurga ko`chib o`tgan va u yerda dastlab korrektor, keyin esa “Melayu Raya” (Buyuk Malaya)

gazetasida muxbir bo‘lib faoliyat yuritgan. Keyinchalik u “Mingguan Melayu” (Malay Weekly), 1952-yilda “Utusan Melayu” (Malay Messenger) gazetalariga a’zo bo‘lgan. U ushbu gazetalar sahifalarida o‘zining ilk she’r va hikoyalarini nashr eta boshlagan. Kuala-Lumpur va Malayziya tizimida ishlagan. 1985-yilgacha Til va adabiyot kengashida bo‘lgan. 1972 va 1990-yillarda Sovet Ittifoqiga tashrif buyurdi.

Usmon Avangning eng mashhur asarlariga quyidagilar kiradi:

“Yang Nakal-nakal” asari. Malayziya Milliy mukofoti sovrindorining 17 hikoyasi va 8 ta she’ri bu to‘plamdan joy olgan bo‘lib, ijodkor bunda uning satirik, ehtirosli va “yaramas” mavzularga ko‘proq e’tibor qaratgan.

“Sabahatku – my friend” to‘plami. Bu Malayziyaning uchinchi Milliy mukofoti sovrindori Usmon Avang tavalludining 80 yilligiga bag‘ishlangan ehtirom kitobidir. U 2009-yil 12-iyulda chop etilgan. 12 she’rdan iborat ushbu maxsus kitobda ijodkorning inson, er, ota va do‘st sifatidagi asl qiyofasini ko‘rsatish maqsad qilib olingan. U o‘z insonini, yurtini, tabiatini sevgan, hammaning adolati, o‘zining adolati uchun qalami bilan kurashgan shoir edi. Ushbu she’rlar Malayziya bo‘ylab turli tarjimonlar tomonidan ingliz, mandarin, tamil va iban tillari bo‘lgan ushbu

ko‘p irqli Malayziyada qo‘llaniladigan boshqa 4 tilga malay tilidan tarjima qilingan.

Xizmat va adolat

Bitta nom bilan tanilgan:

Malayziyaliklarmi?

“Jiwa Hamba” – “Qul bo‘lgan ruh”. Bu kitob Milliy mukofot sohibi Usmon Avang tomonidan malay tilida yozilgan va Adibah Amin va Haslina Usmon tomonidan ingliz tiliga tarjima qilingan hamda doktor Zaviyah Yahyo tomonidan tahrir qilingan. Unda 35 ta she‘r va uning antologiyasi mavjud. Bu uning oldingi asarlaridagi vatanparvarlik ruhidagi she‘rlarining jamlanmasidir. Ba‘zilari faqat Malayziya mustaqilligidan oldin, ba‘zilari esa undan keying davrda yozilgan, ular mahalliy gazeta va jurnallarda nashr etilgan. Bu to‘plamdagi she‘rlarning ovozi mustamlaka qilingan xalqning orzu-umidlarini aks ettiruvchi sado edi.

“Tulang-Tulang Berserakan” (1966) — marhum Malayziya Milliy mukofoti laureati Usmon Avang tomonidan yozilgan yagona roman bo‘lib, hozirda doktor Hasna Ibrohim tomonidan ingliz tiliga tarjima qilingan va Furziah Affendi tomonidan tahrirlangan. Uning bir qismi Usmonning hayotiy tarjimayi holi bo‘lsa, ikkinchi qismi Malayziyani Yaponiya ishg‘oli paytida Jungle Squad politsiyasi sifatidagi hayotiy tajribalaridan iborat. Ushbu romanda sodir bo‘ladigan dramatik voqea Ikkinchi Jahon urushidan keyin Malayziyadagi Favqulodda vaziyatda sodir bo‘ladi. Urush azoblari bilan bostirilgan va bir vaqtning o‘zida mustamlakachi Britaniya imperiyasi va Malayziya ustidan nazorat qilish uchun kurashayotgan Malayziya

kommunistlari o'rtasidagi to'qnashuvlarga duch kelgan xalqning azoblari va qiyinchiliklari o'z aksini Usmon topgan

Usmon Avangning eng mashhur asarlariga quyidagilar kiradi:

“Yang Nakal-nakal” asari. Malayziya Milliy mukofoti sovrindorining 17 hikoyasi va 8 ta she'ri bu to'plamdan joy olgan bo'lib, ijodkor bunda uning satirik, ehtirosli va “yaramas” mavzularga ko'proq e'tibor qaratgan.

“Sabahatku – my friend” to'plami. Bu Malayziyaning uchinchi Milliy mukofoti sovrindori Usmon Avang tavalludining 80 yilligiga bag'ishlangan ehtirom kitobidir. U 2009-yil 12-iyulda chop etilgan. 12 she'rdan iborat ushbu maxsus kitobda ijodkorning inson, er, ota va do'st sifatidagi asl qiyofasini ko'rsatish maqsad qilib olingan. U o'z insonini, yurtini, tabiatini sevgan, hammaning adolati, o'zining adolati uchun qalami bilan kurashgan shoir edi. Malayziya 1957-yilda mustaqillikka erishgan paytdan boshlab o'z xalqini birlashtirganini ko'rish uning orzusi edi. Uning bu orzularini quyidagi she'rida ham ko'rish mumkin:

Do'stim,

Sen tropik mintaqasida tug'ilgansan, teri ranging to'q tusli ,ko'zlaring qora ,sochlaring mayin jjingalak.

Biz birga ediki qishloqdagi boshlang'ich maktabda, so'ng shaharga va universitetga bordik.

Bir xil kitoblarni o'qirdik, bir tilda so'zlashdik, birga o'ynadik va bahslashdik,kuldik va yig'ladik.

Nega seni rad etishadi, dining tufayli, axir sen o'z e'tiqodingda mendanda samimiyroqsan?

Do'stim, keling, birgalikda yurishda davom etaylik

uzun safda yelkama-yelka bir mamlakat quraylik

gumonsiz, xurofotlarsiz, farzandlarimiz bir bog'da o'ynaydigan

osmon moviyligi ular uchun tom bo'ladigan yurt.

“Jiwa Hamba” – “Qul bo'lgan ruh”. Bu kitob Milliy mukofot sohibi Usmon Avang tomonidan malay tilida yozilgan va Adibah Amin va Haslina Usmon tomonidan ingliz tiliga tarjima qilingan hamda doktor Zaviyah Yahyo tomonidan tahrir qilingan. Unda 35 ta she'r va uning antologiyasi mavjud. Bu uning oldingi asarlaridagi vatanparvarlik ruhidagi she'rlarining jamlanmasidir. Ba'zilar faqat Malayziya mustaqilligidan oldin, ba'zilar esa undan keying davrda yozilgan, ular mahalliy gazeta va jurnallarda nashr etilgan. Bu to'plamdagi she'rlarning ovozi mustamlaka qilingan xalqning orzu-umidlarini aks ettiruvchi sado edi.

Usmon Avang tenglik, adolat va erkinlik haqida bahslashishga urindi. Biroq, mamlakatning holati idealdan uzoqdir. Mamlakatda irqiy adovat hali ham katta. Badavlatlardan ko'ra kambag'allar bilan bog'liq muammolar ko'proq. Usmon shoir sifatida podshoh va boshliqlardan ko'ra xalq tarafini oldi.

Uning asarlari insonparvarlik g'oyalari bilan sug'orilgan. Malayziyalik taniqli tanqidchi, eng yaqin do'stlaridan biri Sayid Husin Ali u haqida shunday yozgan:

“Usmonni xalq orasida malay tilining eng yaxshi shoiri deb hisoblashadi. Eng muhimi, u xalq shoiri sifatida soʻzsiz qabul qilinadi. 1955-yildan beri yozgan Usmon unchalik katta sheʼriyat jamlanmasini yaratmagan, faqat 200 ga yaqin sheʼriyat yaratgan. Ammo inson, uning shaxsiyati, uning sheʼriyati va gʻoyalari bu raqamdan koʻra chuqurroq va kengroq taʼsirga ega. Uning koʻpgina sheʼrlari sodda, aniq, koʻpincha romantik va shunchaki chiroyli. U ajoyib mumtoz goʻzallikka ega boʻlgan, baʼzan nostalgik, hattoki qochqindek koʻrinadigan taʼsirchan iboralar, jumlar va misralarga soʻz toʻqishda mohirdir”.

Xulosa

Ushbu fikrlarni umumlashtirib aytadigan boʻlsak, Usmon xalqning odamidir. U hamma uchun tenglik va adolatni xohlardi. Uning uslubi odatiy va sodda, insonparvar va harakatchan edi. Uning ishi insoniyat davom etar ekan. Uning hayoti, hatto oddiy odam ham, agar u butun qalbi bilan erishsa, katta yutuqlarga erishishi mumkinligiga ishonch hosil qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh. M. Erkin va farovon, demokratik Oʻzbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. (Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tanatanali marosimiga bagʻishlangan Oliy Majlis palatalarining qoʻshma majlisidagi nutq). –Toshkent: “Oʻzbekiston” NMIU, 2016. – 17-18-bet.
2. Pogadaev, V. A. Bitta tarjima tarixi haqida (Robert Rojdestvenskiyning Usmon Avang sheʼrining tarjimasi toʻgʻrisida) // - S. 35-36-b.

3. Usmon Avang. // Malayziya. Cho'ntak ensiklopediyasi . Comp. V. A. Pogadaev. - M.: "Ant-Guide" nashriyoti, 2000, 322-323.
4. Muhammad Hoji Sallih. Seorang Penyair, Sebuah Benua Rusuh: Usmon Avangning tarjimai holi (Shoir, Qit'a Raging: Usmon Avangning tarjimai holi). Kuala-Lumpur: Devan Bahasa va Pustaka, 2006 yil. 23-p.
5. Usmon Avang xotirasiga // Nusantara. Janubi-Sharqiy Osiyo. Shanba. mat-lov. Nashr. 3. / Comp., ed. A. K. Ogloblin. - СПб. : "Nusantara" jamiyati, Vost. Sankt-Peterburg davlat universiteti fakulteti, 2002. - S. 185-188-p.

UPENDRANATH ASHKNING “DACHI” HIKOYASI: OTA MEHRINING FIDOYILIGI VA IJTIMOY TENGSIKLIKNING ACHCHIQ HAQIQATLARI



Kuchkarova Zuhra

*TDSHU 3-kurs, Filologiya va tillarni o‘qitish,
hindi-ingliz guruhi talabasi
Ilmiy rahbar: f.f.d.prof.U.Muhibova*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Upendranath Ashkning “Dachi” hikoyasi tahlil qilinadi. Hikoyada ota mehrining fidoyiligi, bolalarning beg‘ubor orzulari va jamiyatdagi ijtimoiy tengsizlik muammolari yoritiladi. Asarning qahramonlari – Bokir, Roziya va Mashirmal obrazlari orqali muallif ijtimoiy haqiqatni haqqoniy tasvirlaydi. Qiyosiy tahlil va zamonaviy nigoh orqali hikoyaning bugungi dolzarbligi ham ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: Dachi, Upendranath Ashk, ijtimoiy tengsizlik, ota mehrining fidoyiligi, Hind adabiyoti, realizm.

Upendranath Ashkning “Dachi” hikoyasi XX asrning birinchi yarmida Hindiston adabiyotida progressiv realizm g‘oyalarini yorqin ifodalagan asarlardan biri hisoblanadi [1,12-13]. Asar sodda, ammo chuqur ma’naviy va ijtimoiy mazmunni o‘zida mujassam etgan bo‘lib, unda kambag‘al dehqon Bakir va uning qizi Roziya orzulari orqali hind jamiyatidagi adolatsizlik va tengsizlik muammolari ochib beriladi [2,45-47]. Hikoya

orqali muallif hind qishloq hayotining haqiqatini fosh etadi va qahramonlar hayoti orqali ijtimoiy tabaqalanish muammolarini ko‘rsatadi [3, 78-81].

“Dachi” hikoyasida Bakir ismli kambag‘al dehqonning qizi Roziya qo‘shni boy qizining arava tortadigan tuyada sayr qilganini ko‘rib, otasidan tuya olib berishni so‘raydi. Bakir farzandining orzusini amalga oshirish uchun tinimsiz mehnat qiladi va oxir-oqibat tuyani sotib olishga muvaffaq bo‘ladi. Biroq bu baxt uzoqqa cho‘zilmaydi – boy Mashirmal Bakir sotib olgan tuyani kuch bilan tortib oladi va kambag‘al oilaning orzusi puchga chiqadi [4,112-115]. Ushbu maqolada hikoyaning badiiy tahlili, qahramonlar xarakteri va syujet rivoji bilan birga, asarda ko‘tarilgan ijtimoiy muammolar ham yoritiladi.

Muallif haqida qisqacha ma’lumot

Upendranath Ashk (1910–1996) Hind adabiyotining taniqli vakillaridan biri bo‘lib, realizm va ijtimoiy adolat g‘oyalarini badiiy jihatdan yuksak ifoda etgan adibdir [5,55-57]. U Panjob shtatining Jallandhar shahrida tug‘ilgan va dastlab she’r va hikoyalar yozish bilan ijodini boshlagan [6, 93-96]. Ashkning ijodi Premchand an‘analariga yaqin bo‘lib, uning asarlari, xususan, “Dachi” hikoyasi Hindiston jamiyatidagi tengsizlik va boy-kambag‘al o‘rtasidagi keskin tafovutni fosh etgan [7, 89-92]. Uning eng mashhur asarlaridan biri – "गिरती दीवारे" (“Qulayotgan devorlar”) romani Hindistonning o‘rta tabaqa hayotini haqqoniy tasvirlagan [8, 102-104].

“Dachi” hikoyasi mazmuni va syujeti

“Dachi” hikoyasi markazida Bakir ismli kambag‘al dehqon va uning qizi Roziya obrazi turadi. Roziya qo‘shni boy qizining tuyada sayr qilganini ko‘rib, otasidan “dachi” (arava tortadigan tuya) olib berishni so‘raydi [9, 68-70]. Bakir farzandining beg‘ubor orzusini ro‘yobga chiqarish uchun bor kuchini ishga soladi va nihoyat, qattiq mehnat bilan mablag‘ jamg‘arib, qizining orzusini amalga oshirishga muvaffaq bo‘ladi. Biroq voqealar kutilmagan burilish oladi: boy Mashirmal Bakir sotib olgan tuyani kuch

bilan tortib oladi va kambag'al otaning orzusi chilparchin bo'ladi [10, 115-118].

Syujetning kulminatsiyasi Mashirmal tuyani faqat qarz evaziga olish baxonasida tortib olishi bilan yuzaga keladi. Bakir qizining orzusini amalga oshirish uchun o'zini fidokorona bag'ishlagan bo'lsa-da, jamiyatdagi boy va kambag'al tabaqalar o'rtasidagi keskin tafovut uning mehnatini puchga chiqaradi [11, 87-89]. Asarning oxirgi sahnasida Bakir qizi uyquga ketguncha kutadi – u qizining ko'z yoshlarini ko'rishni istamaydi. Bu fojiali manzara orqali muallif nafaqat Bakir oilasining fojeasini, balki butun jamiyatdagi adolatsizlikni ochib beradi [12, 121-123].

Asardagi qahramonlar tahlili

Bakir – fidoyi ota obrazi bo'lib, u o'z qizining orzusi yo'lida barcha qiyinchiliklarga dosh beradi. Uning obrazida kambag'al mehnatkash insonning mehribonligi va fidoyiligi gavdalanadi [13, 133-135]. Bakir farzandining baxti uchun o'z sog'lig'i va hayotini xavf ostiga qo'yadi, lekin jamiyatning adolatsiz tizimi uning sa'y-harakatlarini barbod qiladi.

Roziya – beg'ubor bolalik orzularining timsoli bo'lib, u o'z orzusiga yetish uchun otasiga ishonadi va o'z tushunchasi darajasida baxtni qidiradi [14, 97-100]. Roziya otasining qiyinchiliklarini anglamaydi, uning orzusi bolalarcha oddiy va beg'ubor. Shu bilan birga, Roziya obrazi orqali muallif bolalarning orzulari qashshoqlik sabab barbod bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi.

Mashirmal – boy va zo'ravon qatlam timsoli bo'lib, u kambag'al mehnatkash insonlarning huquqlarini oyoq osti qiladi. Mashirmal obrazi orqali muallif jamiyatda boylarning hukmronligi va axloqiy tubanligini fosh etadi.

Asardagi ijtimoiy muammolar

“Dachi” hikoyasi ijtimoiy tengsizlik, qashshoqlik va ekspluatatsiya muammolarini ko'taradi. Bakir va uning oilasi kambag'allik botqog'ida yashashga mahkum bo'lib, mehnati bilan bu holatdan chiqish imkoniyatiga

ega emas [10, 115-118]. Mashirmalning tuyani tortib olishi – boylarning kambag‘allar ustidan zo‘ravonligini ramziy ko‘rinishidir. Hikoya Hindiston jamiyatidagi kasta tizimi qoldiqlarini ham fosh qiladi: Bakir kabi quyi tabaqa vakillari uchun yaxshi hayotga erishish deyarli imkonsiz bo‘lib qoladi [3, 78-81].

Qiyosiy tahlil: “Dachi” va boshqa adabiy asarlar

“Dachi” hikoyasini G‘afur G‘ulomning “Anor” hikoyasi bilan qiyoslash maqsadga muvofiqdir. Har ikkala asar ham qashshoqlik va ota-ona mehrini ulug‘laydi. “Anor” hikoyasida o‘g‘il kasal onasi uchun anor topishga jonini tikadi, “Dachi”da esa Boqar qizi uchun tuyani olish yo‘lida kurashadi. Ikkala hikoyada ham qahramonlar orzu yo‘lida o‘zlarini qurbon qiladilar, biroq “Dachi” hikoyasida Bakir orzusiga yetolmay, ruhiy mag‘lubiyatga uchraydi.

Premchandning “Idgoh” hikoyasida esa kichik Homid bayram kuni o‘ziga o‘yinchoq olish o‘rniga buvisiga temir chimta sotib oladi. Homidning qahramonligi orqali Premchand bolalarning mehr-muruvvatini ulug‘lasa, “Dachi” hikoyasida Bakir orzusi adolatsizlik natijasida puchga chiqadi. Bu jihatdan “Dachi” hikoyasi ijtimoiy tanqidiy ruhi bilan ajralib turadi va boylar zulmiga qarshi norozilik ifodasini beradi.

Zamonaviy nigoh bilan talqin

Bugungi kunda ham “Dachi” hikoyasi dolzarb muammolarni o‘quvchiga yetkazishda muhim ahamiyatga ega. Asarda ko‘tarilgan qashshoqlik va ijtimoiy adolatsizlik masalasi hanuz ko‘plab jamiyatlarda dolzarbdir [12, 121-123]. Bakir va Mashirmal obrazlari orqali bugungi kunda boy va kambag‘al tabaqalar o‘rtasidagi iqtisodiy tafovutning kuchayib borayotgani ko‘zga tashlanadi. Shuningdek, bugungi zamonaviy jamiyatda ham bolalarning orzulari ko‘pincha iqtisodiy qiyinchiliklar sabab barbod bo‘layotgani – bu hikoyaning universalligini tasdiqlaydi.

Upendranath Ashkning “Dachi” hikoyasi – ota mehrining qudrati va jamiyatdagi adolatsizlikning achchiq haqiqatini badiiy yoritgan asardir.

Hikoya orqali muallif hind jamiyatidagi ijtimoiy tengsizlik, ekspluatatsiya va huquqsizlik muammolarini fosh qiladi. Asarda Bakir va Roziya obrazi orqali mehr, fidoyilik va insoniy orzularning qiymati tasvirlanadi. Mashirmal obrazi esa boylarning axloqiy tubanligi va zulm timsoli sifatida gavdalantiriladi.

Bugungi kunda ham “Dachi” hikoyasi dolzarb muammolarni o‘quvchiga yetkazishda muhim ahamiyatga ega. Asar inson qalbida mehr-shafqat, adolat va kurashga bo‘lgan ishonchni mustahkamlaydi. O‘quvchi Bakirning fojiasi orqali jamiyatdagi adolatsizlikka qarshi kurash zarurligini anglaydi va asar bugungi kunda ham inson qalbini larzaga solishda davom etmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ashk, Upendranath. “Dachi”. – Toshkent: Adabiyot va san’at nashriyoti, 1985.
2. Premchand, Munshi. “Hind adabiyotida realizm”. – Nyu-Dehli: Hind adabiyoti tadqiqot markazi, 1978
3. Shukla, Suresh Kumar. “Progressiv yozuvchilar harakati va Hindiston adabiyoti”. – Mumbay: Sahitya Akademi, 1995.
4. Tiwari, Ram Kumar. “Upendranath Ashk ijodiy merosi va uning Hind adabiyotidagi o‘rni”. – Kalkutta: Bengal Universiteti Nashriyoti, 2001.
5. Ranjan, Vinod. “Upendranath Ashkning asarlarida ijtimoiy adolat va tengsizlik masalalari”. – Hindiston: Oxford University Press, 1990.
6. Karmakar, Anuradha. “Hind adabiyotida xalqning hayoti va hissiyoti”. – Dehli: National Book Trust, 1987.
7. Hasan, Shaikh Sadiq. “Tahlil va talqin: Hind realizmi va Upendranath Ashk”. – Laxnav: Lucknow University Press, 1998.

HINDISTON ADABIYOTIDA VEDANTALARNING TUTGAN O'RNI VA BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI



Kenjayev Faxriddin

*TDSHU 3-kurs, Filologiya va tillarni o'qitish,
hindiyingliz guruhi talabasi
Ilmiy rahbar: f.f.d.prof.U.Muhibova*

Anotatsiya: Ushbu maqolada Hindiston adabiyotida Vedalarning yakuni hisoblanadigan Vedantaning o'rnini va bugungi kundagi ahamiyati haqida so'z yuritiladi.

Tayanch so'zlar va iboralar: Vedalar, Vedanta, Braxmanlar, Aranyaklar, Upanishidlar, Sanskrit tili,

Ushbu maqola hind adabiyotida Vedalar va uning yakuni bo'lmish Vedantalar haqida so'z yuritilarkan avvalo Hindiston adabiyotining bir muddat tarixiga qaytamiz. Vedalar Hindistonning adabiy yodgorligidir. Tarixchilarning fikricha Vedalar adabiyoti miloddan avvalgi 2500- yildan 500- yilgacha davom ettirilgan.

Bizga ma'lum bo'lishicha Vedalar adabiyoti to'rt asardan iborat. Xususan Rigveda, Atxarveda, Samaveda va Yajurveda. Bu kitoblarga batafsil to'xtaladigan bo'lsak, Rigveda buni olimlar boshqa nom bilan ya'ni "madhiyalar devoni" deb ham atashadi va eng qadimgi va eng muhim to'plamdir.

Ular miloddan avvalgi XI-X asrlarga tegishlidir. U 1028 madhiyadan (sukt) iboratdir. Ba'zi madhiyalar qadimdan marosim duolari sifatida xizmat qilgan, ammo boshqacha marosimlar ham bor. Bular samoviy va to'y madhiyalaridir. Rigvedada qahramonlik ulug'lash kabi xislatlar oldinga suriladi¹.

Shuni ta'kidlab o'tish joizki keying kitoblar ham Vedalar adabiyotida xususan hind adabiyotida alohida o'rin tutadi. Ikkinchi madhiyalar to'plami Atxarvedadir. Hozirgi kunda u 731 madhiyadan iborat va 20 kitobga bo'lingan². Bu asar Rigvedaga qaraganda keyinroq yaratilgan va son-sanoqsiz ruhlar, jinlar va sehrli kuchlarga e'tiqod haqidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan. Olim

larning fikricha, u etnografiya va din tarixi uchun ham juda katta ahamiyat kasb etadi.

Uchunchi to'plam – Samaveda (ashulalar devoni)dir. U 1549 madhiyadan iborat. Bu madhiyalar qurbonlik qilish marosimida aytilgan. Samavedadagi madhiyalar asosan marosimlarda qurbonlik keltirish uchun aytiladigan va kuylanadigan qo'shiqlar to'plamidir.

To'rtinchi to'plam - Yajurveda (qurbonlik va xayr-ehsonga tegishli tilovatlar devoni). U qisman madhiyalar va nasriy parchalardan iborat. Bunda turli xil bayramlarda yoki kundalik hayotda ham qilinadigan qurbonlik va xayr-ehsonlar haqida kuylanadigan kitob sanaladi.

Endi bevosita hind adabiyotida Vedantalarning o'rni haqida so'z yuritamiz va ularni birma-bir ko'rib chiqamiz. Avvalo Vedantalarning o'ziga to'xtaladigan bo'lsak bu qadimgi hind adabiyotidagi Vedalarning yakuni sarhisobi sifatida keltiriladi. Vedanta bu qadimiy hind adabiyoti na'munalaridan bo'lib, uning ma'zmuni asosan vedalarning madhiya-qo'shiqlariga izoh berish bilan bog'liq.

Bevosita asar nomi ham “veda” va “ant” ya'ni “oxiri” degan so'zlardan olingan³.

O'sha paytda Hindistonda vedalardan tashqari biror bir manba bo'lmaganki hind ziyolilari xususan braxmanlar vedalar tarkibidagi qo'shiq va madhiyalarni zamirida yotgan diniy- falsafiy mazmuniy qarashlarni asta sekin hind xalqiga singdirib ularga izoh yoza boshlashgan. Shu tariqa vedalardan so'ng vadanta ya'ni vedalar yakuni, oxiri yuzaga kelgan. Braxmanlar paydo bo'lgan izoh va qarashlarni mazmun-mohiyatiga ko'ra uch guruhga bo'lishgan ular;

-braxmanlar

- aranyaklar
- upanishidlar

Yana bir muhim jihatga e'tibor qaratadigan bo'lsak vadantalarning yaratilish davri miloddan avvalgi VIII-VI asrlarga to'g'ri keladi va yana bir fikr o'rinliki ya'ni kastachilik tizimidan voz kechib yangi dunyoqarashlar ham shakllana boshlagan.

Shu tarzda braxmanlar yaratgan diniy falsafiy qarashlar vaqtlar o'tgan sari o'zgarib borgan va kitob holiga kelgan.

Dastavval vedantaning birinchi turi hisoblanadigan Braxmanlarga to'xtalib

o'tamiz. Braxmanlarning yuzaga kelish davri miloddan avvalgi VII-VI asrlarga to'g'ri keladi deb ba'zi manbalarda keltiriladi⁴. Tarixdan ma'lumki Hindistonda kasta-varna tizimi shakllangan shu boisdan ham eng yuqori qatlam bo'lmish braxmanlar alohida o'rin tutgan. Braxmanlar veda ilmini o'rganib, inson hayotini muhim to'rt davrga bo'lgan va shu haqdagi malumot va fikrlar "Braxmanlar" to'plamida keng va batafsil bayon etilgan. Ular;

- yoshlik bu dastavval hayotni o'rganish hamda shogirdlik davri
- grixastxa bu davrda inson oilali bo'lish keltiriladi
- darveshlikka o'tish davri
- to'liq darveshlik davri

Hind faylasuflarini ta'kidlashicha inson hayoti davomida ushbu to'rtta davrni o'z boshidan kechiradi va ular har bir davrga o'zlarini turli xil qarashlarini keltirishadi.

Biz ham har bir davrga birin ketinb to'xtalib o'tamiz. Yoshlik davri hind faylasuflarining ta'kidlashicha bu davrda inson dunyoga kelib yashashni o'rganib endi anglay boshlagan va bu hayotga kelganidan asosiy vazifasi nima ekanligini tushunish davri shu uchun hambu davr boshqacharoq ataladi ya'ni shogirdlik davri.

Shundan keytin inson keying hayotga ya'ni oilali bo'lish Grixastxa davriga o'tadi. Bu davrga kelib inson o'z vazifasini bajarish xususan o'zidan nasl qoldirish kabi vazifalarni o'tashi kerak. Bundan tashqari insoniyatni tarbiyalash ilm berish kabi vazifalar ham bu davrga oid. Albatta o'ziga yarasha vazifa va majhburiyatlari mavjud.

Sekinlik bilan oiladagi qiyinchiliklarni yengib tajriba oshgandan so'ng, inson o'zi anglab yetgan qiyinchilik va hayotning past-u balandlarini,

yaxsh-yu yomonini ajratadigan bo'ladi. Braxmanlarning fikricha hamma hayot tajribalarini va

mulohazalarini boshidan kechirgandan so'ng asta-sekinlik bilan darveshlik hayotiga ham o'ta boshlashi kerak. Shundan so'ng barcha tashvish g'amlar yakuniga yetishi kerak deb o'ylashadi.

Darveshlik davri. Bu davrga kelib inson o'z umrini poyoniga yetib borayotganini anglab o'zini faqat Yaratganga bag'ishlashi va oilasidan tamoman yiroqlashishi lozim deb keltiriladi. Bu hayot fanda tarki dunyochilik deb yuritiladi. Tarki dunyochilik uchun o'rmon eng qulay joy hisoblanadi. O'rmonni tanlash bejizga emas, chunki o'rmon inson kundalik hayoti uchun zarur bo'lgan ko'pgina

qulayliklarga ega ya'ni boshpana daraxtlar, och qolishmaydi, o't o'lanlar ko'rpa to'shak vazifasini bajaradi⁵. Shu boisdan ham hindlar ongida inson hayoti uchun o'rmon katta vazifani bajaradi. Bu haqida Vedantaning ikkinchi qismi bo'lmish Aranyaklarda ko'plab ma'lumotlar keltirilgan.

Aranyaklardagi voeqalar braxmanlarning to'rtinchi davridan keying qismi haqida gap boradi. Bunda inson braxmanlarning to'rtinchi ya'ni , o'rmon hayoti haqida so'z yuritiladi. Bu kitobda insonning o'rmondagi hayoti , ibodati, tavba tazarrusi kabi bir qancha tafsilotlar keltirilgan. Bu kitob taxminan VII-VI asrlarda yaratilgan.

Hindlar hayotida pand nasihat, faylasufona fikrlar asosiy rol o'ynaydi, shu boisdan ham Vedantaning uchinchi kitobi Upanishadlar katta ahamiyatga ega. Upanishad asli sanskritcha so'z bo'lib uning ma'nosi "yaxshi nasihat" dir. Bu kitob asosan insonni bu dunyoda hayot kechirishining sababi , uning vazifalari, va ko'plab ta'limotlar vedalar tavsifida keltirilib o'tilgan. Upanishadlarda asosan ustoz shogir o'rtasidagi savol javoblar bu savollar esa borliq, dunyo tashvishlari, olamni o'rganish va bir qancha shunga o'xshash ma'lumotlarni olishga yordam beradi.

Upanishadlar 108 ta to'plamdan iborat bo'lib, bunda bir qancha izohlar to'plami bor va ular;

- rigveda bo'yicha 10 ta Upanishad
- Shukla-yajurveda bo'yicha 19 ta Upanishad
- krishna-yajurveda bo'yicha 32 ta Upanishad
- samaveda bo'yicha 16 ta Upanishad
- atxarveda bo'yicha 31 ta Upanishad

Hind xalqi ongida upanishadlar juda katta tasir qilgan va bu qisman ularning butun hayotini belgilab bergan desak ham yanglishmaymiz.

Xulosa qiladigan bo'lsak hind adabiyotida vedantaning o'rni katta negaki kundalik hayot bilan shu kitobdagi upanishadlar , qarashlar deyarli bir xil. Albatta hindlar hozirga qadar bu kabi faylasuona qarashlar, fikrlarni darsliklarda ham kiritshgan buni qiyosi sifatida islom dinidagi Naqshbandiylik, Kubroviylik kabi ta'limotlar bir biriga yaqindir. Shu boisdan ham hind adabiyotida Vedalar va Vedantaning o'rni katta va bugungi kunda ham shunday.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Najmiddinov J., Karimov J., Turdiyeva D.. Dinshunoslik. Qomusiy lug'at. Imom Buxoriy xalqaro markazi nashriyoti, 2017 — 480 bet.
2. Васильев Н. История Востока. 1-2 том. М., 2004- С 32
3. Uchqunova.U.U Hindiston adabiyoti. TDSHU. 2020 – B 33
4. O'sha asar. B 34
5. O'sha asar. B 35

HIND BOLALAR FOLKLORI



Barno Xasanboyeva

*TDSHU 2-kurs, Filologiya va tillarni o'qitish,
hindiyingliz guruhi talabasi
Ilmiy rahbar: f.f.d.prof.U.Muhibova*

ANNOTATSIYA. Ushbu maqolada hind bolalar folklorining tarbiyaviy, madaniy va didaktik ahamiyati yoritib berilgan. Bolalar uchun mo'ljallangan qo'shiqlar, she'rlar, tez aytishlar orqali hind xalqining milliy qadriyatlari, ma'naviy merosi va axloqiy tamoyillarining avloddan-avlodga yetkazilishi tahlil qilingan. Tadqiqotda mashhur yozuvchilar va folklorshunoslarning bu boradagi hissasi ham ko'rsatib o'tilgan. Shuningdek, hind bolalar folklorining til o'rganish, tafakkur va ijodiy salohiyatni rivojlantirishdagi roli, zamonaviy media vositalaridagi aks ettirilishi misollar orqali ochib berilgan.

Kalit so'zlar: hind bolalar folklori, tarbiya, axloqiy qadriyatlar, xalq og'zaki ijodi, qo'shiqlar, she'rlar, tez aytishlar, madaniy meros, til o'rganish, ijodiy fikrlash

Har bir xalqning milliy madaniyati va ma'naviy qadriyatlari folklorida o'z aksini topadi. Folklor⁶⁸, ayniqsa, bolalar tarbiyasida nafaqat ko'ngilochar, balki ta'limiy va axloqiy rolni ham bajaradi. Hind bolalar folklori⁶⁹ o'zining boy mazmuni va turli xilligi bilan ajralib turadi. Axloqiy fazilatlarni bolalarda shakllantirishda samarali vosita hisoblanadi va xilma-xil janrlari – qo'shiqlar, ertaklar, she'rlar, topishmoqlar, tez aytishlar va boshqa turlari bilan xalqning boy madaniyatini milliy qadriyatlari bilan bolalarga singdirishda katta o'rin tutadi. Ushbu folklor elementlari bilan nafaqat axloqiy saboqlar balki bolalarga ijodiy fikrlash, tahlil qilish va ijtimoiy moslashuvchanlikni shakllantiriladi. Ko'plab olimlar hind madaniy merosini saqlash va o'rganishda o'z hisslarini qo'shishmoqdalar. Masalan, Divik Ramesh, Usha Yadav, Suryakumar Pandey, Bano Sartaj⁷⁰, Ramesh Tailang⁷¹ va boshqalardir. Bu olimlar o'z tadqiqot va ijodlari orqali hind bolalar folklorining rang-barangligini, tarbiyaviy ahamiyatini va xalq og'zaki ijodiyotida tutgan o'rnini o'rganish borasida muhim ishlarni amalga oshirmoqdalar. Masalan, Divik Ramesh o'z tadqiqotlarida hind bolalar she'riyatining tarbiyaviy roliga e'tibor qaratgan bo'lsa, Usha Yadav xalq dostonlari va bolalar orasida mashhur bo'lgan qahramonlik hikoyalarini tahlil qilib, ularning axloqiy qadriyatlarni shakllantirishdagi ahamiyatini yoritadi. Suryakumar Pandey esa bolalar orasida ommalashgan ertaklar va og'zaki hikoyalar orqali hind jamiyatining tarixiy va madaniy xotirasini

⁶⁸ Folklor – (ingliz tilidan olingan bo'lib folk – xalq, lore – bilim, donolik) xalq ijodini ifodolovchi termin. Fanga 1846-yilda ingliz arxelogi William Thoms olib kirgan

⁶⁹ Lok-sahitya (लोकसाहित्य) – Hind tilida "xalq adabiyoti" degan ma'noni anglatadi..

⁷⁰ **Bano Sartaj:** Hind xalq og'zaki ijodi va bolalar folklorining qimmatli namunalari asosida sodda va tushunarli hikoyalar yaratgan, bu orqali madaniy boyliklarni bolalarga yetkazgan yozuvchi.

⁷¹ **Ramesh Tailang:** Hind bolalar folklorining musiqiy va she'riy an'analarini badiiy moslashtirish orqali xalq madaniyatini bolalarga tushunarli va zavqli tarzda taqdim etgan shoir.

saqlashga hissa qo'shmoqda. Bano Sartaj hind bolalar folkloridagi musiqiy elementlar va ularning rivojlanishdagi o'rnini chuqur o'rgansa, Ramesh Tailang bolalar folklorining til tarbiyasiga ta'sirini yoritishga katta e'tibor qaratgan. Hind bolalar folklori nafaqat madaniy merosning bir qismi, balki bolalarning tafakkurini, axloqiy qadriyatlarini va ijodiy qobiliyatlarini shakllantiruvchi muhim vositadir. Shu sababli, ushbu merosni o'rganish va kelgusi avlodlarga yetkazish bugungi kunda ham dolzarb ahamiyatga ega bo'lib qolmoqda.

Folklorning ildizlari ming yillik tarixga ega. Xalq og'zaki ijodi orqali asrlar davomida avloddan-avlodga yetib kelgan. Xususan, she'rlar bolalarga ritmik his-tuyg'ularni rivojlantirish bilan birga, ularning xotira va nutq qobiliyatlarini shakllantirishda muhim rol kasb etadi. Qo'shiqlar esa bolalarga mehr-muhabbat, osoyishtalik, yaxshilik va ko'plab yaxshi hislatlarni, oilaviy qadriyatlarni singdirishda muhim vosita hisoblanadi. Tez aytishlar, bir tomondan, til o'rganish va talaffuzni rivojlantirsa, ikkinchi tomondan, bolalarda e'tibor, tezkorlik va diqqatni oshirishda xizmat qiladi⁷². Turli tillarga tarjima qilingan "पञ्चतन्त्र"⁷³ hikoyalari, shuningdek, animatsion filmlar va raqamli platformalardagi kontentlar orqali bu madaniy meros butun dunyo bolalariga taqdim qilinmoqda. Qo'shiqlar, she'rlar va tez aytishlar esa til va nutq rivojlanishiga hissa qo'shib, dunyo miqyosida bolalar ta'limining bir qismiga aylangan.

Qo'shiqlar (बाल गीत) hind bolalar folklorida alohida o'rin tutadi. Odatda qo'shiqlar bolalarning xotira va tafakkurini rivojlantirishda muhim o'rin

⁷² Abdusaitova, M (2023). Kichik va o'rta guruhlarda tez aytish va topishmoqlar vositasida nuqtani o'stirish usullari.

⁷³ **Panchatantra** (sanskritcha "Besh kitob") — sanskrit yozma adabiyoti yodgorligi

tutadi. Asosan , “बाल गीत” janrida bolalar uchun ko‘plab qiziqarli va mazmunli mavzular , jumladan , tabiat, do‘stlik, hayotiy saboqlar va ko‘plab boshqa mavzular aks ettiriladi. Har bir qo‘shiq o‘zining musiqiy ohangi, ritmi va mazmuni orqali bolalar ongiga ta’sir qiladi. Bolalarga nafaqat axloqiy, balki intellektual rivojlanishni ham qo‘llab quvvatlaydi. Masalan, tabiat mavzusidagi qo‘shiqlar bolalarga tabiatni sevish, asrash va uni himoya qilish zarurligini ko‘rsatadi. “मछली जल की रानी है” (Baliq suv malikasi) kabi qo‘shiqlar bolalarda ekologiyaga qiziqishni uyg‘otadi va ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo‘lishni tushuntiradi.

Qo‘shiq:

मछली जल की रानी है,
जीवन उसका पानी है।
हाथ लगाओ तो डर जाएगी,
बाहर निकालो तो मर जाएगी।

Tarjimasi:

Baliq suvning malikasi,
Hayot uning manbai.
Uni ushlasang, qo‘rqib qochadi,
Suvsiz qolsa, halok bo‘ladi.

Bundan tashqari , oilaga bag‘ishlangan qo‘shiqlar bolalarda oila a’zolariga hurmat va mehr-muhabbatni kuchaytiradi. Masalan, “चंदा मामा दूर के” (oy tog‘a uzoqda) qo‘shig‘i oilaviy qadriyatlarni bolalarga qiziqarli va bolalarcha uslubda o‘rgatadi. Ushbu qo‘shiq bolalar fantaziyasini rivojlantiradi va oilani qadrlashga undaydi:

Qo‘shiq:

चंदा मामा दूर के,
पुए पकाए पूर के।
आप खाए थाली में,

Tarjimasi:

Oy tog‘ajon uzoqda,
Pua pishirar yog‘da.
O‘zi yeydi likopda,

मुन्ने को दे प्याली में।

Bolaga tutar piyolada.

Shuningdek, mehr-oqibat mavzusidagi qo‘shiqlar bolalarni boshqalarga nisbatan mehribon va hamdard bo‘lishga o‘rgatadi. “लोरी” (beshik qo‘shiqlari) bu borada yorqin misoldir.

Qo‘shiq:

धीरे से आ जा री निंदिया,

बिटिया के नैना में।

चंदा भी सो जाए,

तारे भी सो जाए।

Tarjimasi:

Sekin-sekin kelgin, shirin uyqu,

Qizalog‘imning ko‘zlariga.

Oy ham uxlasin,

Yulduzlar ham.

She’rlar (कविता / शिशु गान) hind bolalar folklorining yana bir muhim tarkibiy qismi bo‘lib, bolalarning til o‘rganishi va nutq qobiliyatini oshirishga qaratilgan. She’rlar, asosan, bolalarda insoniylik, mehr-muhabbat va rostgo‘ylik kabi fazilatlarni shakllantiradi. She’rlarni yodlash nafaqta xotira va diqqatni rivojlantiradi, balki ularning fikrlash jarayoniga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. She’rlarning mazmuni oddiy va bolalar uchun tushunarli bo‘lib, ular hayotiy saboqlarni qiziqarli shaklda taqdim eta oladi. Do‘stlik mavzusidagi she’rlar bolalarga sodiqlik va o‘zaro yordam tuyg‘ularini o‘rgatadi. Masalan, “दोस्ती का रंग” she’rida do‘stlikning chuqur ma’nosi yoritib berilgan.

दोस्ती का रंग है गहरा,

दिल से दिल को जोड़े।

Do‘stlikning rangi mustahkam,

U bog‘laydi qalblarni jam.

साथ निभाए हर मुश्किल में,
दुनिया से न डरने वाले।

Qiyinchiliklarda qo‘llaydi birga,
Dunyodan qo‘rqmaslar also.

Vatanparvarlik mavzusidagi she’rlar bolalarda o‘z vataniga bo‘lgan muhabbat va faxr tuyg‘usini uyg‘otadi. Ushbu she’rlar bolalarni vatanini sevishga va uni himoya qilishga chorlaydi. Misol uchun, “मेरा भारत महान” she’ri bolalarga Hindistonning ulug‘vorligini his etishga yordam beradi.

सच की राह पर चलो,
झूठ से कभी मत डरो।
सच्चाई में है शक्ति,
झूठ से नहीं है बंधती।

Haq yo‘ldan yur,
Yolg‘ondan qo‘rqma aslo.
Haqlikda bordir kuch,
Yolg‘ondan bo‘lmas foyda.

Tez aytishlar (जुबानी कसौटी / जुबानी कसरत) folklorning eng qiziqarli va o‘yinomuz sifatleri bilan ajralib turadi. Tez aytishlarning talaffuzni yaxshilashda va bolalarda tezkor fikrlash qobiliyatini shakllantirishda roli katta. Tez aytishlar orqali talaffuz aniqligi 25% ga yaxshilanar ekan.⁷⁴ Ushbu janr o‘ziga xos qiyinchilik darajasi bilan bolalarni qiziqtiradi va bolalar o‘rtasida o‘ziga xos raqobat muhitini yaratib beradi. Masalan, mashhur tez aytishlaridan biri “चंदू के चाचा” bolalar uchun juda zavqli mashqdir.

Misol: चंदू के चाचा ने चंदू की चाची को, चाँदनी रात में चाँदनी चूड़ियाँ पहनाई।

Tarjimasi: Chandu ning amakisi, Chandu ning xolasiga,
Oy nurli tunda, oy nurli bilakuzuklar taqdi.

⁷⁴ Big book of tongue Twisters: For speech clarity and fun.

Til o‘stirishda tez aytishlarning roli juda muhimdir. Tez aytishlar talaffuzni yaxshilashga va so‘z boyligini oshirishga ham xizmat qiladi. Ritmik shakldagi tez aytishlar bolalarga talaffuzni takrorlash orqali o‘z nutqini mustahkamlash imkoniyatini beradi. Masalan, “कच्चा पापड़, पक्का पापड़” kabi tez aytishlar bolalar o‘rtasida keng tarqalagan.

Misol: कच्चा पापड़, पक्का पापड़

Tarjimasi: Xom padad, pishgan padad

Ushbu mashqlar bolalarga nutq jarayonida so‘zlarni to‘g‘ri va aniq aytish ko‘nikmasini shakllantiradi. Tez aytishlar odatda murakkab tovushlar yoki so‘z birikmalariga ega bo‘lganligi sababli, bolalar ularni aytish orqali murakkab so‘zlarni talaffuz qilishni o‘rganadilar. Masalan, “खड़क सिंह के खड़कने से” kabi tez aytishlar bolalarni so‘zlar o‘rtasidagi farqlarni tushunishga o‘rgatadi.

Misol: खड़कती हैं खड़क सिंह के खड़कने से खड़कियाँ,

खड़कियों के खड़कने से खड़कता है खड़क सिंह।

Tarjimasi: Kharak Singning taqillashi bilan derazalar taqillaydi, Derazalarning taqillashi bilan Kharak Sing taqillaydi.

Hind bolalar folklori nafaqat qiziqarli o‘yin-kulgi vositasi, balki jamiyatning madaniy va ijtimoiy qadriyatlarini avloddan-avlodga yetkazuvchi muhim manbalardan biridir. Folklor orqali bolalar milliy qadriyatlarni o‘zlashtiradi, o‘z xalqining an‘analarini chuqurroq anglaydi. Bu jarayon milliy o‘zlikni saqlash va rivojlantirish uchun asosiy vositalardan biridir. Hind bolalar folklori milliy madaniyatning asosi

hisoblanib, xalqning boy tarixiy merosi va an'anaviy qadriyatlarini saqlashga yordam beradi. Har bir qo'shiq, she'r yoki tez aytish o'zida xalqning tarixini, qadriyatlarini va ma'naviy boyligini aks ettiradi. Folklor xalqning o'ziga xosligini va madaniy xilma-xilligini saqlash uchun ham zarurdir. Hindiston kabi ko'p millatli mamlakatda folklor milliy birlikni saqlashda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Folklor orqali bolalar o'z xalqining an'anaviy bilimlari va qadriyatlarini o'zlashtirib, milliy o'zlikni anglay boshlaydi. Folklor bolalarga o'z xalqining boy madaniyatini anglash va uni qadrlash imkonini yaratib beradi. Vatanparvarlik mavzusidagi qo'shiqlar va she'rlar bolalarga vatanni sevish, uni himoya qilish va uning rivojiga hissa qo'shishga da'vat etadi. Shuningdek, folklor elementlari bolalarda madaniy farqlarga hurmatni oshiradi va turli madaniyatlar o'rtasida muvozanatni shakllantiradi. Jamiyatda birlik, hamjihatlik va madaniy birdamlikni mustahkamlashda muhim vosita hisoblanadi. Hind bolalar folklori turli millat va elatlar o'rtasida birlikni rivojlantirishga xizmat qiladi. Folklor nafaqat bolalarni, balki kattalarni ham jamiyatning umumiy qadriyatlari asosida birlashtiradi. Hind bolalar folklori orqali nafaqat milliy qadriyatlar va an'analar saqlanib qoladi, balki ular rivojlantirilib, kelgusi avlodlarga o'rgatiladi. Ushbu jarayon Hindiston kabi ko'p millatli va madaniyatli jamiyatda madaniy xilma-xillikni asrash va ahil muhitni ta'minlashda asosiy vositalardan biri bo'lib xizmat qiladi. Hind bolalar folklorini zamonaviy ta'lim tizimida qo'llash ta'lim jarayonini boyitish va bolalarga axloqiy qadriyatlarni singdirish uchun samarali vosita hamdir. Folklor orqali bolalar nafaqat milliy madaniyat bilan tanishadilar, balki ularning ijodiy va lingvistik rivojlanishiga ham yordam beriladi. Zamonaviy ta'lim tizimida folklorni qo'llashning bir qancha usullari mavjud bo'lib, ular

o'quvchilarning qiziqishini oshirish va o'zlashtirish ko'rsatkichlarini yaxshilashga xizmat qiladi. Folklorni zamonaviy ta'limda qo'llashning samarali usullaridan biri uni o'quv dasturlariga integratsiya qilishdir. Masalan, bolalar uchun qo'shiqlar, tez aytishlar va she'rlarni o'yinli tarzda dars jarayoniga kiritish orqali o'quvchilarni faol ishtirok etishga undash mumkin. Folklor o'zining qiziqarli tuzilishi bilan bolalarni ta'lim jarayoniga jalb qiladi. Shu bilan birga, bolalarga axloqiy qadriyatlar – halollik, mehribonlik, rostgo'ylik va birlik singari fazilatlarni o'rgatish imkoniyatini beradi. Axloqiy va tarbiyaviy qadriyatlarni o'rgatishda folklor qimmatli resurs hisoblanadi. Masalan, do'stlik, tabiatni sevish va vatanparvarlik kabi mavzularni aks ettiruvchi folklor elementlari bolalarda ijobiy xulq-atvor shakllantiradi. O'quv jarayonida bolalarga milliy she'rlarni o'rgatish, ularni tez aytishlar orqali so'z boyligini oshirish va qo'shiqlar orqali ijtimoiy qadriyatlarni tushuntirish ta'lim jarayonini yanada boyitib beradi. Bundan tashqari, bolalarga o'z milliy madaniyatini tushunish va qadrlashni o'rgatish orqali ularning o'zlikni anglashiga ko'maklashadi. Folklorni bolalar hayotiga kiritish bo'yicha bir qancha amaliy fikrlar va tavsiyalar mavjud. Birinchidan, folklor asosida ijodiy mashg'ulotlar va musobaqalar tashkil qilish orqali bolalar o'rtasida qiziqishni oshirish mumkin. Masalan, bolalar folklori asosida o'yinlar va jamoaviy musobaqalar o'tkazish nafaqat ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradi, balki jamoaviy ish ko'nikmalarini ham oshiradi. Ikkinchidan, zamonaviy texnologiyalar yordamida folklor elementlarini raqamlashtirish va bolalar uchun interaktiv o'quv materiallarini yaratish ta'lim jarayonini yangi bosqichga olib chiqadi. Masalan, mobil ilovalar va animatsion videoroliklar orqali taqdim etish bolalarning qiziqishini oshiradi va ularni faol o'rganishga chorlaydi.

Barchasini umumlashtirsak, Hind bolalar folklori zamonaviy ta'limda boy resurs sifatida xizmat qiladi. U bolalarda nafaqat axloqiy va tarbiyaviy qadriyatlarni shakllantirishda, balki ularning madaniy ongini rivojlantirishda ham beqiyos ahamiyatga ega. Ta'lim jarayoniga folklorni kiritish orqali o'quvchilarning faolligi va o'zlashtirish darajasini oshirish mumkin. Shu sababli, folklorni zamonaviy ta'lim tizimida faol qo'llash va uni bolalarning kundalik hayotiga integratsiya qilish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Hind bolalar folklori bolalarning tarbiyasi va ma'naviy rivojlanishida o'ta muhim rol o'ynaydi. Bolalarning ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish va milliy o'zlikni anglashlariga yordam beradigan kuchli ta'limiy manbadir. Folklor o'zining samimiy va qiziqarli ifoda shakllari bilan bolalarning dunyoqarashini kengaytirib, ularning mantiqiy tafakkurini rivojlantirishda xizmat qiladi. Mazkur mavzu zamonaviy ta'lim tizimida ham dolzarb hisoblanadi. Raqamli texnologiyalar rivojlanayotgan bir davrda, folklor elementlarini saqlash va ularni yangi avlodga yetkazish vazifamizdir. Hind bolalar folklorini o'quv dasturlariga integratsiya qilish orqali bolalarga milliy madaniyatni anglash va qadrlash hissini kuchaytirish mumkin. Folklor nafaqat madaniy boylikni saqlash vositasi, balki bolalarni hayotiy qadriyatlar bilan tanishtiruvchi samarali ta'limiy resursdir. Shuningdek, folklor bolalarda turli madaniyatlarga nisbatan hurmatni shakllantirish va jamiyatdagi birlik va birdamlikni mustahkamlashga chorlaydi. Hind bolalar folklori bolalarning ma'naviy rivojlanishiga beqiyos hissa qo'shadi. Uning boy mazmuni va turli shakllari orqali bolalar hayotning muhim tamoyillarini o'rganadilar va ijtimoiy jihatdan faol bo'lishga tayyorlanadilar. Folklor bolalar xotirasini mustahkamlash, nutq boyligini oshirish, ijodiy fikrlashni rivojlantirish va ularni jamiyatga

moslashuvchan qilib tarbiyalashda muhim vosita hisoblanadi. Kelajakda Hind bolalar folklorining ta'limiy va tarbiyaviy imkoniyatlarini yanada chuqurroq o'rganish, uni zamonaviy texnologiyalar orqali yangi avlodga yetkazish va xalqaro maydonda targ'ib qilish tadqiqotchilar oldida turgan muhim vazifalardan biridir. Bu nafaqat Hindiston madaniy merosini saqlashga, balki dunyo miqyosida bolalar tarbiyasida yangi yondashuvlarni shakllantirishga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, Hind bolalar folklori nafaqat xalqning madaniy boyligini aks ettiradi, balki uning tarbiyaviy imkoniyatlari orqali bolalarning axloqiy, ijtimoiy va intellektual rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli, folklori zamonaviy ta'lim tizimida faol qo'llash va kelajak avlodlarga yetkazish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. **Dinçel, B. K. (2017).** *Analysis of Children's Songs in Terms of Values.*
2. **Jumaboyev, M. (2004).** *Bolalar adabiyoti*
3. **Safarov, O., Jamilova, B., & Safarova, N. (2016).** *Bolalar adabiyoti va folklor*
4. Jalilova Sh "Qadimgi Hind Xristomaniyasi" T.; 2018
5. Muxibova U "Hind Folklori" T.; 2023
6. https://uz.wikipedia.org/wiki/Bolalar_folklori
7. <https://timesofindia.indiatimes.com/lifestyle/12-indian-tongue-twisters-thatll-twist-your-brain/articleshow/45079926.cms>
8. <https://ivypanada.com/tongue-twisters-hindi>

9. <https://www.rekhta.org/>
10. <https://youtu.be/UZm70FWF5TQ?si=8nUtCIAHLo1vRbUf>
11. <https://youtu.be/1922Yonyf5g?si=lMjOgwgp6GVOLw7W>
12. https://youtu.be/caZ8_Xo55UQ?si=GYyBwHfjp6fzIPLo
13. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Panchatantra>

TARJIMASHUNOSLIK VA MAMLAKATSHUNOSLIK

MURAKKAB TUGAL SIFATDOSHLARNING ANIQLOVCHI, RAVISH HOLI VA OT-KESIM VAZIFALARIDA QO‘LLANISHI ("TOHIR VA ZUHRA" ASARINING URDUCHA TARJIMASI ASOSIDA)



Maxamadxo'jayeva Muslima
*TDSHU 3-kurs, Filologiya va tillarni o'qitish,
urdu-ingliz guruhi talabasi
Ilmiy rahbar: U.Zokirova*

Annotatsiya: Ushbu maqolada tugal sifatdoshlarning urdu tiliga tarjima qilinish uslubi, ularning grammatik tuzilishi va qo'llanilishi o'rganilgan. Tadqiqot davomida tugal sifatdoshlarning ravish holi, aniqlovchi, ot-kesim

funksiyalariga alohida ahamiyat berilib, asarning o‘zbekcha matni bilan ularning o‘xshash va tafovutli tomonlari o‘rganib tahlil qilindi.

Kalit so‘zlar: Sifatdosh, notugal sifatdosh, tugal sifatdosh, sodda, murakkab, urdu tili, ravish holi, aniqlovchi, murakkab ot-kesim, funksiyalar, tahlil

O‘zbek tilida sifatdosh – fe’l asosidan yasaliib, ot yoki fe’lning belgisi, harakati yoki holatini ifodalovchi so‘z turkumidir. Sifatdoshlar fe’lning ba’zi xususiyatlarini saqlagan holda, sifat yoki ot kabi qo‘llanadi. Ular gapda aniqlovchi, ega, kesim, to‘ldiruvchi vazifalarida kelishi mumkin. Sifatdoshlar fe’lning belgi va xususiyatlarini ifodalovchi shakllar bo‘lib, gapda sifat va ravish vazifasini bajaradi. Ular harakatning qanday amalga oshganini yoki amalga oshayotganini ko‘rsatadi. Sifatdoshlarning fe’lga xos bo‘lgan holatlari quyidagilar:

- Shakl (tub yoki qo‘shimchali shaklda kelishi),
- O‘rni (aniqlovchi, kesim yoki boshqa gap bo‘laklari sifatida kelishi),
- Zamon (o‘tgan, hozirgi, kelasi zamon ma’nolarini ifodalashi) xususiyatlariga ega.

Sifatdoshlar fe’l asosiga turli qo‘shimchalar qo‘shilishi orqali hosil qilinadi. Ular o‘tgan, hozirgi yoki kelasi zamon ma’nolarini ifodalashiga qarab turlicha yasaladi. Masalan: o‘tgan zamon sifatdoshlar fe’lning asosiga -gan, -kan, -digan, -adigan qo‘shimchalari qo‘shilib yasaladi. Ular harakatning oldin sodir bo‘lganligini bildiradi.

Hozirgi zamon sifatdoshlari esa harakatning hozir davom etayotganini yoki odatiy ekanligini bildiradi. Ular -ayotgan, -yotgan, -yotirgan qo‘shimchalari orqali yasaladi.

Kelajakda sodir bo‘ladigan harakatni bildiruvchi sifatdoshlar esa -jak, -moqchi,

-uvchi qo‘shimchalari bilan yasaladi.

Gapda sifatdoshlar turli funksiyalarda keladi. Ular aniqlovchi, ega va kesim bo'lishi mumkin.

Masalan: “Yozilgan daftar” (qanday daftar? – yozilgan) bu yerda sifatdosh aniqlovchi funksiyasida kelgan, ya’ni daftar aniqlanyapti. “O‘qigan har doim bilimli bo‘ladi” (kim?- o‘qigan) ega funksiyasida kelmoqda. “Bu kitob allaqachon o‘qilgan” kesim funksiyasida kelgan.

Sifatdoshlar (participles) urdu tilida ham mavjud bo‘lib, ular fe’l asosiga qo‘shimchalar qo‘shish orqali yasaladi va ot yoki fe’lning belgisi, harakati yoki holatini ifodalaydi. Urdu tilida 2 xil sifatdoshlar mavjud: *notugal* va *tugal*. Notugal 2 ga bo‘linadi: *oddiy* va *murakkab*. Notugal sifatdosh oddiy sifatdosh fe’lning o‘zagiga bitta komponent تا qo‘shiladi va zamonlarda ishlatiladi. Murakkab notugal sifatdosh esa 2 ta komponentdan iborat bo‘lib, fe’lning o‘zagiga تا qo‘shiladi ikkinchi komponent esa ہونا fe’lining tugal shakli qo‘llaniladi. Murakkab notugal sifatdosh gapda aniqlovchi funksiyasini bajarib kelganida ushbu ko‘rinishda bo‘ladi, masalan: پڑتی ہوئی برف (yog‘ayotgan qor). Sifat bilan aniqlangan aniqlovchi faqat belgi hususiyatni bildirsa, sifatdosh bilan sifatlangan aniqlovchi o‘zida biror bir ish harakatni bildiradi. Sifatdoshning oddiy sifatdan farqi, uning negizida ish harakat yotadi va bu jihatdan u fe’lga yaqindir. Chunki u fe’ldan yasaladi. Agar sifatdoshdan keyin kelgan ot muzakkar bo‘lsa sifatdosh تا ہوا ga tugaydi. Masalan: بڑی رفتار سے چلتا ہوا - Katta tezlikda yurayotgan odam. Agar ot muzakkar ko‘plikda bo‘lsa sifatdosh تے ہوتے ga tugaydi. Katta tezlikda yurayotgan insonlar. Agar ot muannas birlikda va ko‘plikda bo‘lsa sifatdosh بڑی رفتار سے چلتی ہوئی گاڑی ga tugaydi. Katta tezlikda harakatlanayotgan mashina. Tugal sifatdosh ham ikkiga bo‘linadi: *oddiy* va *murakkab*. Tugal sifatdoshning sodda shaklida fe’lning tugal asosi aks etadi ya’ni ہوا va u zamonlarda ishlatiladi. Murakkab tugal sifatdosh ham ikki komponentdan iborat bo‘ladi, birinchi komponentda fe’lning tugal asosi ikkinchi komponentda esa ہونا fe’lining tugal shakli keladi va tarjimasi ham -gan, bo‘adi. Masalan: وہ کتاب میری طرف سے لکھا ہوا ہے - Anavi kitob men tomonimdan yozilgan. Murakkab sifatdosh ham aniqlovchi, ega va ravish

holi funksiyalari keladi. Aniqlovchi funksiyasida sifatdosh ot oldidan kelib, uni aniqlaydi. Masalan: بچے دن بھر سڑک پر - o‘qilgan kitob. کتاب - پڑھی ہوئی کتاب: Bolalar kuni bo‘yi ko‘chada aylandilar, bu misolda sifatdosh ravish holi funksiyasida kelgan.

Sifatdoshlarning ahamiyati haqida ko‘p tilshunos olimlar turli fikrlar bildirishgan. Jumladan, o‘zbek tilshunos olimlardan I. Yo‘ldoshev va O. Sharipova o‘z ilmiy tadqiqotlarida quyidagi ilmiy xulosalarni keltirishgan: “Ba‘zan fe’lning sifatdosh shakli sifat turkumidagi leksema bilan antonimik munosabatlarga kirishi mumkin: o‘qigan va bilimsiz, o‘qimagan va bilimli kabi.”⁷⁵ Sifatdosh haqida rus olimlari turli fikrlar bildirishgan, masalan A. Shaxmatov: “Sifatdosh- bu fe’l shakli bo‘lib, predmetni unda sodir bo‘layotgan yoki sodir bo‘lgan harakat yoki holat orqali belgilaydi”⁷⁶, desa V. Vinogradov: “Sifatdoshlar o‘zlarida fe’l va sifat belgilari uyg‘unligini mujassam etib, predmetning belgisi sifatida harakatni ifodalaydi”⁷⁷ - degan fikrni ilgari suradi. Sifatdosh haqida ingliz olimlari ham turli fikrlar bildirishgan, jumladan S.Greenbaum “Sifatdoshlar otlarni aniqlab, ularning xususiyatlarini bildiradi”⁷⁸. Masalan, *the running water* (oqayotgan suv) va boshqa bir necha misollar keltirib o‘tgan.

Shundan ko‘rinib turibdiki, sifatdosh har bir tilda o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Shu sababdan ham o‘zbek tilida yozilgan “Tohir va Zuhra” asari o‘rganib chiqildi, hamda urdu tiliga qilingan tarjimada tugal sifatdoshlarning gaplarda kelgan funksiyalari chuqur o‘rganildi va tahlil qilindi. Asarda sifatdoshlar aniqlovchi, ravish holi, hamda ot-kesim vazifasida uchradi va ba‘zi bir misollar ushbu maqolada jamlandi. Masalan ushbu gapda “chiqar ekanlar” sifatdoshi ot kesim vazifasida berilgan.

بادشاہ روم کے دو بیٹیاں تھیں اس دن وہ دونوں اپنی کنیزوں کے ساتھ دریا پر نہانے آئی
ہوئی تھیں۔

⁷⁵ I. Yo‘ldoshev va O. Sharipova “Tilshunoslik asoslari” qo‘llanmasi, Toshkent, 2006, 36-sahifa

⁷⁶ A. Shaxmatov “ Синтаксис русского языка” Луниград, 1925, 77-sahifa

⁷⁷ V. Vinogradov “Грамматическое учение о слове” Москва, 1986, 272-sahifa

⁷⁸ S. Greenbaum “ A student’s grammar of the English Language” India, 1990, 10-bob

Xorazm shohining ikki qizi bo'lib har juma kuni daryo labiga kanizlari bilan chiqar ekanlar.

Bundan tashqari ot kesim vazifasiga asardan ushbu misolni ham keltirish mumkin.

اس نے دیکھا کہ دریا کے اونچے کنارے پر ایک بہت ہی خوبصورت نوجوان بیٹھا ہوا ہے۔

Daryo labidagi bir balandlikda kishilar to'planganini, ularning o'rtasida bir yigitning o'tirganini ko'ribdi.

Asarda ravish holi vazifasida kelgan sifatdoshlar ham uchragan, ushbu misollarni keltirish mumkin

درختوں کے نیچے قالین پیچھے ہوئے تھے اور ان پر زمزم گدے اور تکیے پرے تھے۔

Bog'da gular ochilgan, ko'm ko'k maysalar yoyilgan, bulbullar, turli qushlar sayragan

اس نے ایک دفعہ گلی کو ڈنڈے سے اچھلا تو گلی اڑتی ہوئی جا کر اس کی نانی کو لگی جو ایک طرف دھوپ میں بیٹھی چر خا چلا رہی تھی۔

Kunlardan bir kun Tohir yong'oq o'ynab yurganda, otgan yong'og'i ip o'girib o'tirgan bir kampirning charxiga tegibdi.

شہزادی دوڑی ہوئی اپنے باپ کے پاس گئی اور اس سے کہا۔

Qiz o'zida yo'q sevinib, yugurib yangasining oldiga chiqib "Kuyovingiz gapirdilar, suyunchi bering, suyunchi!"

Sifatdoshning yana bir vazifasi-*aniqlovchidir*. Asardan bir necha misollarni keltirish mumkin. Ushbu misolda دبی ہوئی dan so‘ng kelayotgan آواز ot so‘z turkumiga oid bo‘lib, aniqlanmish bo‘lib kelyapti, shu sababdan sifatdosh aniqlovchi vazifasida kelgan.

اس کو جگانے کی غرض سے طاہر دبی ہوئی آواز سے گانے لگا۔

Tohir g’azal o’qib Zuhvani uyg’otibdi.

Aniqlovchi vazifasida kelgan yana bir sifatdoshga misol:

بادشاہ کا یہ ارادہ زہرہ کو معلم ہو گیا وہ سونے سے بھری ہوئی ایک طشتری لے کر کاری کے پاس گئی۔

Bu gapni Zuhra eshitib, bir lagan tillani ustalarga olib borib: - Shu tillani olinglar, sandiq shunday puxta bo‘lsinki, ichiga suv o‘tmasin, toki bechora yetimcha borgan joyida kun ko‘rsin,- deb zor-zor yig‘labdi.

Xulosa qilib aytganda, ushbu maqolada umumiy hisobda 17 ta tugal sifatdosh uchradi, ulardan 8 tasi ravish holi vazifasida, 4 tasi aniqlovchi vazifasida va qolgan 5 tasi esa ot-kesim vazifasida kelgan. Shuningdek, ilmiy tadqiqot jarayonida shu yaqqol ko‘rinib turibdiki, urdu matnlarida sodda va murakkab tugal sifatdoshlar orasida ravish holi vazifasi sarmahsul qo‘llanilgan. Urdu va o‘zbek tillaridagi sifatdoshlarning tuzilishi, vazifalari va qo‘llanilish xususiyatlari tahlil qilindi. Xususan, urdu tilidagi tugallangan sifatdoshlarning funksiyalari alohida o‘rganildi. Shuningdek, “Tohir va Zuhra” asari tahlil qilinib, undagi sifatdoshlarning roli va matndagi ahamiyati ko‘rib chiqildi.

Tahlil natijasida har ikkala tilda sifatdoshlarning fe‘l va sifat o‘rtasidagi vositachi bo‘lib xizmat qilishi va matnning aniqligi, hamda ifodaviyligini oshirishdagi roli aniqlandi. “Tohir va Zuhra” asarida

sifatdoshlar tasviriylikni kuchaytirish, qahramonlarning holatini aniqroq ifodalash va badiiy matnning ta'sirchanligini oshirish uchun ishlatilgan.

Ushbu tadqiqot natijalari sifatdoshlarning nafaqat grammatik jihatdan, balki badiiy matndagi stilistik funksiyalarini ham chuqurroq tushunish imkonini beradi. Kelajakda bu mavzuni yanada kengroq o'rganish orqali har ikki til grammatikasining umumiy va o'ziga xos jihatlarini batafsil tahlil qilish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abduraxmonova M., Murtazaxodjayeva M., Zokirova U., Shorahmedova M., "Urdu tili", Toshkent, 2018
2. Aulova R., Rahmatov B., Sodiqova M., "Hindiy tili darsligi", Toshkent, 2008
3. Dadaboyev X., "Tilshunoslikning dolzarb masalalari", Toshkent, 2006
4. Greenbaum S., "A student's Grammar of the English language", India, 1990
5. Matchonov. A., "O'zbek tili statistikasi", Toshkent, 1981
6. Xolmirzayev T., "Urducha-o'zbekcha lug'at, Islomobod, Pokiston, 2003
7. Yo'ldoshev I., Sharipova O., "Tilshunoslik asoslari", Toshkent, 2006
8. Шахматов А., "Синтаксис русского языка", Ленинград, 1925
9. <https://tsuull.uz/sites/default/files/dissertacgtdgfiya.pdf>

**TARJIMADA QO‘LLANILGAN TUGAL ZAMON
GRAMMATIK SHAKLLARINING MORFOLOGIK JIHATLARI
(“UCH OG‘AYNI BOTIRLAR” ASARINING URDUCHA
TARJIMASI ASOSIDA)**



Fayzullayeva Omina

*TDSHU 4-kurs, Filologiya va tillarni o‘qitish,
urdu-ingliz guruhi talabasi
Ilmiy rahbar: U.Zakirova*

Annotatsiya: Ushbu maqolada tugal zamonlarning urdu tiliga tarjima qilinish usullari, ularning grammatik tuzilishi, qo‘llanilishi o‘rganilgan. Tadqiqot davomida tugal zamonlarning uchta turiga alohida ahamiyat berilgan bo‘lib, asarning o‘zbekcha matni bilan uning urdu tiliga tarjimasi o‘rtasidagi grammatik o‘xshashlik va tafovutlar taqqoslab tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Tugal zamon, o‘tgan tugal zamon, hozirgi tugal zamon, uzoq o‘tgan tugal zamon, urdu tili, taqqoslash, tahlil.

Tugal zamon – fe‘l shakli hisoblanib, harakat yoki holatning ma‘lum bir vaqtda tugallanganini bildiradi, ya‘ni tugal zamon faqat fe‘l bilan bog‘liq bo‘lib, boshqa so‘z turkumlari tugal zamon yasay olmaydi. O‘zbek

grammatikasida ingliz tilidagi kabi aniq Perfect (Tugal zamon) deb ataladigan mustaqil zamon shakli yo‘q bo‘lsa-da, turli vositalar orqali uning funksiyasini ifodalash mumkin. Shu sababli, ayrim tilshunoslar o‘zbek tilida “tugal zamon yo‘q” deb hisoblasa, boshqalari uning o‘ziga xos ifoda shakllari borligini ta’kidlaydi. Quyida o‘zbek tilida “tugal zamon” tushunchasi haqida o‘zbek tilshunos olimlarining fikrlari misol bo‘la oladi. “O‘zbek tilida o‘tgan zamonning turli shakllari mavjud bo‘lib, ular bajarilgan harakatning davomiyligi yoki yakunlanganini ifodalashi mumkin. Ingliz tilidagi “Perfect” zamoni kabi alohida grammatik shakl bo‘lmasa-da, biz bu ma’nolarni maxsus fe’l shakllari va kontekst orqali ifodalaymiz.” – deb aytadi A.Nurmonov. Yana bir qator tilshunoslar ham bu fikrlarni tasdiqlaydi. O‘zbek tilida tugal zamonga yaqin bo‘lgan ma’nolarni asosan quyidagi usullar orqali ifodalash mumkin:

1. O‘tgan zamon fe’l shakllari orqali, ya’ni o‘zbek tilida -gan qo‘shimchali fe’l shakli ko‘pincha tugal zamon ma’nosini beradi: Men bu kitobni allaqachon o‘qiganman. Ular yetib kelishgan.
2. Hozirgi zamon fe’llari bilan birga -gan bo‘lmoq so‘zi orqali: Men buni ilgari eshitgan bo‘laman.

O‘zbek tilida ingliz yoki boshqa ba’zi tillardagi kabi alohida grammatik “tugal zamon” (Perfect Tense) shakli mavjud emasligiga ilmiy tadqiqot davomida ishonch hosil qilindi.

Urdu tilida esa “hozirgi tugal” zamonda tugal natija bor. Rus tilshunos olimi I.I.Revzin aytishicha: “Urdu tilida, boshqa hind-oriy tillari kabi, fe’lning tugal shakllari morfologik jihatdan ifodalangan bo‘lib, tuzilishi bo‘yicha fors va arab tillaridagi shakllarga o‘xshashdir. O‘zbek tilidan farqli o‘laroq, bunda tugal kategoriyasi sintaktik vositalar yordamida emas, balki aniq morfologik ko‘rsatkichlar orqali ifodalanadi.” Tugal zamonlarni yasashda tugal sifatdash qo‘llaniladi, tugal sifatdash fe’l o‘zagiga -a: qo‘shimchasini qo‘shish bilan yasaladi. Agar o‘zak unli harf bilan tugasa, o‘zak bilan -a: qo‘shimchasi o‘rtasida -y: harfi orttiriladi. Masalan:

←لکھنا ←ا + لکھ لکھا
 ←لانا ←نا + لا لا يا لا
 ←سونا ←نا + سو سويا

Tugal sifatdash son va jinsda o‘zgaradi va quyidagi to‘rtta qo‘shimchaga ega: muzakkar jinsida: -a;,-ye/e; muannasda esa -i;,-i:N.

Urdu tilida o'tgan tugal (shuningdek boshqa tugal) zamon shakllari qo'llanilgan hollarda fe'lining o'timli yoki o'timsiz ekanligi muhim ahamiyatga ega. O'timli fe'llar deb, ish-harakat faqat subyekt (mazkur ish-harakatni bajaruvchi shaxs) bilan cheklanib qolmay, boshqa biron predmet yoki shaxs ustidan bajarilishini bildirgan fe'llarga aytiladi, ya'ni o'timli fe'llar "kimni?" "nima?" va "kay?" savollariga javob beradigan so'zlarni talab qiladi. Masalan:

Kitobni o'qimoq (Nimani o'qimoq?) پڑھنا کیا پڑھنا۔ کتاب

Eshikni yopmoq (Nimani yopmoq?) بند کرنا کیا۔ بند کرنا دروازہ

O'tgan tugal zamon shakli o'tgan zamonda muayyan vaqtda bo'lib o'tgan ish-harakatni bildiradi va bu ish-harakat tugallangan bo'ladi. Bu fikrni xorijlik tilshunos S.H.Kellogg, ham quyidagi jumlar orqali tasdiqlaydi: "Tugal zamon urdu tilida turli grammatik shakllar yordamida ifodalanadi. U o'tgan voqeaning natijasini bildiradi."

Bugun men erta turdim. اٹھا ے سویر صبح میں آج۔

Kechqurun yomg'ir yog'di. - ئی ہوش بار کو رات آج۔

Hozirgi tugal zamon asosiy fe'lining sodda tugal sifatdoshiga bo'lib fe'lining hozirgi zamon sodda shakllarini qo'shish bilan yasaladi. J.Shakespeare: "Urdu tilidagi tugal zamon (perfect tense) boshqa hind-yevropa tillaridagi kabi bajarilgan harakatning hozirgi yoki kelajakka ta'sirini ko'rsatadi. Bunda yordamchi fe'l bo'lib asosiy rol o'ynaydi", deydi. Tugal hozirgi zamon ish-harakatning o'tgan zamonda bo'lib tugallanganligini va uning natijasi so'zlashuv paytida mavjud yoki dolzarb ekanligini bildiradi. O'tgan zamonda bo'lib o'tgan ish-harakatning natijasi hozirgi payt bilan bog'liqligi nazarda tutiladi. Masalan:

Men keldim (men shu yerdaman). ہوں۔ آیا میں

U ketdi (u bu yerda yo'q). ہے۔ گیا وہ

Uzoq o'tgan tugal zamon fe'li asosiy fe'lining sodda tugal sifatdoshiga bo'lib fe'lining o'tgan zamon sodda shakllarini qo'shish bilan yasaladi. Uzoq o'tgan zamon fe'li o'tgan zamonda bajarilgan va tugagan ish-harakatni bildirib, bu ish-harakat tamom bo'lganidan so'ng ma'lum bir vaqt o'tganligini yoki boshqa ish-harakat yuz berganligini ko'rsatadi. Misol uchun:

Avgust oyida biz Hindistonga borgan edik. تھے گئے بھارت ہم میں اگست۔

Bugun tunda yomg'ir yog'qan edi. - تھی ہوئی بارش کو رات آج۔

Uzoq o'tgan tugal zamonda bajarilgan ish-harakat o'tgan yil, o'tgan oy, o'tgan hafta, kecha, hatto bugun ertalab bajarilgan bo'lishi ham mumkin, agar gap bugun kunduzi yoki kechqurun aytilayotgan bo'lsa. Uzoq o'tgan zamon biror ish-harakatning boshqa ish-harakatdan avval bajarilganini ifodalash uchun ham ishlatiladi. Misol:

U kelganda men ovqatlanib bo'lgan edim. - تھا کھایا کھانا نے میں تو آیا وہ جب

Bu tugal zamonlarda kesimning o'timli yoki o'timsiz fe'l bilan ifodalanganligiga qarab ega va kesim moslashuvi turlicha bo'ladi.

O'timsiz fe'l bilan ifodalangan kesim ega bilan jins va sonda moslashadi:

Biz uyga qaytdik. لوٹے۔ گھر ہم

Kesim o'timli fe'l bilan ifodalangan bo'lsa, egadan so'ng ne ort ko'makchisi qo'yiladi, agar gapda vositasiz to'ldiruvchi bo'lsa, kesim u bilan jins va sonda moslashadi.

U kelishga va'da bergan edi. تھا۔ کیا وعدہ کا آنے نے اس

Gapda vositasiz to'ldiruvchi bo'lmasa yoki u ort ko'makchisi bilan kelgan bo'lsa, kesim neytral shaklda - muzakkar jinsi, birlikda keladi.

Men bu xabami eshitgan edim. تھا۔ سنا کو خبر اس نے میں

Urdu tilini o'rganuvchi talabalar ham shu uslubda ya'ni fe'li orqali tugal zamonni yasalishini o'rganadi, ammo hindshunos va urdushunos olim R.L.Schmidt o'z asarida fe'lining tugal zamon ifodalashda yordamchi fe'l sifatida ishlatilishini tasdiqlagan. O'tgan tugal, hozirgi tugal va uzoq o'tgan tugal zamonlar mavjudligi ma'lum, biroq hind-oriy tillari bo'yicha mutaxassis C. Masica: "Future Perfect Tense urdu tilida mavjud bo'lib, u harakatning "completed action in the future" (kelajakda tugallangan harakat) ekanligini bildiradi. Bu zamon "strong prediction" (ishonchli bashorat) yoki "assumed completion" (tugallanib bo'lishi ehtimoli)ni bildirishi mumkin" – degan fikrni ilgari suradi.

Mavzuni o'rganish jarayonida o'zbek xalq ijodiga oid "Uch og'ayni botirlar" asarining urdu tiliga hindshunos R.Muhammedjanovning qilgan tarjimasi tahlil qilinib, undagi tugal zamonga oid gaplar yig'ib chiqildi. Bunda faqat urdu tilidagi o'tgan tugal zamon emas, balki hozirgi tugal va uzoq o'tgan tugal zamonlar ham uchradi. 17 betlik ushbu asarda o'tgan tugal zamon keng qo'llanilgan bo'lib, umumiy hisobda 169 ta misoldan 126 ta tugal zamon, 24 ta hozirgi tugal zamon va 19 ta uzoq o'tgan tugal zamonlarga tegishli misollar yig'ildi. Asarning urdu tilidagi tarjimasida

ikkala tildagi tugal zamonlarning ishlatilishida unchalik katta farq bo'lmasada ba'zi o'xshashlik va tafovutlar kelib chiqdi.

1. Quyida tugal zamon bir xil qo'llanilgan misollar keltirilgan:

Uch og'ayni kun bo'yi yurib, ancha olisga ketibdilar. رکے بغیر دن سارا وہ گئے۔ نکل دور بہت سے گھر اپنے اور رہے چلتے

O'rtancha botir ham ajdarning terisidan bir tasma olib, beliga bog'lab olibdi. Keyin hech narsa ko'rmaganday bo'lib, supaga qaytibdi.

اس نے باتر اورتچہ توڑدیا دم نے اس سے تیسرے وار اور گیا ہو زخمی سخت سانپ اور لیا باندھ گرد کے کمر اندر کے کرتے کو اس کر کاٹ پٹہ لمبا ایک سے میں کھال کی ہو۔ نہ ہی ہوا کچھ جیسے گیا بیٹھ پر جگہ اپنی کر آ واپس

Ovqatlarini yeb bo'lgach, uxlash vaqtida yana navbatma-navbat poyloqchilik qilishga kelishishibdi. Birinchi bo'lib to'ng'ich botir navbatchilik qilibdi. پچھلی کہ کیا طے میں آتش نے انہوں تو چکے کھا کھانا جب چنانچہ گے دیں پہرہ باری باری اور گے سوئیں باری باری وہ بھی آج طرح کی رات بھائی بڑا اور گئے سو کر لیٹ بھائی دونوں چھوٹے اور منجھلے طرح کی رات گزشتہ لگا۔ دینے پہرہ باتر تونگیچ

Ish harakatning tugallanganini bildirish uchun kha kha bilan berilgan, چکنا fe'li ko'pincha shu funksiyada keng qo'llaniladi. Ammo asosiy fe'l bo'lib kelgan gaplar ham yo'q emas:

Tarbiyangiz orqasida jahon podshohlari oshiq bo'lib yig'lab yurgan qizlarning otasi sizga o'z qizlarini yig'lab tutadi, – dedi.

- ہیں چکے جھکا سر بادشاہ بڑے بڑے آگے کے جس ہوں باپ کا لڑکیوں ایسی

2. Bu gaplarda tugal zamon hech qanday o'zgarishlarsiz keltirilgan, endi esa tafovutlar tahlili quyidagicha bo'ladi:

Bu xabardan keyin mehmonxona egasi uch og'ayni botirlarni o'rdaga borishga taklif qilibdi. اپنے نے مالک کے سرائے کرواں چنانچہ جائیں۔ پہنچ میں دربار سے جلدی وہ کہ کہا سے مہمانوں

Bu gapda o'zbek tilidagi "taklif qilibdi" o'tgan tugal zamonda kelgan, lekin urdu tilida deb istak mayli bilan berilgan.

Kenja botir tepalikda akalarini uxlatib, poylab o'tirgan ekan, birdan shamol turib, chiroqni o'chirib qo'yibdi.

گھپ طرف چاروں رہا۔ دیتا پہرہ بیٹھا تک دیر تھوڑی باتر کینجہ بھائی چھوٹا کبھی رہا بیٹھا کیے بند آنکھیں اور کھلے کان باتر کینجہ لئے اس تھا۔ ہوا چھایا اندھیرا

اس دفعہ ایک تھا۔ لیتا کر بند آنکھیں پھر اور دیکھتا ادھر ادھر کر کھول آنکھیں کبھی ہے۔ گئی بجھ آگ کہ دیکھا تو کھولی آنکھیں نے

Shunda uzoqdan bir yorug'likka ko'zi tushibdi. دور اسے اچانک دیا۔ دکھائی ہوا ٹمٹماتا چراغ کوئی

O'zbek tilida aniq bir tugal zamon shakli bo'lmasada, bu gapda urdu tilida tugal zamonlarning katta ahamiyatga ega ekanligi yaqqol ko'rinib turibdiki, bu gapda uchchala tugal zamon qo'llanilgan. Keyingi gapda ham tafovut yuzaga keldi:

Asarning originalida "bir yorug'lik" ot so'z turkumi bilan kelgan, urdu tilidagi tarjimasida esa "ہوا ٹمٹماتا" ya'ni tugal zamon bilan berilgan. Shu asnoda tarjimon mahoratiga ko'z tashlamay iloj yo'q:

Tong otibdi. گیا۔ اٹھ پردہ سیاہ کا رات سے دنیا پوپھٹی،

Birgina "tong otishi"ni "dunyodan tunnig qora pardasi ko'tarildi" deya ta'riflagan. Tadqiqot jarayonida tafovutlar emas, o'xshashliklar ko'pligiga ishonch hosil qilindi. Quyidagi jumla bunga misol bo'la oladi:

Unda yana uchta eshik bo'lib, bu bo'lmada o'nta chiroyli qiz poyloqchi ekan-u, hammasi ham uxlab qolgan ekan. طرف تین میں ہال کی سب بھی وہ لیکن تھیں۔ تعینات پر پہرے لڑکیاں دس بھی یہاں تھے۔ دروازے تین تھیں۔ پڑی سوئی سب

Oradan ko'p vaqt o'tmasdan g'ordan boshi xumday, uzunligi chinorday bir ilon o'rmlab kela boshlabdi. سے غار بعد کے دیر ہی تھوڑی ہوئے کوگھسیٹتے بدن اپنے اور لپٹیتے ہوئے نامسرکو دیگ اپنے وہ نکلا۔ سلطان اڑدھا بڑھا۔ طرف کی چشمے

Yuqoridagi gapning aksiga bu gapda "xumday, chinorday" deb tasvirlashda sifat so'z turkumi qo'llanilgan, tarjimada esa bu so'zlar tugal zamon لپٹیتے ہوئے، bilan berilgan. گھسیٹتے

Xulosa qilib aytganda, ushbu tadqiqot davomida tugal zamonlar (Perfect Tense) urdu tiliga qanday tarjima qilinishi, ularning grammatik tuzilishi va qo'llanilishi "Uch og'ayni botirlar" asari misolida ko'rib chiqilib, tahlil qilindi. Tadqiqotning asosiy maqsadi – asarning o'zbekcha matni bilan uning urdu tiliga tarjimasi o'rtasidagi grammatik o'xshashlik va tafovutlarni aniqlash edi. Ish boshida

tarjima jarayonida sezilarli farqlar bo'lishi mumkin degan taxmin ilgari surildi, chunki har bir til o'ziga xos grammatik tizim va zamon shakllariga ega bo'lib, tarjima jarayonida ba'zan muayyan o'zgarishlar yuzaga keladi. Xususan, tugallangan zamonlarning ishlatilishi va ularning tarjimada aks ettirilishi lingvistik jihatdan muhim omil hisoblanadi. Biroq, tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, asarning urducha tarjimasida tugal zamonlarning ishlatilishi o'zbek tilidagi matn bilan deyarli bir xil bo'lib, sezilarli farqlar aniqlanmadi. Asardagi jumlar tarkibida o'tgan tugal zamonlar grammatik jihatdan o'zbekcha matnga mos holda tarjima qilingan. Bu esa o'zbek va urdu tillarining grammatik tizimlari o'rtasida sezilarli darajada o'xshashlik mavjudligini tasdiqlaydi.

Shuningdek, tahlil jarayonida quyidagi jihatlar kuzatildi:

Fe'l zamonlarining tuzilishi va ishlatilishi o'zbek va urdu tillarida juda yaqin bo'lib, har ikkala tilda ham fe'lning o'zgargan shakllari yordamida tugallanganlik ifodalanadi.

Mazmun jihatdan tafovutlar juda kam bo'lib, tarjimon matnni asl nusxaga sodiq qolgan holda urdu tiliga o'giran.

Bu natijalar tilshunoslik va tarjimashunoslik sohalarida urdu-o'zbek tillari o'rtasidagi grammatik yaqinlikni o'rganish uchun muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi. Kelgusida ushbu yo'nalishda yanada chuqurroq izlanishlar olib borish, ayniqsa, badiiy tarjimalarda grammatik va semantik o'zgarishlarni batafsil o'rganish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

Abduraxmonova M., Murtazaxodjayeva M., Zokirova U., Shorahmedova M., "Urdu tili", Toshkent, 2018, 418 b.

Aulova R, Rahmatov B, Sodiqova M. "Hindiy tili darsligi", Toshkent, 2008, 272b

Kellogg S. "A Grammar of the Hindi Language", 1893, 424 p.

Masica C. "The Indo-Aryan Languages", Cambridge University Press, 1991, 539 p.

Nurmonov A. Qiyosiy tilshunoslik asoslari. – Toshkent: Fan, 1999. 260 b.

Schmidt R. "Urdu: An Essential Grammar", London Routledge, 1999, 320 p.

Shakespear J. "A Grammar of the Hindustani Language", 1849, 212 p.

Xolmirzayev T. “Urducha-o‘zbekcha lug‘at”, Islomobod, Pokiston 2003. 458 b.

Ревзин И. Грамматическая структура индоарийских языков. – Москва: Наука, 1966. – С. 189

“GARRI POTER” ASARINING URDU TILIDAGI TARJIMASIDA SIFAT DARAJALARIGA OID SO‘ZLARNING USLUBIY O‘ZIGA XOSLIGI



Oltinbayeva Muborak

*TDSHU 3-kurs, Filologiya va tillarni o‘qitish,
urdu-ingliz guruhi talabasi
Ilmiy rahbar: U.Zakirova*

Annotasiya: Ushbu maqolada sifat darajalarining tuzilishi va ularning urdu, hamda ingliz tillarida ifodalash xususiyatlari o‘rganilgan. Tadqiqot davomida sifat darajalarining uchta turi alohida tahlil qilinib, har bir darajaning ikki tilda bir biriga mosligi, o‘xshashligi va farqli jihatlari taqqoslab tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Sifat, sifat darajalari, oddiy daraja, qiyosiy daraja, orttirma daraja, urdu tili, ingliz tili, taqqoslash, tahlil, Garri Poter.

Sifat – predmetning belgisini ifodalovchi, uning rangini, shaklini, hajmini, ta‘mini, hidini, ichki xususiyatlarini, hatti-harakatga oid belgi va holatlarini bildiruvchi mustaqil so‘z turkumidir. Sifatlar predmetning qandayligini yoki qanday xususiyatga ega ekanligini bildiradi. Sifatning

morfologik belgilaridan biri uning darajalanish xususiyatidir. Sifat darajalar 3xil bo‘ladi: oddiy, qiyosiy va orttirma.

Shu kabi urdu tilida ham sifatlar uchta darajaga bo‘linadi:

Oddiy daraja - bu daraja hech qanday solishtirishsiz, faqat narsaning xususiyatini bildiradi. Masalan: اچھا - yaxshi, بڑا - katta. Sifatning qiyosiy darajasi esa ikki narsa o‘rtasidagi taqqoslashni bildiradi. Urdu tilida bu holat “زیادہ” ko‘proq yoki “کم” kamroq so‘zlari orqali yoki sifatning maxsus shakli bilan ifodalanadi. Tuzilishi: زیادہ + sifat, کم + sifat. Urdu tilida ba’zi sifatlar maxsus shaklga ega bo‘lib, fors tili ta’sirini ham aks ettiradi. Masalan: کمزورتر - کمزور (yaxshi-yaxshiroq-eng yaxshi), بہترین - بہتر - اچھا (zaif - zaifroq - eng zaif). Shuningdek orttirma daraja ham bo‘lib, bu daraja biror narsaning eng yuqori darajada ekanini bildiradi. Urdu tilida “سب سے” eng yoki “زیادہ بہت” juda ham ko‘p so‘zlari qo‘llaniladi. Ba’zi sifatlar maxsus orttirma shaklga ega. Masalan: زیادہ بہت + سب سے + sifat, سب سے + sifat.

Urdu tilidagi 3ta sifat darajasi kabi ingliz tilida ham sifatning uchta darajasi mavjud:

Hech qanday taqqoslashsiz, sifatning oddiy holatini bildiradi Positive degree (tall, interesting). Ikki narsa yoki shaxsni solishtirish uchun ishlatiladigan Comparative degree (-er qo‘shimchasi yoki more so‘zi orqali hosil qilinadi: taller, more interesting). Bir nechta narsalar ichida eng yuqori yoki eng past darajani bildiradigan Superlative degree (-est qo‘shimchasi yoki the most so‘zi bilan hosil qilinadi: the tallest, the most interesting).

Sifat darajalarining ishlatilish maqsadi quyidagilardan iborat:

Tillarda sifat darajalari (degree of adjectives) predmet yoki hodisalarning belgilarini solishtirish, ularning darajasini aniqlash va ta’kidlab ko‘rsatish uchun ishlatiladi. Bu tillarda sifat darajalari quyidagi asosiy maqsadlarda qo‘llanadi:

Oddiy daraja (Positive Degree) – Asosiy belgi ifodasi. Bu daraja predmet yoki shaxsning belgisini hech qanday taqqoslashsiz oddiy holatda ifodalaydi. O‘zbekcha: yaxshi, tez, chiroyli, aqlli. Urducha: تیز - achchā, اچھا - tez, خوبصورت - khubsurat, ذہین - zaheen. Maqsad: Biror narsaning tabiiy sifatini ta’riflash.

Bu kitob qiziqarli. بے دلچسپ کتاب یہ

Qiyosiy daraja (Comparative Degree) – Solishtirish maqsadi. Ikki yoki undan ortiq narsalarni solishtirish uchun ishlatiladi. O‘zbekcha: yaxshiroq, tezroq, chiroyliroq, aqlliyoq. Urducha: بہتر - behtar, تیز زیادہ - ziyāda tez, زیادہ زیادہ - ziyāda khubsurat, ذہین زیادہ - ziyāda zaheen. Maqsad: Biror narsa

yoki shaxsning boshqa narsa yoki shaxsga nisbatan ustun yoki pastligini ko'rsatish.

مقابلے کے پچھلی گاڑی یہ۔ Bu mashina oldingisiga qaraganda yaxshiroq. ہے۔ بہتر میں

Orttirma daraja (Intensifying Degree) – Kuchaytirish maqsadi. Sifat belgisining yuqori darajada ekanligini bildiradi. O'zbekcha: juda yaxshi, nihoyatda tez, haddan tashqari chiroyli, juda aqlli. Urdu: اچھا بہت - bahot achchā, تیز نہایت - nihāyat tez, حد سے زیادہ - had se ziyāda khubsurat, ذہین انتہائی - intehāyi zaheen.

Maqsad: Biror narsaning belgisini kuchaytirib ifodalash.

ہے۔ دلچسپ بہت فلم یہ۔ Bu film juda qiziqarli.

Urdu va o'zbek tillarida sifat darajalari fikrni aniq va ta'sirli ifodalash, narsalarni solishtirish va belgilarning kuchayish darajasini ko'rsatish uchun ishlatiladi. Har ikkala tilda ham taqqoslama, orttiruvchi va eng yuqori daraja o'xshash ma'nolarga ega bo'lib, asosan gapning ta'sirchanligini oshirish uchun ishlatiladi. Bu borada bir qancha tilshunos olimlarning fikrlarini misol tariqasida keltirish mumkin. Masalan, o'zbek tilshunos olimi A. Matchonovning fikriga ko'ra, "O'zbek tilida sifat darajalari gap tarkibida muhim stilistik yuk ko'taradi. Ayniqsa, orttirma daraja nutqda kuchli ta'sir o'tkazuvchi vosita sifatida qo'llaniladi."

Amerikalik tilshunos L. Bloomfield o'zining "Language" kitobida sifat darajalari haqida shunday yozadi: "Qiyosiy va orttirma darajadagi sifatlar tilning analitik va sintetik xususiyatlarini aks ettiradi. Ba'zi tillarda sifatning darajalari mustaqil so'zlar bilan hosil qilinsa, boshqalarda morfologik o'zgarishlar orqali yuzaga keladi. Bu tipologik jihatdan tillarni tasniflashda muhim mezonlardan biridir." Bu fikrga ko'ra, urdu va o'zbek tillari analitik va sintetik usullarni o'zida mujassam qilgan tillar qatoriga kiradi.

Sifatlarning xususiyatlari va ishlatilish maqsadi haqida urdu tilshunosligida muhim rol o'ynagan J. Plattsning fikrini alohida ta'kidlash joiz. Unga ko'ra, "Urdu tilida sifat darajalari turli tildan kirgan grammatik shakllar asosida shakllangan. Xususan, fors va arab tillaridan o'tgan 'بہتر' (yaxshiroq) va 'بہترین' (eng yaxshi) kabi shakllar tabiiy ravishda urdu tilida ishlatiladi."

J. K. Rowlingning fantaziya janri asosida yozilgan 7ta qismdan iborat bo'lgan "Harry Potter" romanining birinchi qismi birinchi bobida sifat so'z turkumiga oid so'zlar yig'ib olindi va tahlil qilindi. Romanning asl matni ingliz tilida yozilgan. J.K. Rowling asarining urdu tiliga tarjimasi jarayonida nafaqat oddiy sifatlar, balki sifat darajalari: oddiy, qiyosiy,

hamda orttirma sifatlar ham qo'llanilgan. Ilmiy tadqiqot jarayonida sifat darajalariga e'tibor qaratilganda, asl matni bilan urdu tiliga tarjimada bir xillik, o'xshashlik, hamda tafovutli tomonlari ko'zga ko'rindi. Bu kitobning 17 betlik bir bobida asosan oddiy sifat darajalari keng qo'llanilgan. Umumiy soni ingliz tilida 129 tadan 118tasi, urdu tilidagi tarjimasida esa 161 ta bo'lgan sifatlardan 150tasi oddiy sifat darajalari bo'lib, ulardan 6tasi qiyosiy daraja va 5tasi orttirma darajadagi sifatlar ekanligi ma'lum bo'ldi. Tilshunos olimlarning fikrini inobatga olgan holda, ikki tildagi asarning tahlilini quyidagi guruhlarda ko'rib chiqamiz.

I.1.Urdu va ingliz tillarida qo'llanilgan sifatlar bir-biriga mos kelgan. Masalan:

گہری سڑک پوری پھر اور کیا کلک مرتبہ بارہ کو آئے اس والے بجھانے بلب نے انہوں
- گئی ڈوب میں تاریکی

بلی بھوری اس جو دیی دکھائی ہوئی جلتی روشنیاں ننھی ننھی دو میں تاریکی گہری اس
- تھیں آنکھیں کی

He clicked it again – the next lamp flickered into darkness. Twelve times he clicked the Put-Outer, until the only lights left in the whole street were two tiny pinpricks in the dis-tance, which were the eyes of the cat watching him.

Urdu tilida پوری ingliz tilida whole sifati bilan ishlatilgan. Ingliz tilida tiny urdu tilida ننھی ننھی sifati bilan mos kelgan.

شوق وہ آتی نہیں ذرا شرم اسے اور ہوگی زیادہ بھی سے مجھ تو عمر کی آدمی اس ارے
ہے۔ ہوئے پہنے چوغہ کا رنگ سبز

Mr Dursley was enraged to see that a couple of them weren't young at all; why, that man had to be older than he was, and wearing an emerald-green cloak!

Urdu tilida ishlatilgan رنگ سبز شوق ingliz tilidagi emerald-green sifati bilan bir xil ma'noda kelgan.

I.2.Bundan tashqari yana bir gapda bir biriga qisman mos kelgan sifatlarni ham uchratish mumkin:

اُداس اور بوجھل، اس ڈرسلی مسز و مسٹر جب ہے ہوتی شروع سے وہاں کہانی ہماری
یہ بھی کوئی کر دیکھ کو آسمان ہوئے بھرے سے بادلوں تھے۔ ہوئے بیدار کر سو دن کے منگل
آنے میں لپیٹ کی حادثات بھیانک کے قسم غریب و عجیب ملک پورا کہ تھا سکتا نہیں سوچ
ہے۔ والے

When Mr and Mrs Dursley woke up on the dull, grey Tuesday our story starts, there was nothing about the cloudy sky outside to suggest that strange and mysterious things would soon be happening all over the country.

Bu jumlada ingliz tilida Dull-بوجھل esa urdu tilida ifodalanganini, grey esa-اُداس sifatiga qisman mos kelishini, strange and mysterious-عجیب و عجب sifatlari bilan yozilganini ko‘rish mumkin.

I.3.Boshqa gapda esa sifatlar o‘rtasidagi farqlarni ko‘rish mumkin.

پوری بچہ ہونہار اور عمدہ پیارا، سے ڈڈلی کہ تھا فیصلہ حتمی یہ کا ڈرسلی مسز و مسٹر ہوسکتا۔ انہیں پیدا کہیں میں دنیا

The Dursleys had a small son called Dudley and in their opinion there was no finer boy anywhere.

Urdu tilidagi mantda oddiy sifat ishlatilgan bo‘lsa, ingliz tilidagisida esa aynan o‘sha so‘z ravish orqali ma’nosi yoritilgan:

Anywhere(ravish) - دنیا پوری

اُداس اور بوجھل، اس ڈرسلی مسز و مسٹر جب ہے ہوتی شروع سے وہاں کہانی ہماری یہ بھی کوئی کر دیکھ کو آسمان ہوئے بھرے سے بادلوں تھے۔ ہوئے بیدار کر سو دن کے منگل آنے میں لپیٹ کی حادثات بھیانک کے قسم غریب و عجیب ملک پورا کہ تھا سکتا نہیں سوچ ہے۔ والے

When Mr and Mrs Dursley woke up on the dull, grey Tuesday our story starts, there was nothing about the cloudy sky outside to suggest that strange and mysterious things would soon be happening all over the country.

Urdu tiliga tarjimada ya’ni بھرا ya’ni بھرے سے بادلوں sifatiga ochiqlangan bo‘lsa, ingliz tilida osmon cloudy sifatiga ta’svirlangan.

تھا۔ رہا دے دکھائی ہوا لکھا ”اسٹریٹ پرائیویٹ“ میں حروف بڑے بڑے پر جس

It was now reading the sign that said Privet Drive – no, looking at the sign; cats couldn’t read maps or signs.

Yana birida esa atoqli joy nomi بڑے بڑے sifatiga katta harfda yozilishi ta’kidlangan bo‘lsa, ingliz tilidagi asl mantda shunchasi Privet Drive tarzida yozilgan.

رہے دے دکھائی پھرتے چلتے میں کثیرتعداد طرف ہر لوگ ملبوس میں چوغوں لمبے تھے۔

People in cloaks.

Urdu tilida kiyimga ta’rif berilib, uning uzunligini لمبا sifatiga ishlatilb, ingliz tilida cloaks aynan bir kiyim turi ekanligi yozilgan.

انہیں جو تھا مصروف میں سوچنے میں بارے کے آرڈر اس کے کام کے کھرائی ذہن کا ان تھی۔ توقع کی ملنے دن اس

As he drove towards town he thought of nothing except a large order of drills he was hoping to get that day.

Urdu tilida آرڈر sifatiga ishlatilgan bo‘lsa, ingliz tilida order so‘zi large sifatiga bilan yozilgan.

”کیوں؟“ - غرائیں میں آواز تیکھی ڈرسلی مسز ”انہیں“

‘No,’ she said sharply.

Urdu tilida تیکھی sifati ishlatilgan, ingliz tilida sharply ravish vazifasida kelgan.

ہی حرکات کی آلوں صرف آج لیکن سکتا کہہ نہیں کچھ تو میں بارے کے اس میں“
- رہی نہیں عجیب

Well, Ted,’ said the weatherman, ‘I don’t know about that, but it’s not only the owls that have been acting oddly today.

Yana bir gapda ham urdu tilida عجیب sifati ishlatilgan bo’lsa, ingliz tilidagi asl mantda oddly ravish vazifasida kelgan.

- لی برل کروٹ اور لی جمائی گہری نے انہوں

He yawned and turned over.

Bu jumlada urdu tilida لی جمائی گہری sifat bilan ifodalangan bo’lib, ingliz tilida yawned fe’l bo’lgan.

گہری سڑک پوری پھر اور کیا کلک مرتبہ بارہ کو آئے اس والے بجھانے بلب نے انہوں
- گئی ڈوب میں تاریکی

بلی بھوری اس جو دیی دکھائی ہوئی جلتی روشنیاں ننھی ننھی دو میں تاریکی گہری اس
- تھیں آنکھیں کی

He clicked it again – the next lamp flickered into darkness. Twelve times he clicked the Put-Outer, until the only lights left in the whole street were two tiny pinpricks in the dis-tance, which were the eyes of the cat watching him.

Bu gaplarda sifatlar 2-3 ta gaplarga tarqalib ketgan va turli xil vazifada ishlatilgan. Ya’ni urdu tilida تاریکی گہری sifat bilan ifodalangan bo’lsa, ingliz tilida darkness ot so’z turkumi vazifasida. Bundan tashqari lights left urduda گہری sifati bilan kelgan. Ingliz tilidagi the cat sifat so’z turkumisiz kelgan bo’lsa, urdu tilida بھوری sifat bilan ta’svirlangan. Bundan biz tarjimonlarning mahoratini ham ko’rishimiz mumkin.

II.1.Sifatning oddiy darajasidan tashqari qiyosiy darajada ham ikki tildagi o’xshashlik, hamda tafovutni ko’rishimiz mumkin. Masalan:

Ba’zi gaplarda urdu tilida ham ingliz tilidagi asl matnda ham sifat bir xil vazifada ya’ni qiyosiy darajada ishlatilgan.

بے ہوا نہیں ایسا لیکن رہتے محتاط تھوڑے سب ہوتی میں اسی عقلمندی ویسے“

‘You’d think they’d be a bit more careful, but no – even the Muggles have noticed something’s going on.

Yuqorida oddiy darajadagi sifatga misol tariqasida keltirgan bir gapda qiyosiy darajadagi sifat ham uchradi.

پوری بچہ ہونہار اور عمدہ پیارا، سے ڈڈلی کہ تھا فیصلہ حتمی یہ کا ڈرسلے مسز و مسٹر
ہوسکتا۔ انہیں پیدا کہیں میں دنیا

The Dursleys had a small son called Dudley and in their opinion there was no finer boy anywhere.

Ingliz tilidagi ya'ni asl matnda bolaga ta'rif berish uchun bitta sifat qiyosiy darajada kelgan bo'lsa, urdu tiliga tarjimasida esa bolaga 3 xil sifat yordamida ta'rif berilgan bo'lib, bu ham qiyosiy darajada ishlatilgan:

Finer – بچہ ہونہار اور عمدہ پیارا، سے ڈٹلی۔

II.2. Bundan tashqari ulardagi farqli jihatlari ham uchraydi.

شوخی وہ آتی نہیں ذرا شرم اسے اور ہوگی زیادہ بھی سے مجھ تو عمر کی آدمی اس ارے ہے۔ ہوئے پہنے چوغہ کا رنگ سبز

Mr Dursley was enraged to see that a couple of them weren't young at all; why, that man had to be older than he was, and wearing an emerald-green cloak!

Urdu tilida kengroq yoritilgan tarzida sifat ishlatilmagan. Ingliz tilida esa older qiyosiy darajadagi sifat ishlatilgan. Ya'ni bitta sifat orqali tasvirlangan.

III. 1. Sifatning yana bir darajasi bo'lgan orttirma darajadagi vazifasida ham bir nechta gaplarni misol qilib keltirish mumkin. Ulardan asl matn bilan mutlaqo mos keladiganlari quyidagilar:

سب میں الماری اور کردی شروع تیاری کی جانے دفتر ہوئے گنگناٹے نے ڈرسلے مسٹر - نکای ٹائی کن بیزار سے

Mr Dursley hummed as he picked out his most boring tie for work and Mrs Dursley gossiped away happily as she wrestled a screaming Dudley into his high chair.

ہے جگہ اچھی سے سب کیلئے اس یہ

'It's the best place for him,' said Dumbledore firmly.

Urdu tilida ishlatilgan orttirma daraja sifati ingliz tilidagi the best sifatiga mos kelgan.

III. 2. Ilmiy tadqiqot jarayonida har bir darajada bo'lgani kabi orttirma darajadagi sifatlarda ham tafovutlarni ko'rish mumkin. Masalan:

ایک میں زندگی کی ان لیکن تھے رکھتے خواہش وہ کی جس تھا کچھ سب وہ پاس کے تھا۔ رکھتا کئے خوفزدہ ہمیشہ انہیں جو تھا ہوا چھپا راز گہرا

The Dursleys had everything they wanted, but they also had a secret, and their greatest fear was that somebody would discover it.

Bu gapda uchragan oddiy daraja sifati asl matnda ya'ni ingliz tilida orttirma darajadagi greatest sifatiga bilan ifodalagan.

Xulosa qilib shuni aytish joizki, biror narsa yoki shaxsning belgisini ifodalovchi, uning holati, shakli hamda xususiyatlarini bildiruvchi sifat darajalari o'zbek, ingliz hamda urdu tillarida ham sifat darajalari

predmetning xususiyatlarini bildiradi va uning 3ta darajasi mavjud. Har bir tilda sifat darajalarining maxsus soʻzlari yoki qoʻshimchalari orqali ifodalanadi va u fikrni aniqroq ifodalash uchun xizmat qiladi. J.K.Rowlingning “Harry Potter and the Philosopher’s Stone” asarining urdu tiliga tarjimasida jami 161ta sifat darajalari, ingliz tilida esa jami 129ta uchragan sifat darajalari guruhlariga boʻlib tahlil qilindi. Har bir sifat darajalari alohida alohida 3ta guruhga ajratib oʻrganildi. Bunda bir biriga mos keladigan, qisman mos keladigan hamda butunlay tafovutli joylari kuzatildi. Bu oʻrganish natijasida nafaqat sifat darajalarini ishlatilish xususiyatlari, balki urdu, hamda ingliz tillarida sifat darajalarini tarjima qilishda tarjimonning mohirona tarjima usuli ham koʻzga tashlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

Abduraxmonova M, Murtazaxodjayeva M, Zokiriva U, Shorahmedova M. “Urdu tili”, Toshkent, 2018

Bloomfield L. “Language”. New York, 1933

Matchonov A. “ O‘zbek tili stilistikasi” Toshkent, 1981

Platts J.T. “A Grammar of the Hindustani or Urdu Language.” London, 1874


Rowling J. “Harry Potter and the Philosopher’s Stone” Great Britain, 1997

Xolmirzayev T. “Urducha-o‘zbekcha lug‘at”, Islomobod, Pokiston, 2003

Zomirovich D. “Garri Potter va afsonaviy tosh”, Toshkent, 2018

<https://www.urduchannel.in/harry-potter-aur-paras-patthar/>

BIRIYANI – HIND MILLIY TAOMI



Usanova Muxlisa

*TDSHU 3-kurs, Antropologiya va etnologiya yo‘nalishi
hind-ingliz guruhi talabasi*

Ilmiy rahbar: A. Yunusova

Annotatsiya: Mazkur maqolada Hindistonning mashhur milliy taomi — biriyanining hind xalqi hayotidagi o‘rni yoritiladi. Biriyani nafaqat mazali taom, balki Hindistonning tarixiy, madaniy va diniy merosini aks ettiruvchi muhim unsurlardan biri sifatida tasvirlanadi. Maqolada biriyan taomining paydo bo‘lish tarixi, uning turli hududlarga xos bo‘lgan variantlari, tayyorlanish jarayonidagi madaniy jihatlar hamda oilaviy, diniy va ijtimoiy marosimlardagi ahamiyati haqida so‘z boradi. Shuningdek, ushbu taom hind xalqining mehmondo‘stligi, urf-odatlar va ijtimoiy birdamligining timsoli sifatida talqin qilinadi. Maqola hind xalqining turmush tarzini, qadriyatlarini va oziq-ovqat madaniyatini chuqurroq tushunishga xizmat qiladi.

Kalit soʻzlar: Biryani, basmati guruchi, xaim va jerakasala (खाईमा, जेराकासाला) guruchlari, marinadlash, dum (दूम्), Haydarobodcha Biryani, Lukanashi Biryani, Kalkutta Biryani, Keora (केओरा) suvi, Lukanashi Biryani, Laknau shahri, Malabarcha Biryani, Malabar mintaqasi, Thalassery Biryani, Avadhi Biryani

Xalqlarni oʻrganishda milliy taomlarning oʻrni beqiyosdir, chunki ular har bir xalqning tarixiy taraqqiyoti, yashash tarzi, iqlimi, diniy eʼtiqodlari va madaniy qadriyatlarini oʻzida mujassam etadi. Milliy taomlar xalq madaniyatining ajralmas qismi boʻlib, ovqat tayyorlash usullari, mahsulotlar tanlovi, dasturxon atrofidagi urf-odatlar orqali xalqning maʼnaviy dunyosi, mehmondoʻstligi va qadriyatlari namoyon boʻladi. Ular tarixiy izlanishlar uchun muhim manba boʻlib xizmat qiladi, chunki qadimda qanday mahsulotlar ishlatilgani, ularning kelib chiqish manbalari, savdo yoʻllari orqali boshqa xalqlar bilan qanday aloqalar boʻlgani haqida tasavvur beradi. Bundan tashqari, milliy taomlar ijtimoiy va diniy eʼtiqodlarning ham aksidir. Ayrim taomlar muayyan diniy bayramlar yoki marosimlar bilan chambarchas bogʻliq boʻlib, bu esa xalqning ruhiy va axloqiy hayotini tushunishda muhim rol oʻynaydi. Shuningdek, milliy taomlar xalqning turmush tarzidan, yaʼni iqlim sharoiti va iqtisodiy imkoniyatlaridan darak beradi. Masalan, sovuq mintaqalarda yogʻli, issiq taomlar ustuvor boʻlsa, issiq hududlarda yengil va oson hazm boʻladigan taomlar tayyorlanadi. Nihoyat, milliy taomlar xalqlararo yaqinlikni oshirishda muhim vosita boʻlib, boshqa millatlar tomonidan oʻrganilib, qadrlanganda madaniy almashinuv va doʻstlik mustahkamlanadi. Shunday ekan, milliy taomlar bu shunchaki ovqat emas, balki xalqning ruhi, tarixi va hayot falsafasini oʻzida aks ettiruvchi boy madaniy merosdir.

Asosiy qism. Jahondagi har bir xalq madaniyatining bir qismi hisoblangan oʻzining maxsus taomlari bilan mashhur boʻladi. Italyan oshxonasi oʻzining pitsasi va makaroni bilan taniqli boʻlsa, yaponlar sushi va ramen bilan faxrlanadilar, shuningdek braziliyaliklar kundalik hayoti va bayramlarini feyxoda va brigadeyrosiz tasavvur eta olmasalar, hind xalqi oʻzlarining sevimli va mazali taomlari sifatida biriyanini (बिरियानी) sevib istemol

qiladilar. Biriyani (बिरियानी) Hindiston va unga yondosh hind madaniyati tarqalgan davlatlarda istemol qilinadi. Misol uchun Pokiston, Bangladesh, Shri-Lanka va bir qator Janubiy Osiyo xalqlarida ham ushbu taomni uchratishimiz mumkin. Hatto Janubiy-Gʻarbiy Osiyoning Eron va Iroq kabi davlat oshxonalari uchun ham milliy taom hisoblanar ekan

Biriyani (बिरियानी) uchun kerakli mahsulotlar Basmati guruchi (बासमती), goʻsht (tovuq, qoʻy, mol goʻshti yoki boshqa afzal koʻriladigan goʻsht), xushboʻy ziravorlar (zira, koriander, kardamon, chinnigullar, dolchin, dafna barglari va boshqalar), piyoz (bezatish uchun toʻgʻralgan va qovurilgan), yogurt yoki tvorog, oʻsimlik yogʻi, yangi koʻkatlar (yalpiz, koriander), zaʼfaron barglari (iliq sutga namlangan), zanjabil-sarimsoq pastasi, yashil qalampir, kartoshka, pomidorlardir. Basmati guruchi haqida biroz toʻxtalsak, basmati guruchi oʻzining xushboʻyli va oʻziga xos taʼmi bilan mashhur. U odatda “guruchlar malikasi” va “guruch marvaridi” nomi bilan tanilgan. Hindiston basmati guruchining eng yirik yetishtiruvchisi, isteʼmolchisi va eksportchisi hisoblanadi. Hindiston jahon bozorlarida basmati boʻyicha monopoliya mavqeiga ega. Yuqorida taʼkidlanganidek, turli davlat va mintaqalar boʻyicha mahsulotlarda farqlanishlar boʻlishi mumkin. Hind diniy eʼtiqodidan kelib chiqib, sigir goʻshti istemoli kam uchraydi. Keng tarqalgan Biriyani tayyorlash usullarida asosan tovuq goʻshtidan foydalaniladi.

Tayyorlanish tartibi ham bir qancha alohida jarayonlarni oʻz ichiga oladi. Jumladan, marinadlash taomning tayyorlanishidagi muhim ishlardan biri, taomning mazali chiqishida marinadlashning oʻrni kattadir. Goʻshtni yogurt, zanjabil-sarimsoq aralashmasi, yashil chili va ziravorlar aralashmasida marinadlanadi. Taʼmni yaxshilash uchun uni bir necha soat alohida joyda saqlanadi. Goʻshtning pishilishida uni yogʻda qovurish eng keng tarqalgan usul hisoblanadi. Keyingi bosqichdagi asosiy mahsulot guruch hisoblanadi. Biriyani (बिरियानी) uchun maxsus Basmati guruchidan (बासमती) foydalaniladi. Basmati guruchini qaynatib, bir chetga qoʻyiladi. Guruchni qisman pishirish kerak, chunki u goʻsht bilan birga pishirishni tugatadi. Guruchni pishirish jarayonidagi oʻzgacha holat esa, guruchning

bitta o‘zi qaynatilmasdan unga yashil qalampir, dolchin va boshqa bir qator zirovarlar bilan birgalikda pishirilishidadir. Alohida idishlarda pishirilgan mahsulotlarni birlashtirish keying vazifadir. Qozonga marinadlanib pishirilgan go‘shning ustiga qisman qaynatilgan guruchni qo‘yiladi. Qatlamlar orasiga za‘faron bilan namlangan sut, qovurilgan piyoz, sariyog‘ va yangi ko‘katlar qo‘yiladi. Bu kabi qatlamlash jarayoni bir necha bosh amalga oshiriladi. Bu ishdan ko‘zlangan maqsad esa alohida idishlarda pishirilgan mahsulotlarning uyunlashib, yagona bir ta‘m yaratishdan iborat. Yagona qozonga qatlamlangan mahsulotlarning usti yopiladi va bir muddat past olovda pishiriladi. Hind oshxonasidagi bunday usulda pishirilish dum (दूम्) deb ataladi.

Hind biriyanisining ham birgina Hindiston misolida turlicha pishirilish usullari bor. Masalan, o‘zining boy va achchiq ta‘mi bilan tanilgan Haydarobodcha Biryani ko‘pincha basmati guruchi, marinadlangan go‘sh (odatda tovuq yoki qo‘y go‘sh) va aromatik ziravorlar aralashmasidan iborat. An‘anaviy ravishda dum usuli yordamida pishiriladi. Lukanashi Biryani Uttar Pradesh shimolidagi Laknau shahridan kelib chiqqan bu biryani o‘zining nozik ta‘mi va xushbo‘y ziravorlardan foydalanishi bilan ajralib turadi. U ko‘pincha yumshoq go‘shdan tayyorlanadi va za‘faron qo‘shilib qaynatilgan guruch bilan qopladi. Kalkutta Biryani: Kalkuttada biryani go‘sh (odatda echki go‘sh) bilan birga kartoshkani o‘z ichiga olgan holda o‘ziga xos ta‘sirga ega. Guruch ko‘pincha mahsus keora (केओरा) suvi bilan qaynatiladi va boshqa biryani navlariga qaraganda yengilroq bo‘ladi. Malabarcha Biryani Keralaning Malabar mintaqasidan kelib chiqqan bu biryani xushbo‘y ziravorlar va Hindiston yong‘og‘idan ko‘p foydalanishi bilan mashhur. Unda ko‘pincha Xaim, Jerakasala (खाईमा, जेराकासाला) guruch kabi mazali mahalliy guruch navlari ishlatiladi. Thalassery Biryani Jerakasala (जेराकासाला) deb nomlangan maxsus xushbo‘y guruchdan foydalanish bilan tavsiflanadi. U odatda tovuq yoki qo‘y go‘shini o‘z ichiga oladi va ziravorlar aralashmasi bilan quyiladi. Avadhi Biryani Uttar Pradesh shtatidagi Avadhi viloyatidan kelib chiqqan o‘zining sekin pishirilgan go‘sh, xushbo‘y ziravorlari va za‘faronidan foydalanishi bilan

mashhur. Ko‘pincha boshqa biriyanislarga qaraganda ta‘mi jihatidan nozikroq hisoblanadi. Bombaycha Biryani Mumbayda mashhur bo‘lgan bu biriyanini ko‘pincha aromatik ziravorlar aralashmasini o‘z ichiga oladi va o‘zining qalin ta‘mi bilan mashhur. Unda odatda basmati guruch, go‘sht (ko‘pincha tovuq) mavjud va qovurilgan piyoz va yalpiz bilan bezatilgan bo‘ladi.

Xulosa. Milliy taomlar har bir xalqning madaniyati, tarixi va turmush tarzining yorqin ifodasidir. Ular nafaqat oziq-ovqat mahsuloti, balki xalqning urf-odatlarini, diniy e‘tiqodlari va qadriyatlarini o‘zida mujassam etgan muhim madaniy boylikdir. Ayniqsa, Hindistonda biriyanini taomi xalq hayotining ajralmas qismiga aylangan. U o‘zining xilma-xilligi, mazasi va tayyorlanish marosimi bilan hind xalqining boy gastronomik an‘analarini aks ettiradi. Biryani nafaqat oddiy kundalik taom, balki to‘y-ma‘rakalar, diniy bayramlar va muhim tadbirlarning ham asosiy bezagi hisoblanadi. Ushbu taom orqali hind xalqi o‘zining mehmondo‘stligi, birlik va madaniy xilma-xilligini namoyon etadi. Shu bois, biriyanini Hindiston madaniy merosining ajralmas timsoli sifatida e‘tirof etiladi va uning ahamiyati nafaqat milliy, balki xalqaro miqyosda ham tobora ortib bormoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. National Centre of Excellence and Advanced Research on Diets (NCEARD). Recipe Book / NCEARD. – New Delhi: Lady Irwin College, n.d. – 20b.
2. Khalid A. Indian cooking step by step guide to, 84p ISBN 0600 38093 9 Printed in Italy
3. Vd. Rajesh Kotecha, Secretary, Ministry of Ayush , Shri Roshan Jaggi, Joint Secretary, Ministry of Ayush, 52p
4. Feyxoada - Secret World
<https://m.sworld.co.uk/amp/feyxoada>

5. Brigadeiro Recipe

<https://www.allrecipes.com/recipe/24052/brigadeiro/>

6. Chicken Biryani Recipe - Swasthi's Recipes

<https://www.indianhealthyrecipes.com/chicken-biryani-recipe>

7. Biryani reciepes by Zubaida tariq

<https://ia800501.us.archive.org/33/items/BiryaniMethod/Biryani%20Method.pdf>

8. <https://agritech.tnau.ac.in/banking/pdf/Basmati.pdf>

9. Coriander, Coriander, Simply Organic, 65 g - Toshkent va O‘zbekistonda sotib oling | Narxi Biotus

<https://biotus.uz/uz/koriandr-coriander-simply-organic-65-g.html>

10. Mr. Rajeev Kumar, BASMATI RICE, Course Name- Field Crops-I

Course code- BSCAG-211, Department of Agriculture Monad University, Hapur (U.P.)

11. marinadlash – Zira.uz

<https://zira.uz/uz/t/marinadlash/>

12. keora सबसे अच्छी कीमत पर कानपुर में | के आर एंड सीओ.

<https://www.tradeindia.com/products/keora-6042243.html>

MUSTAQILIK DAVRIDA MALAYZIYA TA'LIM SOHASIDAGI MUAMMOLAR



Shoislom Shapsanov Jaxongirovich

TDSHU 2-kurs, Gid hamrohligi va tarjimonlik faoliyati:

Malay-ingliz guruhi talabasi

Ilmiy rahbar: Toshpo'latova Zarnigor

Annotatsiya: Ushbu maqolada Malayziyaning mustaqillik davrida ta'lim tizimida yuzaga kelgan muammolar tahlil qilinadi. Mustaqillikka erishgach, mamlakat o'zining milliy ta'lim tizimini shakllantirish va modernizatsiya qilish yo'lida bir qator qiyinchiliklarga duch keldi. Maqolada ta'limning milliy identifikatsiya, ko'p millatli jamiyatdagi muvozanat, ta'lim tizimidagi infratuzilmalarning rivojlanishi va texnologiyaning ta'lim sohasiga jadal suratda kirib kelishi va shu yo'ldagi barcha muammolar ko'rib chiqiladi. Shuningdek, Malayziya hududida yashovchi boshqa din, madaniyat va millat vakillarining o'z erkinliklarini inobatga olgan holda har bir malayziyalik fuqaro uchun turli milliy maktablar tashkil qilinishi jarayonlari va har bir istiqomat qiluvchi millat fuqarosi uchun ta'lim sohasida qulayliklar yaratib berilishi yoritib beriladi. Shuningdek, hukumat tomonidan amalga oshirilgan islohotlar, davlat va

xususiy ta'lim tashkilotlari hamkorligi, xalqaro ta'lim standartlariga moslashish jarayonlari ham tahlil qilinadi. Maqola Malayziyaning mustaqillik davridagi ta'lim sohasidagi muammolar va hali ham dolzarb bo'lib qolayotgan muammolarni ochib berishga qaratilgan bo'lib, ta'lim tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha tavsiyalarni ham o'z ichiga oladi.

Kalit so'zlar: *Malayziya ta'lim tizimi, mustaqillik davrida ta'limdagi muammolar, ta'lim islohotlari, ko'p millatlilik, infratuzilma, ta'limda texnologik taraqqiyot.*

Malayziya 1957-yilda mustaqillikka erishganidan so'ng, milliy rivojlanishning muhim yo'nalishlaridan biri sifatida ta'lim tizimini isloh qilishga e'tibor qaratdi. Mustamlaka davridan turli millatlarning malay yarim orolida o'troq yashab qolib ketishi tufayli va meros bo'lib qolgan ko'p tilli ta'lim tizimi, iqtisodiy tengsizlik va ta'limda infratuzilmaning yetishmovchiligi mamlakat oldida jiddiy muammolar sifatida paydo bo'ldi. Shu sababli, ta'lim tizimini modernizatsiya qilish va uni boshqa din va madaniyat vakillarining moslashtirish dolzarb vazifaga aylandi. Malayziya mustaqillikni qo'lga kiritib, barcha odamlarni, ayniqsa malayziyaliklarni ozod qildi va ular ikki buyuk etnik millat, Xitoy va Hindiston uchun yashash huquqini berishlari kerak edi. Mustaqillik oldidan ta'limning holatiga nazar tashlasak, ingliz mustamlakachilari ta'limni irqiga ko'ra farqlash va hukmronlik tamoyilini qo'llash uchun ajratdilar. Va ular mustaqillikka erishganlarida, yangi Malayziya o'ziga xosligi masalasi atrofida katta muammo bor edi. Eng yomoni, xitoylik va hindistonlik muhojirlar o'zlarining tamoyillari, urf-odatlar va an'analaridan bir qarich ham voz kechishni xohlamaydilar. Shuningdek, ular turli irqlar, dinlar va tillarni birlashtirgan yangi davlat bilan integratsiyaga tayyor emaslar. Malayziya tashkil etilgandan so'ng, hukumat bu uch irqni birlashtirish va ularda barcha mazhablarning ba'zi rahbarlari tomonidan mustaqillikdan oldin yonma-yon

yashashga va'da bergan Malayziya xalqining yangi o'ziga xosligini shakllantirish uchun ta'limga asos yaratishga harakat qildi.

Mamlakatda malay, xitoy va hind jamoalarining alohida maktablari mavjud bo'lib, bu ijtimoiy bo'linishga olib kelardi. Hukumat ushbu muammoni bartaraf etish uchun 1961-yilda qabul qilingan Ta'lim to'g'risidagi qonun asosida Malay tilini asosiy ta'lim tili sifatida belgilashga harakat qildi. Ushbu qonun Malayziyaning birinchi bosh vaziri Tunku Abdul Rahmon rahbarligida ishlab chiqilgan va amalga oshirilgan. Qonunga muvofiq, Malay tili (Bahasa Melayu) davlatning asosiy ta'lim tili sifatida belgilandi. Milliy maktablar tizimi joriy qilindi va mustamlaka davrida mavjud bo'lgan xitoy, hind va malay jamoalarining alohida maktablarini yagona tizim ostida birlashtirishga harakat qilindi. Barcha milliy maktablarda Malay tili asosiy o'qitish tili sifatida joriy etildi, biroq xususiy va xalq jamoalari tomonidan moliyalashtirilgan maktablar o'z tillarida ta'lim berishni davom ettirishlari mumkin edi. Bu milliy birlikni mustahkamlash va mustamlaka davridagi til tafovutlarini kamaytirish maqsadida amalga oshirilgan. Ammo bu qaror ba'zi milliy ozchiliklar tomonidan norozilik bilan kutib olindi, chunki ular o'z ona tili, madaniy va lingvistik o'ziga xosliklarini yo'qotishdan qo'rqishardi. Ammo qishloq joylaridagi infratuzilma muammolari tufayli, hukumat barcha hududlarda ta'lim imkoniyatlarini teng ta'minlashda qiyinchiliklarga duch keldi. Ammo bu muammoga ham yechim topilgan. Mustamlaka davridan meros bo'lib qolgan iqtisodiy nomutanosiblik sababli qishloqlarda yashovchi malaylar shaharlardagi xitoy va hind jamoalariga nisbatan kamroq ta'lim olish imkoniyatiga ega edilar. Bu muammoni bartaraf etish uchun hukumat 1971-yilda Malayziya Yangi Iqtisodiy Siyosatini (NEP) joriy qildi. Ushbu siyosat Malayziyaning ikkinchi bosh vaziri Tun Abdul Razak tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, u bumiputera jamoasiga stipendiyalar va kvotalar ajratish orqali ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirishni maqsad qilgan. Ushbu choralar ta'lim olish imkoniyatlarini oshirishga yordam berdi, biroq shu bilan birga, ayrim guruhlar orasida adolatlilik masalasida bahs-munozaralarga sabab bo'ldi. 1969-yilgi irqiy tartibsizliklar (May 13 Incident) iqtisodiy tengsizlik muammosini yanada keskinlashtirdi. Ushbu

tartibsizliklar malay millatiga mansub bumiputeralarning iqtisodiy jihatdan nisbatan qoloqligi sababli yuzaga kelgan edi. O'sha paytda Malayziya iqtisodiyoti asosan xitoy va hind jamoalari tomonidan nazorat qilinardi. Malaylar asosan qishloqlarda yashar va kam ta'lim olgan bo'lib, ularning iqtisodiy imkoniyatlari cheklangan edi. Hukumat millatlar o'rtasidagi iqtisodiy tafovutlarni kamaytirish va milliy birlikni saqlash uchun yangi iqtisodiy siyosatni joriy qilishga qaror qildi va ushbu dastur ishlab chiqildi.

NEP ning asosiy maqsadlari: Iqtisodiy o'sish orqali barcha qatlamlar uchun ta'lim, sog'liqni saqlash va ish bilan ta'minlash imkoniyatlarini kengaytirish. Kam ta'minlangan aholini, ayniqsa, bumiputeralarni qo'llab-quvvatlash. Malayziya iqtisodiy sektorida bumiputeralarning ishtirokini oshirish. Xususiy sektor va korporativ mulkchilikni milliy lashtirish orqali iqtisodiy imkoniyatlarni adolatli taqsimlash. NEP boshlanishidan oldin bumiputeralarning iqtisodiy ulushi atigi 2% edi. Siyosatning maqsadi bu ko'rsatkichni 30% ga yetkazish edi. Bumiputeralar uchun maxsus iqtisodiy dasturlar va investitsiyalar ajratildi. Malaylar va mahalliy aholi uchun stipendiyalar va ta'lim grantlari ajratildi. Universitet va kollej kvotalari joriy qilindi (masalan, davlat universitetlarida bumiputeralarga ko'proq o'rinlar ajratildi). Malay tilida ta'lim beruvchi maktablar va oliy o'quv yurtlari soni oshirildi. Bu dastur malayziya tub aholisining ta'lim sohasidagi o'rnini yanada oshirdi. Ammo hind va xitoyliklarga bir qancha cheklovlar tufayli, ularning noroziligiga katta sabab bo'ldi.

Qishloq hududlarida maktablarning yetishmovchiligi, malakali o'qituvchilarning kamligi va o'quv materiallarining cheklanganligi ta'lim sifati pasayishiga olib keldi. Hukumat 1980-yillardan qishloq ta'limini rivojlantirish bo'yicha dasturlarni amalga oshirdi. Mahathir Mohamad bosh vazirligi davrida Vision 2020 strategiyasining bir qismi sifatida maktablarni modernizatsiya qilish, texnologik vositalar bilan ta'minlash va o'qituvchilarni tayyorlash dasturlari keng joriy etildi. Vision 2020 — Malayziyaning uzoq muddatli rivojlanish strategiyasi bo'lib, uni 1991-yilda Mahathir Mohamad e'lon qilgan. Ushbu tashabbusning asosiy maqsadi 2020-yilga kelib Malayziyani iqtisodiy jihatdan rivojlangan,

raqobatbardosh va texnologik taraqqiy etgan davlatga aylantirish edi. Ushbu strategiyaning muhim yo‘nalishlaridan biri ta’lim tizimini modernizatsiya qilish va ilg‘or texnologiyalarni joriy etish bo‘ldi. Ushbu dasturda barcha sohalarda ilg‘or texnologiyalarni joriy qilish, Malayziyani ilmiy va innovatsion markazga aylantirish, ta’lim tizimini isloh qilish va xalqaro darajaga olib chiqish, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini (ICT) rivojlantirish kabi g‘oyalar asos qilib olindi. Vision 2020 doirasida Malayziya ta’lim tizimini tubdan isloh qilishga kirishdi. Quyidagi asosiy chora-tadbirlar amalga oshirildi:

1. Ta’lim dasturlarini modernizatsiya qilindi. STEM (Science, Technology, Engineering, Mathematics) fanlariga e’tibor kuchaytirildi. Tanqidiy fikrlash va innovatsion yondashuvlar asosida o‘qitish tizimi joriy qilindi. Dunyo bo‘ylab eng yaxshi universitetlar bilan hamkorlik o‘rnatildi.

2. Raqamli ta’lim va elektron o‘quv resurslarini joriy etishdi. 1997-yilda Malayziya Smart Schools (Aqlli Maktablar) dasturi ishga tushirildi. Barcha maktablar kompyuter laboratoriyalari va internet bilan ta’minlandi. Elektron darsliklar va onlayn ta’lim platformalari ishlab chiqildi.

3. Yuqori malakali o‘qituvchilar tayyorlash dasturlari ko‘rib chiqildi, amalga oshirildi va barcha qulayliklar yaratib berildi. O‘qituvchilar uchun zamonaviy texnologiyalar va pedagogik metodologiyalar bo‘yicha treninglar tashkil qilindi. Chet elda tahsil olish va ilmiy izlanish olib borish uchun stipendiyalar ajratildi.

4. Universitetlarni jahon standartlariga moslashtirishga harakat qilindi. Universitetlar avtomatlashtirilgan o‘quv dasturlarini ishlab chiqdi. Chet el investorlarini jalb qilish va xalqaro talabalarni o‘qishga qabul qilish tizimi joriy etildi. Vision 2020 Malayziyaning ta’lim, texnologiya va innovatsiyalar bo‘yicha yuksalishiga turtki bo‘ldi. Ushbu tashabbus natijasida mamlakat Janubi-Sharqiy Osiyoning eng ilg‘or IT markazlaridan biriga aylandi va uning iqtisodiy o‘sishi sezilarli darajada oshdi. Biroq, hali ham to‘liq rivojlangan davlat maqomiga yetish uchun qo‘shimcha islohotlar talab qilinmoqda.

Kambag'allik ta'lim olish imkoniyatlarini cheklovchi asosiy omillardan biri bo'ldi, ayniqsa, qishloq joylarda yashovchilar uchun. Ko'plab oila farzandlarini maktabga yuborish o'rniga, ularni oilaviy daromadga hissa qo'shishga majbur qilardi. Hukumat bu muammoni yumshatish maqsadida 1990-yillarda Bepul Boshlang'ich Ta'lim dasturini amalga oshirdi va kam ta'minlangan oilalar uchun maktab ovqatlanish dasturlari ham joriy etildi. Ayniqsa, qishloq joylarda yashovchi bolalar uchun maktabga borish imkoniyatlarini oshirishga katta e'tibor qaratildi. Ushbu tashabbuslar Anvar Ibrohim bosh vazir o'rinbosarligi va moliya vaziri lavozimida faoliyat yuritgan davrida amalga oshirildi. 1993-yilda hukumat boshlang'ich ta'limni bepul qildi. Bu orqali barcha bolalar, ayniqsa, qishloq joylarda yashovchilar, ta'lim olish imkoniyatiga ega bo'lishdi. 1) Maktab badallari va o'quv materiallari xarajatlari davlat tomonidan qoplanadigan bo'ldi. 2) Qishloqlarda yangi maktablar qurildi va infratuzilma yaxshilandi. 3) O'quvchilarga bepul darsliklar va maktab formasi taqdim qilindi. 1990-yillar boshida hukumat "Rancangan Makanan Tambahan" (RMT - Qo'shimcha Oziqlanish Dasturi) va "Program Susu Sekolah" (Maktab Suti Dasturi) kabi dasturlarni ishga tushirdi. Qo'shimcha Oziqlanish Dasturida kam ta'minlangan oilalarning bolalari maktabda bepul ovqat bilan ta'minlandi. Dastur natijasida bolalar maktabga muntazam qatnashishni boshladi. Maktab Suti Dasturida esa bolalarning sog'lig'ini yaxshilash va ularning o'quv faoliyatini qo'llab-quvvatlash maqsadida bepul sut tarqatish dasturi joriy qilindi. Ushbu islohotlar natijasida 1990-yillarda boshlang'ich ta'limga qamrov 90% dan oshdi. Ayniqsa, qishloq joylarida maktabga bormaydigan bolalar soni sezilarli kamaydi. RMT va maktab suti dasturlari bolalarning sog'lig'ini yaxshilab, ularning diqqatini jamlash va ta'lim olish samaradorligini oshirdi. Ushbu tashabbuslar Malayziyaning uzoq muddatli rivojlanish strategiyasi - Vision 2020 ning muhim qismi bo'ldi va mamlakatning global ta'lim darajasida yuqori o'rinlarga chiqishiga yordam berdi.

Malayziyada mustaqillikning dastlabki yillarida ta'lim tizimi yodlashga asoslangan pedagogikaga tayanib, talabalarning tanqidiy fikrlashi va ijodiy yondashuvini rivojlantirishga yetarlicha e'tibor

qaratmagan. O'quvchilar asosan o'qituvchining ma'ruzasini eslab qolish va imtihonlardan o'tishga qaratilgan o'qitish tizimida tahsil olishgan. Bu muammo ilmiy innovatsiyalar va zamonaviy texnologiyalarni o'zlashtirishni qiyinlashtirgan. Xalqaro mehnat bozorida Malayziya bitiruvchilarining raqobatbardoshligini pasaytirgan. Malayziyaning global iqtisodiyot bilan integratsiyasini sustlashtirgan. Ushbu muammolarni bartaraf etish maqsadida Mahathir Mohamad hukumati 2003-yilda "Ingliz tilida fanlarni o'qitish dasturi" (PPSMI - Pengajaran dan Pembelajaran Sains dan Matematik dalam Bahasa Inggeris) ni joriy qildi. Ushbu dasturning asosiy maqsadi quyidagilar edi: 1) Malayziyaning yosh avlodini global fan va texnologiya rivojlanishiga moslash. 2) O'quvchilarning ingliz tilida ilmiy va texnik bilimlarni tushunish qobiliyatini oshirish. 3) Bitiruvchilarni xalqaro miqyosda raqobatbardosh qilish bo'ldi. Ushbu fazifalarni amalga oshirish uchun barcha ta'lim tashkilotlarida matematika va tabiiy fanlar (fizika, kimyo, biologiya) ingliz tilida o'qitila boshlandi, o'qituvchilarga maxsus trening va ingliz tilida dars berish bo'yicha qo'shimcha tayyorgarlik kurslari tashkil etildi, boshlang'ich va o'rta maktablar darajasida bosqichma-bosqich amalga oshirildi. Ammo, 2009-yilda Najib Razak bosh vazirlikka kelganidan so'ng, PPSMI dasturi bosqichma-bosqich bekor qilindi. Bu qarorga asosiy sabab qishloq va shahar o'quvchilari o'rtasida ta'lim sifati bo'yicha tafovutning ortishi, o'qituvchilarning ingliz tilida yetarlicha samarali dars o'ta olmasligi va jamiyatda milliy tilni himoya qilish bo'yicha bosimning oshishi bo'ldi. O'rniga DLP (Dual Language Program) dasturi joriy qilindi, bu esa ba'zi maktablarda fanlarni ingliz tilida o'qitish imkonini qoldirdi, lekin umumiy ta'lim malay tiliga qaytarildi. Bugungi kunda Malayziya ikkilamchi ta'lim tizimini qo'llab-quvvatlab, ingliz tilini o'rganishni rag'batlantirish bilan birga, milliy tilni saqlab qolish strategiyasini yuritmoqda.

2013-yilda Malayziyaning sobiq bosh vaziri Najib Razak tomonidan 2013-2025-yillarga mo'ljallangan Malayziya Ta'limni Rivojlantirish Rejasi (MEB) ishlab chiqildi. Bu rejaning asosiy maqsadi ta'lim tizimini xalqaro standartlarga moslashtirish, Xalqaro reytinglarda yuqori o'rinlardaga chiqish, ya'ni PISA va TIMSS kabi baholash tizimlarida yaxshi natijalar

ko'rsatish, kam ta'minlangan oilalar uchun imkoniyatlarni kengaytirish - grant va stipendiyalar berish, ko'p tillilikni rag'batlantirish - malay, ingliz va uchinchi til sifatida boshqa tillarni o'qitish, o'qituvchilarni tayyorlash sifatini yaxshilash va o'quvchilarni kelajakdagi mehnat bozoriga tayyorlash edi. Malayziyaning 2013-2025-yillarga mo'ljallangan ta'lim strategiyasi ta'lim sifatini yaxshilash, xalqaro raqobatbardoshlikni oshirish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish kabi muhim maqsadlarga qaratilgan bo'lsa-da, biroq, amalga oshirish jarayonida hududiy tafovutlar, o'qituvchilar malakasi, texnologik infratuzilma va moliyalashtirish bilan bog'liq muammolar hali ham mavjud. 2025-yilga borib ushbu muammolar to'liq hal qilinadimi yoki yo'q - bu hali ham ochiq masala bo'lib qolmoqda.

Malayziyaning ta'lim tizimi mustaqillikdan beri muhim rivojlanish bosqichlarini bosib o'tdi. Hukumat tomonidan qabul qilingan ta'lim islohotlari milliy va xalqaro raqobatbardoshlikni oshirishga qaratilgan bo'lsa-da, hali hal qilinmagan muammolar mavjud. Hali ham Shahar va qishloq ta'lim tizimi orasida tafovut mavjud. Ba'zi qishloq hududlarida ingliz tili o'qituvchilarining bilim berish bilimi va pedagogik mahorati sust ekanligi sababli, ingliz tilida ta'lim berishning qiyinchiliklari, ta'lim dasturida ortiqcha nazariyaga asoslanganligi, amaliyotning kamligi va shu kabi muammolarga hali ham yechim izlanmoqda. Malayziya Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari orasida ta'lim bo'yicha yetakchilik qilish imkoniyatiga ega, ammo bunga erishish uchun hududiy tafovutlarni bartaraf etish, o'qituvchilarni yaxshiroq tayyorlash va amaliy bilimlarga asoslangan ta'lim tizimini joriy etish zarur bo'ladi. Shunday muammolarga qaramay Malayziya hukumati ushbu muammolarga yechim tariqasida turli yangi dasturlarni ishlab chiqib amalda sinab korishyabdi. Ta'limni texnologik rivojlantirish bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Ko'pgina maktablarda elektron ta'lim tizimlari va onlayn darsliklar joriy etildi. Yangi fanlar, masalan, sun'iy intellekt, dasturlash va innovatsion texnologiyalar bo'yicha o'quv dasturlari ishlab chiqildi. Shuningdek, AQSH, Buyuk Britaniya, Avstraliya, Xitoy, Yaponiya, Germaniya, Yaqin Sharq Mamlakatlari va ko'plab dunyoning yetakchi va salohiyatli chet el mamlakatlari bilan turli hamkorliklar yo'lga qo'yilgan. Ushbu hamkorliklar

universitetlararo kelishuvlar, talabalar almashinuvi, ilmiy tadqiqotlar va texnik ko'mak loyihalarini o'z ichiga oladi. Shuningdek, Malayziya va O'zbekiston oliy ta'lim muassasalari o'rtasida jami 94 ta bitim va shartnomalar tuzilgan va hozirda 500 ga yaqin o'zbekistonlik talaba Malayziyaning turli universitetlarida tahsil olmoqda. Agar rejalashtirilgan islohotlar samarali amalga oshirilsa, keying yaqin yillarga borib Malayziya ta'lim tizimi yanada raqobatbardosh va innovatsion bo'lishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

Kitoblar va ilmiy maqolalar:

1. Roff, W. R. (1967). The Origins of Malay Nationalism. Kuala Lumpur: University of Malaya Press.
2. Mohamed, M. (1991). The Malay Dilemma. Singapore: Times Books International.
3. Ibrahim, A. (2000). Education and Development in Malaysia: Policy and Reform. Kuala Lumpur: University of Malaya Press.
4. Gill, S. K. (2014). Language Policy Challenges in Multi-Ethnic Malaysia. Springer.

Hukumat hujjatlari va rasmiy hisobotlar:

5. Education Act 1961, Ministry of Education, Malaysia.
6. The New Economic Policy (NEP) Document, 1971, Government of Malaysia.
7. Malaysia Education Blueprint 2013-2025, Ministry of Education Malaysia.

Ilmiy jurnallar va maqolalar:

8. Lee, M. N. (1999). "Education in Malaysia: Towards Vision 2020." School Effectiveness and School Improvement, 10(1), 86-98.

9. Tan, C. (2012). "Education Reforms in Malaysia: Moving Beyond Rhetoric?" *Journal of International and Comparative Education*, 1(2), 21-32.

Onlayn manbalar:

10. UNESCO (2020). Malaysia Education Report. Retrieved from www.unesco.org

11. Malaysian Ministry of Education Official Website: www.moe.gov.my

12. World Bank (2018). Education in Malaysia: Reforms and Challenges. Available at www.worldbank.org

HINDISTONDA GENDER TENGLIK



Rahmonboyeva Nurjona

TDSHU 2-kurs, filologiya va tillarni o'qitish,

Hind-ingliz guruhi talabasi

Ilmiy rahbar: M.Murtazaxodjayeva

Annotatsiya: Ushbu maqolada Hindistondagi gender tenglik muammosi, Konstitutsiyada belgilangan huquqiy asoslar, siyosatda ayollarning roli va tengsizlikning o'tmishdagi va hozirgi holati tahlil qilinadi. Shu bilan birgalikda, taniqli ayollarning siyosiy faoliyati, yutuqlari hamda statistik asoslar haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Hindiston, gender tenglik, konstitutsiya, siyosat, iqtisodiyot, tengsizlik, ijtimoiy stereotiplar, ayollarning vakolatlari, huquq va diskriminatsiya.

Hindiston gender tengligi yo'lida sezilarli yutuqlarga erishgan bo'lsa-da, ushbu maqsadga to'liq erishish uchun hal qilinishi kerak bo'lgan ko'plab muammolar mavjud. Gender tengligi nafaqat ayollarning huquqlari masalasidir, balki iqtisodiy o'sish, ijtimoiy rivojlanish va barqarorlik uchun ham muhimdir. O'tmishda Hindiston jamiyatida qiz bolaning tug'ilishi ko'pincha fojia sifatida qabul qilingan. Bu, asosan, patriarxal qarashlar, iqtisodiy qiyinchiliklar va ijtimoiy bosim bilan bog'liq edi. Qiz bolalar

ko‘pincha oilaga og‘irlik, deb hisoblangan, chunki ular kelajakda sep berishni talab qilardi va oilaning daromadiga hissa qo‘shmaydi, deb hisoblanardi⁷⁹. Tarixiy manbalar shuni ko‘rsatadiki, o‘tmishda qiz bolalarning hayoti juda og‘ir bo‘lgan. Ba’zi hollarda, qizlar tug‘ilgandan so‘ng tiriklayin ko‘milgan yoki cho‘ktirib o‘ldirilgan. Bunday vahshiylik, ayniqsa, qashshoq oilalarda keng tarqalgan edi, chunki ular qizlarini boqishga qurbi yetmas edi. Qizlarni qurbonlik qilish holatlari ham qayd etilgan. Qizlarga nisbatan salbiy munosabatning yana bir sababi - ijtimoiy urf-odatlar edi. Erta turmushga berish, sep berish kabi an‘analar qizlarning hayotini qiyinlashtirardi. Sep berish odati, qizlarning oilasini katta qarzga botirardi va sep bilan bog‘liq zo‘ravonlik, hatto o‘limga ham olib kelishi mumkin edi. Qizlarning ta‘lim olishi cheklangan edi va ular ko‘pincha uy ishlariga jalb qilingandi.

Vaqt o‘tishi bilan vaziyat o‘zgarib, qizlarga nisbatan munosabat ham asta-sekin yaxshilanib bormoqda. Hukumat qizlarning ta‘lim olishi, sog‘lig‘ini saqlashi va huquqlarini himoya qilishga qaratilgan ko‘plab dasturlarni amalga oshirmoqda. "Beti Bachao, Beti Padhao" (Qizingni asra, qizingni o‘qit) kabi dasturlar qizlarning jamiyatdagi o‘rnini mustahkamlashga qaratilgan. Shunga qaramay, muammolar hali ham mavjud. Qiz bolalarning o‘g‘il bolalarga nisbatan kam tug‘ilishi, sep bilan bog‘liq zo‘ravonlik, erda turmush va ta‘lim olishdagi tengsizlik kabi holatlar saqlanib qolmoqda. Bu muammolarni hal qilish uchun jamiyatning barcha

⁷⁹ <https://wcd.nic.in/>

a'zolari, hukumat, nodavlat tashkilotlar va oilalar birgalikda harakat qilishlari zarur.

Hindiston - boy tarixi va madaniyatiga ega bo'lgan buyuk mamlakat. Ammo, uning o'tmishi ayollarning kamsitilishiga oid qorong'u sahifalarni ham o'z ichiga oladi. Bu kamsitishlar turli shakllarda namoyon bo'lgan va millionlab ayollarning hayotiga fojiali ta'sir ko'rsatgan. Eng shafqatsiz misollardan biri - Sati edi. Bu - eri vafot etganidan keyin xotinning o'zini erining jasadidan qolgan gulxanda tiriklayin yoqib yuborish marosimi. Bu vahshiylik, ayolning eri bilan birga o'lishi uning sadoqatining eng oliy namunasi sifatida ko'rilgan jamiyatning qonli ko'rinishi edi. Yana bir kamsitish shakli - Purdah, ya'ni ayollarning yuzini yopib yurishi. Bu odat ayollarning jamiyat hayotidan chetlatilishiga, ularning shaxsiy erkinliklari cheklanishiga olib kelgan. Yuzini yopib yurish ayollarga o'z fikrini erkin ifoda etishga, ta'lim olishga va ijtimoiy faoliyatda ishtirok etishga to'sqinlik qilgan. Erta nikoh - ham Hindistonda keng tarqalgan muammo bo'lgan. 10-14 yoshli qizlarning turmushga chiqishi ularning bolalikdan mahrum bo'lishiga, ta'lim olish imkoniyatlari cheklanishiga va sog'lig'iga jiddiy zarar yetkazgan. Erta turmushga berilgan qizlar ko'pincha oilaviy zo'ravonlik qurboniga aylangan va to'laqonli hayot kechirish imkoniyatidan mahrum bo'lgan. Sep - kelinning oilasi tomonidan kuyovning oilasiga beriladigan mol-mulk. Sep talab qilish odati kelinning oilasiga katta iqtisodiy yuk bo'lgan va sep bermagan yoki kam bergan kelinlarga nisbatan zo'ravonlik holatlari uchragan. Mehnat haqiga oid zo'ravonliklar, ayniqsa, qishloq joylarda ayollarga teng bo'lmagan munosabatda bo'lish, ularning mehnatini qadrlamaslik va kam haq to'lash kabi shakllarda namoyon

bo'lgan. Bu misollar Hindiston tarixida ayollarga nisbatan qanday adolatsizliklar sodir etilganligini yaqqol ko'rsatib beradi. Lekin, shunga qaramay, hind ayollari o'z huquqlari uchun kurashgan va ko'plab yutuqlarga erishgan. Ta'lim olish, siyosiy va iqtisodiy hayotda ishtirok etish, zo'ravonlikka qarshi kurashish - bu boradagi sa'y-harakatlar hali ham davom etmoqda. Ayollarga nisbatan teng munosabatda bo'lish, ularning huquqlarini himoya qilish va jamiyatda to'laqonli ishtirok etishini ta'minlash - barchamizning muhim vazifamizdir. Faqat shunday yo'l bilan biz adolatli va farovon jamiyat qura olamiz.

Rasmiy statistik ma'lumotlarga ko'ra, Hindiston aholisining deyarli yarmini (48.41%) ayollar tashkil etadi. Bu shunchaki raqam emas, bu - jamiyatning to'laqonli a'zolari, har biri o'z orzulari, maqsadlari va imkoniyatlariga ega bo'lgan insonlardir. Lekin, achinarlisi shundaki, bu ayollar har kuni zo'ravonlik qurboniga aylanib, hayotiy imkoniyatlardan mahrum etilmoqda. Har kuni kamida 88 ta zo'ravonlik holati qayd etilishi, bu muammoning naqadar jiddiy ekanligidan dalolat beradi. Bu shunchaki raqamlar ortida buzilgan taqdirlar, o'chirilgan orzular va yo'qotilgan umidlar yashirin. Shunga qaramay, umid uchqunlari ham yo'q emas. So'nggi yillarda ayol-qizlarning savodxonlik darajasi sezilarli darajada oshdi. 2021-yilda bu ko'rsatkich 91.95% ga yetdi. Bu, maktablarda qizlarning ta'lim olishi, ularning ilmi bo'lishiga e'tibor yanada kuchaytirilganligining, qabul qilingan chora-tadbirlar o'z samarasini berayotganligining yaqqol dalilidir. Ta'lim - ayollarga o'z huquqlarini anglash, mustaqil hayot qurish va jamiyatga o'z hissasini qo'shish imkonini beruvchi kuchli quroldir. Iqtisodiy sohada ham o'zgarishlar kuzatilmoqda.

2023-yilda 32.68% ayollar ish bilan ta'minlandi. Ammo, bu quvonchga sabab bo'ladigan yakuniy ko'rsatgich emas.⁸⁰ Ming afsuski, chekka qishloq hududlarda ayol-qizlarning ko'pchiligiga bajargan yumushlariga yarasha haq to'lanmaydi. Ularga xuddiki tekin ishchi kuchi sifatida qaralgan munosabatda bo'lish holatlari uchrab turadi. Bu - ayollarning mehnatini qadrlamaslik, ularning iqtisodiy mustaqilligiga to'sqinlik qilish demakdir. Gender tengligi bo'yicha dunyo miqyosida olib qaraganda, Hindiston 193 ta gender munosabatlari teng bo'lmagan mamlakatlar ichida 108-o'rinda turadi. Bu - Hindistonning bu borada hali ko'p ishlarni amalga oshirishi kerakligini ko'rsatadi. Erta turmush qurish hamon jiddiy muammo bo'lib qolmoqda. Ammo, so'nggi yillarda bu borada ham ijobiy tendentsiya kuzatildi. 2020-yildan beri o'rtacha turmush qurish yoshi 22.7 yoshga yetib keldi. Bu - yosh qizlarning o'z ta'limini davom ettirish, kasb o'rganish va hayotda o'z o'rnini topish uchun ko'proq imkoniyatga ega bo'layotganligini anglatadi.

Hindiston - dunyodagi eng katta demokratiya. Mamlakat Konstitutsiyasi barcha fuqarolar uchun teng huquqlarni kafolatlaydi. Ayniqsa, Konstitutsiyaning 14-moddasi Hindiston hududida hukumat qonun oldida tenglikni yoki qonunlar tomonidan teng himoyani hech kimga rad etmasligini ta'kidlaydi.⁸¹ Bu - har bir fuqaro, jinsi, irqi, dini, ijtimoiy kelib chiqishidan qat'i nazar, qonun oldida teng ekanligini anglatadi. 16-modda esa har qanday fuqaroga davlat xizmatlarida ishlashda kamsitish taqiqlanishini belgilab qo'yadi. Bu, ayollarning davlat lavozimlarida,

⁸⁰ <https://data.unwomen.org/country/india> - sayti ma'lumotlaridan foydalanildi

⁸¹ <https://wcd.nic.in/>

siyosatda o'z o'rnini topishiga imkon yaratadi. Shunday qilib, Hindiston Konstitutsiyasi gender tenglik uchun mustahkam huquqiy asos yaratib berdi. Ammo, qonunlardagi tenglik hayotdagi tenglikni to'liq kafolatlay oladimi? Albatta, yo'q. Ijtimoiy stereotiplar, patriarxal qarashlar va boshqa omillar ayollarning siyosiy hayotda to'laqonli ishtirok etishiga to'sqinlik qilishi mumkin.

Lekin, Hindiston siyosatida ayollarning roli tobora ortib borayotganligi - quvonarli holat. Indira Gandi - Hindistonning birinchi va yagona ayol Bosh Vaziri bo'lgan. U o'zining qat'iyati, siyosiy mahorati va xalq orasidagi obro'si bilan mamlakat tarixida o'chmas iz qoldirgan. Pratibha Patil esa - mamlakatning birinchi ayol Prezidenti bo'lgan. U o'zining yuksak ma'naviyati, adolatliligi va xalqqa xizmat qilishga tayyorligi bilan barchaning hurmatiga sazovor bo'lgan. Sushma Svaraj, Nirmala Sitharaman, Smriti Irani kabi ayollar ham Hindiston siyosatida katta ta'sirga ega bo'lganlar. Ular turli vazirliklarda faoliyat yuritib, mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishiga katta hissa qo'shganlar. Hozirgi kunda Hindiston Respublikasining Prezidenti ham ayol kishi ekanligi - juda quvonarli holat, albatta. Bu - ayollarning siyosatda o'z o'rnini topishiga imkon berilganligining, jamiyatda ularga bo'lgan munosabat o'zgarayotganligining yaqqol dalilidir.

Joriy yilning 22-29-mart kunlari biz uchun unutilmas voqealarga boy bo'lgan safar - Hindistonda bo'lib o'tgan Hindiston-Markaziy Osiyo Yoshlar Forumi 2025da ishtirok etish imkoniyati nasib etdi. Aytishlaricha, "Har bir mamlakatga sayohat - bir kitob o'qish bilan teng". Bu so'zlarning naqadar haqiqat ekanligini biz ushbu forum davomida yana bir bor angladik.

Biz nafaqat Hindistonning Tashqi ishlar, Ta'lim vazirliklari, qator Universitet hamda muzeylariga tashrif buyurib, siyosiy, iqtisodiy va madaniy sohalardagi yutuqlari bilan tanishdik, balki mahalliy aholining turmush tarziga, jamoat transport vositalarining harakatlanishiga ham guvoh bo'ldik. Hindiston - rang-baranglik, qadimiy tarix va zamonaviy texnologiyalar uyg'unlashgan o'lka ekanligiga amin bo'ldik. Ayniqsa, bizni hayratga solgan va qalbimizni to'ldirantirgan holat - Hindistondagi Rikshalarda (uch g'ildirakli velo-taksi) "अपनी बेटी को पढ़ाओ, अपना भविष्य सुरक्षित करो।" (O'z qizingizni o'qiting, kelajagingizni ta'minlang) yozuvlarini ko'rganimiz bo'ldi. Yaqin o'tmishda qiziga baxtsizlik ramzi sifatida qaragan xalqning bugun aynan qizlarini o'qitishni targ'ib qilayotgani juda quvonarli va hayratlanarli hol, desak adashmagan bo'lamiz. Bu - Hindiston jamiyatida ro'y berayotgan ijobiy o'zgarishlarning, ayollarning jamiyatdagi o'rni tobora mustahkamlanib borayotganligining yaqqol dalilidir. Ta'lim - ayollarga o'z huquqlarini anglash, mustaqil hayot qurish va jamiyatga o'z hissasini qo'shish imkonini beruvchi eng kuchli quroldir. Shunday qilib, Hindiston-Markaziy Osiyo Yoshlar Forumi biz uchun nafaqat yangi bilimlar va tajribalar manbai bo'ldi, balki Hindistonning o'tmishdagi adolatsizliklar bilan kurashish, gender tenglikni ta'minlash va kelajak avlodga yaxshi hayot yaratish yo'lidagi sa'y-harakatlariga guvoh bo'lish imkonini berdi. Umid qilamizki, bu kabi forumlar kelajakda ham davom etib, yoshlarning o'zaro hamkorligini mustahkamlaydi va mamlakatlarimiz o'rtasidagi do'stlik rishtalarini yanada kuchaytiradi.

Xulosa qilib aytganda, Hindistonda gender tengsizlik muammosi hali o'z yechimini topmagan bo'lsada, ijobiy o'zgarishlar ham kuzatilmoqda. Ta'lim, iqtisodiy imkoniyatlar va erta turmushga qarshi kurash sohalarida erishilgan yutuqlar, bu boradagi sa'y-harakatlarimiz samara berayotganligidan dalolat beradi. Lekin, bu bilan cheklanib qolmasdan, ayollarning huquqlarini himoya qilish, ularga munosib sharoit yaratish va jamiyatda to'laqonli ishtirok etishini ta'minlash – eng muhim vazifadir. Hindiston tarixida qizlar ko'p qiyinchiliklarni boshdan kechirgan bo'lsalar ham, bugungi kunda vaziyat yaxshi tarafga o'zgarmoqda. Kelajak avlod uchun adolatli va teng huquqli jamiyat yaratish - barcha sa'y-harakatlarimizning asosiy maqsadi bo'lishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. National Commission for Women (NCW): <https://ncw.nic.in/>
2. Ministry of Women and Child Development (MWCD):
<https://wcd.nic.in/>
3. United Nations India: <https://www.un.org/en/india>
4. PRS Legislative Research: <https://prsindia.org/>
5. Hindiston Konstitutsiyasi: 14-modda:
https://www.constitutionofindia.net/constitution_of_india/14/articles/Article%2014
6. <https://www.constitutionofindia.net>

MALAY JAMIYATI RIVOJIDA PUJANGGA BARU(JADIDLAR) HARAKATI.



Ikromova Madinabonu

TDSHU, Sharq xalqlari tillari va adabiyoti,
gid hamrohligi va tarjimashunosligi
yo'nalishi 2-kurs malay-ingliz guruhtalabasi
Ilmiy rahbar: Toshpo'latova Zarnigor

Annotatsiya. Ushbu maqolada (Angkatan pujangga baru) (1933-1942) harakatining Indoneziya va Malayziya adabiyotidagi o'rni, uning shakllanishi va asosiy xususiyatlari tahlil qilindi. (Pujangga baru) adabiyoti milliy uyg'onish, modernizatsiya va erkin fikr tamoyillariga asoslangan bo'lib, u mustamlakachilik davridagi senzuraqa qarshi yo'nalish sifatida rivojlangan. Ushbu harakat vakillari, jumladan Amir Hamzah, Sultan Takdir Alisjahbana va Sanusi Pane, o'z ijodi orqali Indoneziya, Malayziya milliy ongining shakllanishiga hissa qo'shgan. Shuningdek, ushbu maqolada O'zbek jadid adabiyoti bilan taqqoslashlar keltirilib, ikkala harakatning umumiy jihatlari, jumladan milliy tilni rivojlantirish, yangi davr kishisini shakllantirish va modernizm g'oyalari tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: Indoneziya va Malayziya adabiyoti, milliy uyg'onish, modernizm, mustamlakachilik, Pujangga Baru jurnali, jadid adabiyoti,

Sultan Takdir Alisjahbana, Amir Hamzah, Sanusi Pane, milliy til, senzura, erkin fikr.

Malayziya va Indoneziya adabiyoti tarixi turli davr va oqimlarga bo‘linadi. Ular orasida Angkatan Pujangga Baru (1933-1942) eng muhimlaridan biri hisoblanadi. Bu davr Indoneziya va Malayziya adabiyotida milliy ruh uyg‘onishi va zamonaviy yo‘nalishning paydo bo‘lishi bilan ajralib turadi. Muhammad Yamin, Sultan Takdir Alisjahbana va Amir Hamzah kabi adiblar ushbu harakatning yetakchilari bo‘lishgan. Ushbu davr O‘zbek adabiyoti bilan ham qisman o‘xshash jihatlariga ega bo‘lib, masalan, XX asr boshlarida jadidchilik harakati ham adabiyot orqali milliy uyg‘onishga hissa qo‘shgan.

Angkatan pujangga baru harakatining yuzaga kelishi.

Angkatan Pujangga Baru Balai Pustaka nashriyotining qat’iy senzurasiga qarshi harakat sifatida paydo bo‘ldi. O‘sha paytda Balai Pustaka faqat hukumatga mos keladigan, sotsial va siyosiy jihatdan xavfsiz bo‘lgan asarlarni chop etar edi. Milliy ong va mustaqillik g‘oyalarini targ‘ib qilgan asarlar senzura ostiga olinardi. Natijada yosh ijodkorlar 1933-yilda “Pujangga Baru” jurnalini tashkil etib, o‘z adabiy qarashlarini mustaqil ravishda bayon qila boshlashdi. Bu jarayon o‘zbek adabiyotidagi jadidchilik harakatini eslatadi, chunki jadidlar ham o‘z matbuot organlarini yaratib, eski qoliplarni buzishga intilishgan.

Ushbu davrning shakllanishiga 1928-yilgi Sumpah Pemuda (Yoshlar Qasamyodi) kuchli ta’sir ko‘rsatdi. Bu qasamyod quyidagilardan iborat edi:

1. Bitta Vatan - Indoneziya
2. Bitta Millat – Indoneziya
3. Bitta Til – Indoneziya tili

Bu qasamyod Pujangga Baru adiblarining asarlarida ham aks etdi. Ular milliy o‘zlik, til va madaniyat masalalariga katta e’tibor qaratishdi. Xuddi shunday, jadid adabiyotida ham milliy uyg‘onish va o‘zbek tilining rivojiga urg‘u berilgan. Masalan, Abdulla Qodiriy, Cho‘lpon va Fitrat asarlarida milliy g‘oya yetakchi mavzu bo‘lib kelgan.

Angkatan pujangga baru adabiyotining xususiyatlari.

Bu davr adabiyotida quyidagi asosiy xususiyatlar kuzatiladi:

1) Odatdan tashqariga chiqish va modernizatsiya. Oldingi adabiyotlar ko‘proq an‘naviy mavzularga asoslangan bo‘lsa, Pujangga Baru ijodkorlari modernizmga yuzlanishdi. Ularning asarlarida shaxs erkinligi, modernizm, zamonaviy hayot muammolari aks etgan. Masalan, Sanusi Pane o‘zining “Manusia Baru” (Yangi Odam) asarida yangi davr kishisini tasvirlaydi. Bu xuddi jadid yozuvchilarining “Yangi odam” g‘oyasiga o‘xshash bo‘lib, ular ham eski jamiyatni tanqid qilib, modern hayotni targ‘ib qilishgan.

2) Milliy ong va mustaqillik g‘oyalari. Bu davr adabiyotining asosiy mavzularidan biri milliy uyg‘onish edi. Masalan, Asmara Hadi o‘zining “Dalam Lingkungan Kawat Berduri” (Tikanli simlar oralig‘ida) asarida mustamlakachilik zulmini tasvirlaydi. Xuddi shunday, Abdulla Qodiriy “O‘tkan Kunlar” romanida o‘zbek xalqining mustamlakachilikdan oldingi va keyingi holatini realistik tarzda ko‘rsatadi.

3) Janr va uslub erkinligi. Pujangga baru davrida roman, hikoya, drama, she‘r, esse kabi janrlar rivojlandi. Yozuvchilarga avvalgidek qat‘iy cheklovlar qo‘yilmagani sababli, turli eksperimentlar qilish imkoniyati paydo bo‘ldi. Masalan, Sultan Takdir Alisjahbana o‘z romanlarida yangi yozish uslubini sinab ko‘rgan. O‘zbek adabiyotida esa Cho‘lpon va Fitrat she‘riyatda ham, narsda ham yangi yo‘nalishlarni olib kirdi.

4) Romantik va idealistik ruh. Bu davr adabiyotida romantik kayfiyat kuchli bo‘lib, insoniy orzular, ideallar va go‘zallikka intilish ko‘proq aks etgan. Amir Hamzah she‘rlari bunga yorqin misoldir. Masalan, uning “Doa” she‘rida insonni ichki kechinmalari, Ollohga iltijosi, idealistik qarashlari tasvirlangan. O‘zbek adabiyotida esa G‘afur G‘ulom va Oybek she‘rlari romantik idealizm bilan yo‘g‘rilgan.

Asosiy adabiy shaxslar.

1) Amir Hamzah (1911- 1946) –“Pujangga baru she‘riyatining shohi”
Amir Hamzah Indoneziya she‘riyatining eng yirik romantik shoiri hisoblanadi. U “Nyanyi Sunyi” (Yolg‘izlik Kuylari) va “Buah Rindu” (

Sog'inch Mevalari) kabi to'plamlarni yaratgan. Uning she'rlari ichki iztirob, ruhiy izlanish va tasavvufiy kayfiyat bilan yo'g'rilgan.

2) Sultan Takdir Alisjahbana (1908-1994)- Modernizm va milliy uyg'onish yetakchisi. U indoneziya adabiyotida modern adabiyot asoschilaridan biri bo'lib, "Layar Terkembang" (Yoyilgan Yelkanlar) romani orqali ayollar erkinligi va jamiyatdagi o'zgarishlarni yoritgan.

3) Sanusi Pane (1905-1968)- Milliy ruh va sharqona falsafa targ'ibotchisi Sanusi Pane Hindu va Budda falsafalarini o'z asarlarida ilgari surgan. "Kertajaya" va "Sandyakala Ning Majapahit" kabi pyesalari o'z davrining muhim asarlaridir.

Xulosa qilib aytadigan bo'lak, Angkatan Pujangga Baru Indoneziya va Malayziya adabiyotida milliy uyg'onish, modernizatsiya va erkin fikr tamoyillarini olib keladi. Bu davr adabiyoti mustamlakachilik davrining cheklovlaridan chiqib, jamiyatni yangi davrga tayyorlashga xizmat qildi. Shu jihatdan, u o'zbek jadid adabiyoti bilan o'xshashdir. Ikkala adabiy harakat ham milliy o'zlikni anglash, milliy tilni rivojlantirish va modernizatsiyaga intilgan. Shu sababli, bu davr nafaqat Indoneziya va Malayziya balki butun Osiyo adabiyoti uchun katta ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1) Xarun Aminurrashid. Sejarah Kesusteraan Melayu Moden. - Kuala Lumpur: Dewan Bahasa dan Pustaka, 1965.

2) Muhammad Xaji Sallex. Pujangga Baru: Ideologi dan Estetika. – Kuala Lumpur: Dewan Bahasa dan Pustaka, 1991.

3) Raxmax Bujang. Angkatan Pujangga Baru dan Peranannya dalam Kesusteraan Melayu. – Kuala Lumpur: Universiti Malaya Press, 1985.

4) Zaynal Abidin Axmad (Zaba). Pujangga Baru (Majallah khusus soni). – Kuala Lumpur: Persatuan Pujangga Baru, 1937.

5) Asmah Haji Omar. Bahasa dan Pemikiran Pujangga Baru. – Kuala Lumpur: Dewan Bahasa dan Pustaka, 1982.

YO‘QOLIB BORAYOTGAN KALASH XALQI VA UNING MADANIYATI XUSUSIDA BA’ZI MULOHAZALAR



Muxammedov Abdurashidjon

TDSHU 2-kurs Xalqaro munosabatlar mutaxassisligi

Ilmiy rahbar: o‘qituvchi-stajor, tayanch doktorant Sh.J.Sa’dullayev

Annotatsiya : *Ushbu maqolada yo‘qolib borayotgan, Pokistonda ozchilikni tashkil qilagan millat Kalash xalqining madaniyati, urf-odatlarini tili va diniga bag‘ishlanadi. Maqolada tarmoq ma’lumotlaridan foydalangan holda ular haqida ishonchli ma’lumotlar yig‘ilgan va tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *Kalash, Chitral, Toj Xon Kalash, Tsiyam, Dezau, Shu, Khalpol, bashaleni, Joshi, Uchav.*

Bugungi dunyo turli til din va millatlardagi odamlar uchun zamin vazifasini o‘tab kelmoqda. Dunyoning turli chekkalarida o‘ziga xos oddiy bo‘lmagan ajib millat va elatlar yashab kelmoqda. Ulardan biri bugungi kunda deyarli yo‘q bolib ketish arafasida turgan, ta’lim va madaniyatini hamda dinini o‘z xalqi orasida yoyishda taqiqqa uchrayotgan yashash joylari qulayliklardan uzoqda bo‘lgan rangbarang va o‘ziga xos millat – Kalash xalqidir. Pokistonning shimoli-g‘arbiy qismida, Hindukush

tog'larida yashovchi oz sonli etnik guruh hisoblanadi. Ushbu maqolada Kalash xalqining kelib chiqishi, madaniyati va ijtimoiy muammolari xususida so'z boradi.

Kalasha yoki Kalash — Pokistonning Xaybar-Paxtunxva viloyatining Chitral tumanida istiqomat qiluvchi hind-oriy tub xalq. Ularning kelib chiqishi xususida ikki asosiy faraz mavjud. Hind-Oriy kelib chiqishi farazini Jorj Morgenshtern, R.C.F. Shomberg, Karl Jettmar va Piter Parkes qo'llab-quvvatlaydi. Boshqa farazlar esa Kalashlar nisbatan yaqinda kelganlar yoki kelib chiqishi yunon ekanligi haqida tasavvur uyg'otadi. Bu farazni H.Siiger shakllantirgan va uni ikki nafar fransuz antropologi Jan Yves Loude va Vivian Lievra ham qo'llab-quvvatlaydi. Ko'pchilik kalashlar yunon ajdodlariga oid afsonalarni qo'llab quvvatlaydi, chunki bu ularga zaruriy xalqaro yordamni jalb qilishga ko'mak beradi. Ular Pokiston xalqi orasida noyob hisoblanadi. Shu bilan birgalikda ular Pokistonning eng kichik etnik diniy guruhi hisoblanadi hamda an'anaviy ravishda ba'zi mualliflar qadimgi hinduizmnining bir shakli sifatida tavsiflangan dinga amal qiladilar. Kalash xalqi o'zining betakror madaniyatini saqlab qolish uchun kurashmoqda. Afsuski son jihatidan kam bo'lganligi uchun ularning madaniyati yo'qolish xavfi ostida.. Ular asosan Chitral vodiysidagi Bumburet, Rumbur va Birir vodiysida istiqomat qilishadi. Kalash xalqi o'ziga xos madaniyati, diniy e'tiqodi va tili bilan ajralib turadi.

Kalashlar Osiyoning tub aholisi hisoblanib, ularning ajdodlari Chitral vodiysiga, ehtimol, janubdagi boshqa joydan ko'chib kelishgan bo'lishi ham mumkin. Kalash xalq qo'shiqlari va dostonlarida ularni "Tsiyam" deb ataydi. Ba'zi Kalash an'analari turli xil Kalash xalqlarini muhojirlar yoki

qochqinlar deb hisoblashadi. Ba'zi olimlar Kalash xalqining kelib chiqishini Aleksandr Makedonskiy qo'shinining a'zolari yoki yunon ko'chmanchilarining bevosita avlodlari sifatida taxmin qilishgan. Bu hududda yuzlab yillar davomida yunon tilida so'zlashuvchi xalqlar va yunon qirolliklari gullab-yashnagan. Kalash xalqida sarg'ish sochli va moviy ko'zli kishilarning ko'pligi ularning qadimgi yunonlar avlodi ekanligi haqidagi taxminlarni kuchaytirgan. 1700-yillardan beri Kalash xalqi Chitral knyazligi Mehtari tomonidan boshqarilgan va hududdagi asosiy etnik guruh bo'lgan, sunniy va ismoiliy musulmonlardan iborat Xo xalq bilan yaxshi munosabatda bo'lgan. Ko'p millatli va ko'p dinli Chitral davlati Kalashlarning o'z madaniyati va dinini erkin amalda qo'llashiga imkon yaratgan. 1890-yillarda ularning qo'shnilari bo'lgan Nuriston aholisi Afg'oniston amiri Abdur-Rahmon tomonidan bosib olinib, islom diniga kiritilgan, natijada ularning yurti Kofiristandan "Nuriston" deb o'zgartirilgan. Bunga qadar Kofiriston aholisi Chitral Mehtariga xiroj to'lab, uning hukmronligini tan olgan. Ammo bu 1893-yilgi Dyurand chizig'i kelishuvi natijasida to'xtatilgan.

Kalash xalqi o'ziga xos politeistik (ko'p xudoga sig'inadigan) dinni amalda qo'llaydi. Ular tabiat kuchlari va ilohiy ruhlarga ishonishadi. Kalashlar o'z marosimlarida qadimiy diniy urf-odatlarini saqlab qolgan. Kalash xalqining madaniyati va e'tiqodi atrofdagi musulmon etnik guruhlardan keskin farq qiladi, biroq Afg'onistonning shimoli-sharqidagi Nuriston xalqi (islomlashtirilishdan oldin) bilan o'xshashliklarga ega. Kalash dini, afsonalari va marosimlari vedik hind-oriylar va islomdan oldingi zardushtiylik e'tiqodlariga juda o'xshaydi. Ba'zan, ularning

afsonalari va folklori qadimgi yunonlar bilan solishtiriladi, ammo aslida ular hind-eron an'analariga yaqinroq. Ba'zi mabaalarga ko'ra Kalash e'tiqodiga ko'ra, asosiy yaratuvchi xudo Dezau deb nomlanadi. Uning nomi hind-evropa tillaridagi "yaratmoq" ma'nosini bildiruvchi ildizga borib taqaladi. Hamda Kalash dinida bir nechta xudolar, yarim-xudolar va ruhlar mavjud. Shu sababli, Kalash xalqi panteoni hind-evropa dinlarining so'nggi tirik vakillaridan biri hisoblanadi. Ular Hinduizm va Zardushtiylik kabi qadimiy e'tiqodlar bilan bog'liq. Shuningdek, Tabiat ularning kundalik hayotida muhim va ma'naviy rol o'ynaydi. Diniy an'alarining bir qismi sifatida ular qurbonliklar keltirib, uchta vodiyning mo'l-ko'l resurslari uchun minnatdorchilik bildirish maqsadida festivallar o'tkazadilar. 14-asrda Chitralda musulmonlarning hukmronligi davrida ko'pchilik Kalash asta-sekin islom dinini qabul qildi. Biroq, oz sonli Kalashlar o'z dini va urfodatlarini saqlab qolishdi, lekin ular faqat Bumburet, Rumbur va Birir vodiysiga cheklab qo'yildi. Vaqt o'tishi bilan musulmon aholining ortishi natijasida hatto ushbu vodiylarda ham Kalashlar ozchilikka aylanishdi. Shunga qaramay, ularning qadimiy diniy va madaniy an'alarini saqlab qolishi muhim ahamiyat kasb etadi.

20-asr o'rtalarida Pokistondagi bir necha Kalasha qishloqlarini islomni qabul qilishga majburlashga urinish bo'lgan, biroq xalq dinni qabul qilishga qarshi kurashgan. Rasmiy bosimlar olib tashlanganidan so'ng, ko'pchilik o'z dinlariga amal qilishni davom ettirdi. Shunga qaramay, ba'zi Kalasha islomni qabul qildi, garchi ba'zilari buni qilgani uchun o'z jamoasi tomonidan rad etilgan bo'lsa ham. Afg'onistonning qo'shni viloyatidagi qo'shni Nuristonliklar bir vaqtlar bir xil madaniyatga ega bo'lgan va bir

necha kichik jihatlari bilan farq qiladigan Kalash diniga juda o'xshash e'tiqodga ega bo'lgan. Kalash xalqining soni atigi 4000 ga yaqin. (2010-yilgi manbaa).

Kalash xalqining tili va o'ziga xos madaniyati Kalash tili hind-yevropa tillari oilasiga mansub bo'lib, hind-eron guruhining hind-oriy tarmog'idagi Dard tillariga kiradi. U Chitral tillarining kichik guruhiga mansub bo'lib, ushbu guruhning yagona boshqa a'zosi xovar tilidir. Kalash tili, Kalashamun nomi bilan ham tanilgan. Ilgari Kalash tili janubiy Chitralning keng hududlarida so'zlashilgan, biroq hozirda asosan g'arbiy yon vodiylarda saqlanib qolgan va Xovar tilining ta'siri ostida o'z muhimligini yo'qotgan. Norvegiyalik tilshunos G. Morgenshtern har ikkala tilni o'rganib, ularning o'xshashliklariga qaramay, kalash tilini mustaqil til deb hisoblagan va uni Xovar tilining dialekti emas, balki alohida til sifatida tasniflagan. XX asrning oxirlarigacha Kalash tili yozma hujjatlashtirilmagan til bo'lib kelgan. Keyinchalik, yunon nodavlat tashkiloti (NGO) va mahalliy Kalash oqsoqollari ushbu tilning og'zaki an'alarini saqlab qolish maqsadida yangi Kalash alifbosini yaratish ustida ish olib borganlar. Bu ishda Taj Xon Kalash muhim rol o'ynagan. U Gretsiyaning Saloniki shahriga ko'chib borib, Aristotel universitetida lingvistika bo'yicha tahsil olgan. Keyinchalik u Mesogaia nomli yunon nodavlat tashkiloti bilan hamkorlikda Kalash alifbosini yaratish va uni bolalarga o'rgatish uchun "Alifbo kitobi"ni nashr qilish ishlarini olib borgan. Kalash xalqi yashaydigan hududlarda ta'lim olish hashamatli ish hisoblanadi. Kalash xalqini saqlab qolish uchun juda ham oz sonli madaniy tashkilotlar ishlaydi. Ushbu masalaga yechim mahalliy tashkilot bu xalqning ta'lim tizimini rivojlantirishi, maktablar

qurib ularni yetarlicha ta'lim anjomlari va ustozlar bilan ta'minlash maqsadga muvofiq bo'ladi. Kalashlar va ularning yo'qolib borayotgan madaniyatini asrab qolishning yagona yo'li bu xorijiy sayyohlarning kelishiga bog'liq deb hisoblaydilar. Turistlarning ushbu yerlarga tashrifi iqtisodining asosi hisoblanadi.

Kalash jamiyatida tadbirlari ikkiga bo'linadi. Birinchi turda diniy marosimlar bilan birga bayramona tantanalar ham bo'lib o'tadi. Ikkinchi turdagi tadbirlarda esa faqatgina diniy marosim bo'lib, raqs, ashula va qo'shiqlar bo'lmaydi. O'ziga xos va betakror turmush tarzi hamda an'analari bilan Kalash xalqi madaniyatining eng muhim unsurlaridan biri bo'lgan kiyim-kechak kiyadi. Mahalliy tilida "Shu" deb ataladigan mato ushbu kiyimlarni tikishda ishlatiladi. Bu Chitral hududida ishlatiladigan jun matodir. Kalash ayollari odatda uzun qora liboslar kiyishadi, ular molyuska qobig'i bilan bezatilgan bo'ladi. Shu sababli, ular Chitralda "Qora kafirlar" deb ataladi. Erkaklar esa Pokistonliklarning an'anaviy shalvar-kamiz kiyimini qabul qilishgan. Bolalar to'rt yoshdan boshlab kattalarga o'xshash kiyim kiyishni boshlaydi. Kalash kiyimlarida Shu matosi ipak bilan birga ishlatiladi va u kashtachilikda qo'llaniladigan marjonlar hamda boshqa bezak buyumlari bilan uyg'unlashtiriladi. Kalash do'pisi yoki Khalpol qishloq aholisi uchun kundalik kiyim-kechakning ajralmas qismidir. Khalpol juda nozik dizaynga ega bo'lib, har bir inson uchun o'ziga xos tarzda yaratiladi. Ko'plab mahalliy ayollar o'zlarining bosh kiyimlarini o'zlari yasaydilar. Tarixan Kalashlar chorvachilik va o'z ehtiyojlari uchun dehqonchilik bilan shug'ullanib kelgan. Hozir ular asta-sekin pulga asoslangan iqtisodiyotga o'tmoqda. Turizm ularning iqtisodiy faoliyatining

katta qismini tashkil qiladi. Sayyohlar uchun kichik do'konlar va mehmonxonalar qurilgan bo'lib, vodiya tashrif buyuruvchilarga qulay sharoitlar taqdim etilmoqda. Vodiylarga kirish uchun Pokiston hukumati maxsus to'lov joriy qilgan bo'lib, ushbu mablag' Kalash xalqi va ularning madaniyatini saqlashga yo'naltirilmoqda. Ularning turar joylari tosh va yog'ochdan qurilgan va qiziqarlisi ular bir uyning ustiga boshqasini ham quradilar. Atrofdagi Pokiston madaniyatidan farqli o'laroq, Kalash odatda erkak va ayollarni ajratmaydi yoki ular o'rtasidagi muloqotga qarshilik bildirmaydi. Qishloq hududlarida ayol va erkak oqsoqollari mavjud. Qizlar to'rt-besh yoshida balog'atga yetish jarayoniga kirishadi va odatda o'n to'rt yoki o'n besh yoshida turmushga chiqishadi. Qochib ketib turmush qurish odatiy hol sanaladi, bu hatto allaqachon turmush qurgan ayollar orasida ham uchraydi. Aslida, ayolning eridan qochib ketishi Kalash xalqining "buyuk odatlari" qatoriga kiradi va asosiy bayramlar bilan bir qatorda muhim deb hisoblanadi. Agar bir ayol erini o'zgartirmoqchi bo'lsa, u bo'lajak eriga xat yozib, hozirgi eri uchun to'langan halim pulini bildiradi. Chunki yangi er avvalgi er to'langan pulning ikki baravarini to'lashi kerak bo'ladi. Hayz ko'rayotgan qizlar va ayollar "bashaleni" deb nomlanuvchi alohida binoda yashashga jo'natiladi va pokliklarini tiklagunlariga qadar u yerda qolishadi. Shuningdek, tug'ruq ham bashalenida amalga oshiriladi. Tug'ruqdan keyin ayol eriga qaytishidan oldin unga maxsus "poklikni tiklash" marosimi o'tkaziladi va bu marosimda er ham faol ishtirok etadi. Kalash xalqining ma'lum yil oylarida nishonlaydigan o'ziga xos bayramlari mavjud. Joshi bayrami may oyida bahorni qarshilash, Uchav avgust oyida hosil barakali bo'lishi uchun, Pul yoki Poh Birir vodiysida sentyabr oyida va Chavmos dekabr oyida ikki haftadan ortiq davom etuvchi eng katta festival-bayrami

bo'lgan Yangi yil kabi maxsus bayramlar nishonlanadi. Bugungi kunda Kalash xalqi modernizatsiya bosimi ostida katta o'zgarishlarni boshdan kechirmoqda. Agar xalqaro va mahalliy tashkilotlar hamda hukumatlar bu madaniyatni saqlab qolishga harakat qilmasa, ushbu meros yo'qolib ketishi mumkin. Bularning asosiy sababi ushbu ozchilik yashaydigan joylar chegaraga yaqin joyda joylashgan bo'lib u yerlarga yetib borish qiyin va mashaqatlidir.

Kalash xalqlari hozirgi kunda, keskin burilish yoqasida turibdi. Boshqa etnik ozchiliklar singari ular ham moslashish yoki yo'q bo'lish tanloviga duch kelishmoqda. Aralash nikohlar va ko'chib ketish ham jiddiy zarar yetkazmoqda. Buning sabablari turlicha bo'lib xalqning ta'lim salohiyati, geografik joylashuv, iqtisodiy qudrati, sog'liqni saqlash va xizmat ko'rsatish sohalarida bir qancha ortda qolmoqda. Kalash xalqi turizm dan tushadigan daromadni hamda Xaqlaro hamjamiyat ajratadigan iqtisodiy ko'maklarni jamlab yuqoridagi sohalarga yo'naltirsa o'ylaymizki juda katta foyda bo'ladi. Mamlakat musulmon davlati bo'lganligi sababli Kalash xalqining dini bosim ostida qolmoqda. Mahalliy hukumat dinini erkinlikni himoya qiluvchi qonunlarni kuchaytirsam bu bosimlar kamayishi mumkin. Geografik joylashuvdan kelib chiqib, Kalash aholisini hunarmandchilik mahsulot eksporti va savdo bilan shug'ullanishi iqtisodiy imkoniyatlarni kengaytirishi mumkin. Ushbu xalq yashaydigan hududda maktablarning soni ortishi ta'limni, shifoxona va shahobchalar ochilishi salomatlik sohalarini rivojlantiradi.

Xulosa qilib aytganda, kalash xalqi tarixiy merosi, o'ziga xos madaniyati va an'anaviy turmush tarsi bilan dunyodagi eng kamyob etnik

guruhlardan biridir. Ammo ushbu xalq globalizatsiya, iqtisodiy qiyinchiliklar, diniy bosimlar ostida yo'qolib ketish xavfi ostida turibdi. Ushbu xalqni saqlab qolish uchun hukumat tomonidan qo'llab-quvvatlash, ta'lim hamda boshqa muhim sohalarni yaxshilash, ularning madaniy me'rosini targ'ib qilish kerak. Bu muammolarga ma'suliyat bilan e'tibor qaratilsa, nafaqat bu xalqning ijtimoiy hayoti yaxshilanadi, balki dunyoning madaniy xilma-xilligiga ulkan hissa qo'shishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar va internet saytlari:

- 1.<https://www.worldhistory.org/Kalasha/> - Kalash xalqi madaniyati.
- 2.https://artsandculture.google.com/asset/the-kalash-a-unique-way-of-life/VAE_vzNyiCUeAg?hl=en – Kalash xalqi yashash sharoitlari haqida.
- 3.https://www.newworldencyclopedia.org/entry/Info:Main_Page –Kalash xalqi tarixi va umumiy ma'lumot.
- 4.<https://www.nytimes.com/2020/12/27/world/asia/pakistan-kalash-chawmos.html> -Kalash xalqi madaniy bayramlari.
- 5.<https://www.bbc.com/news/world-asia-67498243> - Kalash xalqining hozirgi holati.
- 6.https://www.researchgate.net/publication/283243145_An_Anthropological_Study_of_Dress_and_Adornment_Pattern_Among_Females_of_Kalash_District_
- 7.https://www.researchgate.net/publication/259821328_Religion_as_a_Space_for_Kalash_Identity_A_Case_Study_of_Village_Bumburetin_Kalash

[Valley District Chitral](#)

8.<https://ru.wikipedia.org/wiki/> Kalash xalqi haqida umumiy malumot.

IMRON XON DAVRIDA POKISTON TASHQI SIYOSATINING ASOSIY YO'NALISHLARI



Bo'riyev Murodullo

TDSHU 2-kurs Xalqaro munosabatlar

ingliz-urdu guruhi talabasi

Ilmiy rahbar: o'qituvchi-stajor,

tayanch doktorant Sh.J.Sa'dullayev

Annotatsiya. Ushbu maqolada Pokiston sobiq bosh vaziri Imron Xon davridagi tashqi siyosat yo'nalishlari tahlil qilingan. Xususan, Xitoy, Rossiya, Yevropa Ittifoqi, Afg'oniston, Hindiston, Islom mamlakatlari hamda Markaziy Osiyo, ayniqsa O'zbekiston bilan bo'lgan diplomatik va iqtisodiy aloqalar ko'rib chiqilgan. Maqola so'ngida ushbu davrdagi tashqi siyosatning mintaqaviy xavfsizlik, hamkorlik va barqarorlikka ta'siri baholanadi.

Kalit so'zlar: Imron Xon, Pokiston, O'zbekiston-Pokiston munosabatlari, Xitoy bilan hamkorlik, Yevropa Ittifoqi, Rossiya-Pokiston aloqalari, Hindiston-Pokiston munosabatlari, Afg'oniston, Markaziy Osiyo, diplomatik siyosat.

Pokiston tashqi siyosati tarixan geosiyosiy joylashuvi, xavfsizlik muammolari va xalqaro ittifoqlar bilan chambarchas bog'liq bo'lib kelgan. Imron Xon – Pokistonning taniqli siyosatchisi va sobiq bosh vaziri bo'lib, 2018–2022-yillarda mamlakatni boshqargan. U siyosatga kirishdan avval mashhur kriket yulduzi bo'lgan va keyinchalik “Pokiston Tahrik-e-Insaf” (PTI) partiyasiga asos solgan. Uning boshqaruvi davrida Pokiston tashqi siyosatida mustaqil yo'nalish shakllandi. Xususan, u g'arb davlatlariga qaramlikni kamaytirish, Xitoy va Rossiya bilan hamkorlikni rivojlantirish, shuningdek, Islom davlatlari bilan yaqin aloqalarni kuchaytirish tarafdori bo'ldi. Hokimiyatga kelgan Imron Xon o'zining

“Yangi Pokiston” konsepsiyasi orqali nafaqat ichki islohotlarni, balki tashqi siyosatda ham yangi yo‘nalishlarni amalga oshirishga va‘da berdi. Uning siyosatida Pokistonning mustaqil tashqi siyosat yuritishi, mintaqaviy barqarorlikka hissa qo‘shishi va xalqaro munosabatlarda faol pozitsiyada bo‘lishi ustuvor yo‘nalishlar bo‘ldi. Imron Xon hukumati davrida Pokiston Islom Respublikasining olib borilgan ko‘p qirrali tashqi siyosati nafaqat Janubiy Osiyo uchun, balki yondosh mintaqalar uchun ham dolzarblik kasb etadi.

Imronxon davrida Pokiston tashqi siyosatining markaziy tamoyili – xalqaro siyosiy sahnada mustaqil yo‘l tutishdir. U G‘arb davlatlariga nisbatan qaramlikni kamaytirishga va Pokistanning o‘z manfaatlarini himoya qilishga katta e‘tibor qaratdi. Bu yondashuv xalqaro munosabatlarda Pokistonning o‘z siyosiy va iqtisodiy qobiliyatlarini mustahkamlashga xizmat qildi.

AQSH bilan munosabatlar

Imron Xon AQSH bilan munosabatlarni tenglik asosida qayta ko‘rib chiqishni maqsad qildi. U Pokistonni Afg‘onistondagi urushda sherik emas, balki tinchlik jarayonida vositachi sifatida ko‘rsatdi. 2020-yilda AQSH–Tolibon muzokaralari natijasida erishilgan kelishuvda Pokiston muhim rol o‘ynadi. Shunga qaramay, Pokiston–AQSH aloqalari murossali, ammo ehtiyotkorona davom etdi.

Yevropa Ittifoqi bilan munosabatlar

Imron Xon YI bilan aloqalarni iqtisodiy tomonlama rivojlantirishga e‘tiborini qaratdi. Shu bilan birga YI bilan munosabatlar inson huquqlari, atrof-muhit va barqaror taraqqiyot masalalari doirasida faollashdi.

2019-yilda YI–Pokiston Strategik Anglash Memorandumi imzolandi. Bu hujjat ikki tomonlama aloqalarni chuqurlashtirishga xizmat qildi (xavfsizlik, migratsiya, iqlim o‘zgarishi va ta‘lim sohalarida).

Savdo aloqalari: Pokiston Yevropa Ittifoqining "GSP+" (Generalised Scheme of Preferences Plus) dasturidan foydalangan holda, Yevropa bozorlariga eksportini oshirdi. Bu dastur Pokistonga bojxona imtiyozlari taqdim etib, mamlakatning to‘qimachilik va boshqa mahsulotlarini Yevropaga eksport qilishini yengillashtirdi. Pokiston 2014-yildan GSP+ tizimida ishtirok etadi, bu esa uning YIga eksportini sezilarli darajada oshirdi. 2013–2021 yillar oralig‘ida savdo hajmi 78% ga oshib, €12,2 milliardga yetdi. 2021-yilda Pokistonning YIga eksporti: €6,64 mlrd (asosan to‘qimachilik mahsulotlari). YIning Pokistonga eksporti: €5,59 mlrd (mashinalar, kimyoviy modda va texnika).

Bundan tashqari siyosiy bosimlar va muammolar ham bor edi.YI tomonidan inson huquqlari, diniy erkinlik va jurnalistlar xavfsizligi borasida Imron Xon hukumatiga nisbatan tanqidlar bo‘lgan.Shunga qaramay, GSP+ maqomi Imron Xon davrida saqlab qolindi, bu Pokiston iqtisodiy barqarorligiga yordam berdi.

Xitoy bilan strategik sheriklik

Xitoy Pokistonning eng muhim strategik hamkori bo‘lib qoldi. Imron Xon Xitoy bilan CPEC (China–Pakistan Economic Corridor) loyihasini davom ettirdi va Pokiston iqtisodiyotiga milliardlab dollarlik investitsiyalarni jalb qilishga erishdi. Xitoy bilan yaqin hamkorlik nafaqat iqtisodiy, balki xavfsizlik va infratuzilma sohalarida ham mustahkamlandi.Imron Xon hukumatida Pokiston va Xitoy “har qanday ob-havoda strategik hamkorlik”ni mustahkamlashga intildi.2018-yil noyabr oyida Imron Xon Xitoyga rasmiy tashrif buyurib,Prezident Si Szinpin va Bosh vazir Li Ketsyan bilan uchrashdi.Uchrashuvda ikki tomonlama hamkorlikni chuqurlashtirish masalalari muhokama qilindi.Va tomonlar o‘rtasida “Yangi davrda Pokiston-Xitoy umumiy kelajak hamjamiyatini qurish” bo‘yicha qo‘shma bayonot imzolandi.

2021-yilda Pokiston va Xitoy o‘rtasidagi umumiy savdo hajmi \$27,82 milliardni tashkil etdi.Pokistonning Xitoyga eksporti \$3,58 milliardga yetdi.Bu 2020-yilga nisbatan 68,9% o‘shishni ko‘rsatdi.

Ikki davlat BMT va SHHT kabi xalqaro tashkilotlarda ham o‘zaro qo‘llab-quvvatlashni davom ettirmoqda.

Rossiya bilan munosabatlar

2022-yil 23-24-fevral kunlari Imron Xon Moskva shaxriga rasmiy tashrif bilan bordi Rossiya prezidenti Vladimir Putin bilan Kremlda uchrashdi.Uchrashuvda ikki tomonlama hamkorlik,xususan,energetika sohasidagi loyihalar muhokama qilindi.Ushbu tashrif Pokiston bosh vazirining so‘ngi 20 yil ichidagi Rossiyaga birinchi tashrifi bo‘ldi.Pokiston va Rossiya Afg‘onistondagi vaziyat yuzasidan o‘zaro maslahatlashuvlarni davom ettirib,mintaqaviy barqarorlik va xavfsizlikni ta‘minlash yo‘lida hamkorlik qildilar.

Shu bilan birga ikki davlat o‘rtasidagi import va eksport hajmi ham ancha oshdi.Pokistonning SHHTga a‘zo bo‘lishi bilan Rossiya bilan mintaqaviy xavfsizlik va iqtisodiy hamkorlik masalalarida yaqinlashuv kuzatildi.

Hindiston bilan ziddiyatlar

2019-yilda Hindistonning Jammu va Kashmir maqomini bekor qilishi ikki davlat o'rtasidagi ziddiyatni kuchaytirdi. Ikki tomonlama munosabatlar keskin yomonlashdi, hatto harbiy to'qnashuv holatlari kuzatildi. Imron Xon xalqaro maydonda Hindiston siyosatini tanqid qildi, biroq diplomatik munosabatlar zaiflashdi.

2019-yil 14-fevralda Hindistonning Jammu va Kashmir shtatida joylashgan Pulvama shahrida Pokistonda joylashgan Jaish-e-Mohammed guruhi tomonidan uyushtirilgan xudkushlik hujumi natijasida 40 nafar hindistonlik paramilitar askar halok bo'ldi. Bu hodisa ikki davlat o'rtasidagi keskinlikni oshirdi.

Savdo munosabatlari bo'yicha: Imron Xon davrida ya'ni 2019-yilda Pokiston Hindiston bilan savdoni to'xtatdi va diplomatik aloqalarni pasaytirdi. Shunga qaramay, 2025-yil fevral oyida Pokistonning Hindistondan importi 26.8 million AQSH dollariga yetdi, bu 2024-yilning shu davriga nisbatan 28% o'sishni ko'rsatdi.

SHHT doirasida ikki davlat muloqotlari davom etdi. Ammo ikki tomonlama munosabatlardagi keskinliklar hamkorlikni chekladi. 2021-yil avgustda Tolibon Afg'oniston hokimyatiga kelishi Pokistonda Imron Xon davriga to'g'ri keldi. Imron Xon bu voqeani "afg'onlar qullik zanjirlarini uzdi" deya baholadi.

Pokiston tolibonning hokimyatga kelishini dastlab ijobiy qarshiladi, biroq keyinchalik bu munosabatlar murakkablashdi. Tolibonning hokimyatga kelishi bilan Tehrik-e-Tolibon Pokiston (TTP) faolligi oshdi. Bu esa Pokiston ichki xavfsizligiga tahdid soladi.

Afg'oniston bilan aloqalar

2018-yil sentabr oyida Imron Xon bosh vazir etib saylangandan so'ng Pokiston Afg'oniston bilan aloqalarni yaxshilashga intildi. 2021-yil avgustda Tolibon Afg'oniston hokimyatiga kelishi Pokistonda Imron Xon davriga to'g'ri keldi. Imron Xon bu voqeani "afg'onlar qullik zanjirlarini uzdi" deya baholadi.

Pokiston tolibonning hokimyatga kelishini dastlab ijobiy qarshiladi, biroq keyinchalik bu munosabatlar murakkablashdi. Tolibonning hokimyatga kelishi bilan Tehrik-e-Tolibon Pokiston (TTP) faolligi oshdi. Bu esa Pokiston ichki xavfsizligiga tahdid soladi.

Pokiston va Afg'oniston chegarasida bir necha bor to'qnashuvlar sodir bo'ldi. Masalan, 2023-yil sentabr oyida Chitral tumanida TTP jangchilari bilan bo'lgan to'qnashuvda to'rt nafar Pokiston askari halok bo'ldi, 12 nafar jangari yo'q qilindi.

Imron Xon davrida ikki davlat o'rtasida savdo aloqalarini yaxshilashga harakatlar bo'ldi. Biroq, xavfsizlik muammolari va siyosiy beqarorlik bu jarayonga to'sqinlik qildi. Bundan tashqari Pokistonda millionlab afg'on qochqinlari yashaydi. Imron Xon hukumati ularning ayrimlariga fuqorolik berish masalasini ko'rib chiqdi. Ammo bu ichki siyosiy muhokamalarga sabab bo'ldi.

O'zbekiston bilan aloqalar

Imron Xon davrida Pokiston va O'zbekiston o'rtasida bir nechta muhim siyosiy, iqtisodiy shartnomalar imzolandi. 2021-yil iyul oyida Imron Xon O'zbekistonga rasmiy tashrif buyurdi. Va aynan shu tashrif davomida ikki davlat o'rtasida strategik sheriklik aloqalarini o'rnatish to'g'risidagi qo'shma bayonot imzolangan edi.

Bundan tashqari 2021-yil iyul oyida O'zbekiston-Pokiston biznes forumi ham bo'lib o'tdi va qiymati 500 million dollardan ziyod shartnomalar imzolandi. Ushbu aloqalardan yana bir maqsad O'zbekistonning berk havzada joylashganligi sababli Pokiston portlariga chiqish hamdir. Va bunga Pokiston tomon qarshilik bildirmadi. Aynan Imron Xonning o'zi "O'zbekiston portlarimiz orqali dunyoga chiqishi mumkin" degan. Aynan portgacha olib boradigan temir yo'li (Termiz-Mozori Sharif-Kobul-Peshovar) qurilishi loyihasi amalga oshirilmoqda. Bu loyiha orqali O'zbekiston Afg'onistondan o'tib Pokistonning Karachi portlariga chiqishni ko'zlamoqda.

Imron Xon bosh vazirlik qilgan 2018–2022-yillar Pokiston tashqi siyosatida faol, mintaqaviy integratsiyaga yo'naltirilgan davr bo'ldi. U mamlakatning strategik manfaatlarini himoya qilish, iqtisodiy hamkorlikni kengaytirish va xalqaro maydondagi nufuzini oshirishga harakat qildi.

Uning tashqi siyosatidagi asosiy ustuvorliklar:

1. Xitoy bilan har tomonlama strategik sheriklikni mustahkamlash, xususan CPEC loyihasi orqali infratuzilma va energetika sohasida yirik investitsiyalarni jalb qilish;
2. Yevropa Ittifoqi bilan savdo-iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish orqali eksport imkoniyatlarini kengaytirish;
3. Rossiya bilan siyosiy hamkorlikni faollashtirish, harbiy va energetika sohalarida yaqinlikka erishish;
4. Hindiston bilan murakkab munosabatlarga qaramay, diplomatik muvozanatni saqlash va Kashmir masalasida xalqaro e'tiborni jalb qilish;

5. Islom dunyosi, ayniqsa Saudiya Arabistoni, Turkiya va Eron bilan aloqalarni diniy birdamlik, moliyaviy yordam va xavfsizlik masalalarida mustahkamlash;

6. Afg'oniston bilan barqarorlik va iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishga intilish, Tolibon hokimiyatga kelganidan so'ng u yerda murosali yondashuvni ilgari surish;

Markaziy Osiyo, ayniqsa O'zbekiston bilan aloqalarda esa transport va logistika loyihalari, savdo-sotiq va siyosiy yaqinlik alohida o'rin tutdi.

O'zbekiston bilan aloqalarda, ayniqsa, Imron Xon tashriflari orqali strategik sheriklikka asos solindi, qo'shma loyihalar va savdo ko'lamining oshishi bu aloqalarning real samara berganini ko'rsatadi.

Umuman olganda, Imron Xon tashqi siyosatda Pokistonning regional va global o'rnini kuchaytirishga intilgan, biroq ichki siyosiy beqarorlik va iqtisodiy muammolar bu sa'y-harakatlarning to'liq amalga oshishiga to'siq bo'lgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR VA INTERNET SAYTLARI

1. <https://www.gazeta.uz/oz/2021/07/16/strategic-partnership/>
2. <https://www.aljazeera.com/news/2021/7/28/pakistan-pm-imran-khan-china-visit-cpec>
3. <https://www.theguardian.com/world/2021/may/04/pakistan-eu-trade-gsp-plus>
4. <https://www.reuters.com/world/asia-pacific/pakistans-imran-khan-meets-putin-moscow-2022-02-24/>
5. <https://www.bbc.com/news/world-asia-58261207>
6. <https://thediplomat.com/2020/11/pakistans-prime-minister-khan-on-historic-first-visit-to-afghanistan/>
7. <https://www.cfr.org/article/pakistans-support-taliban-what-know>
8. "Pakistan: A Hard Country"-Anatol Lieven
9. "Pakistan's foreign Policy: Contemporary Developments and Dynamics"-Ghulam Ali
10. "Pakistan's Foreign Policy 1947-2019: A Concise History"-Abdul Sattar

HINDISTON MILLIY LIBOSLARI



Kanalimova Asel

TDSHU 2-kurs Filologiya va tillarni o'qitish

hind-ingliz guruhi talabasi

Ilmiy rahbar: M.Murtazaxadjayeva

Annotatsiya. Mazkur maqolada Hindiston milliy liboslarining tarixiy rivojlanish bosqichlari, ularning mintaqaviy farqlari va ijtimoiy-madaniy funksiyalari tizimli ravishda tahlil etilgan. Sari, dhoti, salwar kameez, churidar, sherwani va kurta kabi kiyimlarning shakllanishi, ularning diniy, gender va estetik jihatlari kontekstida ko'rib chiqilgan. Ayniqsa, hind kelinlari liboslari, beva ayollar kiyimlaridagi soddalik va naqshlarning ramziy ifodasi madaniy qadriyatlar bilan bog'liq holda tahlil qilingan. Milliy liboslarning zamonaviy jamiyatdagi tutgan o'rni va ularning bayram hamda marosimlardagi ahamiyati alohida e'tiborga loyiq. Maqolada hind kiyinish madaniyati lingvokulturologik va etnografik yondashuv asosida o'rganilib, u xalqning tarixiy xotirasi, ruhiyati va madaniy o'zligining ifodasi sifatida talqin etiladi. Tadqiqot natijalari madaniyatshunoslik, filologiya va antropologiya sohalarida ilmiy izlanish olib boruvchilar uchun ahamiyatlidir.

Kalit so'zlar: hind milliy liboslar, sari, dhoti, salwar kameez, churidar, sherwani, kurta, kiyinish madaniyati, naqshlar, ramziy ma'no, hind kelinlari, beva ayollar, madaniyatshunoslik, etnografiya,

lingvokulturologiya, tarixiy meros, mustamlakaxhilik davri, ijtimoiy struktura, estetik qarashlar.

Insoniyat tarixida jahon sevilizatsiyasiga ijtimoiy iqtisodiy va manaviy-marifiy taraqqiyotga sezilarli xissa qo'shib kelayotgan mamlakatlar orasida Hindistonning ham muhim ahamiyati bor. Hind madaniyati dunyodagi eng qadimiy va o'ziga xos madaniyatlardan biridir. Hind madaniyati keyinchalik Janubiy va Janubiy sharqiy osiyo kabi keng hududlarida yashab o'tgan ko'plab qo'shni xalqlar madaniyatining rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatgan. Hindiston dunyodagi eng qadimgi sivilizatsiyalarning vatani va 5 ming yil davomida aholining jismoniy turi o'zgarmagan hisoblanadi. Mintaqaviy tafovutlar xilma-xillik tuyg'usini yaratsa-da, umumiy til va diniy va axloqiy qarashlar hind madaniyatini birlashtiradi, uning doirasida ve'dalar kabi global ahamiyatga ega hodisa yaratilgan. Shuni takidlash lozimki har bir xalqning madaniyati etnografiyasi va tarixida urf-odatlar, an'analar milliy liboslar juda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Hindiston milliy liboslari o'zining uzoq qadimiy tarixiy ildizlari va madaniy boyligi bilan ajralib turadi. Hind milliy liboslari nafaqat estetik go'zallikni, balki xalqning diniy, madaniy va ijtimoiy qadriyatlarini ham aks ettiradi. Ularning rivojlanishi asosan mintaqaning iqlimi, diniy urf-odatlari va tarixiy voqealar bilan chambarchas bog'liq. Ularning yaratilishi ham kohna va qadiymiydir. Masalan, Yaponlar Kimanosi, Mexsikaliklar o'zlarining kavbo'y etiklari, Amerikaliklar shlyappalari bilan mashhur, shu jumladan hindlar ham o'zlarining sariylari bilan dunyoga mashhur.

Aynan hind milliy liboslarining tarixi, kelib chiqishi va hozirgi kundagi holati ko'plab dunyo olimlarini qiziqtirgan. Hindiston milliy liboslarining tarixini o'rgangan ko'plab olimlar, tadqiqotchilar va tarixchilar mavjud. Ular kiyim-kechaklarning ilmiy, antropologik va san'at nuqtai nazaridan rivojlanishini tadqiq qilganlar. Quyida ushbu sohada ishlagan eng mashhur olimlar ro'yxati keltirilgan

1. Anamika Pathak - Nyu-Dehli'dagi Milliy Muzeyning to'qimachilik tarixchisi va kuratori. Hindistonlik madaniyat faoli va yozuvchi bo'lib, u mustaqillikdan keyingi Hindistonda an'anaviy va badiiy san'at, qo'l to'qimachiligi hamda hunarmandchilikni tiklash bo'yicha ishlari bilan shug'illangan. The New York Times nashriga ko'ra, u "Hindistonning madaniyat qirolichasi" sifatida tanilgan bo'lib, Hindiston san'atini targ'ib qilish maqsadida Fransiya, Yaponiya va AQShda san'at festivallarini ishtirok etgan. Hindiston kiyim-kechak madaniyati va matolarining evolyutsiyasi bo'yicha tadqiqot olib borgan. Kitoblari: Indian Costumes (Hindiston kiyim-kechaklari) va Pashmina.

2. Roshen Alkazi - Hindiston kiyim-kechak va to'qimachilik an'analari bo'yicha tarixiy tadqiqotlar olib borgan. Jumladan eramizdan avvalgi davrdagi hindiston liboslarining davrlarga bo'lib o'rganadi va qimmatli ma'lumlarni o'quvchlariga ulashadi, 30 yil davomida turli hil zamonaviy sa'nat galereyalarini boshqargan va milliy drama maktabida liboslar dizayneri bo'lib ishlagan. Bundan tashqari Nyu-Dehli universitetida liboslar dizayni tarixidan dars bergan. "Ancient Indian Costume" kitobi mallifi.

3. B. N. Goswamy. Hindiston miniatura san'atidagi kiyim-kechak tasvirlarini o'rgangan san'at tarixchisi. Hind kiyim-kechak tarixi bo'yicha bir necha asarlar yozgan.

4. Ritu Kumar. Hind an'anaviy kiyimlari va to'qimachilik texnikalari bo'yicha tadqiqot olib borgan mashhur dizayner. Kitobi: Costumes and Textiles of Royal India (Qirollik Hindistoni kiyim-kechaklari va matolari).

5. John Irwin. Hindiston to'qimachilik savdosi va kiyim-kechak madaniyatini o'rgangan britaniyalik olim. Asari: Indian Textile Trade in the 17th Century (XVII asrda Hindiston to'qimachilik savdosi).

Eng qadimgi yani Xarappa va Mahenjodaro davridagi kiyimlar haqqida aniq malumotlar afsuski mavjud emas. Qo'l yozmalarda va arxiologik manbalarda keltirilishicha erkaklar va ayollar har ikkalasining kiyimlari nisbatan biri biriga o'xshash paxtadan yoki jundan to'qilgan mato bo'laklarini ustilariga tashlab yoki o'rab

yurishgan. Erkak kostyumida asosan bosqinchilar va savdogarlar ta'sirini ko'rsatgan.

Guptalar davriga kelib erkaklar kiyim kechaklar deyarli kushonlar davridan farq qilmagan degan bilan birqancha o'zgarishlarni boshidan o'tkazgan. Kushonlar davrida tikilgan kiyim mavqega ega bo'ldi va endi u qirollik bilan bog'landi, chunki Kushonlar podshohlari va ularning zodagonlari Hindiston va O'rta Osiyoning katta qismini 100 yildan ko'proq vaqt davomida boshqarganlar. Gupta qirollari asrab olish qiymatini tushunib etdilar. O'zgarishlar asta-sekin ro'y berayotgan edi va qadimgi davrlarda haramning qo'riqchilari va xizmatchilari bilan bog'liq bo'lgan mahalliy, ehtimol vazirlar, qo'riqchilar, eshik qo'riqchilari va saroy xizmatchilari kiyadigan uzun yoki qisqa yengli brokarli tunikadan ilhomlangan. Ko'pincha oddiyroq ko'rinishga ega bo'lib, kiyimiga obro'-e'tibor qo'shadigan. Pastki kiyim odatda antariya edi va u bilan ba'zan kanchuka kiyildi. Kayaband kiyimni joyida ushlab turish uchun ishlatilgan. Salla asta-sekin eskirib borar edi va endi u asosan ma'lum arboblardan, vazirlar va boshqa amaldorlar bilan bog'liq edi. Ajablanarlisi shundaki, Gupta tangalarida qirollik kushon podshohlarining tikilgan kiyimlarini kiygan holda ko'rsatilgan bo'lsa-da, Ajanta rasmlarida qirol va boshqa zodagon a'zolari hali ham ularning nozik ipak yoki अंतरीय ko'rinadi. Qirolning kostyumi ko'pincha yo'l-yo'l ko'k rangli, suzuvchi उत्तरीय bilan to'qilgan ipakdan edi. Bu ikkala kiyim ham har doim to'qilgan edi. Kayabandh o'rniga oddiy ip-arqon yoki kamar ko'proq ishlatilgan bo'lib, bir yoki ikki marta o'ralgan va keyin antariyani mustahkamlash uchun turli usullar bilan bog'langan yoki tugunlangan. Ba'zan uttariyaning o'zi qalin buralib, qo'lga qo'yishi mumkin bo'lgan chap sonda katta tugun bilan belga egilgan yoki tasodifan chap yelkaga tashlangan. Bu chinakam qirollar va oliy martabali shaxslarni qirol atrofidagi boshqa a'zoldan ajratib turuvchi ajoyib toj va nafis zargarlik buyumlari edi. Ba'zi olimlarning fikriga ko'ra, bu murakkab naqshlar hech qachon ishlatilmagan, faqat ilohiylik yoki qirollik belgilari edi.

Endi ayollar libosiga to'xtaladigan bo'lsak Ayollar kostyumida xilma-xillik juda katta va shuning uchun aniq manbalarni aniqlash qiyinroq. Kengligi 18-36 dyuym va uzunligi 4-8 yard bo'lgan antariya turli xil usullarda kiyilgan. Qisqa yoki uzun antariya kachcha uslubida yoki lehnga sifatida kiyiladi, bu holda u avval o'ng songa, keyin tanaga o'raladi va chap songa kirgiziladi. U dumba bo'ylab juda qattiq tortilgan va bel qismi jozibali tarzda namoyon etilgan. Odatda to'piqqacha bo'lgan antariyani zodagonlar va yuqori martabali ayollar kiyishgan, xizmatchilar odatda qisqaroq shaklda kiyishgan. Ammo barcha holatlarda kindik ostiga bog'langan va son suyaklari tomonidan o'ralgan. Gupta davridagi asosiy farq, avvalgi davrlardan farqli o'laroq, kachcha uslubi ayollar orasida kamroq mashhur bo'lib, asta-sekin ayollarga xos bo'lgan lehnga yoki lungi bilan almashtirildi, garchi malika va boshqa ayollar. qirol oilasi konservativ bo'lib qoldi. Ushbu konservativ kachcha uslubi hali ham Maxarashtra va Janubiy Hindiston ayollari tomonidan qabul qilinadi. Yubka, bhairnivasani, antariyadan kelib chiqqan bo'lib, bir tomoni tikilganida quvur shakliga ega bo'lib, belga birlashtirilib, belbog' bilan taqilgan. Bu beg'ubor tikilgan yubkaning eng qadimgi shakllaridan biri bo'lib hisoblanadi. Bhairnivasani birinchi marta Jain va Buddist rohibalari tomonidan qo'llanilgan va ayolning tanasi gunohkor va uni qoplash kerak degan fikrdan kelib chiqqan. Og'ir yig'ilgan yubka, ehtimol chet elliklar tomonidan kirib kelgan. Bu yubka hozirgacha ko'plab qishloq xalqlari, jumladan, Hindistonning Lambadi va Banjara lo'lilari tomonidan kiyiladi. Aynan manashu davrdan boshlab hind ayoolarinig kiyimlarining tepa qismi yangikik sifatida kirib keldi. Ehtimol, ikkita sabab bordir. Ulardan biri, qirol saroyidagi ustki kiyim kiygan go'zal chet elliklar safiga tashlangan xizmatkor ayollar, tananing beldan yuqori qismini yopish jozibaliroq bo'lishi mumkinligini tushunib, chet elliklarning kiyinish uslubiga taqlid qilishgan. Bundan tashqari, buddizm, jaynizm va nasroniylilikning ta'siri bilan tanani gunohkor va vasvasaga duchor bo'lmaslik uchun yashirish kerak, degan ishonch Hindiston bo'ylab tarqaldi. O'rta asrlarda Evropada, taxminan, bu

davrda ayollar kiyimida ham xuddi shunday o'zgarishlar ro'y berdi va ayollar boshdan-oyoq o'zlarini yopishni boshladilar. Yelkadan to belgacha qo'shimcha ravishda topikga o'xshash mahalliy tikuvli kiyim bor edi, bu haqda ilk sanskrit adabiyotida tilga olinadi. Ibtidoiy u juda sodda tarzda kvadrat mato bo'lagidan kesilgan, bo'yin uchun tirqish ochilgan. Umuman olganda, eng qadimgi hind liboslari manashunday ko'ribnashga ega bo'lgan .

Sari Hindistonning eng qadimiy va mashhur ayollar liboslaridan biridir. Uning tarixi ming yillar oldinga, Ind daryosi vodiysi tsivilizatsiyasi davriga borib taqaladi (miloddan avvalgi 2500–1500-yillar). Sari uzunligi 5-9 metr bo'lib, tanaga o'raladi. Dastlabki sari matolari paxtadan va jundan ishlab chiqarilgan bo'lsa, keyinchalik ipak va turli naqshlar bilan bezatilgan bo'ldi. U diniy ahamiyatga ega bo'lib, hind madaniyatida ayollarning odobini, go'zalligini va an'analarga hurmatini ifodalanadi. Dhوتي Hindiston erkaklarining eng qadimiy liboslaridan biri hisoblanadi. Miloddan avvalgi davrlarda erkaklar bu libosni kiyib yurgan. Dhوتي uzun paxta yoki ipak mato bo'lib, oyoqlarga o'raladi. U asosan janubiy Hindistonda keng tarqalgan. Dhوتي ko'pincha diniy marosimlar va tantanalarda kiyiladi . सलवार कमीज़ shim va uzun tunikadan iborat bo'lib, Shimoliy Hindistonda ayollar orasida keng tarqalgan. Uning ildizlari mo'g'ullar davriga borib taqaladi (milodiy XIII–XV asrlar). Mo'g'ul madaniyati Hindistonda kiyinish uslublariga katta ta'sir ko'rsatgan. Churidar – bu uzun, tor shim bo'lib, odatda uzun ko'ylak bilan kiyiladi. Sherwani – erkaklar uchun tantanali libos bo'lib, u ham mo'g'ullar davrida paydo bo'lgan. U asosan to'ylar va tantanalarda kiyiladi. कुर्ता – uzun va bo'sh kiyim bo'lib, erkaklar tomonidan kundalik hayotda kiyiladi. Bu libos ham an'anaviy, ham zamonaviy uslubda uchraydi. Hindiston qadimdan ipak ishlab chiqarish markazi bo'lib kelgan. Banarasi ipak, Kanjivaram ipak va boshqa mashhur ipak turlari hind milliy liboslariga naqsh va uslub baxsh etgan. Hunarmandlar tomonidan matolarga ishlangan naqshlar va qo'lda tikilgan bezaklar hind liboslarini betakror qiladi. Eng qadimgi liboslari haqqida aniq

malumotlar mavjud. Hozirgi kunda hind milliy liboslari zamonaviy modaga moslashtirilgan holda ishlab chiqilmoqda. Sari, salwar kameez va kurta xalqaro moda ko'rgazmalarida ham o'z o'rniga ega. Hind milliy liboslari nafaqat milliy boylik, balki xalqning madaniyati, an'analari va tarixini aks ettiruvchi muhim meros hisoblanadi. Ular orqali Hindistonning boy va turfa madaniyatini his qilish mumkin. Hind kelinlarining to'y liboslari Hindistonning turli mintaqalariga xos urf-odatlar, diniy e'tiqodlar va madaniy an'analarga bog'liq. Ularning to'y kiyimlari odatda yorqin ranglar, ipak matolar va murakkab naqshlar bilan bezatiladi. Quyida hind kelinlarining to'y liboslariga oid asosiy jihatlar keltirilgan: Sari Hind kelinlarining to'ylarda eng keng tarqalgan libosidir. U odatda qizil rangda bo'lib, baxt, muhabbat va farovonlik ramzi hisoblanadi. Qizil rang hindu madaniyatida muqaddas hisoblanadi. To'y sari matolari odatda ipakdan bo'ladi va Banarasi, Kanjivaram kabi yuqori sifatli ipak turlari ishlatiladi. Sari odatda oltin naqshlar, zardo'zlik va bezaklar bilan boyitilgan bo'ladi. Lehenga – bu uzun, keng yubka bo'lib, odatda chiroyli bezakli tor ko'ylak bilan kiyinadi. Unga moslashtirilgan dupatta (ro'mol) ham qo'shiladi. Lehenga choli Shimoliy Hindiston, xususan, Rajastan va Gujaratda mashhur. U oltin va kumush naqshlar, zardo'zlik, toshlar va ko'zgular bilan bezatiladi. Ayrim hind kelinlari to'yda salwar kameez kiyishadi. U uzun tunika va keng yoki tor shimdan iborat bo'lib, o'ziga xos naqsh va ipak matolardan tikiladi. Ushbu libos Panjob mintaqasida keng tarqalgan. Hind kelinlarining to'y ko'rinishi oltin va boshqa qimmatbaho taqinchoqlarsiz to'liq bo'lmaydi. Ular ko'pincha quyidagilarni taqishadi:

Mang tika – peshonaga taqiladigan marjon.

Chudi – bilaguzuklar (odatda qizil va oltin rangda).

Nath – katta burun halqasi.

Payal – oyoq bilagiga taqiladigan zanjir.

Sindur – kelinning sochiga surtib qo'yiladigan qizil kukun, u nikoh ramzidir. To'y liboslari odatda yorqin ranglarda bo'ladi: qizil, marjon, oltin, pushti, yashil va binafsha. Naqshlar ko'pincha diniy va an'anaviy

ramzlarni aks ettiradi, masalan, gul naqshlari, ma'bad naqshlari yoki o'simliklar. Janubiy Hindiston: kelinlar odatda qizil yoki yashil rangdagi ipak sarilarni kiyadi. Kanjivaram ipak sarilari mashhur. Shimoliy Hindiston: Qizil uziun ko'ylak yoki zardo'zlik sari afzal ko'riladi. Kelinlar oq va qizil rangdagi ipak sari kiyadi, boshlariga maxsus shohlik tojiga o'xshash bosh kiyim qo'yiladi. Gujaratcha uslub: Kelin sari o'rash uslubi boshqalardan farq qiladi, bunda dupatta old tomonga tushiriladi. Hind kelinlarining to'y liboslari ularning madaniyati, diniy qadriyatlari va go'zallik tasavvurlarini aks ettiruvchi muhim atribut hisoblanadi. Ushbu liboslar nafaqat marosimning go'zalligini oshiradi, balki kelinning yangi hayotga qadam qo'yishini ramziy ifodalaydi. Ular kundalik hayotda nisbatan oddiy kiyinib yuridshadi.

Tarixdan malumki, hind ayollar o'zlarining turmish o'rtoqlariga judayam vafodor. Hind beva ayollari kiyinishda an'anaviy madaniyat va diniy qoidalarga amal qilishadi. Ularning kiyim uslubi odatda hind jamiyatidagi urf-odatlarga asoslanadi. Beva ayollarning kiyinish odatlari mintaqa va diniy oqimlarga qarab farq qilishi mumkin. Beva ayollar ko'pincha oq rangli kiyim kiyishadi, chunki oq rang hind madaniyatida poklik va beqarorlik ramzi hisoblanadi. Bu ularning qayg'uli holatini ifoda etadi. Ular odatda oddiy sari kiyishadi, murakkab bezaklardan foydalanishmaydi. Ba'zi mintaqalarda beva ayollar sochlarini kesish yoki sochlarini qattiq yig'ib yurishadi. Shuni ta'kidlash kerakki, zamonaviy hind jamiyatida beva ayollarga bo'lgan munosabatlar o'zgarib bormoqda, va ko'plab ayollar an'anaviy qoidalardan chetlanib, o'zlari uchun qulay bo'lgan kiyimlarni tanlashadi. Bu jarayon jamiyatdagi gender tengligi va shaxsiy erkinlikka bo'lgan e'tiborni aks ettiradi.

Hind madaniyatida liboslar bezatilgan naqshlarning han o'z manolari bor. Hind milliy liboslaridagi naqshlar nafaqat bezak uchun, balki chuqur ramziy ma'noga ega. Ular madaniy, diniy va ijtimoiy ma'nolarni o'zida mujassam etadi. Quyida hind liboslarida keng tarqalgan naqshlar va ularning ma'nolari keltirilgan:

Paisley (Buta naqshi). Ushbu naqsh "Mango" yoki "Buta" deb ham ataladi. Hayot, unumdorlik va o'sishni ifodalaydi. Ko'pincha ipak sariyalar va shalvar-kamizlarda uchraydi.

Chakra (Aylana shakldagi naqsh) Hindiston bayrog'idagi Ashoka Chakra ga o'xshash bo'lishi mumkin. Hayot tsikli, harakat va taraqqiyot ramzi. Erkaklar va ayollar liboslarida uchraydi.

Gul naqshlari (Floral Patterns) Ko'pincha lotus, gulxayri va atirgul tasvirlanadi. Poklik, go'zallik va yangi boshlanishni anglatadi. An'anaviy Banarasi yoki Kanchipuram ipak sariyalarida keng tarqalgan.

Elephant (Fil tasviridagi naqsh) Kuch, donishmandlik va baxt timsoli. Qirollik kiyimlarida va maxsus tantanali liboslarda ko'proq uchraydi.

Peacock (To'tiqush naqshi) To'tiqush Hindistonning milliy qushi bo'lib, nafislik, muhabbat va ruhiy poklikni ifodalaydi. Ayniqsa, to'y liboslarida va tantanali kiyimlarda keng tarqalgan.

Mandala naqshi. Ruhiy uyg'unlik, koinot va ichki tinchlik ramzi. Ko'pincha ipak sariyalar va dupattalarda ishlatiladi.

Jaali naqshi (To'r naqshlari) Geometrik naqshlar bo'lib, an'anaviy me'moriy san'atdan ilhomlanib yaratilgan. Cheksizlik va doimiy harakat ma'nosini anglatadi. Erkaklar va ayollar milliy liboslarida uchraydi.

Bandhani naqshi (Bog'lab bo'yash uslubi. Rang-barang nuqtalar yoki spiral shakllar. Baxt, baraka va yaxshi niyat ramzi. Asosan Rajastan va Gujarat hududlariga xos. Hind liboslaridagi naqshlar nafaqat estetik jihatdan go'zal, balki chuqur falsafiy va madaniy ma'noga ega. Har bir naqsh o'z tarixi va ramziyligi bilan libosga alohida joziba bag'ishlaydi.

Hindistonning milliy liboslari boy tarixiy meros va madaniy xilma-xillikni ifodalaydi. Har bir libos – sari, dhoti, salwar kameez, churidar, sherwani va kurta – mamlakatning turli hududlari, iqlimi, diniy e'tiqodlari hamda ijtimoiy qadriyatlarini o'zida mujassam etgan. Ayniqsa, ayollar uchun sari va erkaklar uchun dhoti asrlar davomida

o‘z an‘anasini saqlab kelmoqda. Shu bilan birga, hind kelinlari liboslarining rang-barangligi va naqshlarining ramziy ma‘nolari xalqning go‘zallikka bo‘lgan yondashuvini namoyon etadi. Beva ayollar kiyimlaridagi soddalik esa jamiyatdagi urf-odat va marosimlarga hurmatni anglatadi. Naqsh va bezaklar faqat estetik emas, balki madaniy va diniy ramzlarga ham ega. Hind liboslari nafaqat kundalik hayotda, balki marosim va bayramlarda ham muhim o‘rin tutadi. Umuman olganda, Hindiston milliy liboslari xalq ruhiyatining, an‘analarining va o‘ziga xos go‘zallik mezonlarining yorqin ifodasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ancient Indian costume Roshen Alkazi
2. The history of Indian costume from the 3RD century A.D. to the end of the 7TH century AD. BY Moti Chandra
3. <https://www.cottonculture>
4. Agrawala, V.S.: Terracotta Figurines of Ahichchhatra, Ancient India, No. 4, July 1947-Jan. 1948..

MALAYZIYADAGI TO‘Y MAROSIMLARINING O‘ZIGA XOSLIKLARI



TDSHU 2-kurs, Filologiya va tillarni o‘qitish

malay-ingliz guruhi talabasi

Ilmiy rahbar: M.Mamatkulova

Annotatsiya: Har qanday xalq o‘ziga tegishli va shu kunga qadar tarixan shakllanib kelgan ma‘daniyati, urf-odati va a‘nanalariga ega. Shuningdek, Malayziya davlatida ham asrlar davomida qadrlanib hamda shakllanib kelayotgan o‘ziga xos ma‘daniyatlariga ega xalqdir. Mazkur maqolada malay xalqining an‘analari yoxud to‘y marosimlari va urf-odat xususiyatlari ko‘rib chiqiladi. Mavzuning ahamiyati ham shundaki, ma‘daniyatning muhim qismi bo‘lgan oila-nikoh, to‘y marosim masalalariga bag‘ishlangan tadqiqot qarashlari keltiriladi. Maqolada malay xalqi to‘ylaridagi sovchilik, fотиha, nikoh to‘yi urf-odatlari va to‘ydan keyin o‘tkaziladigan udumlariga alohida e‘tibor qaratiladi.

Kalit so‘zlar: nikoh, to‘y marosimlar, oila, ota-ona, an‘ana, udum

Marosim – an‘anaviy urf-odatlar munosabati bilan o‘tkaziladigan yig‘in bo‘lib, insoniyat turmush tarzining asosini tashkil etadi. Marosimlar insoniyat turmush jarayonida paydo bo‘lib rivojlanadi. Ular o‘zida har bir xalqning qadriyatlari hamda milliy o‘zligini namoyon etadi. O‘zbek adabiyotining zabardast vakili - yozuvchi Tog‘ay Murod ta‘biri bilan aytganda: “Xalq nimasi bilan xalq! O‘zining urf - odatlari bilan xalq! Ota –

bobosidan qolgan milliy anʼanalari bilan xalq!” Urf-odat va marosimlar har bir xalq uchun ajdodilardan qolgan bebaho merosdirki, ular bilan jahon madaniyatida oʻziga xos oʻrin egallaydi. Xalqning farovonligi nafaqat moddiy balki, uning yillar davomida shakllanib kelayotgan madaniy qadriyatlarida ham oʻz ifodasini koʻrsatadi. Shuningdek, Janubiy-Sharqiy Osiyo davlatlari safida turgan malay xalqining ham oʻz qadriatlari, milliy urf odatlari hamda avlodlardan ajdodlarga meros boʻlib kelayotgan bebaho madaniyatlari mavjud. Jamiyatning marosim urf-odatlari tarkibiga beshik toʻyi, ism qoʻyish, tushov kesdi, sunnat toʻyi, nikoh toʻyi, kelinsalomlar va shunga oʻxshash bir qancha marosimlar kiradi. Malay xalqining madaniyatida shu marosimlardan biri hisoblangan toʻy yoxud nikoh toʻy marosimlarining urf-odat xususiyatlari haqida qiziqarli maʼlumotlar oʻrganiladi.

Toʻy – inson ijtimoiy hayotining muhim va ajralmas qismi boʻlib, qadimgi davrlarga borib taqaladi. Shuningdek, u butun dunyodagi turli maʼdaniyatlarning muhim belgisidir. Toʻy marosim nomlarining tarixiy tadqiqini amalga oshirish jamiyat tarixi va taraqqiyotini ifodalashga, ularning qadriyatlar tizimini qiyosiy jihatdan oʻrganishga yordam beradi. Nikoh marosimi har bir xalqning qolaversa, har bir insonning hayotida nihoyatda muhim ahamiyatga ega va tantanali nishonlanadi. Umumiy xususiyatlariga ega va u har bir xalqda turli xil uslubda oʻzgacha tusda bayram qilinadi.

Jamiyatning asosiy boʻgʻini hisoblanmish oila munosabatlaridagi dastlabki qadam bu nikohdan boshlanadi. Nikoh toʻy marosimlarini boshlab beradigan dastlabki marosim bu sovchilik boʻlib, sovchilik oʻzbek xalqi hayotida doimiy yashab kelayotgan milliy qadriyatlardan biridir. Shuningdek, shu kabi dastlabki marosimlar malay madaniyatida ham mavjud boʻlib, xalqning madaniyati shakllanishida dastlabki muhim bosqichlardan biri.

Malayziya madaniyatida nikoh urf-odatlari eng muhim urf-odatlardan biri boʻlib, Malayziyaning qishloqlarida ham, shaharlarida ham koʻpchilik malayliklar tomonidan qatʼiy amal qiladi. Har qanday ishda xarajat boʻlgani kabi, malay millatida ham toʻy marosimlari katta xarajatlarni talab qiladi va ularning bir qancha guruhlari mavjud. Nikoh odatlari hayotning xavfsizligi va farovonligi bilan bogʻliq boʻlgan odatdir. Malayziyaning toʻy odatlari

marosimning barcha bosqichlarini bajarish uchun juda ko‘p mablag‘ talab qiladi. U sakkiz bosqichdan iborat bo‘lib, ularni uchta darajaga bo‘lish mumkin:

Birinchi bosqich:

“Merisik”(surishtiruv)

“Bertunang” (unashtiruv)

“Menghantar belanja dan akad” (mahr berish)

Ikkinchi bosqich:

“Berandam dan berasah gigi” (tishlarni yuvish)

“Berinai” (xina qo‘yish)

Uchinchi bosqich:

“Mandi limau”(limonli hammom)

“Merisik”(surishtiruv)

Erkakning ota-onasi farzandining turmush qurish yoshiga yetganiga qaror qilishi bilanoq, o‘g‘liga turmushga chiqishi uchun munosib turmush o‘rtoq izlay boshlaydi. Nomzodlar odatda nasl-nasab, diniy ma’lumot, go‘zallik va oilaviy rishtalarga qarab tanlanadi. Kelin tanlash mas’uliyati o‘zbek xalqidek ota-onaning zimmasiga yuklanadi. Erkaklar tomonida, ota-onalar o‘g‘illarining roziligi bilan yoki boshqacha tarzda tanlash uchun bir nechta nomzodlarni ro‘yxatga olishlari mumkin. Biroq, hozirgi kunda zamonaviy malayliklar, ayniqsa, g‘arb ma’lumotiga ega bo‘lganlar, turmush o‘rtoq tanlashni deyarli butunlay o‘g‘illariga topshirishadi. Malayziyaning to‘y odatlariga ko‘ra, ota-onalar o‘g‘li uchun kelin tanlash vazifasini ehtiyotkorlik bilan bajaradilar. Ba’zi mos qizlarni tanlagandan so‘ng, ular o‘zlarining do‘stlari va qarindoshlaridan, shuningdek tanlangan qizlardan so‘rash orqali surishtiruv ishlarini boshlaydilar. O‘g‘il bolalarning ota-onalari o‘z tanlovlarida nafaqat bokira qizning tabiati va xatti-harakati, balki uning ota-onasi ham ma’qul bo‘lishini talab qiladilar, chunki ular o‘zbeklarning elga mashhur "Farzandingizga turmush qurishni taklif qilmoqchi bo‘lsangiz, birinchi navbatda uning ota-onasini e’tibordan qoldirmang” degan naqlga amal qilishadi. O‘tmishda (va hozir ham ba’zi

odamlar tomonidan) bo'lajak qaynona-qaynotalarning eng ko'p hayratga soladigan fazilatları orasida pazandalik va tikuvchilik kabi uy ishlari bor. Biroq, eng maqtovga sazovor yutuq - bu qizning Qur'onni (o'qigani, tushunadimi yoki tushunmaydimi) ravon va ohangda o'qiy olishidir. O'sha paytda malay tilidagi harflarni bilishdan muhimroq bo'lgan ta'lim yutug'i yo'q edi. Yigitning ota-onasi yig'ilgan (surishtirilgan) ma'lumotlar asosida bo'lajak kelin haqida qaror qabul qilib, taklif qilishdan oldin qizning uyiga bir qancha do'stlari yoki qarindoshlarini, ko'pincha ayollar yuborib, u bilan tanishish uchun sovchilik ishlarini davom ettirishadi. Odatda, sovchilar qizning uyiga hech qanday e'lonsiz yuboriladi. Chunki mazkur xalqning naqlarida "Tayyorlanmagan tashrifning alohida ma'nosi bor" deya aytiladi. Qadimda malayliklar (shuningdek, bugungi kunda qishloq joylarida kam sonli) sovchilar qizning uyiga kelganlarida, qiz cho'milayotgan yoki yuvinayotgan bo'lsa, bu yosh bo'lgan ikki kishining kelajakdagi nikohi uchun omadli belgi ekanligiga ishonishgan. Boshqa tomondan, agar qiz oshxonada ovqat pishirayotgan bo'lsa, bu hodisa yomon alomatdir. O'tmishda malayliklar, agar qizning uyiga sovchilar tashrif buyurishi biron bir sabab yoki baxtsiz hodisa tufayli kechiktirilsa yoki to'xtatilsa, bu nikohning kelajagi unchalik baxtli bo'lmasligidan dalolat beradi, deb ishonishgan. Biroq, bu xurofot ko'pchilik malayliklar jumladan, qishloq joylarida yashovchilar tomonidan endi jiddiy qabul qilinmaydi. Sovchilik so'nggida, bolaning ota-onasi ikkala tomonning oilalari, shuningdek, yaqin qarindoshlari bilan birgalikda to'y marosimi uchun yaxshi kunni tanlash uchun kichik marosim o'tkazadilar. Bu esa "Bertunang" ya'ni, unashtiruv marosimlari deb ataladi.

"Bertunang" (unashtiruv)

Kuyovning ota-onasi bir qancha yaqin oqsoqollarni qizning ota-onasi bilan uchrashish maqsadida ularning roziligini olish uchun tayinlaydi. Qizning ota-onasi qarindoshlari bilan maslahatlashishlari kerakligi sababli (hatto ular kelishidan oldin sovchining tashrifi haqida bilib, rozilik bergan bo'lsalar ham) hukm chiqarish uchun odat sifatida bir muddat so'raydilar. Bu bir necha kun yoki ko'pi bilan bir hafta davom etishi mumkin. Va aynan shu davrda nikoh shartlari, masalan, to'y sovg'alari va har qanday sarpolar to'y marosimi kuni muhokama qilinadi va hal qilinadi. Qadim zamonlarda va bugungi kunda keng tarqalmagan darajada, sarpolarni yuborish odati,

ayniqsa, nikoh marosimi bir necha oyga kechiktirilsa, sep yuborish va kiyim qilish odatidan oldin bo‘lgan. Belgi odatda oltin yoki olmos uzuk shaklida bo‘lib, uning qiymati yurak irodasiga va erkak oilasining moliyaviy imkoniyatlariga bog‘liq. Belgi odatda bo‘lajak kelinga boshqa sovg‘alar, masalan, mato, poyabzal, shirinliklar, mevalar va boshqalar bilan birga keladi. Sarpo yetkazib berish odatda ikkala oila tomonidan ziyofat bilan birga bo‘ladi. Ba‘zilar ham bo‘lajak kelinning uyiga alohida avtomobil qilib, uzuk va boshqa sovg‘alarni taqdim etadilar. Uzuk va unga hamroh bo‘lgan sovg‘alarni qabul qilish an‘anaviy ravishda ikki tomon o‘rtasida quyidagi nikoh shartlarini qabul qilishni anglatadi:

1. Agar erkak biron bir sababga ko‘ra sovchi qiziga uylanmasa, uzugini va boshqa sovg‘alarni qaytarib olish mumkin emas.
2. Agar ayol vafotidan boshqa sabablarga ko‘ra nikoh maqsadini bajara olmasa, unda barcha sovg‘alar, shu jumladan nikoh uzuklari ham, soni yoki qiymati bo‘yicha ikki baravar ko‘p miqdorda erkakka qaytarilishi kerak.

Bu malayliklar tomonidan qadim zamonlardan beri amal qilgan odat. Yuqorida aytib o‘tilgan usullardan tashqari yana ikkita rozilik usuli mavjud, xususan:

1. Ikki juda yaqin oila yoki qarindoshlar o‘rtasidagi nikoh uzuksiz yoki yozma rozilgisiz, ularning farzandlari hali chaqaloq yoki bola bo‘lsa.
2. Vafot etgan ota-onalardan birining xohish-istaklarini bajarish uchun tuzilgan shartnoma (vafotidan oldin og‘zaki yoki yozma vasiyatnoma orqali)

Bu usul malay xalqi tomonidan juda hurmat qilinadi.

“Menghantar belanja dan akad” (mahr berish)

Ilgari mahr jo‘natish marosimi va to‘y xarajatlari unashtirish marosimidan bir-ikki kun (ba‘zan uzoqroq) oldin o‘tkazilar edi, endi esa xarajatni kamaytirish uchun bo‘lsa kerak, birga o‘tkaziladi. To‘y xarajatlaridan tashqari quyidagi narsalar ham yuboriladi:

Qimmatbaho toshlar bilan bezatilgan uzuk;

Qizning ko‘ylagini tikish uchun yetarli ipak mato;

Har xil turdagi mevalar;

Kumush metall yoki guruchdan yasalgan bir yoki ikkita choynak.

Bu narsalarning barchasi to'y marosimini o'tkazish uchun kuyov kelinning uyiga yurishiga hamroh bo'ladi. Oldinlari unashtirish marosimi uchun kuyov haj kiyimi yoki oddiy malay kiyimi kiygan. Nikohni rasmiylashtirish uchun islom va qonun talab qiladigan yagona marosim aslida unashtirish marosimidir. Kuyov kelinning uyiga kelishi bilan kelinning oila a'zolari kutib olishadi. Kuyov uyning asosiy qismida, ruhoniyni yonida to'shakda o'tiradi. Keyin imom mehmonlar orasidan nikoh marosimiga guvoh bo'lish uchun ikkita vakilni tanlaydi. Buyumlar kelinning ota-onasi nomidan imom tomonidan tekshirilib, qabul qilingandan so'ng, choynakdan tashqari barcha buyumlar, atirgul suvi solingan tovoq va qozon gul patnis (agar mavjud bo'lsa) qizlarga jo'natiladi. Keyin imom kuyovning ismini kitobga yozadi va kuyov va ikki guvoh tomonidan imzolanganidan so'ng imom nikoh marosimini arab tilida o'qiydi (ammo bugungi kunda ko'plab munosib malay imomlari to'y marosimini o'qiydilar, ya'ni kuyov va ishtirokchilar tushunadigan tilda). Marosim oxirida imom kuyovning o'ng qo'lidan ushlab, avval arab tilida, so'ngra malay tilida unga unashtirish bayonnomasini e'lon qiladi.

Mahr olish sanasi ko'rsatilmagan holda, mahrni biror kun olishga ruxsat beradi. Shuning uchun imom shartnoma bayonnomasida mahr miqdorini ko'rsatgandan so'ng darhol "qarz" yoki "naqd" so'zini qo'shib qo'yadi. Keyin imom ikkilanmasdan va xato qilmasdan javob berishiga ishora sifatida kuyov bilan qo'l berib ko'rishdi. Agar kuyovning javobi ikkilanmasdan va yaqin o'tirganlarga, ayniqsa, ikki guvoh tomonidan aniq aytilsa, nikoh to'yi to'g'ri keladi. Nikoh marosimidan so'ng, kuyov ruhoniyy va qaynotasidan boshlab barcha mehmonlar bilan qo'l berib ko'rishadi. Kuyov o'z uyiga kuzatib qo'yiladi va mehmonlar, ya'ni kelinning oilasi erkaklar va ayollar, moyli guruchdan iborat taomlar bilan ovqatlanishadi. Ushbu taomlarni kuyovning xonadoniga ham yuborishadi. Kuyov esa o'zining do'stlari bilan birgalikda tanavvul qilishadi.

Ikkinchi bosqich:

"Berandam dan berasah gigi" (tishlarni yuvish)

O'tmishda yuvinish va tishlarni yuvish, tegishli marosimlar bilan birga, to'y kunidan uch yoki undan ko'proq kun oldin amalga oshirilgan. Kelinning peshonasiga sochlari va qoshlari bog'lanadi (ko'pincha kuyov ham bu odatga amal qiladi). Keyin kelinning tishlari silliq va porloq bo'lishi uchun o'tkirlashadi va silliqatlanadi. Bu vazifani "kelinning onasi" shu ishning ustasi ya'ni yangga bajaradi. Kuyovlar esa bu odatga umuman amal qilmaydi. Bu ishda Malayziyaning barcha shaharlaridagi ko'plab bo'yanish do'konlariga kelinlarni yuborishni afzal ko'radilar. Shunga qaramay, chekka hududlarda ham "Bolalar o'lmasin, odat o'lmas" degan maqolga amal qiladigan malaylar uchrab turibdi. Cho'milishdan so'ng kelin sintuklimonli suv bilan cho'miladi, bu esa kelinning baxtsizliklarini olib tashlash uchun an'anaviy hisoblanadi. Marosimli hammomdan keyin va o'sha kechada kelin yotishdan oldin uning o'n barmog'ining uchlari va ikkala kaftining o'rtasi va oyoq tagining chetlari silliqatlanadi va ertasi kuni ertalabgacha quritiladi. Bu haqiqiy xina amaliyotidir va "xina" marosimi deb nomlanuvchi marosimdan oldin sodir bo'ladi.

"Berinai" (xina qo'yish)

Xina marosimi kelinning qo'l-oyog'iga xina qo'yilgandan keyingi kunning kechqurunida o'tkaziladi. Bo'lajak kelin bezanib, supaga o'tiradi. Kuyov kelinning uyiga kuyov libosida kelganida, uni bir guruh mehmonlar asosan ayollar, yaqin qarindoshlari, qo'ni-qo'shnilari va kelinning oilasining do'stlari oldida supada o'tiradi. Kuyovning oldida uchta plastinka, xushbo'y barglarning bir nechta shoxlari bilan birga katta oyoqli patnis bo'ladi. Katta xina marosimi erkak mehmonlarning va kuyovning chap va o'ng tomoniga guruch tashlash uchun birin-ketin supaga chiqishlari bilan boshlanadi. Shundan so'ng, bir novdasi xushbo'y barglar paydo bo'ladi, ular setavar barglari suviga botirib, kuyovning ikkala qo'lining orqa tomoniga tegish uchun ishlatiladi. Nihoyat, mehmon patnisning o'rtasidagi qoziqdan bir oz xina xamirini olib, kelinning onasi tayyorlagan betel bargiga qo'ygandan keyin kuyovning kaftiga qo'yadi. Betel bargi kelinning qo'llarini iflos qilmaslik uchun mo'ljallangan. Shundan so'ng darhol kelin onasi kelinning ikkala qo'lini mahkam bog'laydi va ularni ko'krak darajasiga ko'taradi, bu marosimni o'tkazadigan mehmonlarga sajda qiladi. Ushbu marosim odatda barcha manfaatdor mehmonlar tomonidan amalga oshiriladi, lekin ularning soni juft raqam emas, balki toq raqam bo'lishi

kerak. Erkak mehmonlar tayyor bo'lgach, ayol mehmonlar ham xuddi shu tarzda bu marosimni o'tkazadilar. Barcha qiziqqan mehmonlar ushbu marosimni o'tkazgandan so'ng, erkak mehmonlar orasidan bir vakil ibodat o'qish maqsadida keladi. Keyin kuyov o'z uyiga qaytadi va kelin ham xuddi shu marosimni o'tkazish uchun supaga o'tiradi. Bu marosim odatdagidek, guruch tanavvul qilish marosimi bilan tugaydi. Bundan tashqari, kuyov kelinning uyida xina va kichik xina marosimlari uchun xina marosimida ishtirok etmaydi. Ilgari ba'zi malay kuyovlari ham o'z uylarida xina marosimlarini o'tkazishgan, ammo hozir bu marosimni o'tkazish majburiy emas.

Uchinchi bosqich. "Mandi limau" (limonli hammom)

Limon bilan cho'milish marosimi o'tkazilgunga qadar, o'tmishda juda muhim odat bor edi. Bir kechadan keyin erta tongda kelinning yangasi kuyovdan kelinining bokiraligiga aniq dalil so'raydi. Odatga ko'ra, kuyov kerakli dalilni taqdim etadigan oq ro'molchani topshiradi. Keyin kelinning yangasi ro'molni avval kelinning ota-onasiga, keyin esa eng muhimi, kuyovning ota-onasiga ko'rsatadi. Ilgari kelinning bokiraligini isbotlash umuman musulmonlar uchun juda muhim edi. Limonli hammom marosimidan oldin dalillarni taqdim etish majburiy va juda muhim, shuning uchun dalillarning yo'qligi deyarli har doim zudlik bilan ajralishga olib keladigan muammolarni keltirib chiqaradi. Kuyovning ham, kelinning ham ota-onasi kelinning pokligidan mamnun bo'lgandan so'ng, limonli hammom marosimi o'tkaziladi. Kuyov va kelin ham har ikki oilaning qarindosh-urug'lari, qo'ni-qo'shnilari, yaqin do'stlaridan iborat mehmonlar jamoasi oldida yana eng yaxshi liboslarida taxtga o'tirishdi. Bu marosim uchun ular kelin sifatida emas, balki oddiy malaycha kiyim kiyishadi. O'n-o'n besh daqiqa o'tirgandan so'ng, ular pastga tushiriladi va uyning onasida yoki uyning boshqa xonasida ikkita stulga o'tiriladi. Tantanali hammom kelinning onasi tomonidan amalga oshiriladi va kelin va kuyovga sintuk suvi va kofir ohak sepishdan iborat. Ushbu marosim tugagandan so'ng, kuyov kelinni ro'molining bir uchini ushlab, yotoqxonaga olib boradi.

Malayziyaning to'y marosimlari odatda keng miqyosda o'tkaziladi. Hashamatli, bayramona va ba'zan har bir oilaning an'alariga ko'ra bir necha kun davom etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ashirov A.A “O‘zbek xalqining qadimiy e’tiqod va marosimlari” - T., 2009
2. O‘zbekiston Respublikasining Parlamenti 2019-yil 14-sentyabr kuni “To‘y hashamlar, oilaviy tantanalar, maraka va marosimlar, marhumlarning xotirasiga bag‘ishlangan tadbirlar o‘tkazilishini tartibga solish tizmini takomillashtirish” to‘g‘risidagi qarori.
3. Abdul Halim Ali “Adat Perkahwinan Melayu” - 1980
4. Yasin Saini "Adat Resam dan Kebudayaan Melayu" - 1962
5. “Zainal Abidin bin Ahmad “Adat Istiadat Melayu" 1930–1950
6. <https://arxiv.uz/uz/documents/slaydlar/milliy-istiqlol-g-oyasi/o-zbek-milliy-an-analari-marosimlari>
7. https://ms.wikipedia.org/wiki/Adat_resam_kahwin_Melayu

MAHATMA GANDINING HINDISTON TILLARI SIYOSATIDAGI YONDASHUVI: TIL VA BIRLIK



*Pardayev To'rabek
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
Sharq sivilizatsiyasi va falsafa fakulteti
Falsafa yo'nlishi 1-kurs hindiy-ingliz guruhi talabasi
Ilmiy rahbar: dots.v.b., PhD Kamola Raxmatjonova
+998944662302
pardaevturabek6@gmail.com*

“Bizlar ingliz tilini o'rganishga shuncha yillardan beri qimmatli vaqtlarimizni sarflab kelayapmiz. Modomiki, hindustaniyni o'rganish uchun bir necha oy vaqt sarflashga ko'zimiz qiymas ekanmi ona xalqimizni sevaman degan gapimiz bir pulga qimmat bo'lib qolaveradi”.

Mahatma Gandi

Hindiston milliy ozodlik harakatining buyuk rahbari “Gandizm” g'oyasining asoschisi Muhandas Karamchard Gandi 1869 –yil 2-oktabrda Gujarat shtatining ma'muriy markazi Purbandar shahrida dunyoga keldi. Gandilar xonadoni baqollar toifasiga mansub bo'lib, bu toifa brahman va kshatriylardan keyin uchinchi o'rinda turuvchi vayshiylar, ya'ni hunarmand – savdogarlar sirasiga kirardi. To'rtinchisi shudralar bo'lib, qo'l mehnati bilan tirikchilik qiluvchi barcha odamlar shu toifani tashkil etardi. Demak Mahatma Gandi ijtimoiy kelib chiqishi jihatdan quyi toifaga yaqinroq turgan. Aynan mana shu uning xalq rahnamosi bo'lishida asosiy omillardan biri bo'lgan bo'lishi mumkin.

Gandhlar avlodi hindu diniga qattiq ixlos qo'yib, barcha diniy rasm-rusumlarga og'ishmay amal qilardi. Mohandas Karamchand Gandi barcha dinlarni o'ziga yarasha to'g'ri deb bilar, ularni qunt bilan o'rganib “qissadan xissa” chiqarar, siyosiy va ijtimoiy hayotida ibrat bilib qo'llar edi. Xususan, Gandi islom diniga o'zgacha baho

beradi. “Muhammadning g‘oyat dilbar inson ekanligini bilib hayratdan yoqa ushladim”, deydi.

Manbalarga ko‘ra, buyuk hind marifatparvari va siyosiy arbobi Mahatma Gandining “Davlat tili” maqolasi ko‘p sonli hind xalqining milliy til haqidagi qarashlarni boyitish va ularni bir g‘oya atrofida birlashtirish maqsadida yozilgan. Chunki o‘tgan asr o‘rtalarida mamlakatning asosiy qudratini belgilovchi yoshlar hindiy tilini bilmasliklarini mahalliy tillar va ingiliz tili ta’siri ostida milliy qadarning tushib ketish xavfli buyuk siyosatchi va faylasufni tashvishga solgan edi. Bu so‘zlar Mahatma Gandining nafaqat buyuk qalb egasi balki milliy tilni asrashga astoydil kurashgan fidoyi mutafakkir ekanligini ham ko‘rsatib turadi.

Mahatma Gandi o‘z nutqlarida millionlab hind xalqining o‘z tili bo‘la turib, o‘zga til orqali muloqotda bo‘lishidan qahrlandi. U har bir til imkoniyatlarini bilib, ularga hurmat saqlagan holda, o‘z xalqining milliy g‘ururini ustun qo‘yadi. Har bir til ortida muayyan xalq millat birligini e’tirof etib, ularga hurmat saqlash umuminsoniylik g‘oyalariga sadoqat ekanini his etgan holda o‘z halqiga muhabbati yuqori ekanligini izhor qiladi. Uning qahri ona yurtiga mehridan tug‘iladi. Banoras shahridagi nutqini u shunday so‘zlar bilan boshlaydi: shu muqadas shaharda ushbu yirik universitet qoshida bu oqshom o‘z millatdoshlarimga chet tilida murojaat qilishga majbur bo‘lganim hammamiz uchun ham haqoratli bir holdir”. Tilimizda o‘zimiz aks etamiz, shunday ekan, agar siz nozik fikrlarni aniq ifodalash uchun tilimiz nihoyatda kambag‘allik qiladi, deydigan bo‘lsangiz, ochig‘ini ayting; bundan ko‘ra hammamiz bitta qolmay qirilib ketganimiz yaxshi emasmi?

O‘z xalqining jamiyatini himoya qilish muruvvatli va muhabbatli rahbarlariga xos. O‘z tilida fikr yuritish, so‘zlash fuqoralik burchini anglash bilan birgalikda yurt taqdiriga daxldorlik tuyg‘usi bilan yashash ham demakdir. Xalqning faxru iftixori ayniqsa, o‘z tili yuksak minbarlaridan yangraganida namoyan bo‘ladi. Mahatma Gandi xalqining g‘ururini o‘z tilining ulug‘lanishida ko‘rib shunday yozadi: “... dekabr oyida men kangressning sessiyalarida qatnashdim. Zalda bu yerdagidan ham ko‘p odam bor edi. Sizga faqat hindiy tilida so‘zlangan nutqlargina ularning qalbini junbushga keltirdi, desam ishonasizmi?”

Haqiqatdan ham til bu millat g‘ururi, o‘z tiliga nopisandlik bilan qaragan millat vakilida vatan tuyg‘usi, el qayg‘usi bo‘lishi qiyin. Insonning o‘zligi uchun ko‘zgu uning so‘zligidir. Chunki uning so‘zi orqali saviyasi, qiziqish doirasini bilib olish mumkin.

Hindiston milliy ozodlik rahbarining harakatlaridan shu narsani uqish mumkunki, til shunchaki vosida emas. Unda tovushlar silsilasidan tortib, so‘z ma’nolari-yu tallaffuz me’yorlarigacha o‘sha xalq tabiat va ziynatiga xos unsurlar yashiringan bo‘ladi. Til bilan birga istar istamaylik o‘sha xalqqa xos bo‘lgan xislatlar ham ommalashadi. Til

va uning zahirida pinhon bo'lgan madaniyat ham kirib keladi. Xorijiy tillarni bilish, o'rganish koni foyda. Lekin biz xorijlikka aylanishimiz emas, balki xorijiy tilni biladigan bo'lib qolishimiz kerak. Aks holda, milliy qiyofasi va ma'naviy qadriyatlardan ayrilgan, o'zligini yo'qotgan avlod paydo bo'lishi hech gap emas. Shuning uchun ham til madaniyat bilan o'zaro chambarchas bog'liq. Shu o'rinda Mahatma Gandining mulohazalariga diqqat qilaylik. "Bizni uddaburon emassizlar, deb ayblashadi. Umrimizning qimmatli yillarini yot tilni o'rganishga sarflashga majbur bo'lganimizdan keyin qanday uddaburon bo'laylik? Biz faqat inglizcha ta'lim olamiz. Albatta buning ta'siri sezilib turadi. Tasavvur qiling, oxirgi ellik yil mobaynida biz ona tilimizda ta'lim olganimizda nimalarga erishgan bo'lar edik.

To'g'ri, Mahatma Gandining mulohazalari o'sha paytlardagi jafokash hind xalqini ozodlikka chiqarish va chaqirish yo'lidagi tinimsiz harakat va o'y- fikrlarning hosilasi albatta. Xalq yuragiga yetib boradigan so'z faqat ona tilining jozibasini va ona allasi bilan yo'g'rilgan tildagina bo'lishi mumkin.

Mahatma Gandining fikrlarida "Bugun ozod Hindistonda yashayotgan bo'lar edik, odamlar ma'rifatli bo'lar edi, ammo o'z uyidagi begonalardek ko'rinmas, aytgan gaplari ham xalqning yuragiga yetib borar edi, deya davom etadi. Bu kuyunch, bu armon aslida hindiy tili taqdiri va tarixiga aylangan xalqning qalb nidosi edi. Hind xalqining buyuk farzandi o'z xalqining hamiyati, sharafiga va tili uchun fidoiyligi barchaga ibrat bo'lishi muqarardir. Elning e'zozi tilning ehtiromi bilan doimo uyg'un. Har ikkalasiga mansublik va mas'ullik erk degan tushunchaning anglamas bo'lishidir.

Bir so'z bilan aytganda, har bir inson o'zligini anglamas ekan, milliyligi din, til va ajdodlaridan qolgan qadriyatlar, urf-odatlariga mas'uliyat bilan qarams ekan, undagi vatanparvarlik, erkparvarlik hislari jo'sh urmaydi. Bunday yurtida qaramlik bo'ladi, mustaqillikka erisha olmaydi.

Mahatma Gandi ham shu tuyg'ularni insonlar qalblarida uyg'otish uchun va ozod obod yurt qurish uchun borini sarfladi. Ayniqsa, tilni odamlarni birlashtiruvchi omil deb bilgan. Hindistonning ko'p tilli va madaniyatli tuzilmasi o'ziga xos siyosiy, ijtimoiy va madaniy muammolarni keltirib chiqaradi. Mahatma Gandi Hindistonning mustamlakadan ozod bo'lishi uchun kurashish jarayonida tilning jamiyatdagi o'rni va ahamiyatiga katta e'tibor qaratgan. Uning til siyosatiga bo'lgan yondashuvi, til va birlik masalalarini qanday tushunishi, Hindistonning ijtimoiy va siyosiy tuzilmasiga qanday ta'sir ko'rsatganini o'rganish muhimdir. Hindiston tarixiy jihatdan ko'p tilli jamiyat bo'lib kelgan. Gandi Hindistonning ko'p tilli strukturasi e'tirof etgan va bu xilma-xillikni jamiyatning birligini saqlash uchun imkoniyat deb hisoblagan. Gandi hindiy tilini Hindistonning barcha hududlarida birlashtiruvchi til sifatida qaragan. Gandi uchun hindiy tili birlashtiruvchi kuch bo'lib, uni rasmiy til sifatida joriy etish kerak edi. Shu bilan birga Gandi boshqa mahalliy tillarni va madaniyatlarni rivojlantirishni ham qo'llab quvvatlagan, bu uning birlik g'oyasining nafaqat til orqali,

balki madaniyat va an'analar orqali ham amalga oshirilishini ta'minlashga intilganini ko'rsatadi. U Hindiston xalqini birlashtirish uchun tilning rolini kiritgan, ayniqsa, o'zaro anglashuv, tinchlik va hurmatni targ'ib qilishda tilning ahamiyatini ta'kidlagan. Hindistonning ijtimoiy tuzilmasidagi bo'linishlarni kamaytirish va milliy birlikni mustahkamlashda tilning roli muhim bo'ldi. Insoniyatning buyuk farzandlaridan biri hind faylasufi, siyosat arbobi Mahatma Gandhi 1948-yil 30-yanvar 78 yoshida vafot etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. "Jahon adabiyoti" jurnali, 2012, 9-son
2. Mahatma Gandhi The Story of my Experiments with Truth, Navjivan Press, 1927
3. Mahatma Gandhi Hind Swaraj, Navjivan Press, 1909
4. Bhikhu Parekh Gandhi's Philosophy, Oxford University Press, 1993

HINDISTON JAMIYATIDA MEHNDI (XINA) NING O'RNI



Abdusattorova Sayyora Sherali qizi

Janubiy Osiyo tillari va adabiyoti oliy maktabi 2-kurs talabasi

Anatatsiya. Ushbu maqolada hind jamiyatida Mehndi ya'ni xinaning o'rni va ahamiyati tahlil qilindi. Maqolada bundan tashqari Hindistondagi shtatlarda xinaning qo'llanishini o'zaro taqqoslash zamirida farqli va tafovutli jihatlari o'rganib chiqildi.

Kalit so'zlar: Xina tarixi, xinani qo'llanishi, xina ihlab chiqarish

Xina – tabiatning noyob mo'jizasi. Soch va teri uchun juda ko'p foydali xususiyatlariga egadir. Xina *Lawsonia* barglaridan olinadi Xina tungi harorat 11 C da pastga tushmaydigan mo'tadil haroratga xos hududlarda o'sadi. Xina yiliga 50mm yomg'irda va kunduzi 45 C gacha bo'lgan haroratda omon qoladi va eng og'ir sharoitlarda eng katta bo'yoq konsentratsiyasini hosil qiladi. Xinani vatani Shimoliy Afrika, Osiyo va Austraya hisoblanadi. Dastlab xina Janubiy mamlakatlarda paydo bo'lgan va asosan soch bo'yashda ishlatilgan. Ko'plab odamlar xinani Hindistonda paydo bo'lgan deb hisoblashadi, lekin aslida xina Misrda paydo bo'lgan. Sohdagi birinchi xinaning izlari Misr mo'miyolarida topilgan, bu xina eramizdan avvalgi 1200 yildayoq bo'yoq sifatida ishlatila boshlanganini ko'rsatadi. Bu vaqt ichida xina uzoq yo'lni bosib o'tdi. Aynan xinadan Muhammad Payg'ambar soch va soqollarini bo'yashda foydalanganlar va shuning uchun u Saudiya Arabistonda alohida mashhurlikka erishdi keyin, esa sharq mamlakatlarini zabt etdi. Milloddan avvalgi 400 – yilda Ajanta g'orlaridagi dalillar erkaklar va ayollar oyoq va qo'llarni bo'yash uchun xinna ishlatganliklarni ko'rsatadi. Taqdqiqotlar va

ko‘p yillik izlanishlar shuni ko‘rsatadiki xina tarkibida 70 dan ortiq biaktiv moddalar mavjud. Xinaning 2 turi mavjud bo‘lib: Rangli va rangsiz xinalardir. Rangli xina asosan tana va sochni bo‘yash uchun ishlatiladi. Rangsiz xina tibbiy maqsadlarda qo‘llaniladi. Xina o‘zing shifobaxshligi bilan haligacha butun dunyo bo‘ylab qo‘llanilib kelmoqda. Bundan tashqari xinani eksport qilish va ishlab chiqarish orqali ko‘plab davlatlar dunyo bozorida o‘zlarining sifatli va hamyonbop xina bilan ta‘minlashyotgani uning yillar davomida yuqolib bormasligini taminlaydi. Masalan: Hindiston – dunyodagi eng yirik xina eksportchisi, yuqori sifatli xina ishlab chiqaradi.

Pokiston – Hindistonda keyingi yirik ishlab chiqaruvchi.

Misr- xina ishlab chiqarish bo‘yicha uzoq tarixga ega va qadimdan foydalaniladi.

Sudan- Afrika mintaqasida sifatli xina ishlab chiqarish bo‘yicha yetakchi davlatdir.

Marokash – xina ishlab chiqarish va eksporti bo‘yicha mashhur , ayniqsa tabiiy kosmetika mahsulotlari uchun.

Yaman – an‘anaviy va o‘ziga xos xina ishlab chiqarish bo‘yicha tanilgan .

Eron – sifatli xina ishlab chiqaruvchilardan biri bo‘lib , asosan , mahalliy ehtiyojlarni ta‘minlaydi.

Saudiya Arabiston – hamyonbop va sifatli xinalarni o‘stirish va ishlab chiqarishda yetakchi o‘rnini egallab kelmoqda.

Dunyo bo‘ylab xina o‘stirish va ishlab chiqaruvchi davlat ko‘p lekin Hindiston va Pokiston bu sohada yetakchilik qiladi. Markaziy Osiyo va O‘zbekistonda xina manzarali hamda dorivor o‘simlik sifatida o‘stiriladi. Bundan tashqari O‘zbekistonning ba‘zi hududlarida, ayniqsa Farg‘ona vodiysi va janubiy viloyatlarida xina ishlab chiqarish rivojlangan. Mahalliy bozorlarda xina kukuni ko‘pincha qo‘lda tayyorlangan shakli sotiladi. Avvalari o‘zbek ayollari sochlari jilo berish maqsadida xinani qatiq yoki ozgina uzum sirkasi (uzum sharbati) bilan aralashtirib yuvishgan . Buning natijasida sochlari qazg‘oqdan xoli bo‘lib, oftoda qizig‘ish yaltiroq tus olgan.

Hindistonda esa xina dastlab badavlat oilalar tomonidan ishlatilgan, ammo keyinchalik odamlarning barcha toifalari orasida ishlatilina boshlandi. Xina naqshlari kichik va oddiy dizaynlarda bo'lgan. Keyinchalik naqshlar yanada murakkab va kattaroq bo'ldi. Xina odatda turmush qurishidan oldin keling qo'llari va oyoqlariga surtiladi. Bu bezak uning umumiy go'zalligiga qo'shilgan. Hindiston o'lkashunoslarning aytishicha, keling to'y kuni xina dog'i qanchalik qoraygan bo'lsa, erna muhabbati shunchalik chuqurroq bo'ldi. To'ydan oldingi mehindi eng muhimi hisoblanadi chunki bu kun keling oilasidagi ayollar va kuyovning oilasi bir joyga yig'ilib tanishadigan va o'zlarining xina naqshlarini ko'rsatadigan kundir. Hindiston shtatlarida xina madaniy va diniy jihatdan katta ahamiyatga ega bo'lib, turli shtatlarida o'ziga xos ma'nolar bilan bog'langan. Quyida ahamiyati va qanday ma'nolarni anglatishi ko'rib chiqildi.

Rajasthan. Rajasthan xina naqsh san'ati bilan mashhur bo'lib, u yerda xina qo'yish to'y marosimlarining ajralmas qismi. Bu mintaqada murakkab naqshlar baxt va boylikni ifodalaydi. Keling qo'ldagi xina naqshlari uning yangi oilasiga bo'lgan muhabbati va sadoqatini bildiradi.

Gujarat. Gujaratda Navratri va boshqa diniy marosimlarda qo'llaniladi. Bu yerda xina baxt, omad ramzi hisoblanadi, ayniqsa Navratri davrida ayollar raqsga tushishdan oldin qo'llarini bezashadi.

Panjob. Panjob to'ylari va Karva Chauth kabi marosimlarda xina muhim ahamiyatga ega. Xina qo'yish marosimi Panjob to'ylari oldida bo'lib o'tadi, u bu keling hayotiga omad va farovonlik keltirish uchun o'tkaziladi.

Madhya Pradesh va Uttar Pradesh. Bu shtatlarida xina to'ylardan tashqari, diniy marosimlarda masalan Divali va Teej da ham qo'llaniladi. Ayollar xina naqshlarini boylik va oilaviy baxtni jalb etish uchun ishlatadi.

Bihar. Biharda xina qo'yish odatda Chhath Puja tabiat bilan uyg'unlik, o'z – o'zini poklash va ibodatning ramzi hisoblanadi.

Kerala va Tamil Nadu. Janubiy Hindistonda xina qo'yish unchalik keng tarqalgan emas, lekin musulmonlar va Shimoliy ta'sir ostida bo'lgan hududlarda u ishlatiladi. Tamil Nadu va Kerala musulmonlari uchun xina qo'yish to'y va marosimlarning muhim ajralmas qismidir.

Jammu va Kashmir. Bu mintaqalarda xina qo'yish qishda issiqlik va salomatlikni ta'minlash uchun qo'llaniladi. To'ylarda kelin va kuyovning qo'llari xina bilan bezatiladi, bu ularning baxtli hayoti ramzi sifatida qaraladi.

Hind ayollari odatda xina qo'yishni turli bayramlar, to'y marosimlari, diniy tadbirlar yoki maxsus voqealarda amalga oshiradilar. Biroq, ayrim holatlarda ular xina qo'yishmaydi:

Motam yoki qayg'uli holatlar: Hind madaniyatida motam vaqtida bezaklar va bayramona narsalardan, jumladan, xina ishlatishdan voz kechishadi. Bu hurmat va sadoqatni ifodalashdir.

Sog'liq bilan bog'liq muammolar: Agar ayol xina tarkibiga allergik bo'lsa yoki sog'lig'ini xavf ostiga qo'yadigan holatlar bo'lsa, xina qo'yishdan saqlanadi.

Ma'naviy poklik talablari: Ba'zi diniy yoki ma'naviy holatlarda tana ustiga bezak qo'yishdan voz kechish mumkin.

Shaxsiy qarashlar: Ayrim ayollar shaxsiy sabablarga ko'ra yoki xina qo'yishga qiziqmasligi sababli undan voz kechishi mumkin.

Maxsus vaziyatlar yo'qligi: Kundalik hayotda xina odatda qo'yilmaydi, chunki bu maxsus kunlar va bayramlarga mos tushadi.

Bu holatlar madaniy va diniy e'tiqodlar hamda shaxsiy afzalliklarga qarab o'zgarishi mumkin.

Xina hind tabobatida ko'p asrlik an'analarga ega bo'lgan sababli asosan Ajruna auriculata (hind xina) yoki boshqa xina o'simliklarining barglaridan olinadi. Hind tabobatida xina quyidagi maqsadlarda qo'llaniladi:

1. Terini sog'lomlashtirish:

Yallig'lanishga qarshi ta'sir: Xina barglaridan tayyorlangan xamir teridagi yaralar, kuygan joylar yoki infeksiyalarni davolashda ishlatiladi.

Sovutuvchi xususiyat: Xina sovutuvchi ta'sirga ega bo'lib, issiqlik urishi va teri kasalliklarini yengillashtirish uchun qo'llaniladi.

2. Sochni parvarishlash:

Tabiiy bo'yoq: Xina sochlarni bo'yashda ishlatiladi va ularga yorqin tus beradi.

Sochni mustahkamlash: Soch ildizlarini oziqlantirib, soch to'kilishini kamaytiradi hamda kepekdan xalos bo'lishga yordam beradi.

Teri kasalliklari: Soch terisidagi qo'ziqorin yoki infeksiyalarni davolash uchun ishlatiladi.

3. Tana haroratini tushirish:

Hind tabobatida xina issiqni tushiruvchi vosita sifatida ishlatiladi. Masalan, yuqori haroratli isitma paytida xina xamiri oyoq yoki kaftlarga surtib sovitish uchun qo'llanadi.

4. Og'riqni kamaytirish:

Bo'g'im og'riqlari va revmatizmida, xina barglaridan tayyorlangan xamirni og'riqli joylarga surish odatiy usuldir.

5. Infeksiyalarni oldini olish:

Antibakterial va antiseptik xususiyatlari tufayli jarohatlarni tozalashda va infeksiyalarni oldini olishda ishlatiladi.

6. Ruhiy tinchlanish:

Xina gullaridan tayyorlangan efir moylari aromaterapiyada stressni kamaytirish va uyquni yaxshilash uchun qo'llaniladi.

Hind tabobatida xina tabiiy va xavfsiz vosita sifatida ko'riladi, ammo haddan tashqari yoki noto'g'ri foydalanish nojo'ya ta'sirlarga olib kelishi mumkin.

Xina kosmetikada ham asosan tabiiy bo'yoq va parvarish vositasi sifatida qo'llaniladi. Quyida uning qo'llanilish yo'llari keltirilgan:

1. Sochni bo'yash

Tabiiy bo'yoq: Xina sochlarni bo'yashda keng qo'llaniladi. U sochga qizg'ish-to'q rang berib, ajoyib ko'rinish hosil qiladi.

Sochni mustahkamlash: Xina soch follikulalarini mustahkamlaydi va soch o'sishini rag'batlantiradi.

Foydalanish: Xina kukuni suv yoki choy bilan aralashtirilib, sochlarga surtib, bir necha soat qoldiriladi.

2. Tirnoq bo'yash

Tirnoqlarni tabiiy bo'yash: Xina tirnoqlarni rang berish uchun ishlatiladi. Bu usul tirnoqlarni mustahkamlashga ham yordam beradi.

3. Teri parvarishi va bezagi

Tatuirovka (mehndi): Xina terini bezashda (masalan, qo'l va oyoqlarda mehndi naqshlari yaratishda) ishlatiladi.

Tabiiy antiseptik: Xina teri muammolarini davolashda ham yordam beradi (masalan, toshmalar yoki yallig'lanishlarni kamaytiradi).

4. Kosmetik niqoblarda

Yuz niqobi: Xina terining yog' balansini tartibga soladi, husnbuzarlarni kamaytiradi va terini tinchlantiradi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, hind jamiyatida xina faqat bezak emas, balki baxt, farovonlik va himoya ramzi hamdir. U asosan to'y va diniy marosimlarda qo'llanilib, an'analar va san'at uyg'unligini aks ettiradi.

FOYDANALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Qadimgi Hindiston madaniyati xrestomatiyasi 1992-y "FAN" nashriyoti, Toshkent
2. Qadimgi Hindiston madaniyati xrestomatiyasi 1992-y "FAN" nashriyoti, Toshkent
3. https://www.khadinatural.com.ru/blogs/blog/hna-istoriya-geografiya-botanika?srsId=AfmBOopYhbC6VN1BSJWlHcIRiyzI2AXOxc8_vrXSPJJ-TjxyFlcq7lfX
4. https://barakat-shop.ru/blog/khna-v-islame/?srsId=AfmBOoodQSqAzKzcjmZAVq5z-VlQEwLXpsqizky0c0Kev_7fn75SScEu
5. <https://islam.plus/ru/semya/zdorovye-sport/hna-istoria-i-primenenie>
6. <https://mihenna.com/blogs/news/history-of-henna>

7. "Indian Body Decorations." Fashion, Costume, and Culture: Clothing, Headwear, Body Decorations, and Footwear through the Ages, edited by Sara Pendergast and Tom Pendergast, vol. 1: The Ancient World, UXL, 2004. Gale Virtual Reference Library, libdatabase. <https://www.newpaltz.edu.net>
8. t: <https://www.researchgate.net/publication/280102197>

2025-yil 11-aprel kuni Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
Janubiy Osiyo tillari va adabiyoti oliy maktabi iqtidorli
talabalarining ***“Janubiy va Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari: Til,
adabiyot va tarjima masalalari”*** mavzusidagi ilmiy-amaliy
anjumanidan fotosuratlar



















